

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**YURIDIK FAKUL'TETI  
“DAVLAT HUQUQI VA BOSHQARUVI” kafedrasи**

**PhD. N.Bannayev**

**“KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH VA KOPLEANS  
NAZORAT”**

**O'QUV QO'LLANMA**

**Namangan 2023 y**

## **SO'Z BOSHI**

Mustaqil taraqqiyotimizning o'tgan davrida amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz, ularni haqqoniy baholash va islohotlar dasturiga ma'lum o'zgartishlar kiritish bilan birga, birinchi navbatda ertangi kun talablaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish yo'lidagi izchil harakatlarimizni kuchaytirishimiz, ularni yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarishimiz darkor. Bunda esa korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurash pirovard maqsadlarimizdan biri sifatida ko'rildi.

Shu ma'noda, 1992-yil dekabr oyida qabul qilingan, mamlakati-mizning demokratik taraqqiyotini ta'minlash va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy printsiplarini belgilab bergen Konstitutsiyamizning qoida va normalariga tayanish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi ishlarimiz keyingi yillar davomida yanada faollashib, ko'lami va miqyosi tobora kengayib bormoqda. 2023-yilda olib borilayapkan konstitutsiya reformasidan ko'zlangan maqsad ham demokratiyani yuksaltirish, erkin fuqarolik jamiyatini yaratishda qonun ustuvorligini ta'minlashdir.

Mustaqillik yillarida bosib o'tgan yo'limiz va to'plagan tajribamizni xolisona baholash, qo'lga kiritgan yuksak marralarimizni tahlil etish mamlakatimizni tadrijiy va bosqichma-bosqich rivojlantirish bo'yicha biz tanlagan modelning naqadar to'g'ri ekanini va shu yo'ldan bundan buyon ham og'ishmay qat'iyat bilan borishimiz zarurligini yaqqol ko'rsatmoqda. Albatta, o'tgan 32 yil mobaynida taraqqiyotga bolta uradigan korrupsiya atalmish jinoyat tufayli ayrim kamchiliklarga ham yo'l qo'yildi. Amma, unga qarshi kurash masalasiga jiddiy e'tibor berib ko'plab normativ huquqiy hujjatlar qabul qilinyapti. 2017-yil 3-yanvardagi O'RQ 419-sonli "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun ham Yangi O'zbekistonni barqaror rivojlantirishda to'siq bo'ladigan korruption holatlarni oldini olish va unga qarshi kurashishga asos bo'lib hizmat qiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Korrupsiyaga qarshi konvensiya"si, "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-

York, 2003 yil 31 oktabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni, "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida" 14.05.2014 yildagi O'RQ-372-son, «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.03.2016 yildagi "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 62-sonli qarori kabi korrupsiyaga qarshi kurashishga oid normativ huquqiy hujjatlar asosida bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.12.2021 yildagi PQ-34-sonli "O'zbekiston respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori bilan Korrupsiyaga Qarshi Kurash Agentligi faoliyat yuritib kelmoqda.

O'zbekistonda sud – huquq islohotlarini amalga oshirish natijasida barcha sohalar kabi ta'lim tizimlarida ham tubdan o'zgarishlar ro'y berdi. Provardida "Ta'lim to'g'risda"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturlari" qabul qilish orqali ta'limning izchilligi va uzviyligini ta'minlandi.

Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo'nalishlaridan biri bu - qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir. Bir so'z bilan aytganda, yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa bo'lib qolmoqda.

Aynan shuning uchun ham biz mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab islohotlarning mazkur yo'nalishiga alohida e'tibor qaratganimiz beziz emas. Ana shunday yondashuv tufayli bu boradagi ishlarning ko'lami, miqyosi va

samaradorligi keyingi o'n yillikda nihoyatda kengayib, yangi bosqichga ko'tarilganini ko'p-ko'p misollarda ko'rish mumkin.

Avvalo, sud hokimiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlab borish, sudning mustaqilligini ta'minlash, uni sobiq tuzumda bo'lgani kabi qatag'on quroli va jazolash idorasi sifatidagi organ emas, balki inson va fuqaro huquq va erkinliklarini ishonchli himoya va muhofaza etishga xizmat qiladigan tom ma'nodagi mustaqil davlat institutiga aylantirishga qaratilgan keng ko'lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 7-fevraldag'i 2017-2021-yillarga mo'ljallangan PF4947-sonli O'zbekistonni rivojlantirishdagi beshta ustuvor yo'naliш bo'lgan "Harakatlar strategiyasi", 2022-yil 28-yanvardagi PF60-sonli 2022-2026-yillarga bag'ishlangan yetti ustivor yo'naliшni belgilab yuzdan ortiq maqsadni ilgari surilayapkan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" ham adolatli jamiyat qurishdagi asos bo'lib hizmat qilib kelmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda davlatlarning BMT, Yevropa Ittifoqi, Yevropa Kengashi, Afrika ittifoqi, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OESR), MDH, doirasida bir qator harakatlar amalga oshirilganini ta'kidlash lozim. Zamonaviy xalqaro huquqda korrupsiyaga qarshi hamkorlik instituti shakllandi. Bu institutning normalari korrupsiya sub'ektlarining harakatlari, huquqiy yordam va hamkorlik choralar, yurisdiksiya masalalarini o'z ichiga oladi.

Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi xalqaro-huquqiy normalarni samarali bajarishning muhim omili xalqaro normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, ichki davlat mexanizmlarini tashkil qilish hisoblanadi. Ko'pgina davlatlar xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash normalarini o'z milliy huquqiy tizimlarida aks ettirganlar.

Jumladan, mamlakatimizda ham yurtboshimizning g'oyalari va bevosita tashabbuslari orqali istiqlolning ilk kunlaridayoq, «korrupsiya - jamiyat xavfsizligi va barqarorligiga to'gridan-to'g'ri tahdid», deb e'tirof etilib, unga qarshi kurash masalasi davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'naliши darajasiga

ko'tarilgan. Bizning davlatimizda korrupsiyaga qarshi tizimli, muntazam va uzluksiz kurash olib borilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurash kompleans nazorat masalasiga umum davlat miqyosida vazifa sifatida qarab, uning oldini olish va davlat apparatini korruptionerlardan tozalash bo'yicha izchil va muntazam ishlar olib borilmoqda.

Lekin shunga qaramasdan korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi xalqaro-huquqiy normalarni samarali bajarish, xalqaro normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, davlatimiz ichki mexanizmlarini takomillashtirish masalalari O'zbekiston Respublikasi uchun ham dolzarb hisoblanadi va kompleks o'rghanishni talab etadi.

Korrupsiya qonun ustuvorligiga, demokratiya va inson huquqlariga, samarali davlat boshqaruviga tahdid soladi, tenglik va ijtimoiyadolat prinsipini buzadi, demokratik institutlar faoliyatini va jamiyatning ahloqiy normalarini izdan chiqaradi. Korrupsiya bora-bora transmilliy korrupsiyaga aylanadi va dunyo hamjamiyatiga katta xavf tug'diradi.

"Korrupsiyaga qarshi kurash kompleans nazorat" maxsus kursi hozirgi islohotlar davri yanada rivojlanishiga doir izlanishlarni chuqurlashtirish jarayoni kun tartibiga qo'yan vazifalaridan kelib chiqib milliy davlatchiligidan va korrupsiyaga qarshi kurashishdagi jahon tajribasi asosida huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyatni qurish va uning istiqbollari to'g'risida bilimlar beradi. Shuningdek, bu maxsus kursini o'qitish jarayonida rivojlangan mamlakatlarda qonunchilik tajribasini ham o'rGANILADI, ular mamlakatdagi islohotlar natijasida o'zgarishlari qiyoslanadi.

Mazkur fanni o'qitishda asosiy e'tibor talabalarning erkin fikrlashi, ularning jamiyatda ro'y berayotgan sud-huquq islohotlariga nisbatan mustaqil o'z munosabatlarini shakllantirishga qaratildi. Maxsus kursning yana bir asosiy maqsadlaridan biri – bu yoshlarda vatanparvarlik his-tuyg'ularini yuksaltirish, ularning mamlakatga sadoqatini oshirish, yangi jamiyat qurishga befarq bo'lmaydigan inson sifatida tarbiyalash vazifalarni amalga oshirishdir.

"Korrupsiyaga qarshi kurash kompleans nazorat" maxsus kursi "Huquqshunoslik", "Fuqarolik huquqi", "Jinoyat huquqi", "Xalqaro huquq", "Ma'muriy huquq", "Oila

huquqi”, “Xalqaro xususiy huquq”, “Siyosiy fanlar” va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan uzviy o’zaro aloqadorlikda o’rganadi.

**O’quv qo’llanmani maqsadi** – o’quvchilar ongida korrupsiyani davlat va jamiyat taraqqiyotiga jiddiy to’siq bo’ladigan salbiy illat sifatida baholash, uning kelib chiqish sabablari va unga imkon yaratadigan omillar, unga qarshi kurashishning huquqiy va ijtimoiy asoslari, korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonunchilik va javobgarlikning vujudga kelish asoslari va oqibatlari haqida tushuncha hosil qilishdan iborat.

**O’quv qo’llanmani asosiy vazifasi** – korrupsiyaning ijtimoiy va huquqiy tushunchasi, uning kelib chiqish sabablari va oqibatlari, bu boradagi qonunchilik va javobgarlik masalalari haqida umumiyl tushunchalarni o’rgatish, o’quvchilar ongida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy va ijtimoiy jihatlari to’g’risida tushuncha hosil qilish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida bilim, ko’nikma va malakani shakllantirishdir.

## **1-Mavzu: Korrupsiya tushunchasi va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining rivojlanishi.**

### **Reja:**

1. Korrupsiya tushunchasi: xalqaro standart va milliy qonun hujjatlari tahlili.
2. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining rivojlanishi: horijiy va milliy tajriba.

**Tayanch so’z va iboralar:** korrupsiya, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik, manfaatlar to‘qnashuvi, ochiqlik va shaffoflik;tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi, javobgarlikning muqarrarligi;

**Korrupsiya tushunchasi: xalqaro standart va milliy qonun hujjatlari tahlili.** Korrupsiya mavzusi dolzarb ekanligiga hech kim shubha qilmaydi. Bu haqida barcha doiralarda: ommaviy axborot vositalarida, anjumanlarda, majlislarda va o’zaro suhbatlarda ham alohida urg’u berib gapirilmoqda. Korrupsiya masalasi nafaqat xalqaro huquq fani doirasida, balki jinoyat huquqi, kriminologiya, siyosatshunoslik kabi fanlar tizimida ham o’rganilishi uning ko’p qirrali, dolzarb muammo ekanligini ko’rsatadi.

Korrupsiya – mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog’liq bo’lgan ijtimoiy-huquqiy hodisa. Aksariyat hollarda korrupsiya deganda davlat amaldorlari tomonidan shaxsiy manfaatlarni ko’zlab, boylik orttirish maqsadida fuqarolardan pora olish, qonunga xilof pul daromadlarini qo’lga kiritish tushuniladi.

Etimologik jihatdan “korrupsiya” – lotincha “corruptio”, ya’ni “buzish, sotib olish, pora evaziga og’dirish” degan ma’noni anglatadi. Yuridik ensiklopediyada ta’kidlanishicha, “korrupsiya – mansabdor shaxslar o’zlariga berilgan huquqlar va hokimiyat vakolatlaridan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat”.

“Yuridik atamalar qomusiy lug’ati”da korrupsiya – “Davlat funksiyalarini bajarish vakolatiga ega bo’lgan shaxslarning g’ayriqonuniy tarzda moddiy va boshqa boyliklar, imtiyozlarni olishda o’z maqomi va u bilan bog’liq imkoniyatlardan foydalanishi” deyilgan.

Nazariyotchi olimlar, siyosatchilar va amaliyotchilar o’rtasida korrupsiya tushunchasi to’g’risida turli-tuman fikr va mulohazalar mavjud bo’lib, ko’pchilik uni kengroq ma’noda ifodalashga harakat qiladi. Ba’zi olimlar pora evaziga sotilishning o’zini korrupsiya desa, ba’zilar korrupsiya bu keng ko’rinishdagi jinoiy uyushma deb ta’riflaydi. Nazariy talqin etganda korrupsiya – davlat funksiyasini bajarish topshirilgan xizmatchilarning o’z xizmat mavqeい va egallab turgan mansabi hamda u bilan bog’liq bo’lgan obro’sidan shaxsiy boylik orttirish maqsadida yoki bir guruh shaxslarning manfaatlari yo’lida g’araz maqsadlarda foydalanishdan iborat bo’lgan hokimiyatga putur yetkazishda ifodalangan jamiyat uchun xavfli hodisadir.

Korrupsiya tarixi insoniyat tarixi kabi ko’hnadir. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel shunday degan edi: Har qanday davlat tuzumida eng muhimi – bu qonunlar va tartib-qoidalar vositasida ishni shunday tashkil etishki, mansabdor shaxslar qing’ir yo’l bilan boylik orttira olmasin|. Pora olish va berish Qadimgi Rimda amal qilgan 12 jadval qonunlarida tilga olingan. Ibtidoiy va ilk sinfiy jamiyatlarda kohinga, qabila oqsoqoliga yoki harbiy boshliqqa muayyan imtiyozni qo’lga kiritish uchun haq to’lash tabiiy bir hol sifatida qaralgan. Davlat apparatining murakkablashuvi va professionallashuviga qarab vaziyat o‘zgarib borgan. Oliy martabali amaldorlar quyi turuvchi-xizmatchilar| faqat tayinlangan maosh bilan qanoatlanishlarini talab qilganlar. Quyi daraja amaldorlar esa, aksincha, o’z xizmat vazifalarini bajarganlik uchun arzgo‘ylardan yashirinchha qo’shimcha haq olishni (yoki talab qilishni) ma’qul ko’rganlar.

Korrupsiya haqidagi eng qadimgi qaydlardan biriga qadimgi Bobilning mixxatda yozilgan bitiklarida duch kelingan. Miloddan avvalgi uchinchi ming yillikning o’rtalariga taalluqli bo’lgan matnlarda aytishicha, shumer podshosi Urukagin o’sha zamonlardayoq qonunga xilof haq olishga ruju qo’yan sudyalar

va amaldorlarning qonunbuzarliklariga chek qo'yish muammosini yechish yo'llarini izlagan.

Shunga o'xshash masalalarga qadimgi Misr hukmdorlari ham duch kelgan. Arxeologik tadqiqotlar jarayonida topilgan hujjatlar miloddan avvalgi 597-538 yillarda, yahudiylar Bobil podshosi tomonidan asirga olinganidan keyingi davrda, Ierusalimda korrupsiya ayniqsa avj olganidan dalolat beradi.

Professional davlat amaldorlari hali mavjud bo'limgan antik jamiyatlar tarixining ilk bosqichlarida (qadimgi yunon shahar-davlatlari, respublika Rimi) korrupsiya deyarli bo'limgan. Bu hodisa antik davr tanazzulga yuz tutgan bosqichdagina vujudga kelgan. Bu davrda korrupsiya domiga ilingan davlat amaldorlari haqida: —U boy viloyatga kambag'al bo'lib kelib, kambag'al viloyatdan boy bo'lib ketdi, deyishgan. Ayni shu davrda rim huquqida "corrumpire" degan maxsus atama paydo bo'lgan, u —buzish, —pora evaziga og'dirish iboralarining sinonimi hisoblangan va mansab mavqeini suiiste'mol qilishning har qanday ko'rinishlarini ifodalashga xizmat qilgan.

Markaziy hukumat hokimiyati zaif bo'lgan joylarda (masalan, ilk o'rta asr davrida Yevropada) xizmat mavqeidan aholidan o'z cho'ntagiga haq undirish uchun foydalanish aksariyat hollarda umum e'tirof etilgan me'yorga aylangan.

Davlat markazlashgani sari u fuqarolarning mustaqilligini qattiqroq cheklagan va shu tariqa quyi va oliy bo'g'in amaldorlariga qattiq nazoratdan qutulishni istagan fuqarolar foydasiga qonunni xufyona buzishga turki bergen. Korrupsiya domiga ilingan amaldorlarni boshqalarga dars bo'lsin uchun olomon ko'z o'ngida jazolashlar odatda hech qanday samara bermagan, chunki amaldan chetlatilganlar (lavozimidan olinganlar yoki qatl etilganlar) o'rnini yangi poraxo'rlar egallagan. Markaziy hokimiyat amaldorlar faoliyati ustidan yalpi nazorat o'rnatish uchun odatda zarur kuch va vositalarga ega bo'limgani bois, u korrupsiyaning o'ta xavfli ko'rinishlarinigina jazolash bilan kifoyalangan.

O'rta asrlarda O'zbekiston hududida joylashgan davlatlarda qabul qilingan odat huquqi me'yorlari asosan zamirida islom madaniyati prinsiplari yotuvchi qonunchilik an'analari bilan belgilangan. Xususan, Amir Temur davlatida

amaldorlar ishini tartibga solish maqsadida vaqtı-vaqtı bilan so‘roq, tekshirish, taftish, tergov o‘tkazib turilgan. O‘z amalini suiiste’mol qilish, poraxo‘rlik, doimiy ravishda ichkilik ichish, maishiy buzuqlik kabi qilmishlar og‘ir gunoh hisoblangan va qattiq jazolangan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Amir Temurning o‘g‘li Mironshoh, nevaralari Pirmuhammad va Halil Sultonlar yuqorida zikr etilgan me’yorlarni buzganlik uchun xalq oldida jazoga tortilganlar.

O‘sha davrda O‘zbekiston hududidagi feodal jamiyatlarda hozirgi talqindagi korrupsiya uchun javobgarlik nazarda tutilmagan. Shunga qaramay, O‘zbekiston Rossiya tomonidan istilo qilingan davrgacha korrupsiya qonuniylashtirilgan institusional shakllarda namoyon bo‘lgan, xususan hukmron davralarning vakillariga u yoki bu tarzda haq berish feodal majburiyat xususiyatini kasb etgan. Masalan, oddiy dehqonlardan xonlar, sultonlar, biylar va zodagonlarning boshqa vakillari foydasiga muntazam ravishda —ushur|| solig‘i – hosilning o‘ndan bir qismi undirilgan. Chorvadorlar —zakot|| solig‘i to‘laganlar – bu soliq miqdori u yoki bu turdagи chorva molining muayyan boshiga teng bo‘lgan. Bundan tashqari, zodagonlarning vakillariga va oqsoqollariga har xil turdagи sovg‘a-salomlar berilishi lozim bo‘lgan.

Mamlakatimizda demokratik qadriyatlar qaror topib borayotgan, globallashuv jarayonlari avj olib borayotgan bir vaqtda korrupsiya atalmish dahshatli illatning bir davlat emas, balki butun bir mintaqa yoki jahon taraqqiyotiga tahdid solayotganligi xavotirli. Ta’kidlash lozimki, korrupsiya demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlarining qo‘pol ravishda buzilishiga olib keladi, iqtisodiyotni izdan chiqaradi, jamiyat va davlat uchun o‘ta xavfli bo‘lgan uyushgan jinoyatchilik va terrorizmning keng yoyilishiga sharoit yaratib beradi.

Bugungi kunda jahon hamjamiyati shunga amin bo‘lmoqdaki, korrupsiya illati, odam savdosi, terrorizm, giyohvandlik vositalari savdosi, qurol- yarog‘ savdosi kabi xalqaro jinoyatlar bilan bevosita bog‘liq. Umuman olganda, korrupsiya ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlayotgan bo‘lsa, boshqa tomondan

qaraganda huquqni himoya qilish organlarining faoliyatiga jiddiy putur yetkazadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish, uni bartaraf etish ko‘p hollarda unga sabab bo‘luvchi omillarni, holatlarni va shart-sharoitlarni aniqlashdan va ularni bartaraf etishdan, shuningdek unga qarshi kompleks kurashishdan iborat bo‘ladi.

Korrupsiyaga yo‘l ochadigan omillar sirasiga hokimiyat organlari tizimining murakkabligi, buyruqbozlik taomillarining ko‘pligi, davlat hokimiyati organlari apparatining faoliyati ustidan tashqi va ichki nazo-ratning yo‘qligi kabi holatlarni kiritish mumkin. Tashkiliy tushunmov chiliklarni fuqarolarning korrupsion xulq- atvorini rag‘batlantirishdan farqlash ba’zan juda qiyin kechadi. Taqiqlar, ruxsat berish tartiblari sonining haddan tashqari ko‘pligi, davlat hokimiyati organlari faoliyatiga jalb qilingan fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish mexanizmining yo‘qligi ham korrupsiyaga yo‘l ochadi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardan boshlab, sobiq totalitar tuzumdan meros bo‘lib o‘tgan illat – korrupsiyaga qarshi keskin va murosasiz kurashib kelmoqda. Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida mustahkam huquqiy asos yaratilgan. Xususan, 1997-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasida korrupsiya mamlakatning milliy xavfsizligiga tahdidlardan biri, deya e’tirof etildi. “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi”da ham korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari belgilangan. Mamlakatimiz 2008-yil 7-iyulda BMTning “Korrupsiyaga qarshi” Konvensiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31-oktabr) qo‘sildi. Davlatimiz 2010-yil mart oyida Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashishning Istanbul rejasiga (2003-yil 10-sentabr) qo‘silgan. Shuningdek, Oliy Majlis tomonidan Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha Yevroosiyo guruhi to‘g‘risidagi bitimi (Moskva, 2011-yil 16-iyun) 2011-yil 13-dekabrdan ratifikatsiya qilingan. O‘zbekiston mintaqamizda birinchilardan bo‘lib “Jinoiy faoliyatdan

olingen daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qildi.

Ushbu tadbirlarning mantiqiy davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017-yil 3-yanvar kuni imzolangan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun muhim ahamiyat kasb etadi. Hujjatda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari sifatida qonuniylik; fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi; ochiqlik, shaffoflik va tizimlilik; davlat va fuqarolik jamiyatining o‘zaro hamkorligi; korrupsiyadan ogohlantirish va javobgarlikning muqarrarligi bo‘yicha choralar ustuvorligi keltirib o‘tilgan. Shu bilan birgalikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari belgilangan bo‘lib, bu organlarga O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi; O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati; O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi; O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti kabi davlat organlari kiradi.

Mustaqilik yillarida O‘zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida jinoyatchilikning soni keskin ko‘paygan edi. Bu tabiiy hol, chunki muayyan bir tuzumdan yangi davlatchilik shakliga o’tishda bunday salbiy holatlar ko‘payadi. Biroq, jinoyatlarning sonini kamaytirish borasida amalga oshirilgan keskin choralar natijasida hozirda jinoiy qilmishlarning kamayishiga erishildi. Bunday jinoyatlardan biri bu bevosita korrupsiya jinoyatidir. Ushbu jinoyatga qarshi kurashish muammosi nafaqat muayyan bir davlat balki davlatlararo va xalqaro hamjamiyat miqyosida ham ulkan xavf tug’dirmoqda. Sababi, dunyo mamlakatlarining aksariyati hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti siyosatini yoqlab chiqishmoqda.

Davlat apparati tizimida, mansabdorlik vakolatlari doirasida, uning boshqaruva tizimidagi yo’nalishlarida mansab vakolati suiste’molchiliklari, poraxo’rlik,

xo'jalik va soliq tizimidagi jinoyatchiliklar, ularning uyushgan jinoyatchilik ko'rinishlarining ijtimoiy xavfliligi o'ta xavfli ko'rinishlarni vujudga keltirishi mumkin. Ayniqsa, ularning uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma shakllaridagi ko'rinishlari davlat boshqaruvini o'ta ayanchli ahvolga olib kelishi, uni buzilishi va yemirilishi kabi oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkinligi bilan yanada xavfli bo'lishi mumkin. Bunday jinoyatchilikning korrupsiya darajasida sodir etilishi eng xavfli tus olishdan dalolat beradi. «Korrupsiya, ... eng avvalo uyushgan jinoiy tuzilmalarga madadkor bo'lish yoki to'g'ridan-to'g'ri yordam berish uchun davlat xizmatining imkoniyatlaridan foydalanadi», - deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 06.07.2021-yildagi 6257-sonli farmoni orqali korupsiyaga qarshi kurashish yanada kuchaytirildi. "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonga ko'ra mamlakatimizda korrupsiyani oldini olish va unga qarshi murosasiz kurashishning ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan tizimini joriy etish bo'yicha izchil choralar ko'rilmoxqda.

Jumladan, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkorlik va shaffoflikni ta'minlash hamda mansabdor shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligini yo'lga qo'yish orqali davlat boshqaruvida samarali va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratildi.

Ilk bor korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va tizimli tahlil qilish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish uchun mas'ul bo'lgan alohida organ — Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Davlat hokimiyati organlari va yirik xo'jalik yurituvchi subyektlarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda.

Raqamlı texnologiyalar imkoniyatidan keng foydalangan holda transport vositalariga davlat raqam belgilarini berish, notariat va boshqa davlat xizmatlarini ko'rsatish, yer uchastkalarini ajratish, yo'l harakati qoidalariga rioya etilishini

nazorat qilish kabi ko‘plab sohalarda korrupsiya va suiiste’molchiliklarning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlar joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, ko‘rilayotgan tizimli choralarga qaramasdan, budjet mablag‘laridan foydalanish, davlat xaridlari, kapital qurilish, litsenziya va ruxsatnomalarni olish, bank kreditlarini ajratish, ishga qabul qilish kabi yo‘nalishlarda korrupsiya holatlari saqlanib qolmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaviy holatlarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini oshirish, ushbu jarayonga jamoatchilikni keng jalg etish va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini shakllantirish maqsadida ushbu farmon bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirish ilgari surildi.

O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.01.2017-yildagi O‘RQ-419-sonli qonuni hamda uni 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ 683-sonli qonuni tahririda ham biz korrupsiyaga qarshi kurashda zamon talablariga mos va O‘zbekiston tan olgan xalqaro hujjatlarga mutanosib norma va ko‘rsatmalar ta’kidlab o’tildi.

Yuridik atamalar qomusiy lug‘atilda korrupsiya tushunchasiga —davlat funksiyalarini bajarish vakolatiga ega bo‘lgan (yoki ularga tenglashtirilgan) shaxslarning noqonuniy tarzda moddiy va boshqa boyliklar, imtiyozlarni olishda o‘z maqomi va u bilan bog‘liq imkoniyatlardan foydalanishi, shuningdek, bu boylik va imtiyozlarni jismoniy yoki yuridik shaxslar qonunga xilof ravishda egallahiga imkon berishi, deb ta’rif berilgan.

BMTning xalqaro miqyosda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha ma’lumotida shunday deyilgan: “Korrupsiya – bu shaxsiy maqsadlarda naf ko‘rish uchun davlat hokimiyatini suiiste’mol qilish”.

Korrupsiya tushunchasiga berilgan shunga o‘xshash ta’rifga Jahon bankining hozirgi dunyoda davlatning roliga bag‘ishlangan hisobotida ham duch kelish mumkin: korrupsiya – bu —shaxsiy naf ko‘rish yo‘lida davlat hokimiyatini suiiste’mol qilish.

BMTning korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi hujjatlari :

- 1) “Huquqiy tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdar shaxslarning xulq-atvor Kodeksi” (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1979-yil 17-dekabrda qabul qilingan);
- 2) Huquqiy tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdar shaxslarning xulq-atvor Kodeksini samarali amalga oshirilishi uchun rahbariy prinsiplar (BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi rezolyusiyasi bilan 1989 yil 24 mayda qabul qilingan);
- 3) Davlat mansabdar shaxslarining Xalqaro xulq-atvor kodeksi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1996-yil 12-dekabrda qabul qilingan);
- 4) BMTning Xalqaro tijorat operatsiyalarida korrupsiya va poraxo‘rlikka qarshi kurash to‘g‘risidagi Deklaratsiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1996-yil 16-dekabrda tasdiqlangan);
- 5) Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1999 yil 9 dekabrda qabul qilingan);
- 6) BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan);
- 7) BMT Forumining ofshorlar bo‘yicha Kommyunikesi (Kayman orollari, 2000-yil 30-31-mart);
- 8) BMT Bosh kotibining korrupsiyaga oid ma’ruzasi (Vena, 2001-yil 8-17-may);
- 9) Korrupsiyaga qarshi kurash choralari. Pulni tozalashga qarshi kurash choralari. Jinoyatchilik va odil sudlov: XXI asr chorloviqa javoblar to‘g‘risidagi Vena deklaratsiyasini amalga oshirish harakat Rejası (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2002-yil 15-aprelda qabul qilingan)
- 10) BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2003-yil 31-oktyabrdan qabul qilingan).

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi doirasida korrupsiyaga qarshi kurash borasida qabul qilingan hujjatlar :

1) Jinojatchilikka qarshi kurashda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga ishtirokchi- davlatlarning hamkorligi to‘g‘risidagi Kelishuvi (Moskva, 1998-yil 25-noyabr);

2)“Korrupsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslari to‘g‘risida”gi Namunaviy qonuni (MDH Parlamenlararo assambleyasining XXII plenar yig‘ilishida qabul qilingan 2003-yil 15-noyabr);

3)“Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Namunaviy qonuni (MDH Parlamenlararo assambleyasining XIII plenar yig‘ilishida qabul qilingan 1999-yil 3-aprel);

4)“G‘ayriqonuniy yo‘ldan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshilik qilish to‘g‘risida”gi Namunaviy qonuni (MDH Parlamenlararo assambleyasining XII plenar yig‘ilishida qabul qilingan 1998-yil 8-dekabr);

5)“Uyushgan jinojatchilikka qarshi kurash to‘g‘risida”gi tavsiyaviy qonunchilik akti (MDH Parlamenlararo assambleyasining qarori bilan qabul qilingan 1996-yil 2-noyabr).

6) Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha Yevroсиyo guruhi to‘g‘risidagi Bitim (Moskva, 2011-yil 16-iyun)

Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi eng asosiy xalqaro hujjat bu - shubhasiz, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi mazkur xalqaro hujjatni ratifikatsiya qilgan: O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan —BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga O‘zbekiston Respublikasining qo‘silishi to‘g‘risida”gi Qonuni 2008-yil 24-iyunda qabul qilindi va 2008-yil-27 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senati tomonidan ma’qullandi va 2008-yil 28-avgustdan e’tiboran kuchga kirdi .

BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi muqaddima hamda 8 ta bob, 71 ta moddadan iborat bo‘lib, 1-bobda (1-4) umumiy qoidalar, 2-bobda (5-14) korrupsiyaning oldini olish choralar, 3-bobda (15-42) jinojatchilik va huqujni muhofaza qilish faoliyati, 4-bobda (43-50) xalqaro hamkorlik, 5-bobda (51-59)

aktivlarni qaytarish bo'yicha choralar, 6-bobda (60-62) texnik yordam va ma'lumot almashinushi, 7-bobda (63-64) amalga oshirish mexanizmlari, 8-bobda yakuniy qoidalar aks etgan.

O'zbekiston Respublikasi mazkur konvensiyaga bir nechta bildirishlar, bayonotlar va shartlar bilan qo'shilgan.

Jumladan, Qonunning 1-bandiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konvensiya 6- moddasining 3-bandi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va Adliya vazirligi korrupsiyaning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab-chiqish va ularni amalga oshirishda boshqa Ishtirokchi – davlatlarga yordam ko'rsatishi mumkin bo'lgan organlar sifatida belgilanganligi bildirilgan.

Bu qoida Konvensiyaning 6-moddasi 3-bandidagi har bir ishtirokchi Davlat BMTning Bosh kotibiga korrupsiyaning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda boshqa ishtirokchi Davlatlarga yordam berishi mumkin bo'lgan organ yoki organlarning nomi va manzilini xabar qiladi, degan talablariga to'la javob beradi.

Qonunning 2-bandiga ko'ra, Konvensiya 42-moddasining 1 va 3-bandlari bo'yicha 15-19, 21, 22- moddalarda, 23-moddaning 1-bandida, 24, 25, 27-moddalarda nazarda tutilgan qilmishlar milliy qonunchilikka muvofiq jinoiy jazolanadigan qilmish ekanligi va ularga nisbatan O'zbekiston Respublikasining yurisdiksiyasi tatbiq etilishligi bayon etilgan.

Ushbu xatti-harakatlar O'zbekiston jinoyat qonunchiligi bo'yicha ham jinoiy qilmish sifatida baholanadi va amaldagi jinoyat qonunida bunday qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

BMTning Rivojlanish Dasturi nazariy tahliliga ko'ra korrupsiyani vujudga kelishida quyidagi omillar katta rol o'ynaydi. Jumladan, vakolat va hokimiyat, o'zboshimchalik va shaxsiy manfaat, hisobdorsizlik va oshkorasizlik. Shunday ekan, korrupsiya – bu keng ma'noda davlat xizmatchisi yoki mansabdor shaxsning o'ziga davlat yoki jamiyat tomonidan belgilangan vakolatni suiste'mol qilib, undan

shaxsiy maqsadlarda foydalanishidir. Ushbu holatni korrupsiya borasida yetakchi nazariyotchi olim Robert Klitgard formula shaklida quyidagicha tasvirlaydi:

**Korrupsiya = (Vakolat + O'zboshimchalik) – (Hisobdorlik + Oshkoraliq).**

Har qanday jinoyatchilik ma'lum bir sabab va shart-sharoitlar ta'sirida vujudga keladi. Korrupsiya va uni vujudga keltiruvchi sabablar o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud. Bundan xulosa shuki, birinchidan, korrupsiyani faqat uni vujudga keltiruvchi sabablar va shart-sharoitlarni yechish yo'li bilan kamaytirish va cheklash mumkin; ikkinchidan, bu muammolarni yechishga korrupsiyaga qarshi barcha yo'nalishlarda qat'iy va murosasiz kurash olib borishga ko'maklashadi.

Ilmiy adabiyotlarda quyidagi sabablar korrupsiyani vujudga keltiruvchi umumiylab qatoriga kiradi.

1. Demokratik an'analar chuqur anglanilmaganligi.
2. Fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi kurashishga yetarli darajada jalb qilinmagan.
3. Hokimiyat institutlari tizimining nuqsonlari mavjudligi.
4. Qonunchilik texnikasi yetarli darajada metodik ta'minlanmaganligi va asosiy holatlari hayotga to'g'ri tadbiq qilinmaganligi.

Korrupsiyani belgilovchi maxsus omillar qatoriga aksariyat mutaxassislar ayrim faoliyat sohalari huquqiy jihatdan lozim darajada tartibga solinmaganini va amaldagi qonun hujjatlarida mavjud kamchiliklarni kiritadilar.

Lekin bular ichida normativ-huquqiy bazaning nuqsonlari korrupsiyani vujudga keltiruvchi eng muhim omillardandir. Uning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

Huquq kolliziyalari;

Qaytarilishlar;

Protsessual mexanizmlarning noaniqligi va samarasizligi;

**Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining rivojlanishi: horijiy va milliy tajriba.** Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev xalqimiz azaldan yuksak qadrlab keladigan, hamma narsadan ustun qo'yadigan adolat tuyg'usini hayotimizda

yanada keng qaror toptirish birinchi darajali vazifa ekaniga alohida e'tibor qaratmoqda. Prezidentimiz "Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbazarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo'l qo'ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to'g'risidagi qonun talablarini amalda ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'rishimiz zarur", deb alohida ta'kidladi.

Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 24-noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2016-yil 13-dekabrda ma'qullangan, prezident tomonidan 2017-yil 3-yanvarda imzolangan va 2017-yil 4-yanvardan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni bu boradagi muhim qadam bo'ldi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan mazkur qonun korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishda muhim huquqiy asos yaratdi. Bu davlat organlari, tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institatlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning namoyon bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali jamiyatda korrupsiyaning barcha shakllariga nisbatan murosasiz munosabat qaror topadi. 34 moddadan iborat qonunda, avvalo, korrupsiya bilan bog'liq tushunchalar berilgan. Korrupsiya shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdir.

Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosatining asosiy prinsiplari va yo'nalishlari mustahkamlangan. Unga ko'ra, qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va oshkorlik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi, qorrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi, javobgarlikning muqarrarligi korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplaridir.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy

yo‘nalishlari sirasiga aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish kiradi. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlash ham shular jumlasidandir. Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashuvchi vakolatli organlar tizimi keltirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlari, Adliya vazirliklari, Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlar va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini bevosita amalga oshiruvchi davlat organlaridir. Qonunga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni qonun hujjatlariga asosan boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi. Qonunda ko‘rsatib o‘tilgan organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish doirasida amalga oshiradigan ishlari aniqlashtirildi. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi o‘z vakolatlari doirasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tezkor-qidiruv faoliyatini, surishtiruvni, dastlabki tergovni, shuningdek, huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi. Korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha dastlabki tergovni amalga oshiradi.

Qonundan kelib chiqib korrupsiyaga qarshi kurashishga mas’ul bo‘lgan davlat organlari va ularning tizimlarida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid faoliyat yanada takomillashadi. Ushbu yo‘nalishdagi ishlar samaradorligini oshirish maqsadida qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo komissiyalarni tashkil etish nazarda tutilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi korrupsiyaga qarshi kurashish

bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirib boradi. Bunday komissiyani shakllantirish va uning faoliyati tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuziladi.

Idoralararo komissiya sohaga oid faoliyatni muvofiqlashtirish bilan birga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishi hamda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etadi. Qonundagi e’tiborli jihatlardan yana biri, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning ishtirok etishi mexanizmlari belgilanganidir. Zero, bu institutlar jamiyatda jamoat nazorati qaror topishida, adolat muvozanati ta’milanishida o‘ziga xos o‘rin tutib kelmoqda. Ularning jamiyat rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi korrupsiya illatiga qarshi kurashishda ishtirok etishi shu yo‘nalishdagi faoliyat samaradorligi oshishiga xizmat qiladi.

Korrupsianing oldini olishga doir chora-tadbirlarda davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish, ma’muriy tartib-taomillar, davlat xaridlarini amalga oshirish sohalarida korrupsianing oldini olish, normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi kabi masalalar qamrab olingan.

Qayd etib o‘tish kerakki, qonun iqtisodiyotimizda muhim o‘rin tutayotgan tadbirkorlik sub’ektlarining huquq va manfaatlari muhofazasini yanada kuchaytirdi. Bu borada ma’muriy va byurokratik to‘sislarni bartaraf etish, ro‘yxatga olish, ruxsat etish va lisenziyaga doir tartib-taomillar soddallashtiriladi va ularning tezkorligi oshiriladi. Davlat organlarining nazorat-tekshiruv vazifalari yanada maqbullashtiriladi. Tadbirkorlik sub’ektlarining faoliyatini tekshirish tizimi takomillashtirilib, ularning faoliyatiga qonunga xi洛f ravishda aralashishga yo‘l qo‘ymaslik choralar ko‘riladi. Bu choralar mamlakatimizda qulay biznes muhitida

mustahkamlanishi, tadbirkorlikka bo‘lgan qiziqish yanada kuchayishiga keng yo‘l ochadi. Korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni aniqlash, ularga chek qo‘yish, javobgarlikning muqarrarligini ta’minlashga oid me’yorlar belgilangani qonunning muhim jihatlaridan. Qonunga muvofiq korrupsiyaga oid huquqbazarliklarga qarshi kurashishning zamonaviy shakllari va uslublaridan foydalaniladi. Jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga oid huquqbazarliklar faktlariga doir murojaatlari to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqiladi. Korrupsiyaga oid huquqbazarliklar to‘g‘risida axborot bergen shaxslarning himoya qilinishi ta’minlanadi.

Qonunning 26-moddasiga muvofiq davlat organlari xodimlari ularni korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etishga ko‘ndirish maqsadida biror-bir shaxs o‘zlariga murojaat etganligiga oid barcha hollar to‘g‘risida, shuningdek, davlat organlarining boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan shunga o‘xshash huquqbazarliklarning o‘zlariga ma’lum bo‘lib qolgan har qanday faktlari haqida o‘z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor etishi shart. Ushbu majburiyatning davlat organlari xodimlari tomonidan bajarilmasligi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi. Korrupsiyaga oid huquqbazarlik sodir etgan shaxslar sudning qaroriga ko‘ra muayyan huquqlardan, shu jumladan, muayyan lavozimlarni egallash huquqidan mahrum etilishi mumkin. Yuridik shaxslar ham korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, yangi qonun nafaqat korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmi mustahkamlanishi, balki har bir rahbar, har bir fuqaroning o‘ziga yuklatilgan vazifani sidqidildan, halol ado etishini talab etadi. Bu mamlakatimizda sog‘lom muhit qaror topishiga, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olishda faqatgina davlat organlarining chora-tadbirlari yetarli bo‘lmay, bu yo‘nalishda fuqarolik institutlarining o‘zaro mustahkam hamkorligi talab etiladi va samara beradi.

Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini

himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o‘z salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial- iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratadi, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta’minlashga ko‘maklashadi.

Islohotlarning dastlabki bosqichlarida duch kelingan turli qiyinchiliklar, mansabdar shaxslar hamda davlat xizmatchilari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining sustligi ijtimoiy hayot shakli va davlat faoliyatining ko‘pgina sohalarida korruption faoliyatni ehtimoliy tahdidga aylantirdi. Mansabdar shaxslar va boshqa davlat xizmatchilari tomonidan sodir etilgan korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar jamoatchi-likda, fuqarolarda hokimiyatga, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ishonchsizlik, ulardan qo‘rquv va hamkorlik qilishni xohlamaslik hissini vujudga keltiradi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov quyidagicha fikr bildirganlar: “Men shu o‘rinda ilgari ham aytgan bir fikrimni takrorlamoqchiman. Shuni unutmaylikki, biz davlatning nazorat funksiyalarini qancha kuchaytirsak, nazorat bilan shug‘ullanuvchi davlat tuzilmalari va organlarini qancha ko‘paytirsak, amaldorlarning zo‘ravonligi va korrupsiya shuncha avj olaveradi. Shuning uchun biz jamoatchilik nazoratini, davlat faoliyati, shu jumladan, uning kuch ishlatuvchi tuzilmalari faoliyati ustidan ham jamiyat nazoratini har tomonlama kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz lozim”.

Jamoatchilik nazorati davlat organlari faoliyatining qonuniyligini ta’minlash, davlat organlari va ularning mansabdar shaxslari tomonidan shaxslarning xuquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlovchi qonun xujjalriga rioya etmaslik holatlarini aniqlashga qaratilgan jamoatchilik nazorati sub’ektlari tomonidan qonun doirasida olib boriladigan nazoratga oid chora-tadbirlar majmuidir.

Shuningdek, yana bir keng tarqalgan ko‘rinishlaridan biri – bu davlatning mansabdarlar tomonidan o‘z lavozimini suiiste’mol qilinishiga qarshi kurashishni bevosita amalga oshiruvchi organlari bilan jamoatchilik nazorati sub’ektlarining o‘zaro hamkorligi bo‘lib, mazkur amaliyot keyingi yillarda korrupsianing oldini

olishda eng samarali mexanizmlardan biriga aylandi. Chunki, davlat organlari yoki huquqni muhofaza qiluvchi, nazorat qiluvchi organlar har doim ham to‘rachilik, korrupsiya kabi illatlarga barham berish, ya’ni ularni muntazam nazorat qilish yoki kuzatib borish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi, ular odatda oldindan tuzilgan rejalar va tanlov asosidagi tekshiruvlar, shaxslarning murojaatlari kabilar orqali yoki huquqbazarlik alomatlari sezilgandagina habardor bo‘lishadi, jamoatchilik esa, aynan mansabdar shaxslar bilan har kuni, har soatda to‘qnash keladi.

Fuqarorlik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi kurarshdagi ahamiyati borasida to‘xtalsak. “Fuqarolik jamiyati” tushunchasiga olimlarning ta’rifi turlicha. Biroq, sodda qilib aytganda, fuqarolik jamiyati – bu, avvalo, mamlakat taraqqiyoti, unda yashaydigan xalqning muammolariga befarq bo‘lмаган shaxslar jamoasi tushuniladi. Bu insonlarni turli qatlam, sohalarda bo‘ladigan muammolar qiziqtiradi, bu siyosat bo‘ladimi, ta’lim bo‘ladimi yoki ekologiya sohasi bo‘ladimi va h.k. Mana shunday jamiyat taraqqiyotiga to‘siq bo‘ladigan muammolardan biri bu – korrupsiya. Fuqarolik jamiyati muammolarga e’tibor qaratar ekan, demak korrupsiya muammosini ham chetlab o‘ta olmaydi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir fuqaroning ichki axloqiy-ruhiy maslagi va e’tiqodiga aylanishi kerakki, bu korrupsiyaga qarshi ma’rifat-ning o‘zagini tashkil qiladi. Qonun talablarining to‘laqonli amalga oshirilishi mamlakatimiz aholisining turmush farovonligini oshirishga, rivojlanish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunda ham huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalasi alohida o‘rinni egallaydi. Unda yoshi va kasbidan qat’iy nazar barchaning huquqiy savodxonligi yuqori bo‘lishi, ayniqsa, maktablarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta’lim va tarbiya belgilangan davlat ta’lim standartlariga muvofiq amalga oshirilishi lozimligi ko‘rsatilgan.

Mazkur Qonunning 14-moddasida fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi huquqiy norma bilan mustahkamligining o‘zi

ham bu boradagi davlat siyosatining ustuvor yo‘na-lishi ekanligidan dalolat beradi. Mazkur moddani o‘qir ekanmiz, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolar korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi hamda mazkur sohada davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkinligi ta’kidlangan.

Umuman, jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyatni institutlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan davlat hokimiyati organlariga muayyan qarorlarni qabul qilish bo‘yicha murojaat etish, davlat hokimiyati organlari vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha so‘rovlarni amalga oshirish, davlat hokimiyati organlari va mahallalar hududlaridagi korxona va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitish kabi shakllarda yo‘lga qo‘yilgani o‘z samarasini bermoqda. Qolaversa, bugungi kunda davlat Dasturlari talablarining fuqarolar yig‘ini hududidagi ijrosini ta’minlashda jamoatchilik guruhlarini tuzish va o‘rganish, natijalari bo‘yicha tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlari hisobotlarini eshitish va shu orqali aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rish, shuningdek, mahalliy davlat organlari faoliyatiga ko‘maklashish tadbirlari samarali olib borilmoqda. Bu esa, jamoatchilik nazoratining jamiyatda ijtimoiy adolatning qaror topishi, shaxs, jamiyat va davlat aloqalarida muvozanat, tenglik, o‘zaro mas’uliyat va javobgarlikka xizmat qiluvchi asosiy omil ekanidan dalolatdir.

Umuman olganda, jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyatni institutlari tomonidan davlat hokimiyati organlariga muayyan qarorlarni qabul qilish bo‘yicha murojaat etish, davlat hokimiyati organlari vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha so‘rovlarni amalga oshirish, davlat hokimiyati organlari va mahallalar hududlaridagi korxona va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitish kabi shakllarda yo‘lga qo‘yilgani o‘z samarasini bermoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik institutlariga keng vakolatlar berilayotgan bo‘lsada, bu borada hali oldimizda hal qilinmagan muammolar ham yo‘q emas. Ular sirasiga:

- fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan davlat boshqaruva organlari faoliyati ustidan nazoratning o'rnatilmaganligi;
- fuqarolik jamiyati institutlari, OAV bilan davlat boshqaruva organlarining o'zaro hamkorlik tizimining ishlab chiqilmaganligi;
- davlat boshqaruva organlarida korrupsiya darajasi va uning oqibatida kelib chiqayotgan muammolarning kundan-kunga ortib borayotganligi;
- korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bilan shug'ullanuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni tashkil etish, muvofiqlashtirish va amalga oshirish sohasidagi muammolarning mavjudligi;
- fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruva faoliyatida ishtirokinining sustligi, ta'sir choralarining kuchsizligi, aralashuvining yo'qligi;
- korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoat nazoratini o'rnatish bo'yicha huquqiy asoslarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;
- fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining samarasizligi – "xo'jako'rsinga" tuzilganligi;
- antikorrupsion fuqarolik jamiyati institutining yo'qligi;
- fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatining hamon pastligicha qolayotganligi;
- OAVning rolini kuchaytirish masalasi, ya'ni "jurnalist surishtiruvi", "jurnalist tergovi"ning yetarli rivojlanmaganligi shular jumlasidandir.

Shunga ko'ra, davlat hokimiyyati organlari faoliyati ustidan kuchli jamoatchilik nazoratini amalga oshirish fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim shartlaridan hisoblanadi. ZOTAN, fuqarolarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga befarq bo'lmasligi hamda har bir davlat xizmatchisining o'z faoliyatini jamoatchilik nazorati ostida ekanligini chuqur his etib borishi fuqarolik jamiyatini mustahkamlashning muhim shartidir.

Bu esa, o'z navbatida jamoatchilik nazoratining jamiyatda ijtimoiy adolatning qaror topishi, shaxs, jamiyat va davlat aloqalarida muvozanat, tenglik, o'zaro mas'uliyat va javobgarlikka xizmat qiluvchi asosiy omil ekanidan dalolatdir.

Korrupsiyaning yana bir asosiy omili ijtimoiy sabablar yoki jamiyatdagi muhit bo‘lib bunga aholining huquqiy bilim va madaniyati, ma’naviyati past darajadaligi, uyushqoqligi yetishmasligi va jamoatchilikning faol emasligi kabi omillar sabab bo‘ladi.

Aholining huquqiy savodxonligi pastligi – qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik mansabdar shaxsga o‘zining shaxsiy manfaati yo‘lida qonunlardan foydalanishga qulay sharoit yaratadi. Darhaqiqat, korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta’lim va tarbiya masalalari “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning 16, 17, 18-modda-larida o‘z ifodasini topgan. Chunki, huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksak bo‘lgan va huquqiy ta’lim va tarbiya jihatdan yetuk bo‘lgan insonlar salbiy illat bo‘lmish korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaydilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldag‘i “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Mazkur Qaror asosida joriy yil 2-fevralda 2017–2018-yillarga mo‘ljallangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Davlat dasturi tasdiqlandi. Shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tuzildi.

Davlat dasturida jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish Milliy dasturini ishlab chiqish belgilangan bo‘lib, u orqali mamlakatda huquqiy ta’lim va ma’rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar tashviqotini tubdan yaxshilash ko‘zda tutilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa sifatida aytish mumkinki, faqatgina jinoiy qonunchilikni og‘irlashtirish yo‘li bilan bu salbiy illatga qarshi kurashib bo‘lmasligini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda.

Bu illatga qarshi turishda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ko‘rish, shu jumladan huquqiy tarbiya va ta’limni, ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etish, o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar va boshqa targ‘ibot vositalaridan faol foydalanish lozim bo‘ladi.

O‘ylaymizki, bunday ma’naviy buzilish holatiga qarshi kurashishda nafaqat davlat organlari, balki jamiyat va umuman barcha fuqarolarimiz mas’uldirlar. Shunday ekan, davlat va jamiyat, shu bilan birga nodavlat notijorat tashkilotlari bunday illatni oldini olish va unga qarshi kurashishda bирgalikdagи harakatigina samarali natijalarga erishishning eng maqbul yo‘li bo‘lib hisoblanadi. Zero, fuqarolarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga befarq bo‘lmasligi hamda har bir davlat xizmatchisining o‘z faoliyatini jamoatchilik nazorati ostida ekanligini chuqur his etib borishi fuqarolik jamiyatini mustahkamlashning muhim shartidir.

### **Nazorat savollari:**

1. Korrupsiya o‘zi nima?
2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari qaysilar?
3. Idoralararo komissiya qanday vakolatlarni bajaradi?
4. Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonunning mazmun mohiyati?
5. Korrupsiya so’zi qaysi tildan olingan va qanday ma’nolarni anglatadi?

### **Nazorat uchun testlar:**

1. Korrupsiya so’zi qaysi tildan olingan?

- A) lotin
- B) fransuz
- V) grekcha
- G) ingiliz tili

2. Qo'qon va Xiva xonliklari hamda Buxoro Amirliklari Rossiya Imperiyasi tomonidan bosib olinishiga sabab nima edi?

- A) Loqaydlik, tekinxo'rlik
- B) Poraho'rlik, lavozimini suiste'mol qilish
- V) Zo'ravonlik, manmanlik
- G) Poraxo'rlik, tekinxo'rlik

3. Korrupsiya so'zining ma'nosi?

- A) "Buzish, Sotib olish"
- B) "Qayta tiklash"
- V) "Sotish, sotib olish"
- G) "Buzish, qayta tiklas"

4. Korrupsiya bilan bog'liq kodekslar bu?

- A) "Fuqarolik", "Ekalogiya" "Oila"
- B) "Jinoyat", "Fuqarolik", "Mamuriy javobgarlik"
- V) "Qishloq xo'jaligi", "Jinoyat"
- G) "Qishloq xo'jaligi", "Ekalogiya"

5. Korroziya so'zining manosi?

- A) "chirish zanglash"
- B) "buzish tiklash"
- V) "sotib olish buzish"
- G) "zanglash tiklash"

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **Rahbariy adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishslash davr talabidir. -T.: O'zbekiston, 1997. 250 bet.

2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997. 95, 298 bet.
3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard
4. Mirziyoev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.-488 b.
5. Mirziyoev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. - T.: "O'zbekiston", 2017. - 592 b.
6. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: O'zbekiston, 2017. - 512 b.
7. Mirziyoev Sh. M. "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" 3-jild. - T.: "O'zbekiston", 2019. - 400 b.
8. Mirziyoev Sh. M. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari". 4-jild. - T.: "O'zbekiston", 2020. - 452 b.
9. Mirziyoev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - T.: O'zbekiston, 2021. - 464 b.

### **Normativ-huquqiy hujjatlar**

1. Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida qonun. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-son
2. Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida qonun. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 07.02.2017 йилдаги ПФ-4947-сон
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
5. Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurash Konvensiyasi. Korrupsiyaga qarshi kurash muammolari: milliy va xalqaro tajriba. Xalqaro ilmiy-amaliy seminar materiallari. –T.: CHASHMA PRINT, 2010. B. 299.

6. Korrupsiyaga qarshi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasi (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) // O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari to'plami, 2008 yil, 3-4-son, 19-20-modda.
7. BMTning Xalqaro savdo operatsiyalarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash to'g'risidagi Deklaratsiyasi. Сборник международных договоров и законодательства Республики Узбекистан в сфере борьбы с коррупцией. –Т.: Центр повышения квалификации юристов, 2013. С.139.
8. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi "Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 yil, 20-son, 221-modda.
9. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi qonuni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 yil, 20-son, 222-modda.
10. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 3 dekabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 yil, 49-son, 578-modda.

### **Darsliklar, o'quv qo'llanmalar va qo'shimcha adabiyotlar**

1. Abu Nasir Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Т.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993.
2. Зуфаров Р.А. Тенденция гуманизации уголовного законо-дательства Республики Узбекистан. O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini liberallashtirishning asosiy yo'nalishlari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2007 yil 12 dekabr). –Т.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2007. –S. 22-29.
3. Abdurasulova Q., Qurbonov O. Korrupsiya: asosiy tushuncha va shakllari (risola). – Т.: Falsafa va huquq instituti, 2009.

4. Зуфаров Р.А. Международно-правовые проблемы борьбы с коррупцией. //O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslari Axborotnomasi. 2010. №1, -C.29-332. 25. Проблемы борьбы с коррупцией: национальный и международный опыт. Материалы международного научно-практического семинара 20-21 октября 2009 года. –Т.: ЧАШМА ПРИНТ, 2010.
5. Temur tuzuklari. –Т.: O'zbekiston, 2011
6. Zokirov I.B. boshqalar. Fuqarolik huquqi (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Maxsus qism. – Т.: ILM ZIYO, 2011.
7. Axrorov B.J. Rustamboev M.H. Jinoyat huquqi (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Maxsus qism. – Т.: ILM ZIYO, 2012 y.
8. Xojiyev E.T. Ma'muriy huquq (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – Т.: ILM ZIYO. 2012 y.
9. Matkarimova G. Yuldasheva G. Hozigi zamon xalqaro huquqi (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – Т.: O'qituvchi, 2012.
10. Karimova O. Huquqshunoslik. (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Qayta ishlangan va to'ldirilgan nashr.– Т.: SHarq, 2014.
11. Zufarov R.A. Poraxo'rlik uchun jinoiy javobgarlik. – Т.: TDYuI, 2004. – B. 83-84.
12. S.SHomirzaev. Korrupsiya: xorijiy mamlakatlar davlat va huquq tarixida unga qarshi kurashish masalalari// Huquq va burch. 2014. 7-son. 5.62-64.
13. Meliyev X. Milliy qonunchilik – korrupsiyaga qarshi// Huquq va burch. 2015. 4-son. 5.12-14.

### **Internet manbalari**

<b>1. <a href="http://www.press-service.uz">www.press-service.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati
<b>2. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Hukumati portalı
<b>3. <a href="http://www.senat.uz">www.senat.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini Senati

<b>4. <a href="http://www.parliament.gov.uz">www.parliament.gov.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi
<b>5. <a href="http://www.supcourt.uz">www.supcourt.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi
<b>6. <a href="http://www.genprok.gov.uz">www.genprok.gov.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi
<b>7. <a href="http://www.minjust.uz">www.minjust.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
<b>8. <a href="http://www.mvd.uz">www.mvd.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
<b>9. <a href="http://www.customs.uz">www.customs.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi
<b>10. <a href="http://www.ombudsman.gov.uz">www.ombudsman.gov.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)
<b>11. <a href="http://www.src.c.uz">www.src.c.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Sud qonunchiliginin demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazi
<b>12. <a href="http://www.tsul.uz">www.tsul.uz</a></b>	Toshkent davlat yuridik universiteti
<b>13. <a href="http://www.vuk.uz">www.vuk.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasining Oliy o'quv kurslari
<b>14. <a href="http://www.uzmarkaz.uz">www.uzmarkaz.uz</a></b>	Yuristlar malakasini oshirish markazi
<b>15. <a href="http://www.huquqburch.uz">www.huquqburch.uz</a></b>	"Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali
<b>16. <a href="http://www.insonvaqonun.uz">www.insonvaqonun.uz</a></b>	"Inson va qonun" huquqiy gazetasi
<b>17. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
<b>18. <a href="http://www.metod.uz">www.metod.uz</a></b>	O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini Axborot-metodik ta'minlash xizmati
<b>19. <a href="http://www.natlib.uz">www.natlib.uz</a></b>	A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
<b>20. <a href="http://www.manaviyat.uz">www.manaviyat.uz</a></b>	Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi
<b>21. <a href="http://www.mgm.uz">www.mgm.uz</a></b>	Miliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi
<b>22. <a href="http://www.ziyo-net.uz">www.ziyo-net.uz</a></b>	Axborot ta'lim tarmog'i

## **2-mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro huquqiy asoslar va BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining mazmun va mohiyati.**

### **Reja:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro huquqiy asoslarning tavsifi (BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiyasi, BMTning “Davlat mansabdor shaxslarning xarakatlarining Xalqaro Kodeksi”, OYESR tavsiyalari va boshq.).
2. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi mazmuni, tuzilishi, korrupsiyaning oldini olish choralar, amalga oshirish mexanizmlari, ushbu sohadagi xalqaro hamkorlik masalalari.

**Tayanch so’z va iboralar:** Xalqaro huquq, xalqaro huquqiy asos, transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, BMT konvensiyasi, BMT Xalqaro kodeksi, OYESR

**Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro huquqiy asoslarning tavsifi (BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiyasi, BMTning “Davlat mansabdor shaxslarning xarakatlarining Xalqaro Kodeksi”, OYESR tavsiyalari va boshq.).** 1979 yil 17 dekabrdan qabul qilingan Huquqiy tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdorshaxslarning xulq-atvor kodeksida: “Korrupsiya tushunchasi milliy huquqda belgilanishilozim”, deb qayd etilgan, lekin mazkur hodisaning namunaviy ta’rifi keltirilgan: “...mansabdor shaxs o‘z mansab vakolatlari sohasida har qanday shakldagi haq evaziga mazkurhaqni beruvchining manfaatlarida, lavozim yo‘riqnomasi qoidalarini buzgan holda yokibuzmasdan muayyan harakatlarni bajarishi yoki harakatsizligi”.

BMTning xalqaro miqyosda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha Ma’lumotida shunday deyilgan: “Korrupsiya – bu shaxsiy maqsadlarda naf ko‘rish uchun davlat hokimiyatini suiiste’mol qilish”.

Korrupsiya tushunchasiga berilgan shunga o‘xshash ta’rifga Jahon bankining hozirgi dunyoda davlatning roliga bag‘ishlangan hisobotida ham duch kelish mumkin: korrupsiya – bu “shaxsiy naf ko‘rish yo‘lida davlat hokimiyatini suiiste’mol qilish”.

BMTning korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi hujjatlari :

1) “Huquqiy tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdar shaxslarning xulq-atvor Kodeksi” (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1979 yil 17 dekabrda qabul qilingan);

2) Huquqiy tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdar shaxslarning xulq-atvor Kodeksini samarali amalga oshirilishi uchun rahbariy prinsiplar (BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi rezolyusiyasi bilan 1989 yil 24 mayda qabul qilingan);

3) Davlat mansabdar shaxslarining Xalqaro xulq-atvor kodeksi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1996 yil 12 dekabrda qabul qilingan);

4) BMTning Xalqaro tijorat operatsiyalarida korrupsiya va poraxo‘rlikka qarshi kurash to‘g‘risidagi Deklaratsiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1996 yil 16 dekabrda tasdiqlangan);

5) Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1999 yil 9 dekabrda qabul qilingan);

6) BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2000 yil 15 noyabrda qabul qilingan);

7) BMT Forumining ofshorlar bo‘yicha Kommyunikesi (Kayman orollari, 2000 yil 30-31 mart);

8) BMT Bosh kotibining korrupsiyaga oid ma’ruzasi (Vena, 2001 yil 8-17 may);

9) Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘plami (2001 yil iyun);

10) Korrupsiyaga qarshi kurash choralari. Pulni tozalashga qarshi kurash choralari. Jinoyatchilik va odil sudlov: XXI asr chorloviqa javoblar to‘g‘risidagi Vena deklaratsiyasini amalga oshirish harakat Rejası (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2002 yil 15 aprelda qabul qilingan)

11) BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2003 yil 31 oktyabrda qabul qilingan).

Evropa Kengashi va Evropa Ittifoqining korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi hujjatlari :

1) Evropa Kengashining korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1999 yil 27 yanvar);

2) Evropa Kengashining korrupsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik to‘g‘risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1999 yil 9 sentyabr);

3) Evropa Kengashining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni tozalash, aniqlash, olib qo‘yish va musodara qilish to‘g‘risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1990 yil 8 noyabr);

4) Korrupsiyaga qarshi kurashning yigirmata prinsipi (Evropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 1997 yil 6 noyabr);

5) Davlat xizmatchilari uchun Model xulq-atvor kodeksi (Evropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2000 yil 11 may);

6) Siyosiy partiyalarni va saylov kampaniyasini moliyalashtirishda korrupsiyaga qarshi yagona qoidalar (Evropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2003 yil 8 aprel);

7) Moliyaviy tizimdan pulni tozalash maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risidagi EII Direktivasi (1991 yil 10 iyun);

8) Pulni tozalashga qarshi Parij deklaratsiyasi (Evropa Ittifoqining pulni tozalashga qarshi parlamentar konferensiyasining YAkuniy deklaratsiyasi 2002 yil 8 fevral).

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida korrupsiyaga qarshi kurash borasida qabul qilingan hujjatlar :

1) Jinoyatchilikka qarshi kurashda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga ishtirokchi-davlatlarning hamkorligi to'g'risidagi Kelishuvi (Moskva, 1998 yil 25 noyabr);

2) "Korrupsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslari to'g'risida"gi Namunaviy qonuni (MDH Parlamenlararo assambleyasining XXII plenar yig'ilishida qabul qilingan 2003 yil 15 noyabr);

3) "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi Namunaviy qonuni (MDH Parlamenlararo assambleyasining XIII plenar yig'ilishida qabul qilingan 1999 yil 3 aprel);

4) "G'ayriqonuniy yo'ldan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshilik qilish to'g'risida"gi Namunaviy qonuni (MDH Parlamenlararo assambleyasining XII plenar yig'ilishida qabul qilingan 1998 yil 8 dekabr);

5) "Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida"gi tavsiyaviy qonunchilik akti (MDH Parlamenlararo assambleyasining qarori bilan qabul qilingan 1996 yil 2 noyabr).

6) Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Evrosiyo guruhi to'g'risidagi Bitim (Moskva, 2011 yil 16 iyun)

FATF tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi hujjatlari :

- 1) FATFning qirqta tavsiyasi (2003 yil 20 iyun tahriri);
- 2) FATFning qirqta tavsiyasiga tushuntirish (2003 yil);
- 3) FATFning pulni tozalashga qarshi kurash bo'yicha xalqaro hamkorlikka to'siq bo'layotgan yigirma beshta asosiy mezoni (2003 yil);
- 4) Terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq operatsiyalarni aniqlash bo'yicha moliyaviy tashkilotlar uchun FATF tavsiyalari (2002 yil)
- 5) Ommaviy qirg'in qurollarni tarqalishini moliyalashtirish, terrorizmni moliyalashtirish, pullarni legallashtirishga oid xalqaro standartlar (2012)

Boshqa xalqaro tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi hujjatlari:

1) Ish yuzasidan xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishda chet ellik davlat mansabdor shaxsi tomonidan pora berishga qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiya (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESR) tomonidan qabul qilingan 1997 yil 21 noyabr);

2) Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risidagi Amerikaaro konvensiyasi (Karakas, 1996 yil 29 mart);

3) Adliya va xavfsizlik organlari xodimlariga nisbatan korrupsiyaga qarshi kurash va ularning vijdonli va pok bo‘lishini ta‘minlash choralari bo‘yicha umumiy tavsiyalar (Korrupsiyaga qarshi kurash masalalari bo‘yicha Global forum, Vashington, 1999 yil 24-26 fevral).

**BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi mazmuni, tuzilishi, korrupsiyaning oldini olish choralari, amalga oshirish mexanizmlari, ushbu sohadagi xalqaro hamkorlik masalalari.** Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi eng asosiy xalqaro hujjat bu - shubhasiz, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi mazkur xalqaro hujjatni ratifikatsiya qilgan: O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan “BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga O‘zbekiston Respublikasining qo‘silishi to‘g‘risida”gi Qonuni 2008 yil 24 iyunda qabul qilindi va 2008 yil 27 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senati tomonidan ma’qullandi va 2008 yil 28 avgustdan e’tiboran kuchga kirdi.

BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi muqaddima hamda 8 ta bob, 71 ta moddadan iborat bo‘lib, 1-bobda (1-4) umumiy qoidalar, 2-bobda (5-14) korrupsiyaning oldini olish choralari, 3-bobda (15-42) jinoyatchilik va huqujni muhofaza qilish faoliyati, 4-bobda (43-50) xalqaro hamkorlik, 5-bobda (51-59) aktivlarni qaytarish bo‘yicha choralar, 6-bobda (60-62) texnik yordam va ma’lumot almashinushi, 7-bobda (63-64) amalga oshirish mexanizmlari, 8-bobda (65-71) yakuniy qoidalar aks etgan.

O‘zbekiston Respublikasi mazkur konvensiyaga bir nechta bildirishlar, bayonotlar va shartlar bilan qo‘silgan. Jumladan, Qonunning 1-bandiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konvensiya 6-moddasining 3-bandi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va Adliya vazirligi korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab-chiqish va ularni amalga oshirishda boshqa Ishtirokchi – davlatlarga yordam ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan organlar sifatida belgilanganligi bildirilgan.

Bu qoida Konvensianing 6-moddasi 3-bandidagi har bir ishtirokchi Davlat BMTning Bosh kotibiga korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda boshqa ishtirokchi Davlatlarga yordam berishi mumkin bo‘lgan organ yoki organlarning nomi va manzilini xabar qiladi, degan talablariga to‘la javob beradi.

Qonunning 2-bandiga ko‘ra, Konvensiya 42-moddasining 1 va 3-bandlari bo‘yicha 15-19, 21, 22-moddalarda, 23-moddaning 1-bandida, 24, 25, 27-moddalarda nazarda tutilgan qilmishlar milliy qonunchilikka muvofiq jinoiy jazolanadigan qilmish ekanligi va ularga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining yurisdiksiyasi tatbiq etilishligi bayon etilgan.

Konvensianing 15-moddasi “Milliy ommaviy mansabdor shaxslarni pora evaziga og‘dirish”; 16-moddasi “Xorijiy ommaviy mansabdor shaxslarni va ommaviy xalqaro tashkilotlarning mansabdor shaxslarini pora evaziga og‘dirish”; 17-moddasi “Ommaviy mansabdor shaxs tomonidan mol-mulk talon-toroj qilinishi, noqonuniy o‘zlashtirilishi yoki ko‘zda tutilmagan maqsadlarda ishlatilishi”; 18-moddasi “G‘arazli maqsadlarda mavqeidan foydalanish”; 19-moddasi “Xizmat mavqeining suiiste’mol qilinishi”; 21-modda “Xususiy sektorda pora evaziga og‘dirish”; 22-moddasi “Xususiy sektorda mulkning talon-toroj qilinishi”; 23-moddasi 1-bandi “Jinoiy yo‘l bilan topilgan daromadlarni legallashtirish”; 24-moddasi “YAshirish”; 25-moddasi “Odil sudlovning amalga oshirilishiga to‘sinqlik qilish”; 27-moddasi “Ishtirok va suiqasd” deb nomlangan.

Ushbu xatti-harakatlar O‘zbekiston jinoyat qonunchiligi bo‘yicha ham jinoiy qilmish sifatida baholanadi va amaldagi jinoyat qonunida bunday qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Qonun mazmuniga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konvensianing “Noqonuniy tarzda boylik orttirilishi”ni jinoyat deb baholagan 20-moddasi va “Yuridik shaxslarning javobgarligi”ni nazarda tutuvchi 26-moddasiga qo‘shilmagan.

Qonunning 3-bandiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konvensiya 44-moddasi 6-bandining “a” kichik bandiga muvofiq, ushbu Konvensiyadan korrupsiya jinoyatlari sodir etgan shaxslarni tutib topshirish masalalarida ushbu Konvensianing boshqa Ishtirokchi-davlatlari bilan o‘zarolik asosida hamkorlik qilish uchun huquqiy asos sifatida foydalanishligini bildirgan.

Qonunning 4-bandiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konvensianing 46-moddasi 13-bandi bo‘yicha “O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi o‘zaro huquqiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi iltimoslarni olish va bajarish yoki bunday iltimoslarni bajarish uchun O‘zbekiston Respublikasining boshqa vakolati organlariga yuborishga javobgar bo‘lgan markaziy organ ekanligini, 14-bandi bo‘yicha “O‘zaro huquqiy yordam to‘g‘risidagi iltimoslarni yuborishda o‘zbek, rus va ingliz tillari maqbul tillar sifatida belgilanishligi bildirilgan.

Konvensianing 66-moddasi 2-bandi qoidalariga e’tibor beradigan bo‘lsak, O‘zbekistonning bu pozitsiyasi tegishli asosga ega ekanligiga amin bo‘lamiz. YA’ni, bu bandda ikki yoki undan ortiq ishtirokchi davlatlarning Konvensiyani sharlash yoki qo‘llash bilan bog‘liq har qanday kelishmovchiligi munozaralar olib borish yo‘li bilan, yoki arbitraj yo‘li bilan hal etilishi, kelishmovchiliklar bu yo‘sinda o‘z echimini topmagan taqdirda davlatlardan birining Xalqaro Sudga murojaat etishi orqali bir qarorga kelishi mumkinligi belgilangan.

Fikrimizcha, bir necha xalqaro hujjatlar zamirida yuzaga kelgan va uning standartlariga javob bera oladigan Konvensianing moddalari yuzasidan bunday kelishmovchiliklar yuzaga kelishi ehtimoldan uzoq va har bir mamlakat

Konvensiya talablarini unga qo'shilishi oldidan ko'p martalab o'rganib chiqqan va mazmun hamda talablaridan to'la xabardor bo'lgan bo'ladi.

O'zbekiston o'zini ushbu qoida bilan bog'liq emas deb hisoblashining ham huquqiy asosi mavjud. Sababi, Konvensiyaning aynan shu moddasi 3-bandida har qanday ishtirokchi davlat uning 2-bandini o'ziga taalluqli yoki aksinchaligi haqida bildirishni bayon etish huquqiga ega ekanligi huquqiy mustahkamlangan. Mansab mavqeini suiiste'mol qilish shakllari juda rang-barang bo'lgani bois, turli mezonlarga ko'ra korrupsiyaning har xil turlari farqlanadi.

Korrupsiyani bir nechta asosiy turlarga ajratish mumkin:

- 1) sub'ektlarning maqomiga ko'ra:
  - a) hokimiyat organlaridagi korrupsiya;
  - b) xususiy sektordagi korrupsiya;
  - v) siyosatdagi korrupsiya yoki siyosiy korrupsiya;
- 2) darajasiga ko'ra:
  - a) quyi darajadagi korrupsiya;
  - b) yuqori darajadagi korrupsiya;
  - v) vertikal korrupsiya;
- 3) ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra:
  - a) korrupsiya-qilmish;
  - b) korrupsiya-jinoyat.

Korrupsiyaning ko'rsatilgan turlarini mufassalroq ko'rib chiqamiz. Hokimiyat (ijroiya, vakillik va sud) organlaridagi korrupsiya hozirgi vaqtida jahoning deyarli barcha mamlakatlari, shu jumladan O'zbekistondagi muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bu turdagи korrupsiya jinoyatlarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularni o'zları qonunga rioya etishlari va uni muhofaza qilishlari lozim bo'lgan kishilar sodir etadilar. Aksariyat mamlakatlarda bu jinoyatlar keng tarqaganligi, davlat apparati xodimlari korrupsiya domiga ilinganligi mazkur mamlakatlarning qonunchilarini poraxo'rlik, mansab mavqeini suiiste'mol qilish va boshqa xavfli mansabdorlik jinoyatlariga qarshi qat'iy choralar ko'rishga va, aksincha, amaldorlarning uncha xavfli bo'limgan va ko'proq darajada tarqalgan

jinoyatlariga jiddiy e'tibor bermaslikka (masalan, uncha qimmat turmaydigan sovg'a olish jinoyat hisoblanmaydi) majbur qilayotir.

Nodavlat tashkilotlaridagi yoki xususiy sektordagi korrupsiya hozirgi vaqtida ancha keng tarqalgan. Tashkilot (tijorat yoki jamoat tashkiloti) rahbari uning ustavda belgilangan vazifalariga qat'iy rioya etishi lozim, lekin u, davlat amaldori kabi, o'ziga qarashli bo'lмагan resursslarni o'z shaxsiy manfaatlarida yoki ikkinchi tomon foydasiga tasarruf etishi, tashkilot manfaatlariga zid bo'lgan harakatlarni sodir etishi mumkin. Bunga kundalik hayotdan misollar: tijorat banklarida maqsadi pul olish va g'oyib bo'lishdan iborat bo'lgan loyihalarga pora evaziga kreditlar berilishi; turli mulk shakliga mansub bo'lgan korxonalarda davlat va korxona zarariga moddiy boyliklar (vino-aroq yoki neft-kimyo mahsulotlari va sh.k.)ni pora evaziga arzon narxlarda olish va h.k.

Ayrim tadqiqotchilar siyosiy korrupsiyani korrupsiya jinoyatlarining alohida turi sifatida ajratadilar.

Korrupsiyaning uchta asosiy shaklini ajratishni taklif qiladi:

1)siyosiy.Mansabdar shaxs yuzaga kelgan qarindosh-urug'chilik munosabatlari tufayliqonunga zid harkat qiladi;

2)jinoyatfaoliyati bilan bog'liq bo'lib, mansabdar shaxslarni sotib olishga asoslangan. Ular esa mukofot puli olish evaziga g'ayoriqonuniy xizmatlar ko'rsatadi;

3)taraflardan biri o'ziga eng qulay tartib vujudga keltirish uchun jinoyatga mansabdar shaxslarning tegishli toifalarini izchillik bilan jalb etishni nazarda tutadi.Korrupsiyaning bu shakli uyushgan jinoyatchilik bilan mustahkam bog'langan bo'lib,mansabdar shaxslarga nisbatan sotib olish, provakatsiya qilish va tahdid solishni anglatadi.

Siyosiy korrupsiyaning ayniqsa ko'p uchraydigan shakllari pora olish va pora berish hisoblanadi. Keyingi o'rinda saylov huquqini amalga oshirish chog'ida siyosat sub'ektlarini pora evaziga og'dirish turadi.

Faoliyat ko'rsatish darajalariga ko'ra quyi darajadagi, yuqori darajadagi va vertikal korrupsiya farqlanadi. Quyi darajadagi korrupsiya hokimiyat va

boshqaruv organlarining o‘rta va quyi darajalarida ayniqsa keng tarqalgan bo‘lib, amaldorlar va fuqarolarning muntazam o‘zaro aloqasi bilan bog‘liq (ro‘yxatdan o‘tkazish, jarimalar, litsenziyalash, turli ruxsatnomalar olish va sh.k.).

Yuqori darajadagi korrupsiya hokimiyat organlarida ishlaydigan siyosatchilar, oliv martabali amaldorlarni qamrab oladi va juda katta qimmatga ega bo‘lgan qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq (qonunlarni ilgari surish va qabul qilish, davlat buyurtmalari, mulk shakllarini o‘zgartirish va sh.k.). Aksariyat hollarda korrupsiya bitimidan manfaatdor bo‘lgan ikkala tomon ayni bir davlat hokimiysi organida ishlaydi. Masalan, quyi turuvchi davlat organining amaldori o‘zining yuqori turuvchi boshlig‘iga u pora beruvchining korruption harakatlariga homiylik qilishi yoki qo‘srimcha mablag‘lar, resurslar, vakolatlar berishi uchun pora beradi.

Korrupsianing pora olish va xizmat mavqeini suiiste’mol qilish kabi odatdagи shakllaridan tashqari, korrupsiya amalda namoyon bo‘lishining quyidagi shakllarini farqlash mumkin: mansabdor shaxslar, davlat xizmati xodimlari, deputatlar tijorat faoliyatida shaxsiy yoki korporativ naf ko‘rish uchun bevosita ishtirok etishi; davlat pul mablag‘larini o‘zlashtirish niyatida tijorat tuzilmalariga o‘tkazish uchun o‘z xizmat mavqeidan foydalanish; o‘z korporativ (siyosiy, diniy, milliy va sh.k.) guruhiga davlat resurslari hisobidan imtiyozlar berish; shaxsiy yoki korporativ naf ko‘rish maqsadida ommaviy axborot vositalariga tazyiq o‘tkazish uchun o‘z xizmat mavqeidan foydalanish; mansabdor shaxslar va davlat xizmati xodimlari shaxsiy boyish maqsadida tijorat tuzilmalarida soxta shaxslardan va qarindoshlaridan foydalanishi; shaxsiy yoki korporativ naf ko‘rish maqsadida axborotni manipulyasiya qilish (buzib ko‘rsatish, bermaslik, berish muddatlarini cho‘zish va sh.k.) uchun xizmat mavqeidan foydalanish; tor gruppaviy manfaatlarda normativ hujjatlar qabul qilish haqidagi qarorlarni ilgari surish; ayrim nomzodlarning saylov fondlariga davlat moliyaviy va moddiy resurslarini taqdim etish.

AQSHda korruptionsianing “kikbeking” degan shakli ancha keng tarqalgan. Uning sxemasi juda sodda: jinoiy til biriktirish ishtirokchilari muayyan narxlarda bitim tuzishga og‘zaki kelishadilar, rasmiy bitimni esa balandroq narxlarda

imzolaydilar. Tafovutning bir qismi bitimga ruxsat bergen mansabdor shaxslarga topshiriladi, ya’ni yashirin pora beriladi. Pora olishning mazkur shakli so‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham qo‘llanilmoqda.

Korrupsiya jinoyati nafaqat xufyona, balki korrupsiyaga doir munosabatlarga kirishgan tomonlarning o‘zaro kelishuviga binoan sodir etiladi. Aksariyat hollarda u tegishli hokimiyat organlariga shikoyat berilishiga sabab bo‘lmaydi, chunki g‘ayriqonuniy kelishuvdan ikkala tomon ham naf ko‘radi. Hatto pora so‘rash hollari ustidan ham kamdan-kam holda shikoyat qilinadi, chunki odamlar korrupsiyaga qarshi kurash jarayoniga ishonchszlik bilan qaraydilar. Buning uchun milliy va xorijiy tajriba bilan bog‘liq bo‘lgan muayyan ob’ektiv va sub’ektiv asoslar mavjud. Korrupsiya harakatlari odatda davlat faoliyatining mutaxassis bo‘limgan kishilar tushunishi ancha qiyin bo‘lgan o‘ziga xos turlarida sodir etiladi. Korrupsiya o‘ta moslashuvchan jinoyatdir. U vaziyatga qarab tinimsiz o‘zgaradi va takomillashib boradi. SHu bois bu hodisa haqida to‘liq, mukammal yoki hech bo‘lmasa reprezentativ ma’lumotlar mavjud emas.

BMT Rivojlanish Dasturining (“UN Development Program”) nazariy tahliliga ko‘ra korrupsiyani vujudga kelishida quyidagi omillar katta rol o‘ynaydi: vakolat yoki xokimiyatga, shaxsiy manfaat va o‘zboshimchalik, hisobdorsizlik va oshkorasizlik.

Jahon miqyosida quyidagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro-huquqiy hujatlarni alohida ta’kidlab o’tish lozimdir:

- a) BMTning “Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasi”;
- b) Yevropa Ittifoqining “Korrupsiya uchun jinoiy javobgorlik to’g’risidagi Konvensiyasi;
- v) Yevropa Ittifoqining “Korrupsiya uchun fuqaroviy javobgarlik to’g’risida”gi Konvensiyasi;
- g) Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi doirasida “Korrupsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslari to’g’risida”gi model qonuni;
- d) “Osiyo Taraqqiyot Banki va Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki Osiyo va Tinch okeani korrupsiyaga qarshi harakat dasturi”;

Umuman olganda, korrupsiyani vujudga keltiruvchi shart-sharoitlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'tish davridagi qiyinchilik;
- ijro etish tizimining yomonlashuvi;
- huquqiy nigelizm;
- jamiyatda insonlarning huquqiy madaniyati
- iqtisodiy aspektlar.

Dunyodagi mamlakatlarda korrupsiyaning mamlakat boshqaruvi, iqtisodiyoti va boshqa sohalariga ta'sirini xalqaro nodavlat-notijorat “Transparency International” - “Transperensi interneshnl” tadqiqotlariga asosan baholab kelinadi.

Shuningdek, “Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003 yil 31 oktyabr kungi Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasi (2003 yil 31 oktyabrdan qabul qilingan bo'lib, mazkur hujjat muqaddima hamda 8 ta bob, 71 ta moddadan iborat)ga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida”gi 2008 yil 07 iyul kungi O'RQ-158-sonli Qonuni qabul qilindi.

Qonunchilik tahlili korrupsiya bilan bog'liq qilmishlarga qarshi kurashish faoliyatining huquqiy asoslari ko'proq O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksida o'z ifodasini topgan. Buni quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining “Korruptsiya bilan bog'liq jinoyatlar”ni nazarda tutuvchi quyidagi moddalar:

1. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish (167-modda);
2. Soxta tadbirkorlik (179-modda);
3. Soxta bankrotlik (180-modda)%;
4. Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (182-modda);
5. Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tov lash (184-modda);
6. Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish (205-modda);
7. Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish (206-modda);
8. Mansab soxtakorligi (209-modda);

9. Pora olish (210-modda);
10. Pora berish (211-modda);
11. Pora olish-berishda vositachilik qilish (212-modda);
12. Tovlamachilik yo’li bilan haq - berishni talab qilish (214-modda);
13. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (243-modda);
14. Kontrabanda (246-modda) mavjud bo’lsada, xalqaro huquqda va amaldagi qonunchiligidan “Korrupsiya” tushunchasining o’ziga ta’rif berilmagan. Ushbu moddalar korrupsiyaning mohiyatini nafaqat to’laligicha ochib bera olmaydi, balki korruption harakatlarga yetarli darajada baho berishga imkon yaratmaydi.

Afsuski amaldagi jinoyat qonunchiligidan ko’pgina bugun mavjud bo’lgan korruption qilmishlar uchun javobgarlik belgilanmagan. Masalan, ma’lum bir siyosiy maqsadni amalga oshirish uchun yashirin mablag’lar yig’ish, biror bir yuqori lavozimga ishga o’tish uchun mablag’ yoki boshqa haq to’lashni amalga oshirish, tashkilotlarning aksiyalarini taqsimlashda yoki auksionlar o’tkazishda “tanish-bilishchilik” qilish, ma’lum haq evaziga soliq yoki bojxona to’lovlarida imtiyozlar yaratib berish, manfaatdor mansabdor shaxslar tomonidan o’z ta’sir doirasidagi turli xo’jalik yurituvchi subyektlarni himoyasi ostiga olish shular jumlasiga kiradi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan bugungi kundagi islohotlar esa erkin fuqarolik jamiyatini yaratish va inson huquqlarini to’la ta’minalash uchun keng ko’lamli huquqiy islohotlarni talab qiladi. Oxirgi yillarda esa mamlakatimiz rahbari PF-4947-sonli va PF-60sonli farmoni orqali buni yanada mustahkamladi. “Harakatlar strategiyasi” va “Taraqqiyot strategiyasi”larining ikkinchi ustuvor maqsadlarida ham o’z ifodasini topganini guvohi bo’lishimiz mumkin. Bu farmonlar ham qonunchilikda zamon talabiga mos qonun loyihibarini qabul qilishga, islohotlarni jadal ravishda amalga oshirishda asos bo’lib hizmat qiladi. Bular esa yuqorida ta’kidlab o’tilgan muammolarni hal etishda muhim ro’l o’ynaydi.

## **Nazorot uchun savollar:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida?
  2. Korrupsiyaga qarshi jamoatchilik nazorati?
  3. Xorijiy davlatlarda jamoatchilik institutlarining faoliyati?
  4. Ijro hokimiyatining birligi tamoyilinining buzilishi ?
  5. PF-60-sonli farmon qachon qabul qilindi?

## Testlar:

1. BMTning Rivojlanish Dasturi nazariy tahliliga ko'ra korrupsiyani vujudga kelishida qanday omillar muhim ro'l o'yagan?

A) Vakolat, hokimyat

B) O'zboshimchalik va shaxsiy manfaat

V) Hisobdorsizlik va oshkorasizlik, o'zboshimchalik va shaxsiy manfaat, vakolat va hokimyat

G) To'g'ri javob berilmagan

2. Ilmiy adabiyotlarda korrupsiyani vujudga keltiruvchi umumiy sabablar nechta?

A) 4ta

B) 7ta

V) 8ta

G) 10ta

3. Korrupsiyani vujudga keltiruvchi eng muhim omil qaysi?

A) Normativ huquqiy bazani nuqsonlari

B) Hokimiyat institutlari tizimining nuqsonlari mavjudligi

V) Demokratik an'analar chuqur anglanmaganligi

G) Hokimiyat Institutlari tizimining nuqsonlari mavjudligi

4. BMTning "Korruptsiyaga qarshi" konvensiyasi nechanchi yilda kuchga kirdi?

A) 2001-yil mart oyida

B) 2005-yil dekabr oyida

V) 2004-yil iyul oyida

G) 2000-yil oktabr oyida

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

## Rahbariy adabiyotlar:

4. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabidir. -T.: O'zbekiston, 1997. 250 bet.
  5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997. 95, 298 bet.

6. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard
4. Mirziyoev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.-488 b.
5. Mirziyoev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. - T.: "O'zbekiston", 2017. - 592 b.
6. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: O'zbekiston, 2017. - 512 b.
7. Mirziyoev Sh. M. "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" 3-jild. - T.: "O'zbekiston", 2019. - 400 b.
8. Mirziyoev Sh. M. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari". 4-jild. - T.: "O'zbekiston", 2020. - 452 b.
9. Mirziyoev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - T.: O'zbekiston, 2021. - 464 b.

### **Normativ-huquqiy hujjatlar:**

11. Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida qonun. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-son
12. Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida qonun. *O'zbekiston Respublikasining O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son*
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 07.02.2017 йилдаги ПФ-4947-сон
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
15. Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurash Konvensiyasi. Korrupsiyaga qarshi kurash muammolari: milliy va xalqaro tajriba. Xalqaro ilmiy-amaliy seminar materiallari. –T.: CHASHMA PRINT, 2010. B. 299.
16. Korrupsiyaga qarshi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasi (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) // O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari to'plami, 2008 yil, 3-4-son, 19-20-modda.

17. BMTning Xalqaro savdo operatsiyalarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash to'g'risidagi Deklaratsiyasi. Сборник международных договоров и законодательства Республики Узбекистан в сфере борьбы с коррупцией. –Т.: Центр повышения квалификации юристов, 2013. С.139.
18. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi "Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 yil, 20-son, 221-modda.
19. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi qonuni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 yil, 20-son, 222-modda.
20. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 3 dekabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 yil, 49-son, 578-modda.

### **Darsliklar, o'quv qo'llanmalar va qo'shimcha adabiyotlar:**

14. Abu Nasir Forobi. Fozil odamlar shahri. – Т.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993.
15. Зуфаров Р.А. Тенденция гуманизации уголовного законо-дательства Республики Узбекистан. O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini liberallashtirishning asosiy yo'nalishlari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2007 yil 12 dekabr). –Т.: O'zbekiston Respublikasi IIIV Akademiyasi, 2007. –S. 22-29.
16. Abdurasulova Q., Qurbonov O. Korrupsiya: asosiy tushuncha va shakllari (risola). – Т.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
17. Зуфаров Р.А. Международно-правовые проблемы борьбы с коррупцией. //O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslari Axborotnomasi. 2010. №1, -С.29-332. 25. Проблемы борьбы с коррупцией: национальный и международный опыт. Материалы

международного научно-практического семинара 20-21 октября 2009 года. –Т.: ЧАШМА ПРИНТ, 2010.

18. Temur tuzuklari. –Т.: O’zbekiston, 2011
19. Zokirov I.B. boshqalar. Fuqarolik huquqi (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Maxsus qism. – Т.: ILM ZIYO, 2011.
20. Axrorov B.J. Rustamboev M.H. Jinoyat huquqi (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Maxsus qism. – Т.: ILM ZIYO, 2012 y.
21. Xojiyev E.T. Ma’muriy huquq (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – Т.: ILM ZIYO. 2012 y.
22. Matkarimova G. Yuldasheva G. Hozigi zamon xalqaro huquqi (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – Т.: O’qituvchi, 2012.
23. Karimova O. Huquqshunoslik. (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Qayta ishlangan va to’ldirilgan nashr.– Т.: SHarq, 2014.
24. Zufarov R.A. Poraxo’rlik uchun jinoiy javobgarlik. – Т.: TDYuI, 2004. – B. 83-84.
25. S.SHomirzaev. Korrupsiya: xorijiy mamlakatlar davlat va huquq tarixida unga qarshi kurashish masalalari// Huquq va burch. 2014. 7-son. 5.62-64.
26. Meliyev X. Milliy qonunchilik – korrupsiyaga qarshi// Huquq va burch. 2015. 4-son. 5.12-14.

### **Internet manbalari:**

<b>1. <a href="http://www.press-service.uz">www.press-service.uz</a></b>	O’zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati
<b>2. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a></b>	O’zbekiston Respublikasi Hukumati portalı
<b>3. <a href="http://www.senat.uz">www.senat.uz</a></b>	O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati
<b>4.<a href="http://www.parliament.gov.uz">www.parliament.gov.uz</a></b>	O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi
<b>5. <a href="http://www.supcourt.uz">www.supcourt.uz</a></b>	O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi
<b>6. <a href="http://www.genprok.gov.uz">www.genprok.gov.uz</a></b>	O’zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi

<b>7. <a href="http://www.minjust.uz">www.minjust.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
<b>8. <a href="http://www.mvd.uz">www.mvd.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
<b>9. <a href="http://www.customs.uz">www.customs.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi
<b>10.<a href="http://www.ombudsman.gov.uz">www.ombudsman.gov.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)
<b>11. <a href="http://www.serc.uz">www.serc.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Sud qonunchiliginin demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazi
<b>12. <a href="http://www.tsul.uz">www.tsul.uz</a></b>	Toshkent davlat yuridik universiteti
<b>13. <a href="http://www.vuk.uz">www.vuk.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslari
<b>14. <a href="http://www.uzmarkaz.uz">www.uzmarkaz.uz</a></b>	Yuristlar malakasini oshirish markazi
<b>15. <a href="http://www.huquqburch.uz">www.huquqburch.uz</a></b>	"Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali
<b>16. <a href="http://www.insonvaqonun.uz">www.insonvaqonun.uz</a></b>	"Inson va qonun" huquqiy gazetasi
<b>17. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
<b>18. <a href="http://www.metod.uz">www.metod.uz</a></b>	O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini Axborot-metodik ta'minlash xizmati
<b>19. <a href="http://www.natlib.uz">www.natlib.uz</a></b>	A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
<b>20. <a href="http://www.manaviyat.uz">www.manaviyat.uz</a></b>	Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi
<b>21. <a href="http://www.mgm.uz">www.mgm.uz</a></b>	Miliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi
<b>22. <a href="http://www.ziyo-net.uz">www.ziyo-net.uz</a></b>	Axborot ta'lim tarmog'i

### **3-Mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid milliy qonunchilik tahlili va davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari.**

#### **Reja:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid milliy qonunchilik bazasining tavsifi.
2. O‘zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-sonli Qonunining mazmuni va mohiyati.
3. O‘zbekistonda korrupsiya qarshi kurashishga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarining qiyosiy tahlili.
4. “Korrupsiyasiz soha” loyihasining joriy etilishi va amalga oshirish jarayonlari.

**Tayanch so’z va iboralar:** korrupsiya, milliy qonunchilik, O‘RQ-419-sonli Qonunining, qonunchilik bazasi, davlat siyosati, qiyosiy tahlil, korrupsiyasiz soha, loyihalarning joriy etilishi, korrupsiyaga qarshi kurash loyihalarining amalga oshirish va ziddiyatlar.

**Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid milliy qonunchilik bazasining tavsifi.** Korrupsiya qonun ustuvorligiga, demokratiya va inson huquqlariga, samarali davlat boshqaruviga tahdid soladi, tenglik va ijtimoiyadolat prinsipini buzadi, demokratik institutlar faoliyati va jamiyatning ahloqiy normalarini izdan chiqaradi.

Korrupsiya va poraxo`rlik davlatni ich-ichidan yemirishini jahondagi ba’zi davlatlar misolida ko`rishimiz mumkin. Ayni shu masalada, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) bu illatlarni eng global muammolardan biri sifatida e’tirof etib, ularga qarshi kurashish masalalariga jiddiy e’tibor qaratib kelmoqda. Xususan, BMT 2003 yil 31 oktyabrda “Korrupsiyaga qarshi konvensiya”ni qabul qildi. Uning loyihasni ishlab chiqish uchun ikki yil davomida 130 dan ortiq davlat jalg etilgan edi. Unda korrupsiyaga qarshi xalqaro va milliy kurash amaliyotini yo`lga qo`yish hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari aks etgan. O‘zbekiston ushbu

konvensiyani 2008 yil 7 iyulda ratifikatsiya qilgan. Unga ko`ra, jinoyatchilikka, shu jumladan, korrupsiyaga qarshi kurash bo`yicha hamkorlikka oid ikki tomonlama hukumatlararo va idoralararo kelishuvlar tuzilgan va korrupsiyaga qarshi kurash bo`yicha qabul qilingan xalqaro hujjatlarni tasdiqlagan. Shuning uchun ham O`zbekistonda mazkur illatning sabablarini aniqlash va bartaraf etish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilayapti, ushbu toifadagi jinoyatchilarga nisbatan kat`iy choralar ko`rilmokda. Davlat xizmatchilari va mansabdor shaxslarning korrupsiya domiga tushib qolmasliklari uchun, hukumatimiz uzoq muddatli chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqardi va ularning ijrosi doimiy nazorat qilib kelmoqda. 2015 yilda tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurash bo`yicha amaliy harakatlar Kompleks rejasi ijrosini ta'minlash maqsadida, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik Kengashi kotibi, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchisining birinchi o`rinbosari va O`zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan, Favqulodda vaziyatlar vazirining 2015 yil 9 iyundagi 175-sonli buyrug`i ishlab chiqildi va ijro uchun joylarga yetkazildi. Mazkur buyruqda vazirlik markaziy apparati boshqarmalari, mustaqil bo`lim va xizmatlari, shuningdek, hududiy va tarkibiy tuzilmalarga Kompleks rejasida belgilangan tadbirlar yuzasidan aniq vazifalar yuklatilgan. Jumladan, O`zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirining 2015 yil 19 iyundagi “O`zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurash chora-tadbirlari to`g`risida”gi 186-sonli buyrug`i bilan “Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurash bo`yicha komissiya to`g`risida”gi Nizom, Korrupsiyaga qarshi kurash bo`yicha komissiya tarkibi, korrupsiyaga qarshi kurash bo`yicha chora-tadbirlar rejasi, vazirlik tizimidagi harbiy xizmatchi va ularning odob-axloq qoidalari tasdiqlangan. Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyat qurishning umumiyligi strategiyasini amalga oshirish doirasida qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sud-huquq tizimini isloh qilish yuzasidan qator chora-tadbirlar izchil amalga oshirib kelinmoqda. Tarixan qisqa davr ichida mamlakatda

qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlashning institutsional va huquqiy asoslari shakllantirildi, korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimi yaratildi. Mazkur yo'nalishdagi islohotlarni amalga oshirish davomida milliy qonunlarga xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarini singdirish masalasiga alohida e'tibor berildi va bu munosabat 2008 yilda qabul qilingan «Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida»gi Qonunda o'z aksini topdi.

2010 yilda O'zbekiston Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti Korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog'ining Istanbul harakat dasturiga qo'shildi. So'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan Byudjet va Bojxona kodekslari (yangi tahrirda), «Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi, «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi, «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi, «Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida»gi, «Elektron hukumat to'g'risida»gi, «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishchanlik muhitini yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirdorlik uchun qulay sharoitlar yaratish, ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, davlat xaridlari mexanizmlarini takomillashtirish, davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalarini tasdiqlashga doir bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 3-yanvar kuni "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun imzolandi. E'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiruvchi qonun 4-yanvar kuni "Xalq so'zi" va "Narodnoye slovo" gazetalarida chop etildi.

Qonundan ko'zlangan maqsad korrupsiyaga qarsha kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Hujjatda "korrupsiya", "korruption huquqbazarlik" va "manfaatlar mojarosi" kabi tushunchalarga izoh berilgan.

Hujjatda korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy tamoyillari sifatida qonuniylik; fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi; ochiqlik, shaffoflik va tizimlilik; davlat va fuqarolik jamiyatining o‘zaro hamkorligi; korrupsiyadan ogohlantirish va javobgarlikning muqarrarligi bo‘yicha choralar ustuvorligi keltirib o‘tilgan.

Qonun korrupsiyaga qarshi kurash sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini keltirib o‘tadi:

- aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan toqatsizlikni shakllantirish;
- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyadan ogohlantirish bo‘yicha choralarini amalga oshirish;
- korruption huquqbazarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ular oqibatlari, sabablari va keltirib chiqargan sharoitlarni bartaraf etish hamda korruption huquqbazarliklar sodir etilgani uchun muqarrar jazolash tamoyilini tadbiq etish.

Hujjatda davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyadan ogohlantirish bo‘yicha choralarini keltirib o‘tadi. Jumladan, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini ta’minlash, parlament va jamoatchilik nazorati, mansabdor shaxslar faoliyati sifatini baholash hamda ishga qabul qilish va mansab pillapoyalaridan ko‘tarilishda ochiqlik va xolislik tamoyili asosida tanlovli saralashlarni olib borish tizimlarini joriy etish belgilangan. Davlat organlari xodimlarining huquqiy maqomi aniqlanib, ularning ijtimoiy himoyasi, moddiy ta’minoti, har tomonlama rag‘batlantirish choralarini ko‘riladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va tadbirkorlik sohalarida korrupsiyadan ogohlantirish bo‘yicha choralar qatoridan esa ma’muriy va byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, ro‘yxatga olish, ruxsat berish va litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish va tezkorligini oshirish, davlat organlarining nazorat-tekshiruv vakolatlarini optimallashtirish hamda ular va tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasida o‘zaro munosabatlarning masofaviy shakllarini joriy etish belgilangan.

Ma'muriy jarayonlar sohasida korrupsiyadan ogohlantirish choralari ro'yxatiga ularning batafsil reglamentini belgilash, ushbu jarayonlarni soddalashtirish va byurokratik rasmiyatichiliklarga yo'l qo'ymaslik kiritilgan.

Qonunda davlat organi xodimi biror bir shaxs tomonidan uni korruption huquqbazarlikni sodir etishga da'vat qilish holati, shuningdek, boshqa ishchilar tomonidan shu kabi holatlarning amalga oshirilishi bo'yicha unga oshkor bo'lgan ma'lumotlarni o'z rahbari yoki huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat etishi belgilangan. Mazkur majburiyatlarning bajarilmasligi qonunchilikka muvofiq tegishli ravishda jazoga tortilishiga olib keladi.

Korrupsion jinoyat to'g'risida oshkor qilgan shaxs davlat himoyasi ostiga olinadi. Biroq mazkur qoida yolg'on ma'lumotlarni taqdim etganlarga nisbatan amal qilinmaydi.

Qonunning alohida moddasi har kim tashkilotlar va davlat organlari faoliyati, mazkur shaxslar yoki shaxslar guruhiga taalluqli qabul qilinayotgan aktlar to'g'risida ma'lumot olish huquqiga ega ekanligini ko'zda tutadi. Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va tashkilotlar OAVga korrupsiya bilan bog'liq hodisalar, dalillari, voqealar va jarayonlan to'g'risida jamoatchilik uchun qiziqarli bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-may kuni O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risidagi farmonni imzoladi. Hujjat korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish, eng yuqori darajadagi qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondag'i ijobiy obro'e'tiborini oshirishga qaratilgan. Farmon bilan 2019–2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi qabul qilindi va Senat raisi Nig'matulla Yo'ldoshev boshchiligidagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining yangilangan tarkibi tasdiqlandi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlarining tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari tashkil etiladi. Ular joylarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagiishlarning holatini kompleks o'rganish,

joylarda korrupsiya ko‘rinishlari namoyon bo‘lishiga olib keladigan tizimli muammolar va korrupsianing holati to‘g‘risida O‘zbekiston Oliy Majlisi palatalarining korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari bo‘yicha qo‘mitalariga ushbu sohadagi faoliyatni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritgan holda muntazam ravishda axborot berib boradi. Farmonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari o‘rta muddatli istiqbolda quyidagilardan iborat ekani belgilandi:

- sud hokimiyatining mustaqilligini yanada mustahkamlash, sudyalarga har qanday tarzda qonunga xilof ravishda ta’sir o‘tkazish shart-sharoitlarini istisno etish;
- davlat xizmatchilarini tanlov asosida saralab olish, lavozimga tayinlash va yuqori lavozimlarga ko‘tarishning shaffof тартибига asoslangan davlat xizmati tizimini shakllantirish, ular uchun cheklovlar, taqiqlashlar, rag‘batlantirish choralari hamda korrupsianing oldini olish boshqa mexanizmlarining aniq ro‘yxatini belgilash;
- davlat xizmatchilarini daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish va ularning ish haqi yetarli darajada bo‘lishini ta’minalash, shuningdek, davlat xizmatini o‘tashda manfaatlar to‘qnashuvini hal etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- korrupsiya bilan bog‘liq huquqbazarliklar to‘g‘risida xabar bergan shaxslarni himoya qilishning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish;
- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni kuchaytirish;
- davlat organlari va tashkilotlarining hisobdorligi va faoliyatining shaffofligini oshirish;
- fuqarolik jamiyati instituti, ommaviy axborot vositalari faoliyatining chinakam erkinligini ta’minalash va ularni korrupsiyaga qarshi choralarni tayyorlash, o‘tkazishda va ijrosini monitoring qilishda ishtirok etishga jaib qilish.

Idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali dasturlarini amalga oshirish, ularning hisobdorligi va faoliyatining ochiqligi mexanizmlarini joriy etish, odob-axloq qoidalariga rioya etilishi va manfaatlar to‘qnashuvining oldi olinishini ta’minalash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni bajarish orqali tegishli sohada

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga imkon yaratayotgan sabablar va shart-sharoitlarni tag-tomiri bilan yo‘qotish davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining birinchi darajadagi muhim vazifasi hisoblanadi.

1-iyuldan boshlab davlat organlari zimmaga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan korrupsiya xavf-xatarlarini vaqtı-vaqtı bilan majburiy baholab boradi, uning yakunlari bo‘yicha:

- korrupsiya xavf-xatariga eng ko‘p duch keladigan davlat xizmatchilarining faoliyat sohalari va lavozimlari, shuningdek, ularning funksiyalari (vakolatlari)ning rўйхатини shakllantiradi;
- idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlari ijrosining har choraklik monitoringini amalga oshiradi va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimum darajaga tushirish choralarini ko‘radi;
- Idoralararo komissiya bilan kelishgan holda har yilgi idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlarini tasdiqlaydi;
- har yili Idoralararo komissiyaga tegishli organlar va tashkilotlar faoliyatida, shu jumladan, qonunchilikni va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish orqali korrupsiya xavf-xatarlariga barham berish bo‘yicha takliflarni kiritadi.

Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari korrupsiya xavf-xatarlarini o‘z vaqtida aniqlamaganliklari va tegishli baho bermaganliklari, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni takroran sodir etish holatlariga yo‘l qo‘yanliklari yuzasidan shaxsan javobgar bo‘ladi. 1-sentyabrdan boshlab ta’lim muassasalarida yoshlarga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ta’lim berish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tatbiq etilishi lozim. Bundan tashqari, umumiyo‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlarida korrupsiyaga qarshi mavzular yanada kuchaytiriladi. Uuch oy muddatda, shu jumladan, texnik infratuzilmani va zarur dasturiy ta’mintoni yaratishga oid zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutgan holda muayyan toifadagi davlat xizmatchilarining mulki va daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishi lozim. 1-avgustdan boshlab eksperiment

tariqasida, jamoatchilik va yetakchi ekspertlarni, shu jumladan, xorijiy ekspertlarni jalg etgan holda dastlabki bosqichda kapital qurilish va oliv ta'lim sohalarida "Korrupsiyasi soha" loyihasi amalga oshiriladi. 2020-yil 1-apreldan boshlab loyiha boshqa sohalarga ham bosqichma-bosqich joriy etiladi. Qo'shimcha ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida jamoatchilik nazorati mexanizmlarini samarali qo'llashga yo'naltirilgan "Yo'l xaritasi" loyihasi ishlab chiqiladi. Unda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning Oliy Majlis palatalari oldidagi hisobdorligi tartibini takomillashtirish, qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolar ishtirokining shaffof va samarali usullarini joriy etish ko'zda tutilgan.

**O'zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonuning mazmuni va mohiyati.** Korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish.

Jinoyatchilikka qarshi kurash tizimini va inson huquqlarining ishonchli himoyasini yanada takomillashtirish, xalqning davlat hokimiyatiga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlash qonuniylikni ta'minlashning institutsional va huquqiy asoslarni shakllantirish, korrupsiyaga qarshi kurashish samarali tizimini tashkil etish zaruriyatini namoyon etadi.

Xalqaro standartlarni hisobga olgan holda, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha huquqiy va institutsional asoslarni kelgusida takomillashtirish maqsadida 2017 yilning 4 yanvar sanasida O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi.

Ushbu qonunda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, vakolatli davlat organlari tizimi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlarining, fuqarolar va ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi, shuningdek, ushbu sohadagi xalqaro hamkorlik masalalari aks etgan.

Qonun bilan qamrab olingan chora-tadbirlar doirasi O‘zbekistonning siyosiy xohish-irodasi va korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining jiddiyligini tasdiqlaydi. Qonun yagona bir butunligicha barcha korrupsiyaga qarshi kurashish elementlarini o‘zida qamrab olgan.

Qonunga ko‘ra korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari kuyidagilardan iborat:

qonuniylik;

fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

tizimlilik;

davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;

korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi:

javobgarlikning muqarrarligi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unla ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissnyasn tashknl etiladi. Idoralararo komissiyani shakllantirish va uning faoliyatn tartnbn O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

Shunday qilib, O‘zbekiston antikorrupsion siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, korrupsiyaning oldini olish uchun institutsional bazani mustahkamlash maqsadida muhim qadamlarni tashlagan, desak, adashmaymiz.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida:

qonuniylik va huquq-tartibotni ta’minlash;

davlat xizmati organlarining faoliyatida oshkoraliq va shaffoflikni ta’minlash;

jamiyatda korrupsiyaga nisbatan mutlaq murosasizlik madaniyatiga erishish;

xalqning davlat hokimiyyati organlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga erishiladi.

Aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, bu boradagi choratadbirlarni amalga oshirishda davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyatni

institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro samarali hamkorligini tashkil etish.

Huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda fuqarolarning qonunlarga va normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqrur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir.

Bunda goyat muhim jihat jamoatchilikka davlat hokimiyati va boshqaruvidoralari faoliyati haqida ma’lumot berish, davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlardan, birinchi navbatda, inson huquq va erkinliklari, fuqarolarning qonuniy manfaatlariga doir qarorlardan aholini keng xabardor qilib borish mexanizmlarini yanada takomillashtirish bilan bog‘lik.

Bugungi globallashuv zamonida jahon jamoatchiligini, xalqimizni xayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan yangilik va o‘zgarishlardan o‘z vaktida xabardor kilish, ayniqsa, fuqarolarning huquqiy axborotlar olishini keng ta’minalash, shu yo‘l bilan davlat va jamiyatga bo‘lgan o‘zaro munosabatlarini xolis va xakkoniylashtirish talab etiladi.

Ayniqsa, yoshlarning huquqiy axborotga bo‘lgan ehtiyojini kondnrishda zamonaviy axborot vositalari imkoniyatidan keng foydalanish zarurligini inobatga olgan holda, huquqiy yo‘nalishdagi axborot tizimlari soni va sifatini oshirish. ularning foydalanish uchun qulayligi masalalari muhim ahamiyatga ega.

Insoniyat tarixidan ma’lumki, korrupsiya jamiyatni emiradigan, shaxsni axloqiy jihatda inqirozga uchratadigan, har qanday davlat iqtisoloyotiga salbiy ta’sir qiladigan ijtimoiy illatdir. Mustaqillik davrida Birinchi Prezident I.A. Karimov rahbarligida tarixan qisqa davr ichida mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta’minalashning, shuningdk korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari shakllantirildi. Uning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarda qayd etilganidek, totalitarizmdan demokratiya va bozor munosabatlariga o‘tishdagi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jamiyatni bir tekisda rivojlanish sur’atlariga doimo ham ijobjiy ta’sir etavermaydi. Bu davrda korrupsiyani paydo bo‘lishi natijasida

ahloq va odob me'yorlariga putur etadi. Demokratiya va bozor munosabatlariga o'tish davrida korrupsiyani avj olishi – bu uzoq davom etgan totalitar tuzumdan keyin shakllanadigan, har bir shaxsning o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratdadigan demokratik erkinliklar tufayli avj oladigan kasallikdir. Bu kabi sharoitlarda mansabdorlarga encha erkinliklar berilishi oqibatida ularning ba'zalari o'z manfaatlarini jamiyat hamda davlat manfaatlaridan yuqori qo'ya boshlaydi. Uning natijasida korrupsiya paydo bo'ladi.

Prezident Sh.M.Mirziyoev korrupsiyani mohiyati va unga qarshi kurashish zarurligi haqida quyidagi fikrni bejiz aytmagan edi: “Jamiyat rivojiga g'ov bo'layotgan yana bir illat – bu korrupsiya balosidir. Bunday xatarga qarshi kurashish maqsadida yaqinda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senatga yuborilgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunni tezroq amaliyotga joriy etish chora-tadbirlarini ko‘rishimiz lozim. Bularning barchasi, o'z navbatida, inson huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini takomillashtirishga, xalqimizning davlat hokimiyatiga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi”<sup>1</sup>.

Korrupsiya – shaxsni mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyat turidir. Korrupsiyaviy faoliyat xufyona iqtisodiyotning asosiy zararli va emiruvchi turlaridan biri hisoblanadi. Aksariyat hollarda korrupsiya deganda davlat mansabdorlari tomonidan o'z shaxsiy manfatlarni ko‘zlab boylik orttirish maqsadida fuqarolardan pora olishi, qonunga xilof ravishda boylik orttirishi tushuniladi. Lekin, umuman olganda, davlat mansabdorlarigina emas, balki, korxona yoki firmalarning menejerlari ham korrupsiyaga doir munosabatlarning ishtirokchilari bo‘lishi mumkin. Bunda ko‘pincha poralar pul bilan emas, balki boshqa shakllarda olinadi; korrupsiyaga doir jinoyatlarning tashabbuskorlari ba'zan tadbirkorlar bo‘lishi ham mumkin.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Конун устуворлиги ва инсон манбаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул килинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза.//Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.-Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2017.-Б.110.

O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvarda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunida “korrupsiya” tushunchaga quydagicha ta’rif berildi: “Korrupsiya” deganda - shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish tushuniladi; shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbazarlik deganda — korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish tushuniladi”<sup>2</sup>. SHuningdek, qonunda manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasiga ham izoh berilgan bo‘lib - u shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat anglanadi.

Aholining huquqiy savodxonligi pastligi – qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik mansabdor shaxsga o‘zining shaxsiy manfaati yo‘lida qonunlardan foydalanishga qulay sharoit yaratadi. Darhaqiqat, korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta’lim va tarbiya masalalari “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning 16, 17, 18-modda-larida o‘z ifodasini topgan. Chunki, huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksak bo‘lgan va huquqiy ta’lim va tarbiya jihatdan yetuk bo‘lgan insonlar salbiy illat bo‘lmish korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaydilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagи “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi

---

<sup>2</sup>Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ти Қонуни. 4 январь 2017 й.// <http://parliament.gov.uz/uz/laws/adopted/253/19165/>.

qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Mazkur Qaror asosida joriy yil 2 fevralda 2017–2018 yillarga mo‘ljallangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Davlat dasturi tasdiqlandi. Shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tuzildi.

Davlat dasturida jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish Milliy dasturini ishlab chiqish belgilangan bo‘lib, u orqali mamlakatda huquqiy ta’lim va ma’rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar tashviqotini tubdan yaxshilash ko‘zda tutilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa sifatida aytish mumkinki, faqatgina jinoiy qonunchilikni og‘irlashtirish yo‘li bilan bu salbiy illatga qarshi kurashib bo‘lmasligini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda.

Bu illatga qarshi turishda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ko‘rish, shu jumladan huquqiy tarbiya va ta’limni, ilmiy- amaliy tadbirlarni tashkil etish, o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar va boshqa targ‘ibot vositalaridan faol foydalanish lozim bo‘ladi.

O‘ylaymizki, bunday ma’naviy buzilish holatiga qarshi kurashishda nafaqat davlat organlari, balki jamiyat va umuman barcha fuqarolarimiz mas’uldirlar. Shunday ekan, davlat va jamiyat, shu bilan birga nodavlat notijorat tashkilotlari bunday illatni oldini olish va unga qarshi kurashishda bиргалидаги harakатигина samarali natijalarga erishishning eng maqbul yo‘li bo‘lib hisoblanadi. Zero, fuqarolarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga befarq bo‘lmasligi hamda har bir davlat xizmatchisining o‘z faoliyatini jamoatchilik nazorati ostida ekanligini chuqur his etib borishi fuqarolik jamiyatini mustahkamlashning muhim shartidir.

**O‘zbekistonda korrupsiya qarshi kurashishga oid davlat siyosatining asosiyo‘nalishlarining qiyosiy tahlili.** Mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tashabbusi bilan 2017 yil 4 yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni kuchga kirdi. Mazkur Qonundan ko‘zlangan maqsad korrupsiyaga qarsha kurash sohasidagi

munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo‘ldi. Unda “korrupsiya”, “korruption huquqbuzarlik” va “manfaatlar to‘qnashuvi” kabi tushunchalarga izohlar berildi.

Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy prinsiplari sifatida qonuniylik; fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi; ochiqlik, shaffoflik va tizimlilik; davlat va fuqarolik jamiyatining o‘zaro hamkorligi; korruptionsidan ogohlantirish va javobgarlikning muqarrarligi bo‘yicha choralar ustuvorligi kabilar mustahkamlab qo‘yilgan.

Qonunda korrupsiyaga qarshi kurash sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilar belgilab qo‘yildi:

- aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan toqatsizlikni shakllantirish;
- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korruptionsidan ogohlantirish bo‘yicha choralarmi amalga oshirish;
- korruption huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ular oqibatlari, sabablari va keltirib chiqargan sharoitlarni bartaraf etish hamda korruption huquqbuzarliklar sodir etilgani uchun muqarrar jazolash tamoyilini tadbiq etish.

Oliy majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan “BMTning Korrupsiya qarshi konvensiyasiga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi Qonuni 2008 yil 24 iyunda qabul qilindi va 2008 yil 27 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senati tomonidan ma’qullandi va 2008 yil 28 avgustdan e’tiboran kuchga kirdi.

O‘zbekiston Respublikasi mazkur konvensiyaga bir nechta bildirishlar, bayonotlar va shartlar bilan qo‘shildi. Jumladan, Qonunning 1-bandiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konvensiya 6-moddasining 3-bandi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va Adliya vazirligi korrupsianing oldini olish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab-chiqish va ularni amalga oshirishda boshqa Ishtirokchi - davlatlarga yordam ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan organlar sifatida belgilanganligi keltirildi. Bu qoida Konvensiyaning 6-moddasi 3-bandidagi har bir ishtirokchi

Davlat BMTning Bosh kotibiga korrupsiyaning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda boshqa ishtirokchi Davlatlarga yordam berishi mumkin bo'lgan organ yoki organlarning nomi va manzilini xabar qiladi, degan talablariga to'la javob beradi.

Qonunda davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyadan ogohlantirish bo'yicha qator choralar belgilandi. Jumladan, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini ta'minlash, parlament va jamoatchilik nazorati, mansabdor shaxslar faoliyati sifatini baholash hamda ishga qabul qilish va mansab pillapoyalaridan ko'tarilishda ochiqlik va xolislik tamoyili asosida tanlovlardan asosidagi saralashlarga amal qilish mexanizmlarini joriy etish belgilandi. Davlat organlari xodimlarining huquqiy maqomi aniqlanib, ularni ijtimoiy himoya qilish, moddiy ta'minotini oshirish va mehnat faoliyatini har tomonlama rag'batlantirish choralarini ko'rishga shart-sharoitlar yaratildi.

Korrupsiya to'g'risidagi Qonunning 7-moddasiga binoan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari sirasiga quyidagilar kiritildi:

- Bosh prokuratura,
- Milliy xavfsizlik xizmati,
- Ichki ishlar vazirligi,
- Adliya vazirligi,

Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining huquqiy maqomi va vakolatlari belgilab qo'yildi. SHu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari tomonidan ham amalga oshirishi belgilandi.

Shu bilan birga, qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Respublika idoralararo komissiyasini tashkil etish ham nazarda tutildi. Idoralararo

komissiyani shakllantirish va uning faoliyati tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanishi nazarda tutildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyalar tashkil etilishi belgilandi. Unga muvofiq tarzda idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishni tashkil etish;
- korrupsiyaga oid huquqbarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo‘yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni ko‘rish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;
- hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirishdan iborat.

Ushbu qonunning 12, 16, 18 va 20 moddalari bevosita ta’lim tizimi jarayoniga qo‘llash mo‘ljallandi. Qonunning 16-moddasiga asosan davlat organlari va boshqa tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni ko‘rib borishlari lozim.

Qonunda ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta’lim va tarbiyani olib borishga ham alohida urg‘u berildi. Kelgusida ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta’lim va tarbiya davlat tomonidan belgilab qo‘yilgan ta’lim standartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat ta’limni boshqarish organlari va ta’lim muassasalarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim va tarbiyaga, mutaxassislarini kasbiy tayyorlashning sifatini oshirishga, ta’lim dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishlari belgilab qo‘yildi.

Shuningdek, qonunda davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir quyidagi chora-tadbirlar belgilandi:

- davlat organlari faoliyatining ochiqligini va ularning hisobdorligini ta'minlash, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining mas'uliyatini kuchaytirish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlarining faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish.

Mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va uning farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi”da hamda 2022-2026-yillarga mo’ljallangan “Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi”da ham korrupsiyani tugatishga shart-sharoitlar yaratadigan yangi qonunlar qabul qilish nazarda tutilmoqda. Amaldagi qonunlar va istiqboldagi yillar nomlari bo‘yicha qabul qilinayotgan davlat dasturlariga muvofiq, amaldagi qonunchilikni “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun me’yorlariga muvofiqlashtirish jarayonlari davom etmoqda.

O‘zbekiston xalqi demokratik taraqqiyoti huquqiy davlat qurish orqali fuqarolik jamiyatini barpo qlishni ko‘zlaydi. Bu xususda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti shunday degan edi: “Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo‘lib, u insonning o‘z-o‘zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi. SHaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklarini to‘la darajada ro‘yobga chiqishiga ko‘maklashadi. Ayni vaqtda, boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. YA’ni erkinlik va qonunga bo‘ysunish bir vaqtning o‘zida amal qiladi”<sup>4</sup>. Buning uchun, eng avvalo, kishilarning siyosiy faolligini yuksak darajaga ko‘tarishga alohida e’tibor qaratish talab etiladi. Fuqarolarning siyosiy-ijtimoiy jihatdan etukligi uning davlat hayotida faol ishtirot etishi bilan belgilanishi shubhasiz.

**“Korrupsiyasiz soha” loyihasining joriy etilishi va amalga oshirish jarayonlari.** Mamlakatimizda “korrupsiyasiz soha” iborasi ostida bir necha ishlar

amlaga oshirildi. Jumladan, ta’lim va tibbiyot sohalarda ko’plab islohot va tadbirlar olib borildi. Bu borada ta’lim sohasiga alohida e’tibor berildi.

Farzandlarimizni o‘qitishdan maqsad – kelgusida ularni yetuk kadr qilib kamolga yetkazish, ularning g‘ayrat-shijoati, fidoyiligi bilan jamiyatni tobora rivojlanтирib borishdir. Xo‘sн, ularning ongu shuurini ta’lim muassasasidayoq korrupsiya balosi o‘z domiga torta boshlasa... keyin nima bo‘ladi? Halol-pok hayotni tasavvur etolmaydigan yoshlар bilan yangi O‘zbekistonning rivojlanishini ta’minlash qandoq bo‘larkin?

Tan olish kerak, bugun talabalarning aksariyati jamiyat hayotini porasiz tasavvur etolmaydigan darajaga borib qolganlari sir emas. Bu haqda ularning ba’zilari “Munosabat” va boshqa teleko‘rsatuvlarda ham dangal aytishmoqda.

Ochig‘i, jamiyat kushandasи sanalmish bu illatni tag-tomiri bilan sug‘urib tashlashga qodirmiz. Bugun oliy ta’lim sohasida poraxo‘rlik illatiga qarshi kurash murosasizlik bilan davom etmoqda. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida Davlat xavfsizlik xizmati mas’ul xodimlari bilan o‘tkazilgan ochiq muloqotda bu haqda atroflicha so‘z yuritildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonuni va davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida oliy ta’lim tizimini “korrupsiyasiz soha”ga aylantirish borasida konseptual fikrlar o‘rtaga tashlangani bejiz emas.

Tadbirda so‘nggi paytlarda ba’zi oliy ta’lim muassasalarida yuz bergen salbiy illatlar, ayrim mas’ul xodimlarning pora olayotganida qo‘lga tushgани tasvirlangan videofilm namoyish etildi.

Videofilmda so‘z yuritgan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi boshqarma boshlig‘i Otабek Bozorovning ayrim mulohazalari tinglovchilarda katta qiziqish uyg‘otdi.

Uning ta’kidlashicha, shundan kelib chiqib, oliy ta’limda “korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Shuningdek, qabul jarayoni, talabalar bilimini baholash, o‘qishni ko‘chirish va

nostrifikatsiya, OTMlarni takomillashtirish, o‘qituvchilar ijtimoiy himoyasi, byudjet mablag‘laridan maqsadli foydalanish kabi yo‘nalishlarini qamrab olgan, 2019-2020-yillarda amalga oshirish belgilangan “Yo‘l xaritasi” qabul qilindi. Uning doirasida 2 ta normativ-huquqiy hujjat – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakacini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yana-da takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yana-da takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, oliy ta’lim muassasasi rahbar kadrlarining o‘quv-metodik va ilmiy-pedagogik faoliyati natijalari inobatga olinadigan, ularga muntazam ravishda kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirib borish imkoniyatini beruvchi uzluksiz malaka oshirish tizimi amaliyatga joriy etildi. O‘qitishning zamonaviy usullarini qo‘llash bilan bog‘liq fan va kurslarni kengaytirish maqsadida qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o‘quv rejalariga 13 ta yangi modul kiritildi. Bundan tashqari, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlar inventarizatsiyadan o‘tkazilmoqda. Unga muvofiq, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda korrupsiyaga oid holatlarni keltirib chiqaradigan normalar aniqlansa, ularga o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Oliy ta’lim muassasalari veb-saytlarida “Mening fikrim” jamoaviy murojaatlar portalı yaratiladi. Hozirda bu bo‘yicha axborot tizimining texnik topshirig‘i ishlab chiqildi. Ta’lim muassasalari o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurash reytingini joriy qilish, axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalarini shakllantirish hamda ta’lim jarayoniga “Bulutli texnologiyalar” (elektron universitet)ni bosqichma-bosqich tatbiq etish, talabalar o‘rtasida korrupsiyaga oid holatlar yuzasidan onlayn so‘rovnomalar o‘tkazib borish masalalari bo‘yicha chora-tadbirlar dasturlari tasdiqlandi. Kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya etish, manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf qilish va korrupsiyaga qarshi kurashishning

boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv dasturi tayyorlandi. Bu oliy ta’lim muassasalari xodimlari va professor-o‘qituvchilarning korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishlari bo‘yicha malakasini oshirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining akademiyasi bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Korrupsiyaning oldini olishda oliy ta’lim muassasalariga kirish sinovlarini shaffof, ochiqlik tamoyillari asosida o‘tkazish ham nihoyatda muhim. Shu nuqtayi nazardan 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab alohida iqtidor talab etiladigan ta’lim yo‘nalishlariga kirish imtihonlarining bir qismini (5 tadan 2 yoki 3 tasini) test sinovlari orqali, kasbiy (ijodiy) imtihonlarni jamoatchilik va onlayn kuzatuvda o‘tkazish yuzasidan takliflar ishlab chiqildi. Ular o‘rnatilgan tartibda Davlat test markaziga taqdim etiladi. Oliy ta’lim muassasalarida korrupsiya keng tarqalishiga sabab bo‘lgan asosiy omillardan yana biri – oylik-maosh sanaladi. Shu ma’noda, tizimdagi ta’lim muassasalarining boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlarining amaldagi namunaviy shtatlariga o‘zgartirish kiritish loyihasi ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, bosh hisobchi muovini – auditor lavozimi “Buxgalteriya” bo‘limidan chiqarilib, “Rektorat” tarkibiga kiritildi. Shu orqali uning bo‘ysunuvi bosh hisobchi bo‘ysunuvidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri birinchi rahbar bo‘ysunuviga o‘tkaziladi. Hozirda oliy ta’lim muassasasi auditorining ish haqi tarif koeffitsiyenti va razryadlarini belgilash bo‘yicha ish olib borilmoqda. “Yo‘l xaritasi”da belgilangan tadbirlarni amalga oshirishning eng yaqin muddati 2019-yilning to‘rtinchchi choragiga belgilangan. Bularning bariga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokururasi hamda Bosh prokuratura akademiyasi yaqindan yordam bermoqda. Agarki, biz barchamiz birgalikda, hamkorlikda ishlamasak, faqat ayrim mas’ul lavozimdagи insonlargagina ishonib o‘tiraversak, jamoatchilik nazoratini kuchaytirmasak, korrupsiyaga qarshi kurashish, uning oldini olish har birimizning fuqarolik burchimiz ekanini anglagan holda ish yuritmasak, rejalarimiz, maqsadlarimiz qog‘ozda qolib ketishi hech gap emas...

O‘zMU rektori, xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi deputati Avazjon Marahimov universitetda ikkita maxsus guruh tashkil etilgani, biri – ta’lim sifati, ikkinchisi – aynan korrupsiya bilan bog‘liq jinoiy xattiharakatlarni o‘rganish bilan shug‘ullanishi haqida so‘z yuritdi. Endilikda Milliy universitetda korrupsiyani tag-tomiri bilan yo‘qotishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini amalga oshirish uchun har bir professor-o‘qituvchi va mas’ul xodimlar mas’ul ekanini his etmoqlari shart.

Ko‘pdan-ko‘p fikr chiqadi, deganlaridek, tadbirda professor-o‘qituvchilar bu boradagi takliflari va rejalar bilan o‘rtoqlashdilar.

Eng muhim, o‘sha kundan e’tiboran chinakam ishga kirishildi. Talabalar bilan turli usullarda suhbatlar o‘tkazilmoqda, tegishli tartibda so‘rovnomalar olinmoqda.

Bugungi qalbi uyg‘oq talaba-yoshlar ham bu sa’y-harakatlarga befarq emas. Ko‘pdan quyon qochib qutulmas, deganlaridek, shu tariqa korrupsiya balosiga barham berilishiga umid qilsa bo‘ladi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Yurtimizda korrupsiyaga qarshi qanday ishlar olib borilmoqda?
  2. Korrupsiyani vujudga keltiruvchi sabablar qaysilar?
  3. Yurtimizda korrupsiyaga qarshi qanday ishlar olib borilmoqda?
  4. Jinoiy moyillikni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar qaysilar?
- Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish o‘z ichiga nimalarni oladi?

### **Testlar:**

1. BMTning Rivojlanish Dasturi nazariy tahliliga ko‘ra korrupsiyani vujudga kelishida qanday omillar muhim ro’l o‘ynagan?
  - A) Vakolat, hokimyat
  - B) O’zboshimchalik va shaxsiy manfaat

V) Hisobdorsizlik va oshkorasizlik, o'zboshimchalik va shxsiy manfaat, vakolat va hokimyat

G) To'g'ri javob berilmagan

2.Ilmiy adabiyotlarda korrupsiyani vujudga keltiruvchi umumiyl sabablar nechta?

### 3. Korrupsiyani vujudga keltiruvchi eng muhim omil qaysi?

- A) Normativ huquqiy bazani nuqsonlari
- B) Hokimiyat institutlari tizimining nuqsonlari mavjudligi
- V) Demokratik an'analar chuqur anglanmaganligi
- G) Hokimiyat Institutlari tizimining nuqsonlari mavjudligi

4. BMTning “Korrupsiyaga qarshi” konvensiyasi nechanchi yilda kuchga kirdi?

A) 2001-yil mart oyida                      B) 2005-yil dekabr oyida  
V) 2004-yil iyul oyida                      G) 2000-yil oktabr oyida

5. "Korrupsiyaga qarshi" xalqaro huquqiy hujjatga nechta davlat qo'shildi?

A) 140 davlat  
B) 100 davlat  
V) 150 davlat  
G) 100dan ortiq bo'lmagan davlatlar

6. Osiyo va Tinch okeani hududidagi 21 davlat nechanchi yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tasviriy xarakterga ega bo'lgan faktni qabul qilganlar?

7. Jinoyatchilik determinatsiyasining maxsus jarayonlari asosan nimalar bilan bog'liq?

A) asosan pul muomalasi bilan bog'liq

- B) mansab yoki boshqa xizmatlar
- C) pora yoki qo'shimcha haq undirilishi
- D) jinoyatlarning sabablarini va uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar bilan bog'liq

8. Ijtimoiy nazorat qanday xususiyatga ega bo'lishi kerak?

- A) rag'batlantiruvchi
- B) ta'kidlovchi
- C) ogohlantiruvchi
- D) ruhlantiruvchi

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

### **Rahbariy adabiyotlar:**

7. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishslash davr talabidir. -T.: O'zbekiston, 1997. 250 bet.
8. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997. 95, 298 bet.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard
4. Mirziyoev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.-488 b.
5. Mirziyoev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. - T.: "O'zbekiston", 2017. - 592 b.
6. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: O'zbekiston, 2017. - 512 b.
7. Mirziyoev Sh. M. "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" 3-jild. - T.: "O'zbekiston", 2019. - 400 b.
8. Mirziyoev Sh. M. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari". 4-jild. - T.: "O'zbekiston", 2020. - 452 b.
9. Mirziyoev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - T.: O'zbekiston, 2021. - 464 b.

## **Normativ-huquqiy hujjatlar:**

21. Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida qonun. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-son
22. Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida qonun. *O'zbekiston Respublikasining O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son*)
23. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 07.02.2017 йилдаги ПФ-4947-сон
24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
25. Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurash Konvensiyasi. Korrupsiyaga qarshi kurash muammolari: milliy va xalqaro tajriba. Xalqaro ilmiy-amaliy seminar materiallari. –T.: CHASHMA PRINT, 2010. B. 299.
26. Korrupsiyaga qarshi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasi (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) // O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari to'plami, 2008 yil, 3-4-son, 19-20-modda.
27. BMTning Xalqaro savdo operatsiyalarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash to'g'risidagi Deklaratsiyasi. Сборник международных договоров и законодательства Республики Узбекистан в сфере борьбы с коррупцией. –Т.: Центр повышения квалификации юристов, 2013. C.139.
28. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 yil, 20-son, 221-modda.
29. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi qonuni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 yil, 20-son, 222-modda.

30. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 3 dekabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 yil, 49-son, 578-modda.

### **I. Darsliklar, o'quv qo'llanmalar va qo'shimcha adabiyotlar:**

27. Abu Nasir Forobi. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993.
28. Зуфаров Р.А. Тенденция гуманизации уголовного законо-дательства Республики Узбекистан. O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini liberallashtirishning asosiy yo'nalishlari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2007 yil 12 dekabr). –T.: O'zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 2007. –S. 22-29.
29. Abdurasulova Q., Qurbonov O. Korrupsiya: asosiy tushuncha va shakllari (risola). – T.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
30. Зуфаров Р.А. Международно-правовые проблемы борьбы с коррупцией. //O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslari Axborotnomasi. 2010. №1, -C.29-332. 25. Проблемы борьбы с коррупцией: национальный и международный опыт. Материалы международного научно-практического семинара 20-21 октября 2009 года. –Т.: ЧАШМА ПРИНТ, 2010.
31. Temur tuzuklari. –T.: O'zbekiston, 2011
32. Zokirov I.B. boshqalar. Fuqarolik huquqi (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Maxsus qism. – T.: ILM ZIYO, 2011.
33. Axrorov B.J. Rustamboev M.H. Jinoyat huquqi (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Maxsus qism. – T.: ILM ZIYO, 2012 y.
34. Xojiyev E.T. Ma'muriy huquq (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: ILM ZIYO. 2012 y.
35. Matkarimova G. Yuldasheva G. Hozigi zamon xalqaro huquqi (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2012.

36. Karimova O. Huquqshunoslik. (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Qayta ishlangan va to'ldirilgan nashr.– T.: SHarq, 2014.
37. Zufarov R.A. Poraxo'rlik uchun jinoiy javobgarlik. – T.: TDYuI, 2004. – B. 83-84.
38. S.SHomirzaev. Korrupsiya: xorijiy mamlakatlar davlat va huquq tarixida unga qarshi kurashish masalalari// Huquq va burch. 2014. 7-son. 5.62-64.
39. Meliyev X. Milliy qonunchilik – korrupsiyaga qarshi// Huquq va burch. 2015. 4-son. 5.12-14.

### **Internet manbalari:**

<b>1. <a href="http://www.press-service.uz">www.press-service.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati
<b>2. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Hukumati portalı
<b>3. <a href="http://www.senat.uz">www.senat.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati
<b>4.<a href="http://www.parliament.gov.uz">www.parliament.gov.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi
<b>5. <a href="http://www.supcourt.uz">www.supcourt.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi
<b>6. <a href="http://www.genprok.gov.uz">www.genprok.gov.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
<b>7. <a href="http://www.minjust.uz">www.minjust.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
<b>8. <a href="http://www.mvd.uz">www.mvd.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
<b>9. <a href="http://www.customs.uz">www.customs.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi
<b>10.<a href="http://www.ombudsman.gov.uz">www.ombudsman.gov.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)
<b>11. <a href="http://www.serc.uz">www.serc.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Sud qonunchiliginin demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazi
<b>12. <a href="http://www.tsul.uz">www.tsul.uz</a></b>	Toshkent davlat yuridik universiteti

<b>13. <a href="http://www.vuk.uz">www.vuk.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasining Oliy o'quv kurslari
<b>14. <a href="http://www.uzmarkaz.uz">www.uzmarkaz.uz</a></b>	Yuristlar malakasini oshirish markazi
<b>15. <a href="http://www.huquqburch.uz">www.huquqburch.uz</a></b>	"Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali
<b>16. <a href="http://www.insonvaqonun.uz">www.insonvaqonun.uz</a></b>	"Inson va qonun" huquqiy gazetasi
<b>17. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
<b>18. <a href="http://www.metod.uz">www.metod.uz</a></b>	O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini Axborot-metodik ta'minlash xizmati
<b>19. <a href="http://www.natlib.uz">www.natlib.uz</a></b>	A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
<b>20. <a href="http://www.manaviyat.uz">www.manaviyat.uz</a></b>	Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi
<b>21. <a href="http://www.mgm.uz">www.mgm.uz</a></b>	Miliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi
<b>22. <a href="http://www.ziyo-net.uz">www.ziyo-net.uz</a></b>	Axborot ta'lim tarmog'i

## **4-Mavzu: Davlat va xususiy sektorda korrupsiya xavf-xatarlarni oldini olishda komplayens-nazorat (compliance control) tizimining o‘rni va ahamiyati.**

### **Reja:**

1. Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat tizimining tushunchasi va rivojlanish bosqichlari.
2. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida komplayens nazorat tizimini joriy etish masalalari.
3. Xalqaro hujjatlarda komplayens nazorat tizimini joriy etishga oid standart va tavsiyalar.
4. Xorijiy davlatlarda korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat tizimining samarali modellari (AQSH, Buyuk Britaniya, Xitoy, Braziliya, Sloveniya misolida).

**Tayanch so‘z va iboralar:** komplayens nazorat, O‘zbekistonda kompleyans nazorat, xalqaro hujjatlar, horijiy davlatlarda komplayens nazorat, rivojlangan davlatlarda komplayens nazorat.

**Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat tizimining tushunchasi va rivojlanish bosqichlari.** Bugungi kunda korrupsiya muammosiga jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkin. Korrupsiya so‘nggi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida tomonidan keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir.

Ta’kidlash lozimki, korrupsiya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun teng sanalib, mazkur illat davlatning turli sohalariga, xususan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imidji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “Jamiyatimizda korrupsiya illati o‘zining turli ko‘rinishlari bilan taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmaydi”

Korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor huquqiy asoslari qator xalqaro huquqiy normalarda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 2003 yil 31 oktyabrdan qabul qilingan BMT ning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi;
- 2000 yil 15 noyabrdan qabul qilingan BMT ning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi;
- 1999 yil 27 yanvardagi Yevropa Kengashining “Korrupsiya uchun jinoi javobgarlik to‘g‘risida” gi Konvensiyasi;
- 1999 yil 4 noyabrdagi “Korrupsiyaga uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to‘g‘risida” gi Konvensiyalarini va boshqalar.

O‘zbekiston yuqorida ta’kidlangan xalqaro normalardan 2008 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi, shuningdek, 2010 yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha Istanbul Harakat rejasini ratifikatsiya qilgan.

Aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdagи jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliy hayotga tatbiq etilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-sonli “O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini

takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Farmoni qabul qilinib, mazkur Farmon asosida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzaqlarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi tashkil etildi.

Farmon bilan, Agentlikka Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqi Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tarmog‘ining Istanbul harakatlar dasturi doirasidagi ishlar hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amalga oshirilishini ta’minalash, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa xalqaro shartnomalari qoidalarining bajarilishi bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ushbu yo‘nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy koordinatori vazifa va vakolatlari, shuningdek fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalar kesimida korrupsiyaning darajasini baholovchi milliy indeks tuzishni tashkillashtirish yuklatildi.

Shuningdek, mazkur Farmon asosida quyidagi chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilanligi ahamiyatlidir, xususan:

- 2020–2021 yillarda barcha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplayens-nazorat”) ni bosqichma-bosqich joriy etish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati, shuningdek ushbu sohadagi davlat va boshqa dasturlar samaradorligini monitoring qilish hamda baholash imkonini beruvchi E-Anticor.uz elektron platformasini joriy etish;
- korrupsiya holatlari haqida xabardor qilish imkonini beruvchi maxsus mobil dasturiy ta’motni joriy etish.

Xorijiy amaliyot tahlili shuni ko‘rsatdiki, bozor iqtisodiyoti qonunlarga asoslangan mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat va xususiy sektor ishtirokchilarining xalqaro standartlar, qonun hujjatlari va boshqa zamonaviy usullarga muvofiq samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi muhim vositalardan biri o‘z tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat (compliance control) tizimini tashkil etish hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorati – davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me’yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlash va chek qo‘yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbarliklar haqida xabar berishni o‘zida mujassam etgan profilaktik tizimdir. Qayd etish lozimki, olib borilayotgan islohotlarni amaliy hayotga tatbiq etish maqsadida 2020 yil 4 fevralda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha Vakili (Ombudsman) tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha idoraviy chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan bo‘lib, fuqarolar va yuridik shaxslar vakillari tomonidan korrupsiya haqida xabar berish mexanizmlari joriy etilganligi ahamiyatlidir, xususan bugungi kunda:

- Ombudsmanning “10-96” ishonch telefoni va virtual qabulxonasi faoliyat yuritmoqda;
- fuqarolar va yuridik shaxslar vakillarining korrupsiyaviy holatlar bo‘yicha hamda xodimlarning boshqa qonunga xi洛 ishlari to‘g‘risidagi murojaatlari tahlil qilinib boriladi, ularning natijalari odob-axloq komissiyasi yig‘ilishlarida muhokama qilinadi.
- Ombudsman Kotibiyatiga ishga birinchi marta qabul qilinayotgan shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida yo‘l-yo‘riqlarni tushuntirish, xizmat vazifasiga qo‘yiladigan asosiy majburiyatlar, ta’qiqlar, cheklar, talablar va idoraviy odob-axloq qoidalari mazmun-mohiyati 3 ish kunidan kechiktirmay tushuntiriladi.

– Vakilga korrupsiya bilan bog‘liq bo‘lgan murojaatlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 2020 yilning 6 oy davomida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 26-moddasiga muvofiq Ombudsman tomonidan Bosh prokuraturaga 17 ta murojaat yuborilgan (2019 yil – 21 ta). Ushbu murojaatlardan 2 tasi o‘z tasdig‘ini topgan.

Sohada amalga oshirilayotgan ushbu mazmundagi islohotlarning natijasi sifatida Transparency International xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan har yili e’lon qilib boriladigan “Korrupsiyani qabul qilish indeksi” da O‘zbekiston 180 ta davlat orasida 2017 yilda 157-o‘rin, 2018 yilda esa 158-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2019 yilda 25 ball bilan 153-o‘rinni egallab, 5 pog‘onaga ko‘tarildi.

Bundan tashqari, Jahon odil sudlov loyihasining Huquq ustuvorligi indeksidagi “Korrupsiyadan holilik” indikatorida O‘zbekiston 2019 yilda 0,38 ball bilan 95-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2020 yil bo‘yicha 128 davlat orasida 0,40 ball bilan 89-o‘rinni egallab, 6 pog‘onaga ko‘tarilganligi malakatimizda korrupsiyaga qarshi tizimli olib borilayotgan islohotlarning samarasidir.

Mamlakatimizda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, huquqni qo‘llash amaliyotida mansabdor shaxslarning korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etayotganlik holatlari hali hamon uchramoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2017–2019 yillar davomida 6127 nafar mansabdor shaxsning pora olishi bilan bog‘liq jinoiy javobgarlik masalasi hal qilinganligi, 2019 yilning dastlabki olti oyida jami 661 nafar turli toifadagi mansabdor shaxslarga nisbatan korrupsiya bilan bog‘liq 590 ta jinoyat ishlari qo‘zg‘atilganligi, korrupsiyaga qo‘l urgan va jinoyati fosh qilingan mansabdor shaxslarning 25 nafari respublika, 36 nafari viloyat va 476 nafari tuman-shahar miqyosidagi vazirliklar, idoralar hamda korxona va tashkilotlarda ishlab kelganligi, korrupsiya jinoyatlarining asosan tibbiyot, ta’lim, davlat xizmati ko‘rsatish, xususan tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga litsenziya va ruhsat berish bilan bog‘liq sohalarda hali hamon kamaymayotganligi tashvishlidir.

Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ko‘plab davlatlarda, xususan Singapur, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH kabi rivojlangan

mamlakatlarda “Davlat xizmati to‘g‘risida” gi, “Davlat xizmatida jamoatchilik nazorati to‘g‘risida” gi Qonunlar hamda davlat xizmatchilar, mansabdar shaxslar, shuningdek sudyalarning xatti-harakat me’yorlarini tartibga soluvchi Axloq kodekslari mavjud ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

E’tiborli jihat shundaki, mazkur normalar bilan davlat xizmatchilarining olishi mumkin bo‘lgan sovg‘a yoki hadyalarning aniq miqdori ham belgilab qo‘yilgan. Masalan, AQSH da ushbu miqdor 20 AQSH dollarini, Fransiyada 35 yevro, Buyuk Britaniyada 140 funt, Rossiyada 3000 rubl etib belgilangan, Kanadada esa mansabdar shaxslarning pul ko‘rinishidagi sovg‘alar qabul qilishi qat’iyan taqiqlanadi, Singapurda davlat boshqaruvida faoliyat ko‘rsatuvchi mansabdar shaxslarning gonorar, zaym, qimmatli qog‘ozlar kabi to‘lovlarni olishi ta’qiqlangan.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan yuqoridagi xorij tajribasi vazirlik tizimida joriy qilingan bo‘lib, unga ko‘ra xodimlarning fuqarolar, boshqa tashkilotlar xodimlari, jumladan turli joylar va xorijiy mamlakatlarga uyushtiriladigan xizmat safarlari davomida sovg‘alar olishi taqiqlandi. Xorijiy safarlar davomida olingan sovg‘alar, vazirlikka o‘tkaziladigan tartib joriy qilindi.

Bundan tashqari, bugungi kunda ilg‘or xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish jarayonida qo‘llayotgan usullaridan biri bu davlat xizmatchilarining mol-mulki, daromadlari hamda katta hajmdagi harajatlarini deklaratsiya qilishning majburiy etib belgilanganligidir. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad mansabdar shaxslarning noqonuniy daromad olishni oldini olish va manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etishdan iboratdir. Davlat xizmatida ushbu usul bugungi kunda 150 dan ortiq mamlakatda qo‘llanilmoqda.

Ta’kidlash joizki, davlat xizmatchilarining mulkiy deklaratsiya tizimi korrupsiyaning oldini olish, noqonuniy boyish va manfaatlar to‘qnashuvini aniqlashning qudratli vositasidir. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga a’zo mamlakatlarning aksariyatida aktivlarni deklaratsiyalashning keng jamoatchilik uchun oshkora tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Korrupsiyaga qarshi amaldagi xalqaro standartlar, jumladan, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va boshqa qator huquqiy hujjatlarda davlat xizmatchilari tomonidan aktivlarning e'lon qilinishi korrupsiyaga qarshi samarali vosita ekani e'tirof etilgan.

Bu borada Daniya tajribasiga ko'ra, 2002 yilda qabul qilingan "Korrupsiya to'g'risida" gi Daniya Qonuni korrupsiyaning oldini olish chora-tadbirlarining ustuvorligini belgilovchi, ta'sirchan ogohlantiruvchi xususiyatga ega bo'lgan asosiy normativ-huquqiy hujjatdir. Xususan, ushbu qonunning qoidalari Daniya hukumati vakillarini har yili o'z mol-mulki va shaxsiy daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni nashr etishga, xorijiy kompaniyalarda aksiyalarga ega bo'lishni taqiqlashga majbur qiladi, bu ularning boshqaruv faoliyatining oshkoraliyi va shaffofligini, korruption holatlarini oldini olishga yordam beradi.

Korrupsiyani oldini olishning muhim omili shundaki, mamlakatda davlat xizmatchilari yuqori darajadagi ijtimoiy muhofazaga ega: ular bepul tibbiy xizmat va ta'lim olish huquqiga va ijtimoiy kafolatlarga tayanishlari mumkin, bu esa korruption harakatlar ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi.

Bundan tashqari, Finlyandiyada Moliya vazirligi davlat xizmatchilari axloqining asosiy muvofiqlashtiruvchi organi hisoblanishi bilan xarakterlidir. Moliya vazirligi hukumat amaldorlari uchun imtiyozlar va sovg'alarni berish va olish tartibini belgilaydi, shuningdek davlat xizmatchilari daromadlarini tekshirish vakolatiga ham ega. Finlyandiya milliy taftish byurosi (NAOF) esa mamlakatda korrupsiyani oldini olish maqsadida yilda ikki marotaba markaziy hukumat moliyasini tekshiradi, soliq siyosatini nazorat qiladi va siyosiy partiyalar va saylov kompaniyasini moliyalashtirishni nazorat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar, korrupsiyaga qarshi kurashish hamda mazkur turdag'i jinoyatlarni oldini olish borasida mamlakatimizda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligini ko'rsatmoqda:

birinchidan, "Davlat xizmati to'g'risida" gi Qonun loyihasi ishlab chiqilib, muhokama qilinayotgan bo'lsa-da, hali hamon mazkur Qonun qabul qilinganicha yo'q. Shu sababdan "Davlat xizmati to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi

Qonunini, shuningdek davlat xizmatchilarining Axloq kodeksini qabul qilish, mazkur normalarda davlat xizmatchilarining o‘z faoliyatini olib borish jarayonida amal qilishi lozim bo‘lgan hamda korrupsiyani vujudga kelishiga imkon yaratib beruvchi sabab va shart-sharoitlarni oldini olishga qaratilgan me’yorlar aks ettirilishi maqsadga muvofiqdir;

ikkinchidan, xalqaro va ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o‘rgangan holda davlat xizmatchilarining mol-mulki, daromadlari hamda katta hajmdagi harajatlarini deklaratsiya qilishni tartibga soluvchi normalarni milliy qonunchilik tizimiga implemenetatsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Bu esa o‘z navbatida mansabdor shaxslarning mol-mulkidagi o‘zgarishlarni muntazam ravishda kuzatish imkoniniyatini beradi, deklaratsiyalarining ommaviyligi, ya’ni jamoatchilik uchun ochiqligi esa ularning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ahamiyatini yana-da oshirishi shubhasizdir.

O‘zbekistonning yangilangan siyosati jamiyatdaadolat va qonun ustuvorligini oliy darajaga ko‘tarish, zamonaviy samarali davlat boshqaruvini joriy etish, davlat hizmatchilarida korrupsiyaviy holatlarning barcha ko‘rinishlariga qat’iy chidamsizlik ruhiyatini shakllantirish, xalq manfaatlarini so‘zsiz ta’minalash kabi yuksak g‘oyalarga tayanmoqda. Avvalo, ushbu islohotlarning tub zamirida Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ustuvor g‘oya «Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak» asosiy tamoyilga muvofiq barcha imkoniyatlar xalqimiz manfaatlari yo‘lida safarbar etilishi ustuvor vazifa etib belgilanmoqda.

Bu o‘rinda islohotlarning chinakam natijadorligiga erishish maqsadida davlat va jamiyatning har bir sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini izchil ta’minlab borish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta’kidlash joizki, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minalash hamda korrupsiya ko‘rinishlarining oqibati bilan emas, balki sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo‘yicha xalqaro tajribada keng qo‘llanilib kelayotgan zamonaviy jinoyatchilikni oldini olish choralarни milliy amaliyotga tatbiq etishni taqozo qilmoqda.

Bu o‘rinda Prezidentning 2020 yil 29 iyundagi «O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-6013-sonli Farmonga asosan yangi tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining asosiy vazifalaridan biri etib

2020-2021 yillarda barcha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lgan korxonalar, shu jumladan banklarda korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy nazorat tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish belgilandi.

Xorijiy amaliyot tahlili shuni ko‘rsatdiki, bozor iqtisodiyoti qonunlarga asoslangan mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat va xususiy sektor ishtirokchilarining xalqaro standartlar, qonun hujjatlari va boshqa zamonaviy usullarga muvofiq samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi muhim vositalardan biri o‘z tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat (compliance control) tizimini tashkil etish hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorati – davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me’yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlash va chek qo‘yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbazarliklar haqida xabar berishni o‘zida mujassam etgan profilaktik tizimdir.

Komplayens nazorat tizimi ilk bor AQSHda 1906 yilda vujudga keldi. Bunga zaruriyat mamlakat iqtisodiyotida xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan kompaniya va korporasiyalarning tashkil etilishi bilan bog‘liqdir.

O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan bugungi kunlargacha yirik kompaniyalar bilan bo‘lgan nizoli vaziyatlar (Volkswagen, Daimler, Siemens (Germaniya) Odenbrecht, Petrobras (Braziliya), Samsung Group, Hyundai Motor Co. (Koreya Respublikasi), BAE Systems (Buyuk Britaniya), Baker Hughes Inc, Panalpina World Transport (AQSH) va boshqalar) xususiy sektorda korrupsiyaga kurashish tizimlarni tubdan isloh etishni taqozo qildi.

Bugungi kunda “Baker and McKenzie” xalqaro yuridik firmaning 2019 yilgi rasmiy ma’lumotlariga asosan 150 dan ortiq mamlakatlardagi kompaniyalarida korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat tizimi joriy etilgandir.

Masalan, birgina Buyuk Britaniyaning 1 mlrd. funt sterling kapitalga ega bo‘lgan 800 dan ortiq korporasiya va banklarida tashkil etilgan ushbu tizim turli korrupsiya xavflaridan himoya qiluvchi kompleks choralar sifatida baholandi va hozirda uning samarali jihatlaridan keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Fransiyada 800 000 yevrodan oshiq kapitalga ega bo‘lgan barcha korporasiya va banklar korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat tizimlarini joriy etgan bo‘lishlari shart.

Komplayens nazorat tizimini joriy etish bo‘yicha samarali tajribaga ega mamlakatlar amaliyatiga muvofiq ushbu xizmat eng keng tarqalgan quyidagi ikkita modeli qo‘llaniladi:

1. Kompaniya va tashkilot faoliyatini faqatgina mavjud o‘rnatilgan ichki qonun

va qoidalarga muvofiq tashkil etishga qaratiladi. Bunda komplayens xizmatini joriy etilishi minimal qoidalar bilan cheklanadi.

2. Komplayens nazorat tizimining tashkil etilishi korrupsiya xavflarni baholashda xalqaro tashkilotlarning (Bazel bank qo‘mitasining tavsiyalari, Xalqaro komplayens assosiasiyasi) tavsiyalariga asoslanadi va bu modelda komplayens xizmatning maqomi, vazifasi, faoliyat doirasi asosan xalqaro standart va tavsiyalarga asoslanadi.

Mazkur ikki modelning o‘zaro farqli jihatni, birinchi modelda komplayens nazorat tizimini o‘zida tashkil etayotgan kompaniya yoki tashkilot mavjud qonunlik me’yorlari yoki o‘zi ishlab chiqqan ichki qoidalar bilan tartibga solinadi va joriy etishning minimal talablari bilan cheklanadi.

Ikkinci modelda esa faoliyatni tashkil etish nafaqat milliy qonunchilik, balki xalqaro standartlar va tashkilotlarning tavsiyalarini asosida joriy etiladi. Ushbu shaklda ichki qonunchilik normalarida ko‘zda tutilmagan korrupsiya xavflariga

faoliyat mos keladigan qo'shimcha profilaktik qoidalarni joriy etish mumkin bo'ladi.

Mazkur tajriba samaradorligi bilan ajralib turadi va asosan yirik iqtisodiy salohiyatga ega AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy kabi davlatlar amaliyotiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aksariyat xorijiy davlatlarda komplayens nazorat tizimi alohida qonun hujjati tartibga solingani ahamiyatga molikdir. Misol uchun AQSHda "Xorijda korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi Akt" (Foreign Corrupt Practices Act, 1977), "Sarbeynz-Oksli Akti" (Sarbanes-Oxley Act, 2002), "Dodd-Frank Akti" (Dodd -Frank Act, 2010) nomli qonun hujjatlarida AQSH bozorida ishtirok etuvchi har qanday korporasiya va kompaniyalarning o'z tarkibida komplayens nazorat tizimini tashkil etishni majburiy qoida sifatida belgiladi.

Bu o'rinda ushbu sohani tartibga solishga qaratilgan Sloveniya qonunchiligi o'ziga xosligi bialn ajralib turadi. Xususan, 2014 yil 26 aprelida qabul qilingan "Clossenya davlat xoldinggi akti to'g'risida"gi (Slovenian sovereign holding Act, 2014) Qonunida komplayens nazorat tizimining maqomi va vakolatlari belgilangan.

Qonunning o'ziga xosligi shundaki, unda komplayens xizmatida kadrlar masalasiga (**compliance officer**) to'xtalib o'tilgan hamda kompaniya ichidagi korrupsiyaga oid huquqbazarliklar haqida xabardor etishga (**whistleblowing policy**) aniq qoida va tartibni keltirib o'tadi.

Davlatimizning korrupsiyaga qarshi qonunchiligidagi komplayens nazorat tizimi amaliyotining kirib kelishi O'zbekiston Respublikasi 27.05.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-sonli Farmonida ushbu sohada belgilangan asosiy vazifalardan biri etib, ustav jamg'armasida davlat ulushi bo'lgan korxona va tashkilotlarda qarshi kurashish choralarini kuchaytirish maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat tizimini joriy etish va uning samaradorligini tizimli monitoringini amalga oshirish vazifasi belgilandi.

Ushbu normativ hujjatlar ilk bor komplayens nazorat tizimini milliy darajada joriy etish masalasi ko‘tariladi.

Farmon asosida 2019 yildan boshlab BMT Taraqqiyot dasturining “O‘zbekistonda samarali, hisob beruvchi va oshkora boshqaruvin institutlari orqali korrupsiyaga karshi kurashish” loyihasini amalga oshirish doirasida Bosh prokuratura, Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor idoralar bilan hamkorlikda ustav jamg‘armasida davlat ulushi 100% yoki 50% dan yuqori bo‘lgan faoliyatni xorijiy bozor bilan integrasiyalashgan bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar faoliyatida tajriba sifatida komplayens nazorat tizimini joriy etish bo‘yicha “White and Case” (AQSH), KPMG (Italiya) xalqaro auditorlik kompaniyalari ishtirokida xalqaro tender jarayonlari o‘tkazildi.

Davlat va xususiy sektor faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish «komplayens nazorat» tizimini joriy etishning qator samarali omillarga xizmat qiladi.

Jumladan, mazkur tizim korrupsiya xavf-xatarlarini o‘z vaqtida aniqlash va chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish hamda ularni minimum darajaga tushirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston respublikasi prezidentining farmonida aytiladiki:

“Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi murosasiz kurashishning ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan tizimini joriy etish bo‘yicha izchil choralar ko‘rilmoxda.

Jumladan, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkorlik va shaffoflikni ta’minlash hamda mansabdor shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligini yo‘lga qo‘yish orqali davlat boshqaruvida samarali va ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratildi.

Ilk bor korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va tizimli tahlil qilish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish uchun mas’ul bo’lgan alohida organ — Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Davlat hokimiyati organlari va yirik xo’jalik yurituvchi subyektlarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda.

Raqamli texnologiyalar imkoniyatidan keng foydalangan holda transport vositalariga davlat raqam belgilarini berish, notariat va boshqa davlat xizmatlarini ko‘rsatish, yer uchastkalarini ajratish, yo‘l harakati qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish kabi ko‘plab sohalarda korrupsiya va suiiste’molchiliklarning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlar joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, ko‘rilayotgan tizimli choralarga qaramasdan, budjet mablag‘laridan foydalanish, davlat xaridlari, kapital qurilish, litsenziya va ruxsatnomalarni olish, bank kreditlarini ajratish, ishga qabul qilish kabi yo‘nalishlarda korrupsiya holatlari saqlanib qolmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaviy holatlarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini oshirish, ushbu jarayonga jamoatchilikni keng jalb etish va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini shakllantirish maqsadida:

1. Mamlakat rivojlanishining bugungi bosqichida korrupsiya O‘zbekiston davlati va jamiyati taraqqiyoti uchun eng jiddiy xavf-xatarlardan biri ekanligi qayd etilsin.

Korrupsiya holatlarining har qanday ko‘rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish va unga qarshi ayovsiz kurashish barcha darajadagi davlat organlari rahbar va xodimlarining eng ustuvor vazifasi etib belgilansin.

Bosh prokuratura, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik), Davlat xavfsizlik xizmati va Ichki ishlar vazirligi korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlariga nisbatan javobgarlik muqarrarligini ta’minlash uchun barcha kuch va vositalarni safarbar etsin.

2. Keng jamoatchilikning fikri va takliflarini inobatga olib, davlat boshqaruvini korrupsiyadan xoli sohaga aylantirish maqsadida:

a) Agentlik tomonidan “Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestri” (keyingi o‘rinlarda — Reyestr) yuritilishi ta’minlansin;

b) Reyestrga kiritilgan shaxslarga quyidagilar taqiqlansin:  
davlat xizmatiga kirish va davlat mukofotlari bilan taqdirlanishi;  
saylanadigan va alohida tartibda tayinlanadigan lavozimlarga nomzodlarining ko‘rsatilishi;

davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari hamda idoralararo kollegial organlarning a’zosi bo‘lish;

ular tomonidan ta’sis etilgan va (yoki) ular ishtirokchisi hisoblangan tadbirkorlik subyektlari davlat xaridlarida va davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimda ishtirokchi (ijrochi) sifatida qatnashish, shuningdek, davlat aktivlarini xususiylashtirish bilan bog‘liq tender va tanlov savdolarida ishtirok etish;

davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan tashkilotlar hamda davlat ta’lim muassasalarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritish.

3. Agentlik Bosh prokuratura, Oliy sud, Adliya vazirligi, Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda Reyestrni va u bilan bog‘liq cheklovlarni amaliyotga joriy etishga qaratilgan qonun loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kirtsin.

Belgilansinki, Reyestrga mazkur bandning birinchi xatboshisida nazarda tutilgan qonun kuchga kirganidan so‘ng korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan shaxslar kiritiladi.

4. 2022-yil 1-yanvardan boshlab, davlat xizmatchilari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan tashkilotlar, davlat korxonalari va muassasalari rahbarlari va o‘rinbosarlari, ularning turmush o‘rtog‘i va voyaga yetmagan farzandlarining daromadlari va mol-mulkini majburiy deklaratsiya qilish tizimi joriy etilsin.

Shunday tartib o‘rnatisinki, unga muvofiq:

davlat xizmatchisi tomonidan deklaratsiyani taqdim etishdan bosh tortish va qasddan noto‘g‘ri ma’lumotlarni kiritish uni davlat xizmatidan chetlashtirishga va qonunda belgilangan javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi;

2022-yil 1-yanvardan boshlab davlat xizmatchilariga respublika hududidan tashqarida hisobraqamlar ochish va egalik qilish, naqd pul mablag‘larini saqlash, ko‘chmas va boshqa mol-mulkka ega bo‘lish taqiqlanadi (xorijda ishlayotgan davlat xizmatchilari va davlat xizmatiga kirishdan oldin olingan mol-mulk bundan mustasno).

Agentlik Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda davlat xizmatiga oid qonunchilik hujjatlari paketi, shuningdek, deklaratsiyalash tizimini joriy etish mexanizmlari, deklaratsiya taqdim etishi lozim bo‘lgan davlat xizmatchilari va ularning oila a’zolari toifasini nazarda tutuvchi “Davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulkini deklaratsiya qilish to‘g‘risida”gi qonun loyihasini jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazib Vazirlar Mahkamasiga kirtsin.

5. Belgilansinki, qonunchilik hujjatlarida ko‘rsatilgan lavozimni egallab turgan shaxsning bevosita yoki bilvosita shaxsiy manfaati mansab (xizmat) majburiyatlarini obyektiv va xolis bajarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi yoki shunday ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan vaziyatlar manfaatlar to‘qnashuvi hisoblanadi hamda bunday vaziyatlarni oshkor qilish va ularning oldini olish bo‘yicha o‘z vaqtida chora ko‘rmaganlik o‘rnatilgan tartibda javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Agentlikka manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq har qanday holatlar aniqlanganda, shartnoma, buyruq va boshqa hujjatning amal qilishini to‘xtatib turish to‘g‘risida taqdimnoma yoki uni haqiqiy emas deb topish bo‘yicha sudga da’vo kiritish vakolati berilsin.

Adliya vazirligi Agentlik, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi va Bosh prokuratura bilan birgalikda 2022-yil 1-yanvarga qadar “Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish to‘g‘risida”gi qonun, shuningdek, davlat xaridlari, soliq imtiyozlari, yer ajratish, davlat aktivlarini xususiylashtirish sohalarida manfaatlar

to‘qnashuviga yo‘l qo‘yanlik uchun javobgarlikni o‘rnatishni nazarda tutuvchi qonun loyihalarini ishlab chiqib Vazirlar Mahkamasiga kirlitsin.

6. Bosh prokuratura Agentlik, Oliy sud, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi va Adliya vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kirlitsin:

Jinoyat kodeksida korrupsiyaga oid jinoyatlar toifasiga kiruvchi moddalarning aniq ro‘yxatini belgilash;

korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun belgilangan jazo choralarini uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazo chorasingacha keskin kuchaytirish;

daromadlar va mol-mulkni deklaratsiyalash jarayonida aniqlangan noqonuniy boylik orttirganlik uchun javobgarlik o‘rnatish;

korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoiy jazoni o‘tashda yengillashtiruvchi normalar qo‘llanilishiga cheklovlar belgilash.

7. Davlat xaridlarida raqobatli savdo turlarini cheklovchi to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar, investitsiyaviy, davlat-xususiy sheriklik, xususiylashtirish va boshqa bitimlarni tuzishni nazarda tutuvchi qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha tashabbus bilan chiqish qat’iyan taqiqlansin.

8. Vazirlar Mahkamasi, Bosh prokuratura va Adliya vazirligi ikki oy muddatda ilg‘or xorijiy tajriba asosida davlat moliyaviy nazorat institutlarini maqbullashtirib, ularning samarali modelini joriy etish va ushbu sohada parlament nazoratini kengaytirish bo‘yicha taklif kirlitsin.

9. Adliya vazirligi Bosh prokuratura va boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2021-yil 1-noyabrga qadar:

barcha inspeksiyalarning vazifa va funksiyalari, vakolatlari, huquq va majburiyatlarini, tashkiliy tuzilmalarini qayta ko‘rib chiqib, takomillashtirish;

boshqa shakldagi (qo‘mita, agentlik, xizmat) davlat boshqaruvi organlarining nazorat sohasidagi funksiyalarini maqbullashtirishni nazarda tutuvchi qonunchilik hujjatlari loyihalarini Vazirlar Mahkamasiga kirlitsin.

10. Mahalliy budget mablag‘laridan foydalanishdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf qilish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shahar Kengashlari muntazam ravishda mahalliy budgetlarning qo‘srimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘lardan foydalaniishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

Oliy Majlis palatalariga Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi bilan birgalikda ikki oy muddatda mahalliy budgetlar hisobidan tashkil etilgan vaqtinchalik va maxsus jamg‘armalar mablag‘laridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash tavsiya etilsin.

11. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2021-2022-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Agentlik davlat dasturida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi ustidan muntazam ravishda nazorat olib borsin va har chorak yakunlari bo‘yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashiga axborot kiritib borsin.

Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi (T. Narbayeva) davlat dasturida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini har chorakda tanqidiy muhokama qilib borsin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlari 3-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

13. Agentlik bir oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmonidan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘srimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

14. Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil etishga mas’ul etib Bosh prokuror N.T. Yo‘ldoshev, Agentlik direktori A.E. Burxanov va Davlat xavfsizlik xizmati raisi A.A. Azizov belgilansin.

Farmon ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining

Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi raisi T.K. Narbayeva, O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

Farmanning keying qism ilovalari mazmuni ham uni muvofiqlashtirish va ishlarni taqsimlanishiga qaratilgan bo'lib, zamonaviy standartlarda asoslantirilgandir.

**Xorijiy davlatlarda korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat tizimining samarali modellari (AQSH, Buyuk Britaniya, Xitoy, Braziliya, Sloveniya misolida).** Hozirda rivojlangan mamlakatlarda ham korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarlarni uchratish mumkin, lekin ular doimiy ravishda korrupsiya bilan qarshi kurashib keladi va korrupsiya darajasi kamligi bo'yicha jahon reytingida yuqori o'rnlarda turadi, Jumladan, Transperensy International xalqaro nohukumat tashkilotining 2020-yildagi statistik ma'lumotlariga ko'ra, korrupsiya darajasi past mamlakatlar reytingida Yangi Zelandiya 1, Daniya 2, Finlandiya, Singapur, Shvitsiya 3-o'rinni egallagan bo'lsa, Markaziy Osiyo davlatlaridan Qozog'iston 94, Qирг'зистон 124, O'zbekiston 146-o'rinni egallagan. Hech bir davlat korruksiyadan, uning zararli oqibatlaridan mutlaq himoya qilinmagan. Shu sababli har bir davlat qonunlarida korrupsiyaga qarshi kurash eng dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Xususan, Xitoy Jinoyat kodeksining 382-moddasiga ko'ra davlat xizmatchilarining o'z mansab imtiyozlaridan foydalangan holda davlat mulkini o'zlashtirib olishi, o'g'irlashi, firibgarlik yo'li bilan olishi yoki boshqacha tarzda o'zlashtirishi korrupsiya deb hisoblanadi. Shuningdek, davlat organlari, davlat korxonalari, korxonalar, tashkilotlar, xalq birlashmalari davlat mulkini boshqarish va xo'jalik yuritish ishonib topshirilgan shaxslarning o'z xizmat afzalliklaridan foydalangan holda o'zlashtirib olishi, o'g'irlashi, aldash yo'li bilan davlat mulkini boshqa yo'llar bilan noqonuniy egallab olishi ham korrupsiya sifatida baholanishi belgilangan. Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning og'ir-yengilligiga qarab javobgarlik belgilangan bo'lib, 100 ming yuandan ortiq miqdordagi yakka tartibdagi korrupsiya uchun o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi, agar mol-mulki musodara

qilingan holda yoki unsiz yillar yoki muddatsiz ozodlikdan mahrum qilish, jazoni o'ta og'irlashtiruvchi holatlarda – o'lim jazosi va mol-mulkini musodara qilish belgilangan. Bundan tashqari Xitoy qonunchiligiga ko'ra, mol-mulk yoki xarajati uning qonuniy daromadidan oshib ketgan har qanday davlat amaldoriga, farq juda katta bo'lgan taqdirda, o'z mulkining manbalarini tushuntirish majburiyati yuklanadi. Agar u manbalar qonuniy ekanligini isbotlay olmasa, uning qonuniy daromadidan oshadigan qismi noqonuniy boylik deb hisoblanadi. Har qanday davlat amaldori Xitoy tashqarisidagi bankda saqlanuvchi o'z mablag'lari haqida tegishli tartibda davlatga xabar qilishi shart. Bizning fikrimizcha, Xitoy qonunchiligidagi korrupsiyaga qarshi kurashda yaxshi amaliyat yo'lga qoyilgan bo'lib, bunda mansabdor shaxslarning mol-mulki deklaratsiya qilinib, ortiqcha qismi qayerdan kelganligini asosli ma'lumotlar bilan isbotlay olmasa, korrupsiya sifatida baholanadi va mansabdor shaxsning javobgarlikka tortilishiga asos bo'ladi.

Germaniya huquqshunoslarining fikriga ko'ra, mansabdorlik jinoyatlari nafaqat sub'ekt – mansabdor shaxsning belgisi bo'yicha, balki himoya qilinadigan ob'ekt – davlat apparati normal amal qilishi bo'yicha ham birlashtirilgan. "Basharti shaxs: a) amaldor yoki sudya hisoblanadigan; b) boshqa ommaviy-huquqiy xizmat munosabatlarida bo'lsa; v) ommaviy boshqaruv vazifalarini qaysidir hokimiyat organida yoxud boshqa muassasada yo uning topshirig'iga ko'ra amalga oshirishga da'vat etilgan bo'lsa, u mansabdor shaxs hisoblanadi". Bundan tashqari, "bevosita ommaviy xizmat qilishga da'vat etilgan", ya'ni "mansabdor shaxsning o'zi bo'lmasada, hokimiyatning qaysidir organida ommaviy boshqaruv vazifalarini amalga oshirayotgan yoki bunday vazifalarni amalga oshiruvchi muassasa yoxud birlashmada band bo'lgan xodim mansabdorlik jinoyatlarining sub'ekti hisoblanadi". Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksining 332-moddasiga ko'ra korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar uchun olti oydan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan. Demak, Germaniya qonunchiliga korrupsiya uchun tayinlanadigan jazo uncha og'ir bolmasada, lekin ushbu jinoyatning sub'ekti faqatgina mansabdor shaxs emas,

balki davlat organlarining har bir xodimi ham bo'lishi mumkin va ular bir xil javobgarlikka tortiladi.

Ispaniya Jinoyat kodeksi esa, poraxo'rlik jinoyatini pora evaziga amalga oshirilgan xatti-harakatlarning qonuniy yoki noqonuniyligiga ko'ra ikki turga ajratadi. Kodeksning 419-moddasiga ko'ra, mansabdor shaxs yoki davlat xizmatchisining o'z xizmat majburiyatlarini buzish yoki bajarmasligi evaziga o'zi yoki uchinchi shaxslar foydasini ko'zlab, sovg'a, mukofot yoki har qanday ko'rinishdagi taqdirlashni qabul qilishi, so'rashi yoki qabul qilishga rozilik bildirishi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, uch yildan olti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi, shuningdek, davlat xizmati bilan shug'ullanishni alohida taqiqlash va sodir etgan qilmishi uchun yetti yildan o'n ikki yilgacha muddatga mansabdor bo'lismish taqiqlanadi. Kodeksning 420-moddasi shunday xatti-harakat yoki harakatsizliklarni o'z majburiyatlarini buzmagan holda sodir etish uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi. Ispaniya qonunchiligidagi shuni ko'rishimiz mumkinki, agar davlat organi xodimlari korrupsiya bilan bog'liq jinoyatni sodir qilsa, u faqatgina jinoiy javobgarlikka tortilib qolmasdan muayyan muddatga davlat xizmatida ishlashi taqiqlanadi. Bu korrupsiyaga qarshi kurashishning o'ziga xos yo'li hisoblanib, korrubsiyani oldini olishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Janubiy Koreya Jinoyat kodeksining 129-moddasi pora olishdan tashqari, pora so'rash va pora olishga va'da berish uchun ham javobgarlikni belgilaydi. E'tiborga molik jihat shundaki, mazkur davlat jinoyat qonunchiligi nafaqat pora berish yoki pora berishni va'da qilishni, balki shaxsning pora berish haqida o'z xohishini namoyon qilganligi holatini ham jazoga sazovor qilmish sifatida baholaydi. Janubiy Koreyada korrupsiyaga qarshi jinoyatlar uchun jazo tayinlashning bu usuli samarali hisoblanib, bunda nafaqat jinoyatni sodir qilgan shaxs, balki pora olish yoki berish haqida o'z xoxishini aytgan shaxs ham jinoyat sub'ekti bo'ladi va javobgarlikka tortiladi.

AQSh va Buyuk Britaniya jinoyat qonuniga binoan, ommaviy tashkilotlarning xizmatchilari – mansabdar shaxslar ham, boshqa xodimlar ham pora olganlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin.

AQSh, Buyuk Britaniya jinoyat qonunlaridan farqli o’laroq, Italiya, Fransiya va GFRda xizmatchini pora evaziga og’dirishning oldini olishga qaratilgan huquqiy choralar ancha barqarordir. Fransiyada 1992-yilgacha aybdorlar 1810-yilgi JKning 177-183-moddalari bilan javobgarlikka tortib kelingan; Italiyaning 1930-yilgi Jinoyat kodeksiga mansabdarlik jinoyathlariga doir jiddiy o’zgartirishlar faqat 1990-yil kiritilgan.

Buyuk Britaniya statut huquqida poraxo’rlik uchun javobgarlik 1889, 1906, 1916 va 1925-yilgi qonunlar bilan o’rnatilgan, shuningdek sud presedentlari bilan tartibga solingan. Bu Angliyaning korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari dinamik xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Mufassal, ba’zan haddan ortiq detallashtirilgan ta’riflar, umumiylar bilan bir xil maxsus normalar tuzish yoki tasniflangan (imtiyozli) tarkiblarni (masalan, choychaqa berish va olish uchun javobgarlik moddasini) zaruratsiz kiritish AQSh korrupsiyaga qarshi qonunchiligining o’ziga xos xususiyatlaridir.

AQSh kodekslarining “Jinoyatlar va jinoiy ish yuritish” deya nomlangan 18-bobi 201-moddasi mansabdar shaxslar yoki guvohlarning poraxo’rligi uchun jinoiy javobgarlikni belgilaydi. Unga binoan, pora olish va berishdan tashqari, pora taklif qilish, va’da qilish, pora so’rash va porani olishga rozilik bildirish ham jinoiy javobgarlikka sabab bo’ladi. Janubiy Koreyada bo’lgani kabi AQShda ham korrupsiya jinoyati haqida o’z xoxishini bildirganlik uchun ham javobgarlik belgilangan. Demak, ushbu yo’l ham samarali hisoblanib, korrupsiyani oldini olishga ma’lum miqdorda o’z hissasini qo’shami.

Irlandiyaning 2018-yildagi “Jinoiy Odil sudlov (korrupsiyaviy huquqbazarliklar) to’g’risida”gi aktiga muvofiq, aktiv poraxo’rlik porani taqdim etish, taklif qilish yoki taqdim etishga rozilik bildirish kabi harakatlarni qamrab olsa, passiv poraxo’rlik deganda porani qabul qilish, so’rash yoki qabul qilishga rozilik bildirish tushuniladi. Mazkur hujjat porani nafaqat shaxsning o’zi, balki

uchunchi shaxslar foydasini ko'zlab olish yoki berish uchun ham jinoiy javobgarlikni belgilaydi. Demak, Irlandiya qonunchiligaida korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning ikki turi mavjud bo'lib, aktiv va passiv poraxo'rlikka bo'linadi. Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning bu kabi turlarga bo'linishi nafaqat pora olish yoki berishni, balki unga rozilik bildirishning o'zi bu jinoyatni sodir qilganlikdan dalolat beradi.

Pora evaziga amalga oshirilgan harakat yoki harakatsizlikning qonunniyligi yoki qonunga zidligiga ko'ra ajratilishini boshqa davlatlar jinoyat qonunchiligidagi ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Litva Jinoyat kodeksining 225-moddasida qonunga zid harakatlarni bajarish orqali pora olish ko'rinishidagi jinoyat uchun og'irroq javobgarlikni nazarda tutadi. Litva jinoyat qonunchiligi poraning miqdori ko'p miqdorni tashkil qilganligi holatlari uchun og'irlashtiruvchi qismlar bilan javobgarlikka tortish to'g'risidagi normalarni belgilaydi. Litva qonunchiligidagi boshqa davlatlarga qaraganda korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar uchun og'irroq javobgarlik belgilangan bo'lib, unda poraning miqdori alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa jazoning og'ir yoki yengilroq tayinlashga asos bo'ladi va jazoning adolatliligi prinsiplariga rioya qilishga sabab bo'ladi.

Korrupsiya darajasi eng past davlatlar reytingining yuqori o'rinalarda turgan davlatlardan biri Singapur hisoblanadi. "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasiga asosan o'zi yoki boshqa shaxs tomonidan yoki ular bilan birgalikda har qanday shaxs – o'zi yoki boshqa shaxs uchun pora so'rash yoki olish yoki olishga rozilik berish yoki har qanday shaxsga yoki uning manfaati uchun pora berish, va'da qilish yoki taklif qilish huquqbazarlikda aybdor bo'ladi va sudlanganda 100 000 dollardan ortiq bo'limgan jarimaga tortiladi yoki 5 yildan ortiq bo'limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilinadi. Shuningdek ushbu Qonunda parlament a'zosining va davlat organi a'zosining korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlari uchun alohida javobgarlik belgilanganligi bilan ham ahamiyatlidir. Singapur qonunchiligidagi poraxo'rlik jinoyatlari pora evaziga amalga oshiriladigan harakatlarning aniq ro'yxatini belgilash orqali chegaralab qo'yilgan. Xuddi shunday normani Malayziyaning 2009-yildagi korrupsiyaga qarshi kurashish

komissiyasi to'g'risidagi Qonunida ham ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, mazkur qonun pora olish va berishdan tashqari pora so'rash, qabul qilish yoki qabul qilishga va'da berish, shuningdek, pora berishni va'da qilish yoki pora taklif qilganlik uchun ham javobgarlik nazarda tutilgan. Demak, Singapur va Malayziya qonunchiligidagi korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning ro'yxati aniq belgilab qo'yilgan bo'lib, bunda ushbu jinoyatlarni sodir qilgan shaxslarni javobgarlikka tortishda qiyinchiliklarning oldi olinadi va shu turdag'i jinoyatlarning hisobi yuritilib borilib, unga qarshi kurashda chora-tadbirlar belgilab olishda o'zining ijobjiy ta'sirini ko'rsatib boradi.

Shuningdek, Malayziyaning 1997-yildagi korrupsiyaga qarshi Qonunining 32- moddasida belgilanishicha, prokuror har qanday davlat xizmatchisi o'zining amaldagi va ilgarigi egallab turgan lavozimiga ko'ra ega bo'lishi mumkin bo'lган darajadan ortiqcha bo'lган har qanday mulkka egalik qilayotganligi yoki shunday mulkni boshqarayotganligi haqida asosli gumonga ega bo'lsa, o'z yozma ko'rsatmasi orqali ushbu mulkning manbasini ko'rsatishni talab qilishi mumkin va davlat xizmatchisi bunday manbani qoniqarli ravishda isbotlab bera olmagan taqdirda jinoyat sodir etishda aybdor deb topiladi. Malayziya qonunchiligiga davlat xizmatchilarining molmulkini deklaratsiya qilish tizimining yaratilganligi korrupsiyaning oldini olishdagi eng samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Litva Jinoyat kodeksi 1891 -moddasiga muvofiq, eng kam ish haqining 500 baravaridan oshadigan mol-mulkka mazkur mulkning qonuniy manbadan olinishi mumkin emasligini bilgan yoki bilishi mumkin bo'lgani holda mulk huquqi asosida egalik qilayotgan shaxs noqonuniy boyish uchun jinoiy javobgarlikka tortiladi. Ushbu mamlakat qonunchiligidagi noqonuniy boyish jinoyatiga oid rag'batlantiruvchi norma ham mayjud bo'lib, unga ko'ra, yuqoridagicha mol-mulkni uchinchi shaxsdan qabul qilib olgan shaxs huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ushbu molmulkning qonuniyligi yuzasidan tekshiruv boshlanganiga qadar uning shubhali manbadan olinganligi haqida o'z ixtiyori bilan murojaat qilgan taqdirda jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi. E'tiborga molik tomoni shundaki, Litva qonunchiligi nafaqat mansabdor shaxslarning noqonuniy

boylik orttirishi, balki har qanday shaxsning noqonuniy boyishi holatini jinoyat sifatida e'tirof etadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Gruziya tajribasiga qaraydigan bo'lsak, Gruziya Respublikasi Jinoyat kodeksining 1641 -moddasida saylovchilarining poraxo'rligi uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, saylov maqsadlarida to'g'ridanto'g'ri yoki bilvosita shaklda amalga oshiriladigan: taklif, va'da, pul o'tkazish, qimmatli qog'ozlar (shu jumladan moliyaviy vositalar), boshqa mol-mulk, mulkiy huquqlar, taklif, xizmatlar ko'rsatish yoki boshqa har qanday boshqa narsalarni taqdim etish va'dasi, imtiyozlar yoki xizmatlar yoki qonun hujjatlarida belgilangan cheklovlarni chetlab o'tish maqsadida qasddan shunday olish yoxud xayoliy, soxta yoki boshqa bitimlar tuzilganda jarima jazosi yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi. Ushbu Kodeksning 338-moddasida pora olish uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, mansabdor shaxslar yoki ularga tenglashtirilgan shaxslar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita pul, qimmatli qog'ozlar, boshqa mol-mulk, mulkiy manfaat yoki boshqa qonunga xilof foyda olish yoki talab qilish, shuningdek o'z foydasiga yoki boshqa shaxslar foydasiga takliflar yoki va'dalar olish, ushbu mansabdor shaxslar yoki ularga tenglashtirilgan shaxslar tomonidan pora beruvchi yoki boshqa shaxs foydasiga biron-bir xatti-harakatni amalga oshirish yoki amalga oshirishdan tiyilish yoxud shu kabi maqsadlarga erishish uchun ularning mansab vakolatlaridan foydalanganda olti yildan to'qqiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida og'irlashtiruvchi holatlar uchun javobgarlik belgilanib, yeti yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi. Bundan tashqari Gruziya Jinoyat kodeksida bora berish, so'rov o'tkazilayotgan shaxsga, guvohga, jabrlanuvchiga, ekspert yoki tarjimonga pora berish, kasbiy sport musobaqalari yoki tijorat ko'ngiliocharlari ishtirokchilariga yoki tashkilotlariga pora berish uchun ham javobgarlik belgilangan. E'tiborli tomoni shundaki, Gruziya jinoyat qonunchiligi mavqeni suiiste'mol qilishga qaratilgan harakatlar sodir etilganda mazkur harakatlar natijasida ta'sir ko'rsatishga erishilgan-erishilmaganligi yoki ko'rsatilgan

ta'sirning ko'zlangan natijaga olib kelgan-kelmaganligidan qat'i nazar bunday qilmishni tugallangan jinoyat sifatida baholaydi.

Daniya, Finlandiya, Shvesiya, Yangi Zelandiya, Kanada, Norvegiya, ham korrupsiyalashmaganligi jihatdan yuqori o'rnlarda turadigan davlatlar sanaladi [0]. Bu mamlakatlarda korrupsiya hukumat tomonidan milliy xavfsizlik masalasi, ichki va tashqi xavfsizlikka tahdid soluvchi omil sifatida baholanadi.

Xalqaro Transparensy International tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra korrupsiya darajasi eng past bo'lgan davlatlardan biri bu – Yangi Zelandiyadir. Mazkur davlat korrupsiya darajasi eng past bo'lgan davlatlar reytingida yuqori o'rnlarni egallab keladi. Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik masalasida Yangi Zelandiya tajribasiga qaraydigan bo'lsak, 1961-yilda qabul qilingan Jinoyatlar aktining oltinchi bo'limi "Qonun va odil sudlovnii amalga oshirishga ta'sir qiluvchi jinoyatlar" deb nomlanib, mazkur bo'limda poraxo'rlik va korrupsiya uchun javobgarlik ham belgilangan. E'tiborli jihat shundaki, mazkur bo'limda har bir davlat amaldorining korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlari uchun javobgarlikka tortish alohida qilib ajratilgan. Xususan, Aktning 100-bandida sudyalar va sud xodimlarining poraxo'rligi, 101-bandida sud xodimiga pora berish, 102- bandida vazirlarning poraxo'rligi, 103-bandida parlament deputatining korruksiyasi va poraxo'rligi, 104-bandida huquqni muhofaza qilish organi xodimining korruksiyasi va poraxo'rligi, 105-bandida mansabdor shaxsning poraxo'rligi, 105Cbandida chet ellik davlat amaldoriga pora berish, 105D-bandida Yangi Zelandiyadan tashqarida xorijiy davlat amaldorining poraxo'rligi, 105E-bandida xorijiy davlat amaldorlarining korruksiyasi uchun javobgarlik belgilangan. Yuqorida sanab o'tilgan jinoyatlarda nafaqat pora olganlik, balki pora berish va pora berishga dalolatchilik qilganlik uchun ham javobgarlik belgilangan. Demak, Yangi Zelandiyada har bir mansabdor shaxsning korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlari uchun alohida javobgarlikning belgilanishi ularning jamiyatdagi o'rni, yuklatilgan vazifaning ahamiyati bilan bog'liq deyishimiz mumkin. Korruksiyaga qarshi kurashda bu usul juda samarali hisoblanib har bir mansabdor shaxsning mas'uliyatini oshiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda Finlandiya tajribasi diqqatga sazovor. Xalqaro Transparency International tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra korrupsiya darajasi eng past bo'lgan davlatlardan biri Finlandiya hisoblanadi. Mazkur davlat korrupsiya darajasi eng past bo'lgan davlatlar kuchli beshtaligiga kirib keladi. Hozirgi kunda Finlandiyada yiliga 3 yoki 4 ta poraxo'rlik bilan bog'liq jinoyat ishlari ko'rilar ekan. Ushbu holatni 1980-1989-yillar oralig'idagi davr bilan taqqoslaydigan bo'lsak, mazkur yillarda 81 nafar shaxslar pora olganlik uchun, 49 nafar shaxslar pora bergenlik uchun jazolangan.

E'tiborli jihat shundaki, Finlandiya Jinoyat kodeksida "korrupsiya" degan tushuncha mavjud emas. Unda mansabdor shaxslarning poraxo'rligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, bunday jinoyatni sodir etgan mansabdor shaxslar uchun qilmishning ijtimoiy xavfliligiga qarab jarima yoki 4 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi.

Finlandiyada boshqa davlatlardagi kabi korrupsiyaga qarshi kurash haqida maxsus qonun mavjud emas, korrupsiyaga qarshi kurashuvchi maxsus organ ham tuzilmagan. Korrupsiyaga umumiy jinoyatchilikning bir qismi qabilida kurash olib boriladi. Finlandiya Konstitusiyasi, Jinoyat kodeksi, Fuqarolik xizmati to'g'risidagi qonun, ma'muriy boshqaruvgaga oid yo'riqnomalar va boshqa qonunosti hujjatlar korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan hujjatlar hisoblanadi. Bularning orasida eng muhimi Axloq qoidalaridir.

Finlandiyada korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan hujjatlar ijrosi ustidan nazorat mamlakat Prezidenti tomonidan tayinlanadigan, biroq, mutloq mustaqil faoliyat yurituvchi Adliya kansleri va parlament vakili Ombudsman tomonidan olib boriladi. Ular butun hokimiyat tarmoqlari faoliyatini nazorat qilish vakolatiga egalar. Yuqori martabali mansabdor shaxslarni ayblash haqidagi jinoyat ishlari maxsus tashkil etilgan Davlat sudi tomonidan ko'rib chiqiladi. Bu sud hattoki davlat rahbariga nisbatan bo'lgan ishlarni ham ko'rib chiqishi mumkin. Unga – Adliya kansleri, parlament vakili Ombudsman, hukumat vakillari, Oliy sud va ma'muriy sud sudyalari a'zo bo'lishi mumkin. Ikkinci jahon urushidan keyin Davlat sudi bor – yo'g'i bir marta chaqirilgan xolos.

Davlat xizmatchilari soni unchalik ko'p emas. Ayniqsa, 90-yillardan keyin davlat xizmatchilari soni deyarli teng yarmiga, ya'ni 230.000 dan 127.000 ga qisqartirilgan. Finlandiyada davlat xizmatchilarini korrupsiyalashuvidan saqlovchi muhim omillardan biri - ularning moddiy va ijtimoiy ta'minlanganligidadir.

Alovida ta'kidlash lozimki, Finlandiyada ommaviy axborot vositalari ijtimoiy nazoratning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Hukumat esa, ommaviy axborot vositalariga nafaqat erkinlik yaratib bergen, balki har bir e'lon qilingan korrupsiya holati bo'yicha aniq choralarni ko'rib boradi. Finlandiya korrupsiyaga qarshi bir qancha xalqaro hujjatlarga qo'shilgan, xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini faol olib boradi.

Korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari, ushbu turdagi jinoyatlarni oldini olish bo'yicha rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribasini tahlil qilar ekanmiz, xorijiy mamlakatlarda korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar uchun turli darajadagi jazolar belgilangan. Ayrim mamlakatlarda jinoyatning ijtimoiy xavfliligiga qarab jarima jazosidan ozodlikdan mahrum qilish jazosigacha, ayrimlarida esa ozodlikdan mahrum qilish jazosidan o'lim jazosigacha hukm qilinishi belgilangan. Shuningdek, yuqorida tahlil qilingan rivojlangan davlatlarning deyarli hammasida korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning aniq ro'yxati belgilangan, bo'lib ushbu jinoyatlarning ijtimoiy xavfliliyi va ularni sodir etgan shaxslarning egallab turgan lavozimi, jamiyatdagi o'mniga qarab jazo tayinlanadi va bu jazoningadolatligi, odilligi kabi prinsiplarning to'g'ri qo'llanishiga, jamiyatda korrupsiyaning eng past darajaga tushirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari korrupsiyani oldini olish uchun ko'plab xorijiy davlatlarda mansabdor shaxslarning mol-mulkini deklaratsiya qilish, barcha sohalarda jamoatchilik nazorati, davlat tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning elektron tartibda amalga oshirish tizimi yo'lga qoyilgan.

Mazkur davlatlarning tajribasidan kelib chiqib korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik va korrupsiyani oldini olish, jamiyatda korrupsiyani eng past darajaga tushirish uchun milliy qonunchiligidizga quyidagi takliflarni beramiz:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xorijiy davlatlarning mansabdor shaxslari, shuningdek xorijiy davlatlarda faoliyat yuritayotgan O'zbekiston Respublikasi mansabdor shaxslarining poraxo'rlik va korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlari uchun javobgarlik masalasini belgilash. Shuningdek, korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar uchun jazo choralarini kuchaytirish, qilmishning ijtimoiy xavfilingiga qarab jazo tayinlash va korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarda yengillashtiruvchi holatlarning qo'llanishiga yo'l qo'ymaslik tizimini yo'lga qo'yish;

ikkinchidan, Jinoyat kodeksining 192, 210, 211, 212, 213, 214-moddalari bevosita korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar hisoblanadi. Kodeksning boshqa moddalari tarkibida ham korrupsiya bilan bog'liq holatlarni ko'rishimiz mumkin, lekin ularning aniq ro'yxati berilmagan. Shuning uchun korrupsiya bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarning aniq ro'yxatini shakllantirish kerak deb hisoblaymiz;

uchinchidan, hozirgi kunda Davlat xizmatlari agentligi tomonidan fuqarolarga ko'rsatiladigan xizmatlarni yanada kengaytirish, davlat organlari tomonidan fuqarolarga ko'rsatiladigan barcha xizmatlarni Davlat xizmatlari agentligi tomonidan yoki elektron tartibda berish tizimini yo'lga qo'yish, fuqarolarni maqsadsiz davlat organlariga borishiga chek qo'yish;

to'rtinchidan, davlat organlari mansabdor shaxslari, davlat xizmatchilarining mol-mulkini deklaratsiya qilish tizimini ishlashini amaliyotga tezroq joriy qilish, davlat xizmatchisi o'zining amaldagi va ilgarigi egallab turgan lavozimiga ko'ra ega bo'lishi mumkin bo'lган darajadan ortiqcha bo'lган har qanday mulkka egalik qilayotganligi yoki shunday mulkni boshqarayotganligi haqida asosli gumon paydo bo'lsa, ushbu mulkning manbasini ko'rsatib bermasa, mol-mulk korrupsiya yo'li bilan orttirilgan deb baholanib, ushbu mol-mulkni davlat foydasiga musodara qilib, mansabdor shaxs yoki davlat xizmatchisini javobgarlikka tortish tizimini amaliyotga tadbiq qilish.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Yurtimizda korrupsiyaga qarshi qanday ishlar olib borilmoqda?

2. Korrupsiyani vujudga keltiruvchi sabablar qaysilar?
  3. Yurtimizda korrupsiyaga qarshi qanday ishlar olib borilmoqda?
  4. Jinoiy moyillikni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar qaysilar?

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish o'z ichiga nimalarni oladi?

## Testlar:

1. BMTning Rivojlanish Dasturi nazariy tahliliga ko'ra korrupsiyani vujudga kelishida qanday omillar muhim ro'l o'yнagan?

A) Vakolat, hokimyat

B) O'zboshimchalik va shaxsiy manfaat

V) Hisobdorsizlik va oshkorasizlik, o'zboshimchalik va shaxsiy manfaat, vakolat va hokimyat

G) To'g'ri javob berilmagan

2. Ilmiy adabiyotlarda korrupsiyani vujudga keltiruvchi umumiy sabablar nechta?

A) 4ta

B) 7ta

V) 8ta

G) 10ta

3. Korrupsiyani vujudga keltiruvchi eng muhim omil qaysi?

A) Normativ huquqiy bazani nuqsonlari

B) Hokimiyat institutlari tizimining nuqsonlari mavjudligi

V) Demokratik an'analar chuqur anglanmaganligi

G) Hokimiyat Institutlari tizimining nuqsonlari mavjudligi

4. BMTning "Korruptsiyaga qarshi" konvensiyasi nechanchi yilda kuchga kirdi?

A) 2001-yil mart oyida

B) 2005-yil dekabr oyida

V) 2004-yil iyul oyida

G) 2000-yil oktabr oyida

5. "Korruptsiyaga qarshi" xalqaro huquqiv huijatga nechta davlat qo'shildi?

- A) 140 davlat  
B) 100 davlat  
V) 150 davlat  
G) 100dan ortiq bo'lmagan davlatlar

6. Osiyo va Tinch okeani hududidagi 21 davlat nechanchi yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tasviriy xarakterga ega bo'lgan faktni qabul qilganlar?



7. Jinoyatchilik determinatsiyasining maxsus jarayonlari asosan nimalar bilan bog'liq?

- A) asosan pul muomalasi bilan bog'liq
  - B) mansab yoki boshqa xizmatlar
  - C) pora yoki qo'shimcha haq undirilishi
  - D) jinoyatlarning sabablarini va uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar bilan bog'liq

#### 8. Ijtimoiy nazorat qanday xususiyatga ega bo'lishi kerak?



## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

## Rahbariy adabivotlar:

10. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabidir. -T.: O'zbekiston, 1997. 250 bet.
  11. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997. 95, 298 bet.
  12. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard

4. Mirziyoev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.-488 b.
5. Mirziyoev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. - T.: "O'zbekiston", 2017. - 592 b.
6. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: O'zbekiston, 2017. - 512 b.
7. Mirziyoev Sh. M. "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" 3-jild. - T.: "O'zbekiston", 2019. - 400 b.
8. Mirziyoev Sh. M. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari". 4-jild. - T.: "O'zbekiston", 2020. - 452 b.
9. Mirziyoev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - T.: O'zbekiston, 2021. - 464 b.

### **Normativ-huquqiy hujjatlar:**

31. Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida qonun. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-son
32. Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida qonun. *O'zbekiston Respublikasining O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son*)
33. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 07.02.2017 йилдаги ПФ-4947-сон
34. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
35. Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurash Konvensiyasi. Korrupsiyaga qarshi kurash muammolari: milliy va xalqaro tajriba. Xalqaro ilmiy-amaliy seminar materiallari. –T.: CHASHMA PRINT, 2010. B. 299.
36. Korrupsiyaga qarshi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasi (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) // O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari to'plami, 2008 yil, 3-4-son, 19-20-modda.
37. BMTning Xalqaro savdo operatsiyalarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash to'g'risidagi Deklaratsiyasi. Сборник международных договоров и

законодательства Республики Узбекистан в сфере борьбы с коррупцией.

–Т.: Центр повышения квалификации юристов, 2013. С.139.

38. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi “Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi qonuni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 yil, 20-son, 221-modda.
39. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida”gi qonuni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 yil, 20-son, 222-modda.
40. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 3 dekabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”gi qonuni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 yil, 49-son, 578-modda.

### **Darsliklar, o'quv qo'llanmalar va qo'shimcha adabiyotlar:**

40. Abu Nasir Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Т.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993.
41. Зуфаров Р.А. Тенденция гуманизации уголовного законо-дательства Республики Узбекистан. O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini liberallashtirishning asosiy yo'nalishlari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2007 yil 12 dekabr). –Т.: O'zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 2007. –S. 22-29.
42. Abdurasulova Q., Qurbonov O. Korrupsiya: asosiy tushuncha va shakllari (risola). – Т.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
43. Зуфаров Р.А. Международно-правовые проблемы борьбы с коррупцией. //O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslari Axborotnomasi. 2010. №1, -С.29-332. 25. Проблемы борьбы с коррупцией: национальный и международный опыт. Материалы международного научно-практического семинара 20-21 октября 2009 года. –Т.: ЧАШМА ПРИНТ, 2010.

44. Temur tuzuklari. –T.: O’zbekiston, 2011
45. Zokirov I.B. boshqalar. Fuqarolik huquqi (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Maxsus qism. – T.: ILM ZIYO, 2011.
46. Axrorov B.J. Rustamboev M.H. Jinoyat huquqi (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Maxsus qism. – T.: ILM ZIYO, 2012 y.
47. Xoziyev E.T. Ma’muriy huquq (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: ILM ZIYO. 2012 y.
48. Matkarimova G. Yuldasheva G. Hozigi zamon xalqaro huquqi (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: O’qituvchi, 2012.
49. Karimova O. Huquqshunoslik. (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Qayta ishlangan va to’ldirilgan nashr.– T.: SHarq, 2014.
50. Zufarov R.A. Poraxo’rlik uchun jinoiy javobgarlik. – T.: TDYuI, 2004. – B. 83-84.
51. S.SHomirzaev. Korrupsiya: xorijiy mamlakatlar davlat va huquq tarixida unga qarshi kurashish masalalari// Huquq va burch. 2014. 7-son. 5.62-64.
52. Meliyev X. Milliy qonunchilik – korrupsiyaga qarshi// Huquq va burch. 2015. 4-son. 5.12-14.

### **Internet manbalari:**

<b>1. <a href="http://www.press-service.uz">www.press-service.uz</a></b>	O’zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati
<b>2. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a></b>	O’zbekiston Respublikasi Hukumati portalı
<b>3. <a href="http://www.senat.uz">www.senat.uz</a></b>	O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati
<b>4.<a href="http://www.parliament.gov.uz">www.parliament.gov.uz</a></b>	O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi
<b>5. <a href="http://www.supcourt.uz">www.supcourt.uz</a></b>	O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi
<b>6. <a href="http://www.genprok.gov.uz">www.genprok.gov.uz</a></b>	O’zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
<b>7. <a href="http://www.minjust.uz">www.minjust.uz</a></b>	O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
<b>8. <a href="http://www.mvd.uz">www.mvd.uz</a></b>	O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

<b>9. <a href="http://www.customs.uz">www.customs.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi
<b>10. <a href="http://www.ombudsman.gov.uz">www.ombudsman.gov.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)
<b>11. <a href="http://www.ssrc.uz">www.ssrc.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazi
<b>12. <a href="http://www.tsul.uz">www.tsul.uz</a></b>	Toshkent davlat yuridik universiteti
<b>13. <a href="http://www.vuk.uz">www.vuk.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslari
<b>14. <a href="http://www.uzmarkaz.uz">www.uzmarkaz.uz</a></b>	Yuristlar malakasini oshirish markazi
<b>15. <a href="http://www.huquqburch.uz">www.huquqburch.uz</a></b>	"Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali
<b>16. <a href="http://www.insonvaqonun.uz">www.insonvaqonun.uz</a></b>	"Inson va qonun" huquqiy gazetasi
<b>17. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
<b>18. <a href="http://www.metod.uz">www.metod.uz</a></b>	O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini Axborot-metodik ta'minlash xizmati
<b>19. <a href="http://www.natlib.uz">www.natlib.uz</a></b>	A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
<b>20. <a href="http://www.manaviyat.uz">www.manaviyat.uz</a></b>	Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi
<b>21. <a href="http://www.mgm.uz">www.mgm.uz</a></b>	Miliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi
<b>22. <a href="http://www.ziyo-net.uz">www.ziyo-net.uz</a></b>	Axborot ta'lim tarmog'i

## **5-Mavzu: Korrupsiyaviy jinoyatlarning yuzaga kelish omillari va javobgarlik masalalari.**

### **Reja:**

1. Korrupsiyaga oid jinoyatlar tushunchasi: xalqaro va milliy hujjatlar tahlili.
2. Xalqaro-huquqiy hujjatlarda korrupsiyaga oid qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik bo'yicha standartlar: BMT va IHTT misolida.
3. Ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligidagi korrupsiyaga oid qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik masalalari.
4. Milliy qonunchilikda korrupsiyaga oid jinoyatchilik uchun javobgarlik masalalari.

**Tayanch so'z va iboralar:** Korrupsiyaga oid jinoyat, xalqaro hujjatlar, milliy hujjatlar, xalqaro-huquqiy hujjatlar, korrupsiyaga oid qilmishlar, jinoiy javobgarlik bo'yicha standartlar, BMT va IHTT standartlari, javobgarlik.

**Korrupsiyaga oid jinoyatlar tushunchasi: xalqaro va milliy hujjatlar tahlili.** Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq korrupsiyaga qarshi kurashish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, uning oldini olishning mustahkam huquqiy bazasi va aniq tizimi yaratilgan.

Korrupsiyaning kelib chiqishi tarixi va rivojlanishi masalalarini Nikkolo Makiavelli o'rganib, uni yo'talga qiyoslab shunday degan edi, "Korrupsiyani ham yo'talga o'xshab oldin aniqlash qiyin, ammo davolash oson, lekin bu kasalni o'tkazib yuborsangiz uni aniqlash oson, ammo davolash qiyin". Mana shu so'zlardagi haqiqatni bugungi kunda dunyo bo'yicha keng tarqalgan korrupsiya ko'rinishlariga nisbatan ham qo'llash mumkin bo'ladi.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari tomonidan qo'yilayotgan postlarning aksariyat asosiy qismini aynan shu mavzu tashkil qilmoqda va korrupsiyaning mohiyatida insonning buzuq nafsi turganligini ko'rishimiz mumkin.

Darhaqiqat, korrupsiya - bu jirkanch holat, u mamlakat taraqqiyotiga shubxasiz kishan bo'lib, taraqqiyotdan orqaga siljitib yuboruvchi demokratiya va fuqarolik jamiyatining kushandasidir.

Korrupsiya bir necha ming yillik tarixga ega. Yozma manbalarda korrupsiya haqida eramizdan avvalgi Shumer podsholigi davrida eslatib o'tiladi. Korrupsiya bizning kunlargacha yetib kelganligi shundan dalolat beradiki, boshqa illatlar kabi, uni ham tag-tugi bilan yo'qotib bo'lmaydi. Hatto rivojlangan o'arb davlatlari ham korruksiyadan butkul xalos bo'lolmagan. Biroq jamiyat rivojiga xavf soluvchi korruksiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish Yer yuzidagi barcha davlatlarda hamisha va hamma zamonda davom etgan.

Qur'oni karimda poraxo'rlik bevosita taqiqlanadi: "Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo'l bilan yemang. Bilib turib odamlarning mollaridan bir qismini yeishingiz uchun uni hokimlarga gunohkorona tashlamang" (Baqara surasi, 188).

Lekin shunga qaramay, poraxo'rlik Usmoniylar xalifaligida ham mavjud bo'lган. Avvaliga xalifa turli idoralar faoliyatini shaxsan o'zi nazorat qildi, lekin vaqt o'tishi bilan bu ishni o'ziga yaqin odam — xalifaning turli ishlar bo'yicha shaxsiy yordamchisi bo'lган vazirga topshirib qo'ydi. Vaqt o'tishi bilan vazirlar keng tarmoqli davlat apparatini shakllantirdi. X asrning o'rtalariga kelib, u yoki bu lavozimga tayinlanish uchun amaldorlar tomonidan vazirlarga pora berish amaliyoti shakllanib bo'lgandi.

Bundan, masalan, xalifa Muqtadirning vaziri bo'lган Ubaydulloh Hoqoniy (926-yil vafot etgan) amaldorlarni turli lavozimlarga tayinlash va olib tashlashda faol foydalandi. Pulga qattiq muhtojlik se-zayotgan davlat soliqlar toplashni xususiy shaxslarga topshirgani bois bu turli suiiste'molliklarni yuzaga keltirardi. Shu tariqa poraxo'rlik xalifalik tanazzulga yuz tutishining sabablaridan biriga aylandi.

Bu holat Usmoniylar sultanatida ham istisno emasdi. Xususan, dehqonlardan turli soliqlarni toplashda harbiy xizmatchilar qing'irliliklar sodir etardi. Bu suiiste'mol holatlarini hattoki Usmoniylar sultanati shayxulislomlari chiqargan

maxsus fatvolar ham bartaraf qila olmadi. Sipohilar nimadir “uzatish” evaziga astasekinlik bilan harbiy yurishlarga bormay qo‘ydi, o‘zlariga taqdim etilgan yerlarda muqim qolib, amalda davlat mulkini shaxsiy mulk qilib olishdi. Davlat esa, o‘z navbatida, vazirlar timsolida ko‘ngilsiz reaksiyadan xavfsiragan holda, harbiylar bilan to‘qnashuvga borishdan hadiksirardi.

Usmoniyalar sultanatida poraxo‘rlik oqibati shu bo‘ldiki, qo‘shinlar harbiy tayyorgarligini yo‘qotdi, natijada XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida qator mag‘lubiyatlarga uchrab, davlatning qudratiga putur yetkazdi.

Xullas, qadim zamonlardayoq ushbu illatga qarshi qattiq jazolar belgilanganiga qaramasdan, bu hamisha ham ko‘ngildagidek natija bermagan.

Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida fuqarolik jamiyatini qurishda to‘g‘anoq bo‘ladigan muammolardan biri korrupsiyaadir, deb qayd etgan. Bozor iqtisodiyoti tizimi kushandas, davlatlar o‘rtasida ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik, biznes hamda investitsiya rivojida shafqatsiz to‘sinq ham ayni shu korrupsiya hisoblanadi. Har yili o‘nlab qo‘shma korxonalarining ochilishi va yopilishi zamirida ana shu “ko‘rinmas qo‘llar” yotadi. Korrupsiya darajasi yuqorilashgan davlatga chet el investitsiyasini kiritish kamayib borayotganining asl sabablarini ham shu xavfli illatdan izlash lozimga o‘xshaydi.

Oldin G‘arb, keyinroq Osiyo davlatlarida bu masala chuqurlashib, jamiyatda “kasallik” hududi, ko‘لامи va darajasi kuchayib borayotgan ekan, nima qilmoq kerak, degan doimiy savol paydo bo‘ladi. Nima qilsa, dunyonи egallab, mamlakatlar iqtisodiyotiga raxna solayotgan bunday balo-qazoning ta’sir doirasi kamayadi?!

Korrupsiya keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u jamiyatning ayrim qatlamlari, toifalari, guruhlarikundalik faoliyatiga aylanib, o‘zaro bir-biriga bog‘lanib, chirmashib ketganligidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. “Nozik”, “chigalroq” ushbu masalada davlatning huquq-tartibot idoralari birmuncha hushyor, ziyrak bo‘lishi, shuningdek, nodavlat tashkilotlari, turli komissiyalar, jurnalistlar, mustaqil sudlar tizimi faolroq ishlashi haqida tadqiqotchilar anchadan beri yozib keladi. Siyosatchilar, sotsiologlar, psixologlar, tarixchilar, davlat hamda jamoat organlari,

siyosiy partiyalari, eng muhimi, amaliyotchilar masalani tahlil etish va yechimini topish ustida bosh qotirishi lozim.

Keyingi yillarda xorij, jumladan, MDH mamlakatlari matbuotida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'llari haqida maqolalar paydo bo'la boshladi. MDHga a'zo mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar tahlili shundan dalolat beradiki, biz sho'rolar tuzumidan qutulganimizga o'ttiz yilbo'lganiga qaramay, sud-huquq organlari hamon davlat hokimiyatining itoatkor organiga aylanganicha turibdi. Bu jamiyat kushandas, yaramas illat haqida davlatimiz rahbari deyarli har bir chiqishida ta'kidlab o'tadi. Biz viloyatlar sessiyalarida tashkiliy masala ko'rilganda, birinchi navbatda, mazkur masalaga ro'baro' kelmoqdamiz.

Poraxo'rlik va korrupsiya o'zbek jamiyatining rivojlanishiga, xususan, demokratik yangilanish hamda modernizatsiyalash jarayoniga har jihatdan xalaqit bermoqda. Garchi bu masala uzoq yillardan beri ta'kidlanib, "qo'lga tushgan" amaldorlar televide niye va matbuotda namoyish etilganiga qaramasdan, sud, prokuratura, idora rahbarlari hamda oddiy fuqarolarning qon-qoniga singib ketgan feodalizm sarqitlari, tamagirlilik, byurokratiya jamiyatimiz hayotidan yo'qolib ketmayapti.

Korrupsiya, birinchidan, jamiyatdaadolatsizlik, tengsizlik va aholining noroziligiga olib keladi, bu esa barcha sohadagi islohotlarning natijasiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi; ikkinchidan, fuqarolarimizda huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatning yetarli darajada emasligi, o'z haq-huquqini himoya qila olmasligi jamiyatdaadolat mezonining buzilishini ko'paytiradi; uchinchidan, siyosiy institutlar, jamoat tashkilotlari shaklan demokratik mezon, o'arb andozasiga o'xshasa-da, mazmun-mohiyatiga ko'ra, zamon talabidan orqada qolmoqda, bu kamchilik esa oldinga siljishimizga xalaqit beradi.

Bizningcha, bu borada bitta tashkilot — adliya organlari roli kuchayib, imtiyozlari ko'payib borishi kerak. Yangi tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ham Adliya vazirligi bilan qonun ustuvorligini to'liq ta'minlagan holda, barcha ishni birga olib borishi davr talabi.

Davlat va jamiyatda inson ongi, dunyoqarashi bilan bog‘liq muammolar tahlilidan kelib chiqsak, sobiq ittifoqdan meros qolgan korrupsiya illatiga qarshi kurashda hali ancha aziyat chekishga to‘g‘ri keladi. Sababi Xitoy va Singapurnikiga o‘xshagan yuqoridan quyigacha qat’iy ishlaydigan iyerarxiya tizimi hali to‘liq ishga tushmagan.

Lekin bu tabiiy jarayonni sun’iy ravishda sekinlashtirmaslik yoki ayrim kuchlarning tazyiqi ostida “to‘xtatmaslik” lozim. Bu borada rivojlangan davlatlar boy tajribasidan unumli foydalanish zarur. Masalan, AQSHda reportyor-jurnalistlar korrupsiyaga qarshi kurashda eng samarali jamoat nazoratini o‘rnatgan. MDHda, jumladan, O‘zbekistonda surishtiruv jurnalistikasi sayoz holatda bo‘lib, bugungi davr ehtiyojidan orqada qolmoqda.

Aniqroq aytadigan bo‘lsak, jinoyatchilar “kirdikor”larini fosh etishga urinib, mustaqil surishtiruv olib boradigan fidoyi jurnalistlar himoyasi ishlamaydi. Bundan ham achinarlisi, hozirgi kunda biron-bir rahbarning yashirin boylik orttirishini isbotlagan maqola matbuotda chop qilinsa-da, unga qat’iy choralar ko‘rilmaydi, ahvol ham o‘zgarmaydi. Masalan, bir vaqtlar rahbar haqida felyeton chiqsa, partiyadan o‘chirilar, qamalar, shuning uchun amaldorlar “to‘rtinchи hokimiyat”dan hayiqardi.

Demak, “Mushtum”ga o‘xshagan ikki-uchta kuchli vaqtli matbuot nashri faoliyati qo‘llab-quvvatlansa va televideniyeda maxsus ko‘rsatuvalar deyarli har kuni (xoh katta, xoh kichik tamagirlik holati bo‘lsin) berib borilsa, ko‘pchilik hushyor tortishi aniq. Tanqidsiz taraqqiyot bo‘lmasligi fuqarolar ongiga singdirib borilishi -kerak, deb hisoblaymiz.

Jamiyatda ustuvor soha — ta’lim tizimida tahsil oladigan o‘smirlar, yoshlar ongida tolerantlikni uyg‘otish muammosi oldimizda ko‘ndalang turibdi. “Jamiyatda poraxo‘rlik illatini yengib bo‘lmaydi”, degan fikr yoshlar ongida shakllanib qolgani (Yaponiya yoki Xitoy fuqarosi ongida nega u shakllanmaganligi alohida mavzu) eng katta kamchiligidiz.

Bu borada o‘nglanish, siljish qilmasak, millatimiz obro‘siga korrupsiya illati soya solib turaveradi. Toki, biz oilada, bog‘chada, mакtabda o‘g‘il-qizlarimiz

ongiga, ruhiyatiga tamagirlik, poraxo'rlik yomon illatgina emas, balki u jamiyatimiz tanazzuli, iqtisodiyotimiz orqaga ketishi sababi ekanligi haqida ko'proq tarbiyaviy va targ'ibot ishlarini olib bormasak, maqsad-muddaoga erisha olishimiz qiyin.

So'nggi yillarda Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan davlat xalqqa xizmat qilishi kerak, degan ulkan g'oya fuqarolik jamiyati institutlariga tizim va dasturlarni ishlab chiqish imkoniyatini bergen edi. Ammo nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar bu borada tashabbus hamda tashkiliy ishlarni amalga oshirishni negadir paysalga solmoqda.

To'g'ri, keyingi vaqlarda, xususan, 2017-yildan boshlab, mamlakatimizda "parlament nazorati", "jamoatchilik nazorati", degan atamalar taomilga kiritildi, bu borada ilk qonunlar qabul qilindi. Demak, biz mazkur sohada ishlaydigan tizimni tezlikda yaratishimiz, milliy mentalitetni hisobga olgan holda, Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari ilg'or tajribasini qo'llashga o'tishimiz lozim. Jamoatchilik nazoratisiz O'zbekistonda siyosiy tizim islohotlarini amalga oshirib bo'lmaydi. Ayniqsa, modernizatsiya, yangilanish, islohotlar bilan korrupsiyaning bir-biriga "qoni qo'shilmaydi", yangilik bilan eskilik tarafдорлари, fan, innovatsiya, kreativ fikrlovchilar bilan eski byurokratiya avlodi o'rtasida muttasil kurash davom etadi.

Korrupsiya — chegara bilmas "ajdaho", u aldamchilik, poraxo'rlik va pulni "yuvish"ning aniq "chizma" (sxema)laridan tashkil topgan. Rossiyada kechroq bo'lsa-da, unga qarshi yangi mexanizm choralar qidirilmoqda.

Sababi B. Yelsin hokimiyyati davrida mamlakatda iqtisodiyotni rejali va maqsadli boshqarish tizimi butunlay izdan chiqib, ko'proq o'arbning ta'siriga tushib qolgandi, parallel ravishda rejasiz (miyasiz) hamda jinoiy iqtisodiyot baravar olib borilgan edi.

Rossiya Ichki ishlar vazirligi Iqtisodiy xavfsizlik akademiyasining ma'lumotiga ko'ra, 2015-yil oxirida mamlakatda iqtisodiyotning jinoyatlashganligi darajasijuda "tang" ahvolda bo'lib, "xufiyona iqtisodiyot" yalpi ichki mahsulot (YAIM)ning 40 foiz ko'rsatkichi darajasiga yetgan, 1991-yilda esa bor-yo'g'i 11 foiz bo'lgandi.

“Transparency Int” (TI) korrupsiyaga qarshi tadqiqot markazining 2017-yildagi ma'lumotiga ko'ra, Rossiyada korrupsiya holatini o'zlashtirish indeksi 2,3 ballni tashkil qilib, 180 davlat ichida 143-o'ringa — Gambiya, Indoneziya va Togo darajasiga tushib qolgan...

Yuqorida ta'kidlangan xalqaro tashkilot 2018-yilgi korrupsiyani qabul qilish indeksini e'lon qildi. 100 ballik indeksiga ko'ra, O'zbekiston 23 ball olib, umumiyligi reytingda 180 mamlakat va hududlar orasida 158-o'rindan joy olgan. Ushbu reyting 0 (korrupsiyani idrok etishning juda yuqori darjasasi) dan 100 gacha (juda past) shkalada hisoblab chiqiladi.

Korrupsiyani idrok etish indeksini — davlat sektoridagi korrupsiya darajasini ekspert va biznes vakillari baholaydi. Avvalgi yillarda bo'lgani kabi, dunyo mamlakatlarining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining o'rtacha bali 43 dan 50 gacha ko'rsatkichda turibdi. Indeks tuzuvchilarning fikricha, bu aksariyat mamlakatlarning -korrupsiyani jiddiy nazorat qila olmaganligi va demokratiyaning inqirozidan dalolat beradi.

Daniya 88 “ochko” bilan peshqadamlikni Yangi Zelandiyadan qaytarib oldi. Kuchli o'nlikka Finlyandiya, Singapur, Shvetsiya va Shveysariya (har biri 85 ball), Norvegiya (84), Niderlandiya (82), Kanada va Lyuksemburg (81 ball) kirgan. Eng yomon ko'rsatkich Somali (10), Suriya, Janubiy Sudan (13), Yaman va Shimoliy Koreyada (14).

“Bizning tadqiqotlarimiz sog'lom demokratiya bilan davlat sektoridagi korrupsiyaga qarshi kurash o'rtasida aniq bog'liqlikni ko'rsatib berdi”, deydi xalqaro tashkilot raisi Delia Ferreyra Rubio.

Sobiq SSSR mamlakatlarida 2018-yilda Korrupsiyani anglash indeksi bo'yicha Estoniya 18-o'rinni, Gruziya — 41, Belarus — 70, Qozog'iston — 124, Tojikiston — 152, O'zbekiston 158-o'rinni egallagan.

2020-yil 29-iyunda Prezidentimizning “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoniga muvofiq tashkil etilgan Korrupsiyaga

qarshi kurashish agentligi bu borada davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish bilan birga, ana shu ko'rsatkichni yaxshilash ustida ko'p ishlashi kerak.

Bunda bir omilga ahamiyat berilishi, ya'ni ko'chmas mulk sotib olinayotganda pullarningkelib chiqishi qonuniyligi tekshirilishi zarur, deb hisoblaymiz. Vaholanki, bizda juda qimmat uylar egalari ularni sotib olish yoki qurish uchun mablag'ni qayerdan olgani surishtirilmaydi ham (2021-yilda deklaratsiya to'ldiriladi, ungacha mulklar imkon qadar "boshqa"ga o'tkazilishi mumkin).

Qonunchilik tizimida ham kamchilik mavjud. Misol uchun, xonandalar yoki boshqa ayrim toifa kishilarining xohlagancha qasr uylar qurishiga, televideniyeda ko'z-ko'z qilinishiga yo'l qo'yilishi qonunlar yaxshi ishlamayotganidan darak beradi. Masalaning ma'naviy tarafi ham borki, yengilgina yo'l bilan bunday shohona yashash bir vaqtlar prokuror yoki DAN xodimi tayyorlaydigan o'qishga kirishni istovchi yoshlар ko'payganiga o'xhash holatni paydo qilishi mumkin.

Demak, bu iste'dodi bo'lmasa-da, oddiygina texnika, fonogrammaga suyanib, mo'may pul topadiganxonandalar sonining 10 baravar oshishiga olib keladi. Bu fikrga ko'pchilik qarshi chiqishi mumkin. Ammo jamiyatda barcha sohada teng muvozanatni saqlashdek "oltin qoida" buzilmasligi taraf dorimiz. Fonogrammada aytilgan qo'shiqning CD disklarini yozib olish, ko'paytirish va sotish bilan shug'ullanuvchilarga ham shunday "imtiyoz"lar belgilanishi, soliq to'lamasligi oqibatida Davlat byudjeti katta iqtisodiy zarar ko'rishiga ham toqat qilib bo'lmaydi. Bunday korrupsiogen holatlarning ildiz otishiga, bir guruh kishilarning boyib ketishiga yillar davomida sharoit yaratilgan. Deylik, savodi ham inqadar xonanda yo disk ko'paytiruvchi o'zi o'qitgan maktab muallimi yoki uzoq yillar davomida ilm bilan shug'ullangan olimdan ham ko'proq mablag' topishiga imkoniyat yaratilishiadolatsizlik va korrupsiyaning ochiq ko'rinishi emasmi?!

Aholi tabaqalari daromadlarining farqlanish miqdori keskin o'zgargani iqtisodchilarni tashvishga solmoqda. Misol uchun, sobiq ittifoq statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, bu 1956-yilda 3,28, 1986-yilda 3,38 ga yetgan — qariyb teng

bo‘lsa, mustaqillik yillarida boy va kambag‘allar daromadidagi farq ancha ko‘paygan. Rasmiy ma’lumotlarda 10 foiz eng badavlat kishilar daromadi eng kambag‘al fuqarolarning daromadlaridan 10 — 15-marta oshib ketganligi ma’lum bo‘lmoqda.

Ko‘plab ekspertlar “yashirin iqtisodiyot” hisobga olinganda, o‘rtadagi haqiqiy tafovut 25 — 40 marotaba ekanligini qayd etmoqda. Hozirgi kunda yashash minimumidan past darajada kun kechirayotgan kambag‘al aholi 15 foizdir. Bu masalada 2019-yildan boshlab katta siljish kuzatilgan, hatto butun bir vazirlik ishlayotgan bo‘lsa-da, o‘rtadagi farqning kuchayib borishi jamiyat qatlamlarida turli fikrlarni paydo qilishi mumkin.

2020-2021-yillarda barcha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplayens-nazorat”)ni bosqichma-bosqich joriy etish choralari ko‘rilishi sohada tub o‘zgarishlarga turtki berishiga ishonamiz. Agentlikka xalqaro konvensiya talablarini bajarish maqsadida ushbu yo‘nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy koordinatori vazifa va vakolatlari yuklatilishi, mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilishi idoranining maqom hamda nufuzini yana-da oshirishga xizmat qiladi.

Demak, milliy taraqqiyotga to‘sinq bo‘lib kelayotgan korrupsiyani bartaraf etish yo‘lida dadil qadamlar tashlanmoqda. Eng asosiysi, korrupsiyaga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar qanchalik harakat qilmasin, xalqimiz bu jirkanch illatga murosasiz bo‘lmash ekan, ta’sirchan jamoatchilik nazoratini o‘rnatmas ekan, bu baloga qarshi samarali kurashni tashkil eta olmaymiz.

**Illatga qarshi kurashishni nimadan boshlash kerak degan savol esa bugungi kunda dolzarb bo‘lib qolmoqda va albatta, qonunlar va qarorlarda o‘z ifodasini topmoqda. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” va boshqa strategik maqsadlarda ham ifodalanib kelinmoqda. Bu 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan PF 60-sonli farmonidan avvalgi PF 4947-sonli farmon ya’ni 2017-yil 7-fevraldagagi “Harakatlar strategiyasi”dagi sud-huquq tizimiga**

## **oid va erkin fuqarolik jamiyatini yaratishga qaratilgan ustuvor maqsadlarda ham albatta, o'z ifodasini topadi.**

Eng avvalo, korrupsiyaga qarshi kurashishni oiladan boshlash darkor. Bu borada ayollarning roli katta, deb hisoblaymiz. Agar o‘g‘rilik yoki pora hisobiga kelgan luqmaning tag-ildizini ayollarimiz surishtirib bilsa, ochiq fikrini aytolsa, erlar halol rizqni izlashga tushib, ishi va oilasida fayz-baraka, sokinlik hamda xotirjamlik qaror topishi, shubhasiz.

Korrupsiya — tamagirlikning yuqori nuqtasi. Unga qarshi kurashish uchun amaldorlardan siyosiy iroda talab qilinadi. Ushbu vaziyatdan chiqish usuli shuki, avvalo, davlat byurokratik apparati hajmi imkon qadar kamayishi, fuqarolarning shaxsiy hayotiga va iqtisodiy faoliyatiga davlatning minimal aralashuvi, monopoliyaga barham berilishi lozim.

To‘g‘ri, korrupsiyaga qarshi kurashish turli mamlakatlarda turlicha namoyon bo‘ladi. Ammo davlat xizmatida o‘g‘rilamaslik uchun dunyoda faqat ikkita retsept tan olinadi: 1. Shveysariya — vaqt ni qisqartirish.

Albatta, mamlakatimizda ham bu illatga qarshi keskin kurashish choralari ko‘rilmoxda. Tadqiqotlar biror-bir illatga barham berishda eng samarali vosita illatning o‘zi bilan emas, balki sababi bilan kurashish ekanini ko‘rsatmoqda.

Bizningcha, bu yaramas illatga qarshi kurashishni quyidagi muammolarning yechimidan boshlash tavsiya etiladi: agentlik tomonidan korrupsiya tarkibiy qismiga kiradigan qonun hujatlari qayta ko‘rib chiqilishi; davlat muassasalari ustidan jamoatchilik nazorati (ochiqlik indeksi) o‘rnatalishi; hokimlar va vazirlar parlament hamda mahalliy Kengashlar tomonidan tasdiqlanishi; barcha davlat xizmatlari “Yagona oyna” markazlariga o‘tkazilishi, sud tizimi mustaqilligi mustahkamlanishi; davlat xizmatchilarining ijtimoiy himoyasi, mansabdor shaxslarning ish haqini biznesdagiga o‘xhash ish haqidan 2-3 baravar ko‘p bo‘lishiga erishilishi (Gruziya tajribasi) kerak.

Buning uchun mustaqil komissiya va markazlarni tuzish, haqiqiy ahvolni jiddiy o‘rganish, barcha tadqiqotlar hamda axborotlarni muntazam yig‘ib

boradigan yagona markaz tezda ish boshlashi talab etiladi. Chunki qiladigan ish va vazifa o‘n yillarga yetgulik.

Tan olish joizki, davlat xaridlari, investitsiya, bank, soliq, bojxona, bozorlar, qurilish tizimida korrupsiyaga aloqador shaxslar yaxshi daromad ko‘radi. Qonunchilik amaliyoti, huquq-tartibot organlarining ularga qarshi turish borasida o‘ta “ojizligi”, “zaifligi”, hatto xayrixohligi holatlari ishimizga xalaqit berib, buning oqibatida xalq va davlatning yer osti hamda yer usti boyligini o‘zlashtirish evaziga chet ellarda dang‘illama villalarga egalik qilish holatlari ko‘payib boradi.

Jamiyat a’zolarini birday qiynab kelayotgan baloi ofatga qarshi kurashish uchun biz qo‘shni davlatlar tajribasini o‘rganish va saboqlar chiqarish yo‘lida izlanib, Rossiyadagi ahvolni ko‘zdan kechirdik: 2000-yillar avvalida ulkan mamlakatning milliy xavfsizligiga korrupsiya xavf sola boshlagach (asosan, yer osti boyliklari va mudofaa sohasi mablag‘larini talon-toroj qilish), maxsus idora ochildi, mavjud muammolar -xalqaro tajriba bilan taqqoslanib, “homiy” vazifasini bajargan huquq-tartibot organlari, soliq, bojxona xizmati tizimi rahbarlariga keskin choralar ko‘rildi.

Ichki ishlar organi tizimi butunlay isloh etildi. Kriminal tarmoqlardagi uzoq yillik korrupsiya holatlari ishonchli dalillar orqali fosh qilinib, yirik jinoiy ishlar ochildi.

To‘g‘ri, B. Yelsin hokimiyati davrida masalaga panja orqasidan qarab kelingan edi. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V. Putin nazoratiga o‘tgan ko‘plab maxsus ilmiy markazlar, jamoat tashkilotlari qisqa muddatda vazirliklar va mintaqalardagi korrupsiya darajasini aniqlab oldilar.

Masalan, Moskva hamda markaziy shaharlarda korrupsiya yuqori, uzoq o‘lkalarda kamroq rivojlangan edi. Ayniqsa, sud, prokuratura, ichki ishlar organlarida, oliv o‘quv yurtlarida korruption tizim “samarali” ishlaganligi aniqlanib, minglab mansabdor shaxslar lavozimidan ozod qilindi. Bundan xulosa chiqargan tamagir rahbarlar siyosiy vaziyatdan sal cho‘chib, o‘zlarini “panaga tortdi”.

Aytish mumkinki, o‘zbek siyosatchilari, davlat arboblari, olimlari o‘rganaman desa dunyo mamlakatlarida bunday jihatlar ko‘plab topiladi. Misol uchun, Singapurda pora olishdan bosh tortgan amaldorlarga mukofotlar tarqatiladi. Yaponiya davlat sektori xodimlarining vijdonliligi baholab boriladi. Biz o‘ziga xos bunday islohotlar tag-zaminidagi ichki va tashqi omillarni tadqiq etishimiz zarur. Bulardan tashqari, “konfutsiycha kapitalizm”, suxartocha siyosat, Maxatxira (ruxu nigara) g‘oyalarining mazmun-mohiyati ham deyarli o‘rganilmagan.

Xullas, davlat organlarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurash bo‘yicha chora-tadbirlarni joriy etish, aholining korrupsiyaga qarshi qarashlarini shakllantirish bo‘yicha xalqaro tajribalar hech qachon zarar qilmagan.

O‘zbekistonda bu borada to‘plangan muammolar Rossiyanikiga yaqin turadi, demak, dastlabki tadbirlar ana shu sxema asosida amalga oshirilishi mumkin. Korrupsiya ildiziga bolta urishda jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar ustuvor mavqeni egallashi lozim, degan fikrdamiz.

Lekin afsuski, MDH davlatlarida kimningdir tazyiqi, ko‘rsatmasi yoki tamagirligi, mansabdorning sotib olinishi evaziga sudlarningadolatsiz hukmlar chiqarishi hollari ko‘p uchraydi (yurtimiz ham mustasno emas). Sud tizimi siyosiy hokimiyatning itoatgo‘y, tobe organiga aylanishi kasallikning battar gazak olishiga olib keladi.

Jonli misol, mahalliy hokimlarning fuqarolar va yuridik shaxslarga yerni ajratishi, ko‘p yillardiki, biznesga, kimoshdi savdosiga aylanib, rosa korrupsiyalashganligi bois, ular chiqargan qarorlarning teng yarmi, qariyb 2000 tasi sudlar tomonidan bekor qilingani, so‘ng deputatlar qistovi bilan mazkur vazifaning geokadastr tashkilotiga o‘tkazilgani shu sohada tashlangan dadil qadam bo‘ldi. Bulardan tashqari, o‘nlab vakolatlar jamoat tashkilotlari ixtiyoriga topshirildi. Ishonamizki, bunday demokratik jarayon davom ettiriladi.

Mamlakatimizda ham siyosiy, ham iqtisodiy islohotlarni hayotga tatbiq etish paytida korrupsiya jiddiy to‘siq bo‘layotgani jamoatchilikni tashvishga solmoqda. Shu bois Yurtboshimiz boshlab bergen jamiyatni demokratlashtirish, modernizatsiyalash jarayonlari qiyinchilik bilan davom etmoqda. Iqtisodiyotning

investitsiya kiritilgan, “pul ishlaydigan”, birmuncha “yog‘li” tarmoqlariga o‘rnashib olgan “korrupsiya halqasi” milliy taraqqiyotimizning dushmani, jamoat nazorati esa ularga qarshi kurashda ojizlik qilayotgani ham afsuski bor gap. Mamlakatda korrupsiya sxemalari, mehnat qilmasdan tezda boyib qolish mexanizmlari, ishlangan usullari “zanjiri” uzib tashlanmas ekan, davlatimizning har qanday siyosiy, iqtisodiy islohotini hayotga olib kirish, xalqni farovon qilish vazifasi qog‘ozda qolib ketaveradi.

Shu o‘rinda yana bir toifa haqida alohida to‘xtalib o‘tish zarur, deb hisoblaymiz. Ma’lumki, 1990-yillar boshida mustaqillik yo‘liga o‘tgan yosh davlatlarda modernizatsiyalash tabiiy bo‘lmagan jarayonni o‘z boshidan kechirdi. Barcha ko‘rsatkichlar gazetalarda yozilganday “silliq” emas, balki notekis kechayotgani ko‘pchilikka ma’lum edi. Chunki davlat bosh islohotchilikni bo‘yniga olgan bo‘lsa-da, uni amalga oshiruvchi institut byurokratiya qo‘lida qolgandi. Apparatchi byurokratlar sinfi sotsializm hukm surgan eski davrlarni ko‘p qo‘msaydi, yangilikni xohlamaydi. Masalani shu jihatdan xolis tahlil qilganimizda, byurokratiyaning hokimiyatga “ta’siri” korruptionerlardan kam emasligi ayon bo‘ladi.

Korrupsiya va milliy taraqqiyot masalasi — yurt taqdiri, mamlakat kelajagi uchun har qachongidan muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sababi yurtimiz aholisi bir asrlik mustamlakachilik davrida yo‘qotilgan moddiy hamda ma’naviy boyliklar o‘rnini qayta tiklash, iqtisodiyotni rivojlantirish, milliy o‘zlikni asrash yo‘lida kechayu kunduz mehnat qiladigan davr keldi.

Yaponlar ham, xitoyliklar ham, singapurliklar ham xalq ruhiyatini saqlab qolish, diniy qadriyatlarni mustahkamlash, vatanparvarlik mafkurasini ongga singdirish orqali milliy taraqqiyotga erishdi. Biz ham shu nurli yo‘ldan yurishga munosib xalqmiz. Zero, ozodlik, erkinlik yaratgan boy imkoniyatdan to‘laqonli foydalanish O‘zbekistonda korrupsiya muammosi yechilishiga, qolaversa, uchta hokimiyatning o‘zaro tiyib turish tamoyiliga nechog‘li amal qilishiga chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Muxtasar aytganda, korrupsiya — taraqqiyot kushandas, xavfsizlikka tahdid tug‘diruvchi xavfli jinoyat. Bu illatga qarshi kurashish tegishli organlarninggina emas, barchaning ishi bo‘lishi zarur. Shundagina biz ushbu xavfni bartaraf etgan bo‘lamiz.

**Xalqaro-huquqiy hujjatlarda korrupsiyaga oid qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik bo‘yicha standartlar: BMT va IHTT misolida.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.07.2021 yildagi PF-6257-sonli “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi murosasiz kurashishning ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan tizimini joriy etish bo‘yicha izchil choralar ko‘riliishi belgilab o’tildi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (UNCAC)<sup>3</sup> yagona qonuniy majburiy xalqaro hisoblanadi korrupsiyaga qarshi kurashish ko‘p tomonlama shartnomasi. Tomonidan muzokara olib borildi a’zo davlatlar ning Birlashgan Millatlar (BMT) tomonidan qabul qilingan BMT Bosh assambleyasi 2003 yil oktyabrda va 2005 yil dekabrda kuchga kirgan.

Shartnomasi ham profilaktika choralarini, ham jazo choralarining muhimligini tan oladi, korruptsiya qoidalari bilan xalqaro hamkorlik va korrupsiyadan tushgan daromadni qaytarish to‘g‘risida BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi (UNODC) Venadagi BMTKQK (UNCAC) kotibiyati vazifasini bajaradi. BMTKQKning maqsadi har xil turlarni kamaytirishdir korruptsiya mamlakat chegaralari bo‘ylab sodir bo‘lishi mumkin, masalan, ta’sir doirasidagi savdo va hokimiyatni suiiste’mol qilish, shuningdek, korruptsiya xususiy sektor, kabi o’zlashtirish va pul yuvish. BMTKQK ning yana bir maqsadi - mustahkamlash xalqaro huquq samarali huquqiy mexanizmlarni

---

<sup>3</sup> UNCAC-Birlashgan Millatlar Tashkiloti korrupsiyaga qarshi kovensiyasi (BMTKQK)

taqdim etish orqali mamlakatlar o'rtasida ijo va sud hamkorligi xalqaro aktivlarni tiklash.

Ishtirokchi-davlatlar - Konventsiyani ratifikatsiya qilgan mamlakatlar - jinoiy ishlar bo'yicha hamkorlik qilishlari va korruptsiya bilan bog'liq fuqarolik va ma'muriy ishlarni tergov qilishda va sud ishlarini yuritishda bir-birlariga yordam berishni o'ylashadi. Konventsiya bundan keyin ishtirok etishga chaqiradi fuqarolik jamiyati hisobot berish jarayonida nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning ma'lumotlarga ega bo'lishining muhimligini ta'kidlaydilar.

BMTKQK tomonidan qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh assambleyasi 2003-yil 31-oktyabrda 58/4 qarori bilan. U imzo uchun ochilgan Merida, Yucatan, Meksika, 2003-yil 9-dan 11-dekabrgacha va undan keyin BMTning bosh qarorgohi yilda Nyu-York shahri. Uni 140 mamlakat imzolagan. 2020-yil may oyidan boshlab 187 ta partiya mavjud bo'lib, ular tarkibiga 181 ta partiya kiradi BMTga a'zo davlatlar, Kuk orollari, Niue, Falastin davlati, va Yevropa Ittifoqi, va boshqalar.

2020-yil may oyidan boshlab BMTga a'zo bo'lмаган 11 davlat tasdiqlangan konventsiya (yulduzcha davlat konventsiyani imzolaganligini bildiradi):

Andorra	Sent-Vinsent va Grenadinlar
Barbados *	San-Marino
Eritreya	Somali
Monako	Surinam
Shimoliy Koreya	Suriya *
Sent-Kits va Nevis	

BMTKQK majburiy va majburiy bo'lмаган qoidalarni o'z ichiga olgan beshta asosiy yo'nalishni qamrab oladi:

- Profilaktik choralar;
- Jinoyatchilik va huquqni muhofaza qilish;
- Xalqaro hamkorlik;
- Aktivlarni tiklash;

-Texnik yordam va ma'lumot almashish.

BMTKQK profilaktikaning davlat va xususiy sektorda muhimligini anglaydi. II bob korrupsiyaga qarshi kurashish organlarini tashkil etish va saylov kampaniyalari va siyosiy partiyalarni moliyalashtirishda oshkoraliqni kuchaytirish kabi profilaktika siyosatini o'z ichiga oladi. Korrupsiyaga qarshi kurash organlar korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini amalga oshirishi, bilimlarni tarqatishi va mustaqil bo'lishi, etarli manbalarga ega bo'lishi hamda tegishli o'qitilgan xodimlarga ega bo'lishi kerak.

Konvensiyani imzolagan davlatlar o'zlarining davlat xizmatlari kafolatlarini kafolatlashlari kerak, samaradorlik, oshkoraliq va xizmatga asoslangan holda ishga yollanishni ta'minlaydigan kafolatlar qo'llaniladi. Ishga qabul qilingandan so'ng, davlat xizmatchilari odob-axloq qoidalari, talablari bilan bog'liq bo'lishi kerak moliyaviy va boshqa ma'lumotlar va tegishli intizomiy choralar. Shuningdek, davlat moliyasini boshqarishda shaffoflik va hisobdorlikni targ'ib qilish kerak, shuningdek sud tizimi va davlat xaridlari kabi davlat sektorining o'ta muhim sohalarida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha aniq talablar belgilanadi. Korrupsiyaning oldini olish, umuman, barcha jamiyat a'zolaridan harakat talab qiladi. Shu sabablarga ko'ra BMTKQK mamlakatlarni fuqarolik jamiyatini faol jalg qilishga, korruptsiya va bu borada nima qilish mumkinligi to'g'risida aholining xabardorligini oshirishga chaqiradi. Davlat sektoriga qo'yiladigan talablar xususiy sektorga ham tegishli - shaffof tartib va odob-axloq qoidalari qabul qilinishi kutilmoqda.

III bob tomonlarni bir qator o'ziga xos jinoiy huquqbuzarliklarni tashkil etishga yoki saqlashga chaqiradi, ular orasida nafaqat poraxo'rlik va o'g'irlash kabi uzoq muddatli jinoyatlar, balki ko'plab davlatlarda ilgari jinoiy javobgarlikka tortilmagan, masalan, savdo-sotiq va boshqa rasmiy funktsiyalarni suiiste'mol qilish kabi jinoyatlar mavjud. Korrupsiyaning turli mamlakatlarda namoyon bo'lishining keng ko'lami va ba'zi bir huquqbuzarliklarning yangiliqi jiddiy qonunchilik va konstitutsiyaviy muammolarni keltirib chiqarmoqda, bu holat maxsus qo'mitaning ba'zi qoidalarni ixtiyoriy qilish to'g'risidagi qarorida o'z aksini

topgan (" ... Qabul qilishni ko'rib chiqadi ... ") yoki ichki konstitutsiyaviy yoki boshqa asosiy talablarga rioxay qilgan holda (" ... konstitutsiyasi va huquqiy tizimining asosiy tamoyillari asosida ... "). Tomonlar jinoiy javobgarlikka tortishlari kerak bo'lgan aniq harakatlar kiradi:

- milliy, xalqaro yoki xorijiy davlat amaldorlarining faol pora olishlari;
- milliy davlat amaldorining passiv pora olishi;
- davlat mablag'larini o'g'irlash;

Boshqa majburiy jinoyatlar qatoriga odil sudlovga to'sqinlik qilish, jinoiy daromadlarni yashirish, konvertatsiya qilish yoki o'tkazish (jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish) kiradi. Sanktsiyalar korrupsiyaga oid huquqbazarliklarda ishtirok etganlarga nisbatan qo'llaniladi va ularga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Shunday qilib, BMTKQK avvalgi turdag'i ushbu vositalardan tashqarida bo'lib, partiyalardan korruptsianing faqat asosiy shakllarini jinoiy javobgarlikka tortishni talab qiladi. Tomonlar jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak, ammo talab qilinmaydi - boshqalar bilan bir qatorda, xorijiy va xalqaro davlat amaldorlarining passiv pora olishlari, ta'sir o'tkazish bilan savdo qilish, funktsiyalarini suiiste'mol qilish, noqonuniy boyitish, xususiy sektorning pora olish va o'g'irlash va noqonuniy aktivlarni yashirish.

Albatta, mamlakatimiz ham bunday xalqaro konvensiya va normalarda faol ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, BMT va IHTT korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha qarorlari va shartnomalarini hamda ular misolida jahon standartlari bo'yicha korruptsiyaga qarshi kurashda alohida qonunlar, qarorlar, normalar belgilab, keraklicha chora tadbirlar ko'rib borilmoqda.

Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylangan ilk kunlardanoq korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida bir qator Qonun va qonunosti hujjatlar qabul qildi. Jumladan, 2017-yilning 3-yanvarida "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi 419-sonli qonun qabul qilindi. Mazkur qonun korruptsiyaga qarshi kurashishda davlat siyosatining ustuvor yo'naliishlarini belgilab berdi va korruptsiyaga qarshi kurashish faoliyati tartibga solinib, korruptsiyaga qarshi kurashishning qonuniy asosi yaratildi. Mazkur qonunning 3-

moddasida korrupsiya tushunchasiga ta’rif berilgan. Unga ko’ra, korrupsiya – shaxsning o’z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o’zga shaxslarning manfaatlarini ko’zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foidalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdir.

Qonunning samarali ijrosini ta’minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o’z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27- maydagi PF-5729-son Farmoni bilan “2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi” hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha respublika idoralararo komissiyasining yangilangan tarkibi tasdiqlanib, uning asosiy vazifalari belgilab berildi. Bundan tashqari O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 30-iyundagi “O’zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 6013-sonli Farmoni qabul qilindi va ushbu Farmonda ham korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor vazifalari belgilab berildi.

Amalga oshirilgan islohotlar korrupsiyaviy jinoyatlarning sodir etilish dinamikasiga muayyan darajada ta’sir qildi. Jumladan, 2020-yilda korrupsiyaviy jinoyatlar bo’yicha jami 1723 nafar, shundan 9 nafar respublika darajasidagi, 45 nafar viloyat darajasidagi, 1669 nafar tuman va shahar darajasidagi mansabdor shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiib, korrupsiya oqibatida yetkazilgan 500 mlrd so’mlik moddiy zararning 71 foizi yoki 355 mlrd so’mi aybdorlardan tergov davomida undirilgan bo’lsa, 2021-yilning 6 oyi mobaynida 2544 nafar mansabdor shaxsga nisbatan korrupsiya holatlari bilan bog’liq bo’lgan 1676 ta jinoyat ishlari tergov qilinib, sudlarga yuborilgan.

Amaldagi qonunchilikda korrupsiyaviy jinoyatlarga oid bir qator tushunchalarga nisbatan normativ-huquqiy ta’riflarning mavjud emasligi, korrupsiyaviy qilmishlarning jinoyat qonunchiligi bilan lozim darajada qamrab olinmaganligi kabi muammolarning mavjudligi korrupsiyaga qarshi kurashishdan

ko'zlangan natijaga erishish va bu borada O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rnini yanada yaxshilashga to'siq bo'lmoqda.

Jinoyat qonunchiligidagi korrupsiyaga oid normalarni tanqidiy jihatdan qayta ko'rib chiqish, mazkur jinoyatlar elementlarining kompleksliligi, maqsadga muvofiqligi, sohaga oid xalqaro standartlar hamda ilg'or xorijiy tajribaning milliy qonunchilikka yetarli darajada joriy etilganligi kabi masalalarni ilmiy jihatdan tadqiq qilish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, korrupsiyaga oid samarali jinoyat qonunchiligini yaratish asoslantirilgan va ilmiy xulosalar asosida tashkil etilganidagina kutilgan samarani beradi.

**Ayrim xorijiy mamlakatlardan qonunchiligidagi korrupsiyaga oid qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik masalalari.** Korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro institutlar ichida Birlashgan Millatlar tashkiloti muhim rol o'ynaydi. BMT tomonidan qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashga yo'naltirilgan hujjatlar ichida 2003-yil dekabr oyida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi 2008-yil 7-iyuldagagi qonun bilan mazkur Konvensiyaga qo'shilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha nafaqat BMT, balki Yevropa Ittifoqi, Jahon banki, Transperensy International xalqaro nohukumat tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Butunjahon bojaxona tashkiloti ham korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha o'zlarining faoliyatida alohida e'tibor berib kelmoqda. Ushbu tashkilotlar tomonidan korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashda hamkorlik qilish va boshqa davlatlarni, xalqaro biznes tashkilotlarini korrupsiyaga qarshi kurashga jalg qilishga qaratilgan qator xalqaro hujjatlar qabul qilingan.

Hozirda rivojlangan mamlakatlarda ham korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarlarni uchratish mumkin, lekin ular doimiy ravishda korrupsiya bilan qarshi kurashib keladi va korrupsiya darajasi kamligi bo'yicha jahon reytingida yuqori o'rnlarda turadi, Jumladan, Transperensy International xalqaro nohukumat tashkilotining 2020-yildagi statistik ma'lumotlariga ko'ra, korrupsiya darajasi past mamlakatlardan reytingida Yangi Zelandiya 1, Daniya 2, Finlandiya, Singapur, Shvitsiya 3-o'rinni egallagan bo'lsa, Markaziy Osiyo davlatlaridan Qozog'iston

94, Qirg'ziston 124, O'zbekiston 146-o'rinni egallagan. Hech bir davlat korrupsiyadan, uning zararli oqibatlaridan mutlaq himoya qilinmagan. Shu sababli har bir davlat qonunlarida korrupsiyaga qarshi kurash eng dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Xususan, Xitoy Jinoyat kodeksining 382-moddasiga ko'ra davlat xizmatchilarining o'z mansab imtiyozlaridan foydalangan holda davlat mulkini o'zlashtirib olishi, o'g'irlashi, firibgarlik yo'li bilan olishi yoki boshqacha tarzda o'zlashtirishi korrupsiya deb hisoblanadi. Shuningdek, davlat organlari, davlat korxonalari, korxonalar, tashkilotlar, xalq birlashmalari davlat mulkini boshqarish va xo'jalik yuritish ishonib topshirilgan shaxslarning o'z xizmat afzalliklaridan foydalangan holda o'zlashtirib olishi, o'g'irlashi, aldash yo'li bilan davlat mulkini boshqa yo'llar bilan noqonuniy egallab olishi ham korrupsiya sifatida baholanishi belgilangan. Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning og'ir-yengilligiga qarab javobgarlik belgilangan bo'lib, 100 ming yuandan ortiq miqdordagi yakka tartibdagi korrupsiya uchun o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi, agar mol-mulki musodara qilingan holda yoki unsiz yillar yoki muddatsiz ozodlikdan mahrum qilish, jazoni o'ta og'irlashtiruvchi holatlarda – o'lim jazosi va mol-mulkini musodara qilish belgilangan. Bundan tashqari Xitoy qonunchiligiga ko'ra, mol-mulk yoki xarajati uning qonuniy daromadidan oshib ketgan har qanday davlat amaldoriga, farq juda katta bo'lgan taqdirda, o'z mulkining manbalarini tushuntirish majburiyati yuklanadi. Agar u manbalar qonuniy ekanligini isbotlay olmasa, uning qonuniy daromadidan oshadigan qismi noqonuniy boylik deb hisoblanadi. Har qanday davlat amaldori Xitoy tashqarisidagi bankda saqlanuvchi o'z mablag'lari haqida tegishli tartibda davlatga xabar qilishi shart. Bizning fikrimizcha, Xitoy qonunchiligidagi korrupsiyaga qarshi kurashda yaxshi amaliyot yo'lga qoyilgan bo'lib, bunda mansabdor shaxslarning mol-mulki deklaratsiya qilinib, ortiqcha qismi qayerdan kelganligini asosli ma'lumotlar bilan isbotlay olmasa, korrupsiya sifatida baholanadi va mansabdor shaxsning javobgarlikka tortilishiga asos bo'ladi.

Germaniya huquqshunoslarining fikriga ko'ra, mansabdorlik jinoyatlari nafaqat sub'ekt – mansabdor shaxsning belgisi bo'yicha, balki himoya qilinadigan

ob'ekt – davlat apparati normal amal qilishi bo'yicha ham birlashtirilgan. "Basharti shaxs: a) amaldor yoki sudya hisoblanadigan; b) boshqa ommaviy-huquqiy xizmat munosabatlarida bo'lsa; v) ommaviy boshqaruv vazifalarini qaysidir hokimiyat organida yoxud boshqa muassasada yo uning topshirig'iga ko'ra amalga oshirishga da'vat etilgan bo'lsa, u mansabdor shaxs hisoblanadi". Bundan tashqari, "bevosita ommaviy xizmat qilishga da'vat etilgan", ya'ni "mansabdor shaxsning o'zi bo'lmasada, hokimiyatning qaysidir organida ommaviy boshqaruv vazifalarini amalga oshirayotgan yoki bunday vazifalarni amalga oshiruvchi muassasa yoxud birlashmada band bo'lgan xodim mansabdorlik jinoyatlarining sub'ekti hisoblanadi". Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksining 332-moddasiga ko'ra korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar uchun olti oydan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan. Demak, Germaniya qonunchiligaida korrupsiya uchun tayinlanadigan jazo uncha og'ir bolmasada, lekin ushbu jinoyatning sub'ekti faqatgina mansabdor shaxs emas, balki davlat organlarining har bir xodimi ham bo'lishi mumkin va ular bir xil javobgarlikka tortiladi.

Ispaniya Jinoyat kodeksi esa, poraxo'rlik jinoyatini pora evaziga amalga oshirilgan xatti-harakatlarning qonuniy yoki noqonuniyligiga ko'ra ikki turga ajratadi. Kodeksning 419-moddasiga ko'ra, mansabdor shaxs yoki davlat xizmatchisining o'z xizmat majburiyatlarini buzish yoki bajarmasligi evaziga o'zi yoki uchinchi shaxslar foydasini ko'zlab, sovg'a, mukofot yoki har qanday ko'rinishdagi taqdirlashni qabul qilishi, so'rashi yoki qabul qilishga rozilik bildirishi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, uch yildan olti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi, shuningdek, davlat xizmati bilan shug'ullanishni alohida taqiqlash va sodir etgan qilmishi uchun yetti yildan o'n ikki yilgacha muddatga mansabdor bo'lish taqiqlanadi. Kodeksning 420-moddasi shunday xatti-harakat yoki harakatsizliklarni o'z majburiyatlarini buzmagan holda sodir etish uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi. Ispaniya qonunchiligidagi shuni ko'rishimiz mumkinki, agar davlat organi xodimlari korrupsiya bilan bog'liq jinoyatni sodir qilsa, u faqatgina jinoiy javobgarlikka tortilib qolmasdan muayyan

muddatga davlat xizmatida ishlashi taqiqlanadi. Bu korrupsiyaga qarshi kurashishning o'ziga xos yo'li hisoblanib, korrubsiyani oldini olishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Janubiy Koreya Jinoyat kodeksining 129-moddasi pora olishdan tashqari, pora so'rash va pora olishga va'da berish uchun ham javobgarlikni belgilaydi. E'tiborga molik jihat shundaki, mazkur davlat jinoyat qonunchiligi nafaqat pora berish yoki pora berishni va'da qilishni, balki shaxsning pora berish haqida o'z xohishini namoyon qilganligi holatini ham jazoga sazovor qilmish sifatida baholaydi. Janubiy Koreyada korrupsiyaga qarshi jinoyatlar uchun jazo tayinlashning bu usuli samarali hisoblanib, bunda nafaqat jinoyatni sodir qilgan shaxs, balki pora olish yoki berish haqida o'z xoxishini aytgan shaxs ham jinoyat sub'ekti bo'ladi va javobgarlikka tortiladi.

AQSh va Buyuk Britaniya jinoyat qonuniga binoan, ommaviy tashkilotlarning xizmatchilari – mansabdar shaxslar ham, boshqa xodimlar ham pora olganlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin.

AQSh, Buyuk Britaniya jinoyat qonunlaridan farqli o'laroq, Italiya, Fransiya va GFRda xizmatchini pora evaziga og'dirishning oldini olishga qaratilgan huquqiy choralar ancha barqarordir. Fransiyada 1992-yilgacha aybdorlar 1810-yilgi JKning 177-183-moddalari bilan javobgarlikka tortib kelangan; Italiyaning 1930-yilgi Jinoyat kodeksiga mansabdarlik jinoyatlariga doir jiddiy o'zgartirishlar faqat 1990-yil kiritilgan.

Buyuk Britaniya statut huquqida poraxo'rlik uchun javobgarlik 1889, 1906, 1916 va 1925-yilgi qonunlar bilan o'rnatilgan, shuningdek sud presedentlari bilan tartibga solingan. Bu Angliyaning korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari dinamik xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Mufassal, ba'zan haddan ortiq detallashtirilgan ta'riflar, umumiy sanksiyalar bilan bir xil maxsus normalar tuzish yoki tasniflangan (imtiyozli) tarkiblarni (masalan, choychaqa berish va olish uchun javobgarlik moddasini) zaruratsiz kiritish AQSh korrupsiyaga qarshi qonunchiligining o'ziga xos xususiyatlaridir.

AQSh kodekslarining “Jinoyatlar va jinoiy ish yuritish” deya nomlangan 18-bobi 201-moddasi mansabdar shaxslar yoki guvohlarning poraxo’rligi uchun jinoiy javobgarlikni belgilaydi. Unga binoan, pora olish va berishdan tashqari, pora taklif qilish, va’da qilish, pora so’rash va porani olishga rozilik bildirish ham jinoiy javobgarlikka sabab bo’ladi. Janubiy Koreyada bo’lgani kabi AQShda ham korrupsiya jinoyati haqida o’z xoxishini bildirganlik uchun ham javobgarlik belgilangan. Demak, ushbu yo’l ham samarali hisoblanib, korrupsiyani oldini olishga ma’lum miqdorda o’z hissasini qo’shami.

Irlandiyaning 2018-yildagi “Jinoiy Odil sudlov (korrupsiyaviy huquqbuzarliklar) to’g’risida”gi aktiga muvofiq, aktiv poraxo’rlik porani taqdim etish, taklif qilish yoki taqdim etishga rozilik bildirish kabi harakatlarni qamrab olsa, passiv poraxo’rlik deganda porani qabul qilish, so’rash yoki qabul qilishga rozilik bildirish tushuniladi. Mazkur hujjat porani nafaqat shaxsning o’zi, balki uchunchi shaxslar foydasini ko’zlab olish yoki berish uchun ham jinoiy javobgarlikni belgilaydi. Demak, Irlandiya qonunchiliga korrupsiya bilan bog’liq jinoyatlarning ikki turi mavjud bo’lib, aktiv va passiv poraxo’rlikka bo’linadi. Korrupsiya bilan bog’liq jinoyatlarning bu kabi turlarga bo’linishi nafaqat pora olish yoki berishni, balki unga rozilik bildirishning o’zi bu jinoyatni sodir qilganlikdan dalolat beradi.

Pora evaziga amalga oshirilgan harakat yoki harakatsizlikning qonunniyligi yoki qonunga zidligiga ko’ra ajratilishini boshqa davlatlar jinoyat qonunchiligidagi ham ko’rishimiz mumkin. Jumladan, Litva Jinoyat kodeksining 225-moddasida qonunga zid harakatlarni bajarish orqali pora olish ko’rinishidagi jinoyat uchun og’irroq javobgarlikni nazarda tutadi. Litva jinoyat qonunchiligi poraning miqdori ko’p miqdorni tashkil qilganligi holatlari uchun og’irlashtiruvchi qismlar bilan javobgarlikka tortish to’g’risidagi normalarni belgilaydi. Litva qonunchiligidagi boshqa davlatlarga qaraganda korrupsiya bilan bog’liq jinoyatlar uchun og’irroq javobgarlik belgilangan bo’lib, unda poraning miqdori alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa jazoning og’ir yoki yengilroq tayinlashga asos bo’ladi va jazoning adolatliligi prinsiplariga riosa qilishga sabab bo’ladi.

Korrupsiya darajasi eng past davlatlar reytingining yuqori o'rinalarida turgan davlatlardan biri Singapur hisoblanadi. "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasiga asosan o'zi yoki boshqa shaxs tomonidan yoki ular bilan birgalikda har qanday shaxs – o'zi yoki boshqa shaxs uchun pora so'rash yoki olish yoki olishga rozilik berish yoki har qanday shaxsga yoki uning manfaati uchun pora berish, va'da qilish yoki taklif qilish huquqbuzarlikda aybdor bo'ladi va sudlanganda 100 000 dollardan ortiq bo'limgan jarimaga tortiladi yoki 5 yildan ortiq bo'limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilinadi. Shuningdek ushbu Qonunda parlament a'zosining va davlat organi a'zosining korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlari uchun alohida javobgarlik belgilanganligi bilan ham ahamiyatlidir. Singapur qonunchiligidida poraxo'rlik jinoyatlari pora evaziga amalga oshiriladigan harakatlarning aniq ro'yxatini belgilash orqali chegaralab qo'yilgan. Xuddi shunday normani Malayziyaning 2009-yildagi korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi to'g'risidagi Qonunida ham ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, mazkur qonun pora olish va berishdan tashqari pora so'rash, qabul qilish yoki qabul qilishga va'da berish, shuningdek, pora berishni va'da qilish yoki pora taklif qilganlik uchun ham javobgarlik nazarda tutilgan. Demak, Singapur va Malayziya qonunchiligidida korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning ro'yxati aniq belgilab qo'yilgan bo'lib, bunda ushbu jinoyatlarni sodir qilgan shaxslarni javobgarlikka tortishda qiyinchiliklarning oldi olinadi va shu turdag'i jinoyatlarning hisobi yuritilib borilib, unga qarshi kurashda chora-tadbirlar belgilab olishda o'zining ijobjiy ta'sirini ko'rsatib boradi.

Shuningdek, Malayziyaning 1997-yildagi korrupsiyaga qarshi Qonunining 32- moddasida belgilanishicha, prokuror har qanday davlat xizmatchisi o'zining amaldagi va ilgarigi egallab turgan lavozimiga ko'ra ega bo'lishi mumkin bo'lgan darajadan ortiqcha bo'lgan har qanday mulkka egalik qilayotganligi yoki shunday mulkni boshqarayotganligi haqida asosli gumonga ega bo'lsa, o'z yozma ko'rsatmasi orqali ushbu mulkning manbasini ko'rsatishni talab qilishi mumkin va davlat xizmatchisi bunday manbani qoniqarli ravishda isbotlab bera olmagan taqdirda jinoyat sodir etishda aybdor deb topiladi. Malayziya qonunchiligiga davlat

xizmatchilarining molmulkini deklaratsiya qilish tizimining yaratilganligi korrupsiyaning oldini olishdagi eng samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Litva Jinoyat kodeksi 1891 -moddasiga muvofiq, eng kam ish haqining 500 baravaridan oshadigan mol-mulkka mazkur mulkning qonuniy manbadan olinishi mumkin emasligini bilgan yoki bilishi mumkin bo'lgani holda mulk huquqi asosida egalik qilayotgan shaxs noqonuniy boyish uchun jinoiy javobgarlikka tortiladi. Ushbu mamlakat qonunchiligidagi noqonuniy boyish jinoyatiga oid rag'batlantiruvchi norma ham mavjud bo'lib, unga ko'ra, yuqoridagicha mol-mulkni uchinchi shaxsdan qabul qilib olgan shaxs huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ushbu molmulkning qonuniyligi yuzasidan tekshiruv boshlanganiga qadar uning shubhali manbadan olinganligi haqida o'z ixtiyori bilan murojaat qilgan taqdirda jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi. E'tiborga molik tomoni shundaki, Litva qonunchiligi nafaqat mansabdor shaxslarning noqonuniy boylik orttirishi, balki har qanday shaxsning noqonuniy boyishi holatini jinoyat sifatida e'tirof etadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Gruziya tajribasiga qaraydigan bo'lsak, Gruziya Respublikasi Jinoyat kodeksining 1641 -moddasida saylovchilarning poraxo'rliги uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, saylov maqsadlarida to'g'ridanto'g'ri yoki bilvosita shaklda amalga oshiriladigan: taklif, va'da, pul o'tkazish, qimmatli qog'ozlar (shu jumladan moliyaviy vositalar), boshqa mol-mulk, mulkiy huquqlar, taklif, xizmatlar ko'rsatish yoki boshqa har qanday boshqa narsalarni taqdim etish va'dasi, imtiyozlar yoki xizmatlar yoki qonun hujjatlarida belgilangan cheklovlarni chetlab o'tish maqsadida qasddan shunday olish yoxud xayoliy, soxta yoki boshqa bitimlar tuzilganda jarima jazosi yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi. Ushbu Kodeksning 338-moddasida pora olish uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, mansabdor shaxslar yoki ularga tenglashtirilgan shaxslar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita pul, qimmatli qog'ozlar, boshqa mol-mulk, mulkiy manfaat yoki boshqa qonunga xilof foyda olish yoki talab qilish, shuningdek o'z foydasiga yoki boshqa shaxslar foydasiga takliflar yoki va'dalar olish, ushbu mansabdor shaxslar yoki

ularga tenglashtirilgan shaxslar tomonidan pora beruvchi yoki boshqa shaxs foydasiga biron-bir xatti-harakatni amalga oshirish yoki amalga oshirishdan tiyilish yoxud shu kabi maqsadlarga erishish uchun ularning mansab vakolatlaridan foydalanganda olti yildan to'qqiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida og'irlashtiruvchi holatlar uchun javobgarlik belgilanib, yeti yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi. Bundan tashqari Gruziya Jinoyat kodeksida bora berish, so'rov o'tkazilayotgan shaxsga, guvohga, jabrlanuvchiga, ekspert yoki tarjimonga pora berish, kasbiy sport musobaqalari yoki tijorat ko'ngilocharlari ishtirokchilariga yoki tashkilotlariga pora berish uchun ham javobgarlik belgilangan. E'tiborli tomoni shundaki, Gruziya jinoyat qonunchiligi mavqeni suiiste'mol qilishga qaratilgan harakatlar sodir etilganda mazkur harakatlar natijasida ta'sir ko'rsatishga erishilgan-erishilmaganligi yoki ko'rsatilgan ta'sirning ko'zlangan natijaga olib kelgan-kelmaganligidan qat'i nazar bunday qilmishni tugallangan jinoyat sifatida baholaydi.

Daniya, Finlandiya, Shvesiya, Yangi Zelandiya, Kanada, Norvegiya, ham korrupsiyalashmaganligi jihatdan yuqori o'rnlarda turadigan davlatlar sanaladi [0]. Bu mamlakatlarda korrupsiya hukumat tomonidan milliy xavfsizlik masalasi, ichki va tashqi xavfsizlikka tahdid soluvchi omil sifatida baholanadi.

Xalqaro Transparensy International tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra korrupsiya darajasi eng past bo'lgan davlatlardan biri bu – Yangi Zelandiyadir. Mazkur davlat korrupsiya darajasi eng past bo'lgan davlatlar reytingida yuqori o'rnlarni egallab keladi. Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik masalasida Yangi Zelandiya tajribasiga qaraydigan bo'lsak, 1961-yilda qabul qilingan Jinoyatlar aktining oltinchi bo'limi "Qonun va odil sudlovnii amalga oshirishga ta'sir qiluvchi jinoyatlar" deb nomlanib, mazkur bo'limda poraxo'rlik va korrupsiya uchun javobgarlik ham belgilangan. E'tiborli jihat shundaki, mazkur bo'limda har bir davlat amaldorining korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlari uchun javobgarlikka tortish alohida qilib ajratilgan. Xusan, Aktning 100-bandida sudyalar va sud xodimlarining poraxo'rligi, 101-bandida sud xodimiga pora berish,

102- bandida vazirlarning poraxo'rлиги, 103-bandida parlament deputatining korrupsiyasi va poraxo'rлиги, 104-bandida huquqni muhofaza qilish organi xodimining korrupsiyasi va poraxo'rлиги, 105-bandida mansabdar shaxsning poraxo'rлиги, 105Cbandida chet ellik davlat amaldoriga pora berish, 105D-bandida Yangi Zelandiyadan tashqarida xorijiy davlat amaldorining poraxo'rлиги, 105E-bandida xorijiy davlat amaldorlarining korrupsiyasi uchun javobgarlik belgilangan. Yuqorida sanab o'tilgan jinoyatlarda nafaqt pora olganlik, balki pora berish va pora berishga dalolatchilik qilganlik uchun ham javobgarlik belgilangan. Demak, Yangi Zelandiyada har bir mansabdar shaxsning korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlari uchun alohida javobgarlikning belgilanishi ularning jamiyatdagi o'rni, yuklatilgan vazifaning ahamiyati bilan bog'liq deyishimiz mumkin. Korrupsiyaga qarshi kurashda bu usul juda samarali hisoblanib har bir mansabdar shaxsning mas'uliyatini oshiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda Finlandiya tajribasi diqqatga sazovor. Xalqaro Transparensy International tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra korrupsiya darajasi eng past bo'lgan davlatlardan biri Finlandiya hisoblanadi. Mazkur davlat korrupsiya darajasi eng past bo'lgan davlatlar kuchli beshtaligiga kirib keladi. Hozirgi kunda Finlandiyada yiliga 3 yoki 4 ta poraxo'rlik bilan bog'liq jinoyat ishlari ko'rilar ekan. Ushbu holatni 1980-1989-yillar oralig'idagi davr bilan taqqoslaydigan bo'lsak, mazkur yillarda 81 nafar shaxslar pora olganlik uchun, 49 nafar shaxslar pora bergenlik uchun jazolangan.

E'tiborli jihat shundaki, Finlandiya Jinoyat kodeksida "korrupsiya" degan tushuncha mavjud emas. Unda mansabdar shaxslarning poraxo'rлиги uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, bunday jinoyatni sodir etgan mansabdar shaxslar uchun qilmishning ijtimoiy xavfliligiga qarab jarima yoki 4 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi.

Finlandiyada boshqa davlatlardagi kabi korrupsiyaga qarshi kurash haqida maxsus qonun mavjud emas, korrupsiyaga qarshi kurashuvchi maxsus organ ham tuzilmagan. Korrupsiyaga umumiyligi jinoyatchilikning bir qismi qabilida kurash olib boriladi. Finlandiya Konstitusiyasi, Jinoyat kodeksi, Fuqarolik xizmati

to'g'risidagi qonun, ma'muriy boshqaruvga oid yo'riqnomalar va boshqa qonunosti hujjatlar korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan hujjatlar hisoblanadi. Bularning orasida eng muhimi Axloq qoidalaridir.

Finlandiyada korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan hujjatlar ijrosi ustidan nazorat mamlakat Prezidenti tomonidan tayinlanadigan, biroq, mutloq mustaqil faoliyat yurituvchi Adliya kansleri va parlament vakili Ombudsman tomonidan olib boriladi. Ular butun hokimiyat tarmoqlari faoliyatini nazorat qilish vakolatiga egalar. Yuqori martabali mansabdor shaxslarni ayblash haqidagi jinoyat ishlari maxsus tashkil etilgan Davlat sudi tomonidan ko'rib chiqiladi. Bu sud hattoki davlat rahbariga nisbatan bo'lgan ishlarni ham ko'rib chiqishi mumkin. Unga – Adliya kansleri, parlament vakili Ombudsman, hukumat vakillari, Oliy sud va ma'muriy sud sudyalari a'zo bo'lisi mumkin. Ikkinci jahon urushidan keyin Davlat sudi bor – yo'g'i bir marta chaqirilgan xolos.

Davlat xizmatchilari soni unchalik ko'p emas. Ayniqsa, 90-yillardan keyin davlat xizmatchilari soni deyarli teng yarmiga, ya'ni 230.000 dan 127.000 ga qisqartirilgan. Finlandiyada davlat xizmatchilarini korrupsiyalashuvidan saqlovchi muhim omillardan biri - ularning moddiy va ijtimoiy ta'minlanganligidadir.

Alohida ta'kidlash lozimki, Finlandiyada ommaviy axborot vositalari ijtimoiy nazoratning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Hukumat esa, ommaviy axborot vositalariga nafaqat erkinlik yaratib bergen, balki har bir e'lon qilingan korrupsiya holati bo'yicha aniq choralarmi ko'rib boradi. Finlandiya korrupsiyaga qarshi bir qancha xalqaro hujjatlarga qo'shilgan, xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini faol olib boradi.

Korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari, ushbu turdagi jinoyatlarni oldini olish bo'yicha rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribasini tahlil qilar ekanmiz, xorijiy mamlakatlarda korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar uchun turli darajadagi jazolar belgilangan. Ayrim mamlakatlarda jinoyatning ijtimoiy xavfliligiga qarab jarima jazosidan ozodlikdan mahrum qilish jazosigacha, ayrimlarida esa ozodlikdan mahrum qilish jazosidan o'lim jazosigacha hukm qilinishi belgilangan. Shuningdek, yuqorida tahlil qilingan rivojlangan

davlatlarning deyarli hammasida korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning aniq ro'yxati belgilangan, bo'lib ushbu jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi va ularni sodir etgan shaxslarning egallab turgan lavozimi, jamiyatdagi o'mniga qarab jazo tayinlanadi va bu jazoningadolatliligi, odilligi kabi prinsiplarning to'g'ri qo'llanishiga, jamiyatda korrupsiyaning eng past darajaga tushirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari korrupsiyani oldini olish uchun ko'plab xorijiy davlatlarda mansabdor shaxslarning mol-mulkini deklaratsiya qilish, barcha sohalarda jamoatchilik nazorati, davlat tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning elektron tartibda amalga oshirish tizimi yo'lga qoyilgan.

Mazkur davlatlarning tajribasidan kelib chiqib korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik va korrupsiyani oldini olish, jamiyatda korrupsiyani eng past darajaga tushirish uchun milliy qonunchiligidan quyidagi takliflarni beramiz:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xorijiy davlatlarning mansabdor shaxslari, shuningdek xorijiy davlatlarda faoliyat yuritayotgan O'zbekiston Respublikasi mansabdor shaxslarining poraxo'rlik va korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlari uchun javobgarlik masalasini belgilash. Shuningdek, korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar uchun jazo choralarini kuchaytirish, qilmishning ijtimoiy xavfliligiga qarab jazo tayinlash va korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarda yengillashtiruvchi holatlarning qo'llanishiga yo'l qo'ymaslik tizimini yo'lga qo'yish;

ikkinchidan, Jinoyat kodeksining 192, 210, 211, 212, 213, 214-moddalari bevosita korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar hisoblanadi. Kodeksning boshqa moddalari tarkibida ham korrupsiya bilan bog'liq holatlarni ko'rishimiz mumkin, lekin ularning aniq ro'yxati berilmagan. Shuning uchun korrupsiya bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarning aniq ro'yxatini shakllantirish kerak deb hisoblaymiz;

uchinchidan, hozirgi kunda Davlat xizmatlari agentligi tomonidan fuqarolarga ko'rsatiladigan xizmatlarni yanada kengaytirish, davlat organlari tomonidan fuqarolarga ko'rsatiladigan barcha xizmatlarni Davlat xizmatlari agentligi tomonidan yoki elektron tartibda berish tizimini yo'lga qo'yish, fuqarolarni maqsadsiz davlat organlariga borishiga chek qo'yish;

to'rtinchidan, davlat organlari mansabdor shaxslari, davlat xizmatchilarining mol-mulkini deklaratsiya qilish tizimini ishlashini amaliyatga tezroq joriy qilish, davlat xizmatchisi o'zining amaldagi va ilgarigi egallab turgan lavozimiga ko'ra ega bo'lishi mumkin bo'lgan darajadan ortiqcha bo'lgan har qanday mulkka egalik qilayotganligi yoki shunday mulkni boshqarayotganligi haqida asosli gumon paydo bo'lsa, ushbu mulkning manbasini ko'rsatib bermasa, mol-mulk korrupsiya yo'li bilan orttirilgan deb baholaniб, ushbu mol-mulkni davlat foydasiga musodara qilib, mansabdor shaxs yoki davlat xizmatchisini javobgarlikka tortish tizimini amaliyatga tadbiq qilish.

**Milliy qonunchilikda korrupsiyaga oid jinoyatchilik uchun javobgarlik masalalari.** O`zbekistonda mazkur illatning sabablarini aniqlash va bartaraf etish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilayapti, ushbu toifadagi jinoyatchilarga nisbatan kat'iy choralar ko'rilmokda.Davlat xizmatchilari va mansabdor shaxslarning korrupsiya domiga tushib qolmasliklari uchun, hukumatimiz uzoq muddatli chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqardi va ularning ijrosi doimiy nazorat qilib kelmoqda. 2015 yilda tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha amaliy harakatlar Kompleks rejası ijrosini ta'minlash maqsadida, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik Kengashi kotibi, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchisining birinchi o`rinbosari va O`zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan, Favqulodda vaziyatlar vazirining 2015 yil 9 iyundagi 175-sonli buyrug'i ishlab chiqildi va ijro uchun joylarga yetkazildi. Mazkur buyruqda vazirlik markaziy apparati boshqarmalari, mustaqil bo`lim va xizmatlari, shuningdek, hududiy va tarkibiy tuzilmalarga Kompleks rejasida belgilangan tadbirlar yuzasidan aniq vazifalar yuklatilgan. Jumladan, O`zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirining 2015 yil 19 iyundagi "O`zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurash chora-tadbirlari to`g`risida"gi 186-sonli buyrug'i bilan "Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha komissiya to`g`risida"gi Nizom, Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha komissiya tarkibi, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlar rejası,

vazirlik tizimidagi harbiy xizmatchi va ularning odob-axloq qoidalari tasdiqlangan.

Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurishning umumiy strategiyasini amalga oshirish doirasida qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sud-huquq tizimini isloh qilish yuzasidan qator chora-tadbirlar izchil amalga oshirib kelinmoqda. Tarixan qisqa davr ichida mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlashning institutsional va huquqiy asoslari shakllantirildi, korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimi yaratildi. Mazkur yo'nalishdagi islohotlarni amalga oshirish davomida milliy qonunlarga xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarini singdirish masalasiga alohida e'tibor berildi va bu munosabat 2008 yilda qabul qilingan «Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida»gi Qonunda o'z aksini topdi.

2010 yilda O'zbekiston Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti Korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog'ining Istanbul harakat dasturiga qo'shildi. So'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan Byudjet va Bojxona kodekslari (yangi tahrirda), «Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi, «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi, «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi, «Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida»gi, «Elektron hukumat to'g'risida»gi, «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishchanlik muhitini yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar yaratish, ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, davlat xaridlari mexanizmlarini takomillashtirish, davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalarini tasdiqlashga doir bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 3-yanvar kuni “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonun imzolandi. E’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiruvchi qonun 4-yanvar kuni “Xalq so‘zi” va “Narodnoye slovo” gazetalarida chop etildi.

Qonundan ko‘zlangan maqsad korrupsiyaga qarsha kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Hujjatda “korrupsiya”, “korruption huquqbazarlik” va “manfaatlar mojarosi” kabi tushunchalarga izoh berilgan.

Hujjatda korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy tamoyillari sifatida qonuniylik; fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi; ochiqlik, shaffoflik va tizimlilik; davlat va fuqarolik jamiyatining o‘zaro hamkorligi; korrupsiyadan ogohlantirish va javobgarlikning muqarrarligi bo‘yicha choralar ustuvorligi keltirib o‘tilgan.

Qonun korrupsiyaga qarshi kurash sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini keltirib o‘tadi:

- aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan toqatsizlikni shakllantirish;
- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyadan ogohlantirish bo‘yicha choralarini amalga oshirish;
- korruption huquqbazarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ular oqibatlari, sabablari va keltirib chiqargan sharoitlarni bartaraf etish hamda korruption huquqbazarliklar sodir etilgani uchun muqarrar jazolash tamoyilini tadbiq etish.

Hujjatda davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyadan ogohlantirish bo‘yicha choralarini keltirib o‘tadi. Jumladan, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini ta’minlash, parlament va jamoatchilik nazorati, mansabdar shaxslar faoliyati sifatini baholash hamda ishga qabul qilish va mansab pillapoyalaridan ko‘tarilishda ochiqlik va xolislik tamoyili asosida tanlovli saralashlarni olib borish tizimlarini joriy etish belgilangan. Davlat organlari xodimlarining huquqiy maqomi aniqlanib, ularning ijtimoiy himoyasi, moddiy ta’minoti, har tomonlama rag‘batlantirish choralarini ko‘riladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va tadbirkorlik sohalarida korrupsiyadan ogohlantirish bo‘yicha choralar qatoridan esa ma’muriy va byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, ro‘yxatga olish, ruxsat berish va litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish va tezkorligini oshirish, davlat organlarining nazorat-tekshiruv vakolatlarini optimallashtirish hamda ular va tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasida o‘zaro munosabatlarning masofaviy shakllarini joriy etish belgilangan.

Ma’muriy jarayonlar sohasida korrupsiyadan ogohlantirish choralari ro‘yxatiga ularning batafsil reglamentini belgilash, ushbu jarayonlarni soddalashtirish va byurokratik rasmiyatichiliklarga yo‘l qo‘ymaslik kiritilgan.

Qonunda davlat organi xodimi biror bir shaxs tomonidan uni korruption huquqbuzarlikni sodir etishga da’vat qilish holati, shuningdek, boshqa ishchilar tomonidan shu kabi holatlarning amalga oshirilishi bo‘yicha unga oshkor bo‘lgan ma’lumotlarni o‘z rahbari yoki huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat etishi belgilangan. Mazkur majburiyatlarning bajarilmasligi qonunchilikka muvofiq tegishli ravishda jazoga tortilishiga olib keladi.

Korrupsion jinoyat to‘g‘risida oshkor qilgan shaxs davlat himoyasi ostiga olinadi. Biroq mazkur qoida yolg‘on ma’lumotlarni taqdim etganlarga nisbatan amal qilinmaydi.

Qonunning alohida moddasi har kim tashkilotlar va davlat organlari faoliyati, mazkur shaxslar yoki shaxslar guruhiga taalluqli qabul qilinayotgan aktlar to‘g‘risida ma’lumot olish huquqiga ega ekanligini ko‘zda tutadi. Davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va tashkilotlar OAVga korrupsiya bilan bog‘liq hodisalar, dalillari, voqealar va jarayonlan to‘g‘risida jamoatchilik uchun qiziqarli bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-may kuni O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi farmonni imzoladi. Hujjat korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish, eng yuqori darajadagi qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagи ijobiy obro‘-e’tiborini oshirishga qaratilgan. Farmon bilan 2019–2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi qabul qilindi va Senat raisi Nig‘matulla Yo‘ldoshev

boshchiligidagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasining yangilangan tarkibi tasdiqlandi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlarining tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari tashkil etiladi. Ular joylarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagiishlarning holatini kompleks o‘rganish, joylarda korrupsiya ko‘rinishlari namoyon bo‘lishiga olib keladigan tizimli muammolar va korrupsianing holati to‘g‘risida O‘zbekiston Oliy Majlisi palatalarining korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari bo‘yicha qo‘mitalariga ushbu sohadagi faoliyatni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritgan holda muntazam ravishda axborot berib boradi. Farmonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari o‘rta muddatli istiqbolda quyidagilardan iborat ekani belgilandi:

- sud hokimiyatining mustaqilligini yanada mustahkamlash, sudyalarga har qanday tarzda qonunga xilof ravishda ta’sir o‘tkazish shart-sharoitlarini istisno etish;
- davlat xizmatchilarini tanlov asosida saralab olish, lavozimga tayinlash va yuqori lavozimlarga ko‘tarishning shaffof тартибига asoslangan davlat xizmati tizimini shakllantirish, ular uchun cheklovlar, taqiqlashlar, rag‘batlantirish choralari hamda korrupsianing oldini olish boshqa mexanizmlarining aniq ro‘yxatini belgilash;
- davlat xizmatchilarini daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish va ularning ish haqi yetarli darajada bo‘lishini ta’minlash, shuningdek, davlat xizmatini o‘tashda manfaatlar to‘qnashuvini hal etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- korrupsiya bilan bog‘liq huquqbazarliklar to‘g‘risida xabar bergan shaxslarni himoya qilishning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish;
- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni kuchaytirish;
- davlat organlari va tashkilotlarining hisobdorligi va faoliyatining shaffofligini oshirish;

- fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari faoliyatining chinakam erkinligini ta'minlash va ularni korrupsiyaga qarshi choralarni tayyorlash, o'tkazishda va ijrosini monitoring qilishda ishtirok etishga jalg qilish.

Idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali dasturlarini amalga oshirish, ularning hisobdorligi va faoliyatining ochiqligi mexanizmlarini joriy etish, odob-axloq qoidalariga rioya etilishi va manfaatlar to'qnashuvining oldi olinishini ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni bajarish orqali tegishli sohada korrupsiyaga oid huquqbazarliklarga imkon yaratayotgan sabablar va shart-sharoitlarni tag-tomiri bilan yo'qotish davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining birinchi darajadagi muhim vazifasi hisoblanadi.

1-iyuldan boshlab davlat organlari zimmaga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan korrupsiya xavf-xatarlarini vaqt-vaqt bilan majburiy baholab boradi, uning yakunlari bo'yicha:

- korrupsiya xavf-xatariga eng ko'p duch keladigan davlat xizmatchilarining faoliyat sohalari va lavozimlari, shuningdek, ularning funksiyalari (vakolatlari)ning rўйхатини shakllantiradi;
- idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlari ijrosining har choraklik monitoringini amalga oshiradi va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimum darajaga tushirish choralarini ko'radi;
- Idoralararo komissiya bilan kelishgan holda har yilgi idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlarini tasdiqlaydi;
- har yili Idoralararo komissiyaga tegishli organlar va tashkilotlar faoliyatida, shu jumladan, qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish orqali korrupsiya xavf-xatarlariga barham berish bo'yicha takliflarni kiritadi.

Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari korrupsiya xavf-xatarlarini o'z vaqtida aniqlamaganliklari va tegishli baho bermaganliklari, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni takroran sodir etish holatlariga yo'l qo'yanliklari yuzasidan shaxsan javobgar bo'ladi. 1-sentyabrdan boshlab ta'lim muassasalarida yoshlarga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ta'lim berish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tatbiq

etilishi lozim. Bundan tashqari, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlarida korrupsiyaga qarshi mavzular yanada kuchaytiriladi. Uuch oy muddatda, shu jumladan, texnik infratuzilmani va zarur dasturiy ta’minotni yaratishga oid zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutgan holda muayyan toifadagi davlat xizmatchilarining mulki va daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishi lozim. 1-avgustdan boshlab eksperiment tariqasida, jamoatchilik va yetakchi ekspertlarni, shu jumladan, xorijiy ekspertlarni jalb etgan holda dastlabki bosqichda kapital qurilish va oliy ta’lim sohalarida “Korruptsiyasiz soha” loyihasi amalga oshiriladi. 2020-yil 1-apreldan boshlab loyiha boshqa sohalarga ham bosqichma-bosqich joriy etiladi. Qo‘srimcha ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida jamoatchilik nazorati mexanizmlarini samarali qo‘llashga yo‘naltirilgan “Yo‘l xaritasi” loyihasi ishlab chiqiladi. Unda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning Oliy Majlis palatalari oldidagi hisobdorligi tartibini takomillashtirish, qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolar ishtirokining shaffof va samarali usullarini joriy etish ko‘zda tutilgan.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Yurtimizda korrupsiyaga qarshi qanday ishlar olib borilmoqda?
2. Korruptsiyani vujudga keltiruvchi sabablar qaysilar?
3. Yurtimizda korrupsiyaga qarshi qanday ishlar olib borilmoqda?
4. Jinoiy moyillikni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar qaysilar?

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish o‘z ichiga nimalarni oladi?

### **Testlar:**

1. BMTning Rivojlanish Dasturi nazariy tahliliga ko‘ra korruptsiyani vujudga kelishida qanday omillar muhim ro‘l o‘ynagan?

- A) Vakolat, hokimyat
- B) O'zboshimchalik va shaxsiy manfaat
- V) Hisobdorsizlik va oshkorasizlik, o'zboshimchalik va shaxsiy manfaat, vakolat va hokimyat
- G) To'g'ri javob berilmagan

2. Ilmiy adabiyotlarda korrupsiyani vujudga keltiruvchi umumiylab nechta?

- A) 4ta
- B) 7ta
- V) 8ta
- G) 10ta

3. Korrupsiyani vujudga keltiruvchi eng muhim omil qaysi?

- A) Normativ huquqiy bazani nuqsonlari
- B) Hokimiyat institatlari tizimining nuqsonlari mavjudligi
- V) Demokratik an'analar chuqur anglanmaganligi
- G) Hokimiyat Institutlari tizimining nuqsonlari mavjudligi

4. BMTning "Korruptsiyaga qarshi" konvensiyasi nechanchi yilda kuchga kirdi?

- A) 2001-yil mart oyida
- B) 2005-yil dekabr oyida
- V) 2004-yil iyul oyida
- G) 2000-yil oktabr oyida

5. "Korruptsiyaga qarshi" xalqaro huquqiy hujjatga nechta davlat qo'shildi?

- A) 140 davlat
- B) 100 davlat
- V) 150 davlat
- G) 100dan ortiq bo'limgan davlatlar

6. Osiyo va Tinch okeani hududidagi 21 davlat nechanchi yilda korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tasviriy xarakterga ega bo'lgan faktni qabul qilganlar?

- A) 2003-yil
- B) 2004-yil
- V) 2003-2004-yillar oraliq'ida
- G) To'g'ri javob yo'q

7. Jinoyatchilik determinatsiyasining maxsus jarayonlari asosan nimalar bilan bog'liq?

  - A) asosan pul muomalasi bilan bog'liq
  - B) mansab yoki boshqa xizmatlar
  - C) pora yoki qo'shimcha haq undirilishi
  - D) jinoyatlarning sabablarini va uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar bilan bog'liq

8. Ijtimoiy nazorat qanday xususiyatga ega bo'lishi kerak?

  - A) rag'batlantiruvchi
  - B) ta'kidlovchi
  - C) ogohlantiruvchi
  - D) ruhlantiruvchi

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

## Rahbariy adabiyotlar:

13. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishslash davr talabidir. -T.: O'zbekiston, 1997. 250 bet.
  14. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997. 95, 298 bet.
  15. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard
  4. Mirziyoev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.-488 b.
  5. Mirziyoev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. - T.: "O'zbekiston", 2017. - 592 b.
  6. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: O'zbekiston, 2017. - 512 b.
  7. Mirziyoev Sh. M. "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug'", yoki yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" 3-jild. - T.: "O'zbekiston", 2019. - 400 b.

8. Mirziyoev Sh. M. “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”. 4-jild. - T.: “O’zbekiston”, 2020. - 452 b.
9. Mirziyoev Sh. M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. - T.: O’zbekiston, 2021. - 464 b.

### **Normativ-huquqiy hujjatlar:**

41. Korrupsiyaga qarshi kurash to’g’risida qonun. O’zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.01.2017 yildagi O’RQ-419-son
42. Korrupsiyaga qarshi kurash to’g’risida qonun. *O’zbekiston Respublikasining O’RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son*
43. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 07.02.2017 йилдаги ПФ-4947-сон
44. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
45. Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurash Konvensiyasi. Korrupsiyaga qarshi kurash muammolari: milliy va xalqaro tajriba. Xalqaro ilmiy-amaliy seminar materiallari. –T.: CHASHMA PRINT, 2010. B. 299.
46. Korrupsiyaga qarshi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasi (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) // O’zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari to’plami, 2008 yil, 3-4-son, 19-20-modda.
47. BMTning Xalqaro savdo operatsiyalarida korrupsiya va poraxo’rlikka qarshi kurash to’g’risidagi Deklaratsiyasi. Сборник международных договоров и законодательства Республики Узбекистан в сфере борьбы с коррупцией. –Т.: Центр повышения квалификации юристов, 2013. C.139.
48. O’zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagি “Huquqbazarliklar profilaktikasi to’g’risida”gi qonuni //O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2014 yil, 20-son, 221-modda.
49. O’zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagи “O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o’z kuchini yo’qotgan deb topish

to'g'risida"gi qonuni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 yil, 20-son, 222-modda.

50. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 3 dekabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 yil, 49-son, 578-modda.

### **Darsliklar, o'quv qo'llanmalar va qo'shimcha adabiyotlar:**

53. Abu Nasir Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993.
54. Зуфаров Р.А. Тенденция гуманизации уголовного законо-дательства Республики Узбекистан. O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini liberallashtirishning asosiy yo'nalishlari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2007 yil 12 dekabr). –T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2007. –S. 22-29.
55. Abdurasulova Q., Qurbonov O. Korrupsiya: asosiy tushuncha va shakllari (risola). – T.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
56. Зуфаров Р.А. Международно-правовые проблемы борьбы с коррупцией. //O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslari Axborotnomasi. 2010. №1, -C.29-332. 25. Проблемы борьбы с коррупцией: национальный и международный опыт. Материалы международного научно-практического семинара 20-21 октября 2009 года. –Т.: ЧАШМА ПРИНТ, 2010.
57. Temur tuzuklari. –T.: O'zbekiston, 2011
58. Zokirov I.B. boshqalar. Fuqarolik huquqi (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Maxsus qism. – T.: ILM ZIYO, 2011.
59. Axrorov B.J. Rustamboev M.H. Jinoyat huquqi (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Maxsus qism. – T.: ILM ZIYO, 2012 y.
60. Xojiyev E.T. Ma'muriy huquq (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: ILM ZIYO. 2012 y.

61. Matkarimova G. Yuldasheva G. Hozigi zamon xalqaro huquqi (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2012.
62. Karimova O. Huquqshunoslik. (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Qayta ishlangan va to'ldirilgan nashr.– T.: SHarq, 2014.
63. Zufarov R.A. Poraxo'rlik uchun jinoiy javobgarlik. – T.: TDYuI, 2004. – B. 83-84.
64. S.SHomirzaev. Korrupsiya: xorijiy mamlakatlar davlat va huquq tarixida unga qarshi kurashish masalalari// Huquq va burch. 2014. 7-son. 5.62-64.
65. Meliyev X. Milliy qonunchilik – korrupsiyaga qarshi// Huquq va burch. 2015. 4-son. 5.12-14.

### **Internet manbalari:**

<b>1. <a href="http://www.press-service.uz">www.press-service.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati
<b>2. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Hukumati portalı
<b>3. <a href="http://www.senat.uz">www.senat.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati
<b>4.<a href="http://www.parliament.gov.uz">www.parliament.gov.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi
<b>5. <a href="http://www.supcourt.uz">www.supcourt.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi
<b>6. <a href="http://www.genprok.gov.uz">www.genprok.gov.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi
<b>7. <a href="http://www.minjust.uz">www.minjust.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
<b>8. <a href="http://www.mvd.uz">www.mvd.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
<b>9. <a href="http://www.customs.uz">www.customs.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi
<b>10.<a href="http://www.ombudsman.gov.uz">www.ombudsman.gov.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)
<b>11. <a href="http://www.ssrc.uz">www.ssrc.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Sud qonunchiliginin demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini

	ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazi
<b>12. <a href="http://www.tsul.uz">www.tsul.uz</a></b>	Toshkent davlat yuridik universiteti
<b>13. <a href="http://www.vuk.uz">www.vuk.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslari
<b>14. <a href="http://www.uzmarkaz.uz">www.uzmarkaz.uz</a></b>	Yuristlar malakasini oshirish markazi
<b>15. <a href="http://www.huquqburch.uz">www.huquqburch.uz</a></b>	"Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali
<b>16. <a href="http://www.insonvaqonun.uz">www.insonvaqonun.uz</a></b>	"Inson va qonun" huquqiy gazetasi
<b>17. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
<b>18. <a href="http://www.metod.uz">www.metod.uz</a></b>	O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini Axborot-metodik ta'minlash xizmati
<b>19. <a href="http://www.natlib.uz">www.natlib.uz</a></b>	A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
<b>20. <a href="http://www.manaviyat.uz">www.manaviyat.uz</a></b>	Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi
<b>21. <a href="http://www.mgm.uz">www.mgm.uz</a></b>	Miliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi
<b>22. <a href="http://www.ziyo-net.uz">www.ziyo-net.uz</a></b>	Axborot ta'lim tarmog'i

## **6-Mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi (institutsional tizim misolida).**

### **Reja:**

1. Xalqaro tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid tavsiyalari: OYESR, Transparency International, Bank nazorat bo'yicha Bazel qo'mitasining tavsiyalari misolida.
2. Korrupsiyaga qarshi kurashishda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi: AQSH, Buyuk Britaniya, Sloveniya, Xitoy kabi davlatlarning samarali amaliyoti.
3. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishda institutsional tizimning shakllanishi.
4. O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining vazifa va vakolatlari. Agentlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlar tavsifi.

**Tayanch so'z va iboralar:** institutsional tizim, OYESR, Transparency International, Bank nazorat bo'yicha Bazel qo'miasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentlik, korrupsiyaga qarshi kurashishda xorijiy davlatlar tajribasi,

**Xalqaro tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid tavsiyalari: OYESR, Transparency International, Bank nazorat bo'yicha Bazel qo'mitasining tavsiyalari misolida.** O'zbekistonning yangilangan siyosati jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini oliy darajaga ko'tarish, zamonaviy samarali davlat boshqaruvini joriy etish, davlat hizmatchilarida korrupsiyaviy holatlarning barcha ko'rinishlariga qat'iy chidamsizlik ruhiyatini shakllantirish, xalq manfaatlarini so'zsiz ta'minlash kabi yuksak g'oyalarga tayanmoqda. Avvalo, ushbu islohotlarning tub zamirida Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ustuvor g'oya «Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak» asosiy tamoyilga muvofiq barcha imkoniyatlar xalqimiz manfaatlari yo'lida safarbar etilishi ustuvor vazifa etib belgilanmoqda.

Bu o'rinda islohotlarning chinakam natijadorligiga erishish maqsadida davlat va jamiyatning har bir sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini izchil ta'minlab borish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash joizki, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash hamda korrupsiya ko'rinishlarining oqibati bilan emas, balki sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha xalqaro tajribada keng qo'llanilib kelayotgan zamonaviy jinoyatchilikni oldini olish choralarni milliy amaliyotga tatbiq etishni taqozo qilmoqda.

Bu o'rinda Prezidentning 2020 yil 29 iyundagi «O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-6013-sonli Farmonga asosan yangi tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining asosiy vazifalaridan biri etib

2020-2021 yillarda barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi bo'lган korxonalar, shu jumladan banklarda korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy nazorat tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish belgilandi.

Xorijiy amaliyot tahlili shuni ko'rsatdiki, bozor iqtisodiyoti qonunlarga asoslangan mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat va xususiy sektor ishtirokchilarining xalqaro standartlar, qonun hujjatlari va boshqa zamonaviy usullarga muvofiq samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim vositalardan biri o'z tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat (compliance control) tizimini tashkil etish hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorati – davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbazarliklar haqida xabar berishni o'zida mujassam etgan profilaktik tizimdir.

Komplayens nazorat tizimi ilk bor AQShda 1906 yilda vujudga keldi. Bunga zaruriyat mamlakat iqtisodiyotida xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan kompaniya va korporatsiyalarning tashkil etilishi bilan bog'liqdir.

O'tgan asrning ikkinchi yarmidan bugungi kunlarga gacha yirik kompaniyalar bilan bo'lgan nizoli vaziyatlar (Volkswagen, Daimler, Siemens (Germaniya) Odenbrecht, Petrobras (Braziliya), Samsung Group, Hyundai Motor Co. (Koreya Respublikasi), BAE Systems (Buyuk Britaniya), Baker Hughes Inc, Panalpina World Transport (AQSh) va boshqalar) xususiy sektorda korrupsiyaga kurashish tizimlarni tubdan isloh etishni taqozo qildi.

Bugungi kunda "Baker and McKenzie" xalqaro yuridik firmanın 2019 yilgi rasmiy ma'lumotlariga asosan 150 dan ortiq mamlakatlardagi kompaniyalarida korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat tizimi joriy etilgandir.

Masalan, birgina Buyuk Britaniyaning 1 mlrd. funt sterling kapitalga ega bo'lgan 800 dan ortiq korporatsiya va banklarida tashkil etilgan ushbu tizim turli korrupsiya xavflaridan himoya qiluvchi kompleks choralar sifatida baholandi va hozirda uning samarali jihatlaridan keng qo'llanilib kelinmoqda.

Fransiyada 800 000 yevrodan oshiq kapitalga ega bo'lgan barcha korporatsiya va banklar korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat tizimlarini joriy etgan bo'lishlari shart.

Komplayens nazorat tizimini joriy etish bo'yicha samarali tajribaga ega mamlakatlar amaliyotiga muvofiq ushbu xizmat eng keng tarqalgan quyidagi ikkita modeli qo'llaniladi:

1. Kompaniya va tashkilot faoliyatini faqatgina mavjud o'rnatilgan ichki qonun va qoidalarga muvofiq tashkil etishga qaratiladi. Bunda komplayens xizmatini joriy etilishi minimal qoidalar bilan cheklanadi.

2. Komplayens nazorat tizimining tashkil etilishi korrupsiya xavflarni baholashda xalqaro tashkilotlarning (Bazel bank qo'mitasining tavsiyalari, Xalqaro komplayens assotsiatsiyasi) tavsiyalariga asoslanadi va bu modelda komplayens xizmatning maqomi, vazifasi, faoliyat doirasi asosan xalqaro standart va tavsiyalarga asoslanadi.

Mazkur ikki modelning o‘zaro farqli jihatni, birinchi modelda komplayens nazorat tizimini o‘zida tashkil etayotgan kompaniya yoki tashkilot mavjud qonunlik me’yorlari yoki o‘zi ishlab chiqqan ichki qoidalari bilan tartibga solinadi va joriy etishning minimal talablari bilan cheklanadi.

Ikkinci modelda esa faoliyatni tashkil etish nafaqat milliy qonunchilik, balki xalqaro standartlar va tashkilotlarning tavsiyalarini asosida joriy etiladi. Ushbu shaklda ichki qonunchilik normalarida ko‘zda tutilmagan korrupsiya xavflariga faoliyat mos keladigan qo‘srimcha profilaktik qoidalarni joriy etish mumkin bo‘ladi.

Mazkur tajriba samaradorligi bilan ajralib turadi va asosan yirik iqtisodiy salohiyatga ega AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy kabi davlatlar amaliyotiga to‘g‘ri keladi.

Shuningdek, aksariyat xorijiy davlatlarda komplayens nazorat tizimi alohida qonun hujjati tartibga solingani ahamiyatga molikdir. Misol uchun AQShda “Xorijda korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Akt” (Foreign Corrupt Practices Act, 1977), “Sarbeyn-Oksli Akti” (Sarbanes-Oxley Act, 2002), “Dodd-Frank Akti” (Dodd -Frank Act, 2010) nomli qonun hujjatlarida AQSh bozorida ishtirok etuvchi har qanday korporatsiya va kompaniyalarning o‘z tarkibida komplayens nazorat tizimini tashkil etishni majburiy qoida sifatida belgiladi.

Bu o‘rinda ushbu sohani tartibga solishga qaratilgan Sloveniya qonunchiligi o‘ziga xosligi bialn ajralib turadi. Xususan, 2014 yil 26 aprelida qabul qilingan “Clossenya davlat xoldinggi akti to‘g‘risida”gi (Slovenian sovereign holding Act, 2014) Qonunida komplayens nazorat tizimining maqomi va vakolatlari belgilangan.

Qonunning o‘ziga xosligi shundaki, unda komplayens xizmatida kadrlar masalasiga (compliance officer) to‘xtalib o‘tilgan hamda kompaniya ichidagi korrupsiyaga oid huquqbazarliklar haqida xabardor etishga (whistleblowing policy) aniq qoida va tartibni keltirib o‘tadi.

Davlatimizning korrupsiyaga qarshi qonunchiligidagi komplayens nazorat tizimi amaliyotining kirib kelishi O‘zbekiston Respublikasi 27.05.2019 yildagi

“O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli Farmonida ushbu sohada belgilangan asosiy vazifalardan biri etib, ustav jamg‘armasida davlat ulushi bo‘lgan korxona va tashkilotlarda qarshi kurashish choralarini kuchaytirish maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat tizimini joriy etish va uning samaradorligini tizimli monitoringini amalga oshirish vazifasi belgilandi. Ushbu normativ hujjatlar ilk bor komplayens nazorat tizimini milliy darajada joriy etish masalasi ko‘tariladi.

Farmon asosida 2019 yildan boshlab BMT Taraqqiyot dasturining “O‘zbekistonda samarali, hisob beruvchi va oshkora boshqaruvin institutlari orqali korrupsiyaga karshi kurashish” loyihasini amalga oshirish doirasida Bosh prokuratura, Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor idoralar bilan hamkorlikda ustav jamg‘armasida davlat ulushi 100% yoki 50% dan yuqori bo‘lgan faoliyatni xorijiy bozor bilan integratsiyalashgan bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatida tajriba sifatida komplayens nazorat tizimini joriy etish bo‘yicha “White and Case” (AQSh), KPMG (Italiya) xalqaro auditorlik kompaniyalari ishtirokida xalqaro tender jarayonlari o‘tkazildi.

Bugungi kunda “O‘zbekneftgaz” va “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida loyihani amalga oshirish jarayonlari olib borilmoqda.

Ta'kidlash joizki, xalqaro miqyosda keng qo‘llanilib kelinayotgan komplayens nazorat tizimining korrupsiya xavflarini oldini olishda samaradorligi va ta'sirchan jihatlaridan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta'lif vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, shuningdek, Toshkent shahar hokimligi, Toshkent viloyati hokimligi, Mirzo Ulug‘bek tumani va Bo‘ka tumani hokimliklari kabi davlat tashkilotlarida loyihani tajriba tariqasida joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, 2020-yil 15-martida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura tashabbusi bilan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Transport vazirligi, Maktabgacha ta'lif vazirligi, Energetika vazirligi, Bandlik va

mehnat munosabatlari vazirligi, Qishlok xo‘jaligi vazirligi, Davlat bojxona qo‘mitasi kabi 9 davlat idoralari bilan hamkorlikda ushbu sohalarda korrupsiyaga qarshi samaradorlikni yanada takomillashtirish maqsadida bosqichma-bosqich komplayens nazorat tizimini joriy etish tartibi kelishildi va «Korrupsiyaga qarshi kurashishni yanada takomillashtirish bo‘yicha 2020-yilga mo‘ljallangan Yo‘l xaritasi» tasdiqlandi.

Aytish lozimki, bugungi kunda komplayens nazorat tizimini bosqichma-bosqich davlat va xususiy sektorda joriy etilishi ushbu sohaning o‘rganilishi har jihatdan dolzarbligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, davlat va xususiy sektor faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish «komplayens nazorat» tizimini joriy etishning qator samarali omillarga xizmat qiladi.

Jumladan, mazkur tizim korrupsiya xavf-xatarlarini o‘z vaqtida aniqlash va chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish hamda ularni minimum darajaga tushirishga xizmat qiladi.

Davlat organlari va tashkilotlarning hisobdorligi va faoliyatining shaffofligini oshirish, xodimlar tomonidan kasbiy odob-axloq qoidalariga qat’iy rioya etish va xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to‘qnashuvi haqida xabar berish va ularni hal qilish masalalarini tartibga solish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida umum e’tirof etilgan xalqaro standartlar va chet el ijobiy tajribasini joriy etish va boshqa ustuvor natijalar hisoblanadi.

**Korrupsiyaga qarshi kurashishda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi: AQSH, Buyuk Britaniya, Sloveniya, Xitoy kabi davlatlarning samarali amaliyoti.** Bugungi kunda jahon hamjamiyati oldida korrupsiya davlatlar rivojlanishiga, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy yuksalishiga to’sqinlik qilayotgan salbiy illat sifatida paydo bo’ldi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Korrupsiyaning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investisiya muhitini yaratib bo’lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog’i rivojlanmaydi”. Haqiqatdan ham, korrupsiyaviy jinoyatlar

davlatning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, shuningdek xalqning davlat organlariga nisbatan ishonchini susaytiradi.

Hozirda rivojlangan mamlakatlarda ham korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarlarni uchratish mumkin, lekin ular doimiy ravishda korrupsiya bilan qarshi kurashib keladi va korrupsiya darajasi kamligi bo'yicha jahon reytingida yuqori o'rnlarda turadi, Jumladan, Transperensy International xalqaro nohukumat tashkilotining 2020-yildagi statistik ma'lumotlariga ko'ra, korrupsiya darajasi past mamlakatlar reytingida Yangi Zelandiya 1, Daniya 2, Finlandiya, Singapur, Shvitsiya 3-o'rinni egallagan bo'lsa, Markaziy Osiyo davlatlaridan Qozog'iston 94, Qирг'зистон 124, O'zbekiston 146-o'rinni egallagan. Hech bir davlat korruksiyadan, uning zararli oqibatlaridan mutlaq himoya qilinmagan. Shu sababli har bir davlat qonunlarida korruksiyaga qarshi kurash eng dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Xususan, Xitoy Jinoyat kodeksining 382-moddasiga ko'ra davlat xizmatchilarining o'z mansab imtiyozlaridan foydalangan holda davlat mulkini o'zlashtirib olishi, o'g'irlashi, firibgarlik yo'li bilan olishi yoki boshqacha tarzda o'zlashtirishi korrupsiya deb hisoblanadi. Shuningdek, davlat organlari, davlat korxonalari, korxonalar, tashkilotlar, xalq birlashmalari davlat mulkini boshqarish va xo'jalik yuritish ishonib topshirilgan shaxslarning o'z xizmat afzalliklaridan foydalangan holda o'zlashtirib olishi, o'g'irlashi, aldash yo'li bilan davlat mulkini boshqa yo'llar bilan noqonuniy egallab olishi ham korrupsiya sifatida baholanishi belgilangan. Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning og'ir-yengilligiga qarab javobgarlik belgilangan bo'lib, 100 ming yuandan ortiq miqdordagi yakka tartibdagi korrupsiya uchun o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi, agar mol-mulki musodara qilingan holda yoki unsiz yillar yoki muddatsiz ozodlikdan mahrum qilish, jazoni o'ta og'irlashtiruvchi holatlarda – o'lim jazosi va mol-mulkini musodara qilish belgilangan. Bundan tashqari Xitoy qonunchiligiga ko'ra, mol-mulk yoki xarajati uning qonuniy daromadidan oshib ketgan har qanday davlat amaldoriga, farq juda katta bo'lgan taqdirda, o'z mulkining manbalarini tushuntirish majburiyati yuklanadi. Agar u manbalar qonuniy ekanligini isbotlay olmasa, uning qonuniy

daromadidan oshadigan qismi noqonuniy boylik deb hisoblanadi. Har qanday davlat amaldori Xitoy tashqarisidagi bankda saqlanuvchi o’z mablag’lari haqida tegishli tartibda davlatga xabar qilishi shart. Bizning fikrimizcha, Xitoy qonunchiligida korrupsiyaga qarshi kurashda yaxshi amaliyot yo’lga qoyilgan bo’lib, bunda mansabdor shaxslarning mol-mulki deklaratsiya qilinib, ortiqcha qismi qayerdan kelganligini asosli ma’lumotlar bilan isbotlay olmasa, korrupsiya sifatida baholanadi va mansabdor shaxsning javobgarlikka tortilishiga asos bo’ladi.

Germaniya huquqshunoslarining fikriga ko’ra, mansabdorlik jinoyatlari nafaqat sub’ekt – mansabdor shaxsning belgisi bo’yicha, balki himoya qilinadigan ob’ekt – davlat apparati normal amal qilishi bo’yicha ham birlashtirilgan. “Basharti shaxs: a) amaldor yoki sudya hisoblanadigan; b) boshqa ommaviy-huquqiy xizmat munosabatlarida bo’lsa; v) ommaviy boshqaruv vazifalarini qaysidir hokimiyat organida yoxud boshqa muassasada yo uning topshirig’iga ko’ra amalga oshirishga da’vat etilgan bo’lsa, u mansabdor shaxs hisoblanadi”. Bundan tashqari, “bevosita ommaviy xizmat qilishga da’vat etilgan”, ya’ni “mansabdor shaxsning o’zi bo’lmasada, hokimiyatning qaysidir organida ommaviy boshqaruv vazifalarini amalga oshirayotgan yoki bunday vazifalarni amalga oshiruvchi muassasa yoxud birlashmada band bo’lgan xodim mansabdorlik jinoyatlarining sub’ekti hisoblanadi”. Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksining 332-moddasiga ko’ra korrupsiya bilan bog’liq jinoyatlar uchun olti oydan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan. Demak, Germaniya qonunchiligaida korrupsiya uchun tayinlanadigan jazo uncha og’ir bolmasada, lekin ushbu jinoyatning sub’ekti faqatgina mansabdor shaxs emas, balki davlat organlarining har bir xodimi ham bo’lishi mumkin va ular bir xil javobgarlikka tortiladi. Ispaniya Jinoyat kodeksi esa, poraxo’rlik jinoyatini pora evaziga amalga oshirilgan xatti-harakatlarning qonuniy yoki noqonuniyligiga ko’ra ikki turga ajratadi. Kodeksning 419-moddasiga ko’ra, mansabdor shaxs yoki davlat xizmatchisining o’z xizmat majburiyatlarini buzish yoki bajarmasligi evaziga o’zi yoki uchinchi shaxslar foydasini ko’zlab, sovg’a, mukofot yoki har qanday ko’rinishdagi taqdirlashni qabul qilishi, so’rashi yoki qabul qilishga rozilik

bildirishi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, uch yildan olti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi, shuningdek, davlat xizmati bilan shug'ullanishni alohida taqiqlash va sodir etgan qilmishi uchun yetti yildan o'n ikki yilgacha muddatga mansabdor bo'lismish taqiqlanadi. Kodeksning 420-moddasi shunday xatti-harakat yoki harakatsizliklarni o'z majburiyatlarini buzmagan holda sodir etish uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi. Ispaniya qonunchiligidagi shuni ko'rshimiz mumkinki, agar davlat organi xodimlari korrupsiya bilan bog'liq jinoyatni sodir qilsa, u faqatgina jinoiy javobgarlikka tortilib qolmasdan muayyan muddatga davlat xizmatida ishlashi taqiqlanadi. Bu korrupsiyaga qarshi kurashishning o'ziga xos yo'li hisoblanib, korrubsiyani oldini olishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Janubiy Koreya Jinoyat kodeksining 129-moddasi pora olishdan tashqari, pora so'rash va pora olishga va'da berish uchun ham javobgarlikni belgilaydi. E'tiborga molik jihat shundaki, mazkur davlat jinoyat qonunchiligi nafaqat pora berish yoki pora berishni va'da qilishni, balki shaxsning pora berish haqida o'z xohishini namoyon qilganligi holatini ham jazoga sazovor qilmish sifatida baholaydi. Janubiy Koreyada korrupsiyaga qarshi jinoyatlar uchun jazo tayinlashning bu usuli samarali hisoblanib, bunda nafaqat jinoyatni sodir qilgan shaxs, balki pora olish yoki berish haqida o'z xoxishini aytgan shaxs ham jinoyat sub'ekti bo'ladi va javobgarlikka tortiladi.

AQSh va Buyuk Britaniya jinoyat qonuniga binoan, ommaviy tashkilotlarning xizmatchilari – mansabdor shaxslar ham, boshqa xodimlar ham pora olganlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin.

AQSh, Buyuk Britaniya jinoyat qonunlaridan farqli o'laroq, Italiya, Fransiya va GFRda xizmatchini pora evaziga og'dirishning oldini olishga qaratilgan huquqiy choralar ancha barqarordir. Fransiyada 1992-yilgacha aybdorlar 1810-yilgi JKning 177-183-moddalari bilan javobgarlikka tortib kelangan; Italiyaning 1930-yilgi Jinoyat Ispaniya Jinoyat kodeksi esa, poraxo'rlik jinoyatini pora evaziga amalga oshirilgan xatti-harakatlarning qonuniy yoki noqonuniyligiga ko'ra ikki turga ajratadi. Kodeksning 419-moddasiga ko'ra, mansabdor shaxs yoki davlat

xizmatchisining o'z xizmat majburiyatlarini buzish yoki bajarmasligi evaziga o'zi yoki uchinchi shaxslar foydasini ko'zlab, sovg'a, mukofot yoki har qanday ko'rinishdagi taqdirlashni qabul qilishi, so'rashi yoki qabul qilishga rozilik bildirishi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, uch yildan olti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi, shuningdek, davlat xizmati bilan shug'ullanishni alohida taqiqlash va sodir etgan qilmishi uchun yetti yildan o'n ikki yilgacha muddatga mansabdor bo'lismish taqiqlanadi. Kodeksning 420-moddasi shunday xattiharakat yoki harakatsizliklarni o'z majburiyatlarini buzmagan holda sodir etish uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi. Ispaniya qonunchiligidagi shuni ko'rishimiz mumkinki, agar davlat organi xodimlari korrupsiya bilan bog'liq jinoyatni sodir qilsa, u faqatgina jinoiy javobgarlikka tortilib qolmasdan muayyan muddatga davlat xizmatida ishlashi taqiqlanadi. Bu korrupsiyaga qarshi kurashishning o'ziga xos yo'li hisoblanib, korrubsiyani oldini olishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Janubiy Koreya Jinoyat kodeksining 129-moddasi pora olishdan tashqari, pora so'rash va pora olishga va'da berish uchun ham javobgarlikni belgilaydi. E'tiborga molik jihatni shundaki, mazkur davlat jinoyat qonunchiligi nafaqat pora berish yoki pora berishni va'da qilishni, balki shaxsning pora berish haqida o'z xohishini namoyon qilganligi holatini ham jazoga sazovor qilmish sifatida baholaydi. Janubiy Koreyada korrupsiyaga qarshi jinoyatlar uchun jazo tayinlashning bu usuli samarali hisoblanib, bunda nafaqat jinoyatni sodir qilgan shaxs, balki pora olish yoki berish haqida o'z xoxishini aytgan shaxs ham jinoyat sub'ekti bo'ladi va javobgarlikka tortiladi.

AQSh va Buyuk Britaniya jinoyat qonuniga binoan, ommaviy tashkilotlarning xizmatchilari – mansabdor shaxslar ham, boshqa xodimlar ham pora olganlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin.

AQSh, Buyuk Britaniya jinoyat qonunlaridan farqli o'laroq, Italiya, Fransiya va GFRda xizmatchini pora evaziga og'dirishning oldini olishga qaratilgan huquqiy choralar ancha barqarordir. Fransiyada 1992-yilgacha aybdorlar 1810-yilgi JKning 177-183-moddalarini bilan javobgarlikka tortib kelgingan; Italiyaning

1930-yilgi Jinoyat miqdorni tashkil qilganligi holatlari uchun og'irlashtiruvchi qismlar bilan javobgarlikka tortish to'g'risidagi normalarni belgilaydi. Litva qonunchiligida boshqa davlatlarga qaraganda korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar uchun og'irroq javobgarlik belgilangan bo'lib, unda poraning miqdori alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu esa jazoning og'ir yoki yengilroq tayinlashga asos bo'ladi va jazoning adolatliligi prinsiplariga rioya qilishga sabab bo'ladi.

Korrupsiya darajasi eng past davlatlar reytingining yuqori o'rinalarda turgan davlatlardan biri Singapur hisoblanadi. "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasiga asosan o'zi yoki boshqa shaxs tomonidan yoki ular bilan birgalikda har qanday shaxs – o'zi yoki boshqa shaxs uchun pora so'rash yoki olish yoki olishga rozilik berish yoki har qanday shaxsga yoki uning manfaati uchun pora berish, va'da qilish yoki taklif qilish huquqbazarlikda aybdor bo'ladi va sudlanganda 100 000 dollardan ortiq bo'limgan jarimaga tortiladi yoki 5 yildan ortiq bo'limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilinadi. Shuningdek ushbu Qonunda parlament a'zosining va davlat organi a'zosining korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlari uchun alohida javobgarlik belgilanganligi bilan ham ahamiyatlidir. Singapur qonunchiligida poraxo'rlik jinoyatlari pora evaziga amalga oshiriladigan harakatlarning aniq ro'yxatini belgilash orqali chegaralab qo'yilgan. Xuddi shunday normani Malayziyaning 2009-yildagi korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi to'g'risidagi Qonunida ham ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, mazkur qonun pora olish va berishdan tashqari pora so'rash, qabul qilish yoki qabul qilishga va'da berish, shuningdek, pora berishni va'da qilish yoki pora taklif qilganlik uchun ham javobgarlik nazarda tutilgan. Demak, Singapur va Malayziya qonunchiligida korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning ro'yxati aniq belgilab qo'yilgan bo'lib, bunda ushbu jinoyatlarni sodir qilgan shaxslarni javobgarlikka tortishda qiyinchiliklarning oldi olinadi va shu turdag'i jinoyatlarning hisobi yuritilib borilib, unga qarshi kurashda chora-tadbirlar belgilab olishda o'zining ijobjiy ta'sirini ko'rsatib boradi.

Shuningdek, Malayziyaning 1997-yildagi korrupsiyaga qarshi Qonunining 32moddasida belgilanishicha, prokuror har qanday davlat xizmatchisi o'zining amaldagi va ilgarigi egallab turgan lavozimiga ko'ra ega bo'lisi mumkin bo'lgan darajadan ortiqcha bo'lgan har qanday mulkka egalik qilayotganligi yoki shunday mulkni boshqarayotganligi haqida asosli gumonga ega bo'lsa, o'z yozma ko'rsatmasi orqali ushbu mulkning manbasini ko'rsatishni talab qilishi mumkin va davlat xizmatchisi bunday manbani qoniqarli ravishda isbotlab bera olmagan taqdirda jinoyat sodir etishda aybdor deb topiladi. Malayziya qonunchiligiga davlat xizmatchilarining molmulkini deklaratsiya qilish tizimining yaratilganligi korrupsiyaning oldini olishdagi eng samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi. Litva Jinoyat kodeksi 1891-moddasiga muvofiq, eng kam ish haqining 500 baravaridan oshadigan mol-mulkka mazkur mulkning qonuniy manbadan olinishi mumkin emasligini bilgan yoki bilishi mumkin bo'lgani holda mulk huquqi asosida egalik qilayotgan shaxs noqonuniy boyish uchun jinoiy javobgarlikka tortiladi. Ushbu mamlakat qonunchiligidagi noqonuniy boyish jinoyatiga oid rag'batlantiruvchi norma ham mavjud bo'lib, unga ko'ra, yuqoridaqicha mol-mulkni uchinchi shaxsdan qabul qilib olgan shaxs huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ushbu molmulkning qonuniyligi yuzasidan tekshiruv boshlanganiga qadar uning shubhali manbadan olinganligi haqida o'z ixtiyori bilan murojaat qilgan taqdirda jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi. E'tiborga molik tomoni shundaki, Litva qonunchiligi nafaqat mansabdor shaxslarning noqonuniy boylik orttirishi, balki har qanday shaxsning noqonuniy boyishi holatini jinoyat sifatida e'tirof etadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Gruziya tajribasiga qaraydigan bo'lsak, Gruziya Respublikasi Jinoyat kodeksining 1641-moddasida saylovchilarning poraxo'rliги uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, saylov maqsadlarida to'g'ridanto'g'ri yoki bilvosita shaklda amalga oshiriladigan: taklif, va'da, pul o'tkazish, qimmatli qog'ozlar (shu jumladan moliyaviy vositalar), boshqa mol-mulk, mulkiy huquqlar, taklif, xizmatlar ko'rsatish yoki boshqa har qanday boshqa narsalarni taqdim etish va'dasi, imtiyozlar yoki xizmatlar yoki

qonun hujjatlarida belgilangan cheklovlarini chetlab o'tish maqsadida qasddan shunday olish yoxud xayoliy, soxta yoki boshqa bitimlar tuzilganda jarima jazosi yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi. Ushbu Kodeksning 338-moddasida pora olish uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, mansabdor shaxslar yoki ularga tenglashtirilgan shaxslar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita pul, qimmatli qog'ozlar, boshqa mol-mulk, mulkiy manfaat yoki boshqa qonunga xilof foyda olish yoki talab qilish, shuningdek o'z foydasiga yoki boshqa shaxslar foydasiga takliflar yoki va'dalar olish, ushbu mansabdor shaxslar yoki ularga tenglashtirilgan shaxslar tomonidan pora beruvchi yoki boshqa shaxs foydasiga biron-bir xatti-harakatni amalga oshirish yoki amalga oshirishdan tiyilish yoxud shu kabi maqsadlarga erishish uchun ularning mansab vakolatlaridan foydalanganda olti yildan to'qqiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida og'irlashtiruvchi holatlar uchun javobgarlik belgilanib, yeti yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi. Bundan tashqari Gruziya Jinoyat kodeksida bora berish, so'rov o'tkazilayotgan shaxsga, guvohga, jabrlanuvchiga, ekspert yoki tarjimonga pora berish, kasbiy sport musobaqalari yoki tijorat ko'ngilocharlari ishtirokchilariga yoki tashkilotlariga pora berish uchun ham javobgarlik belgilangan. E'tiborli tomoni shundaki, Gruziya jinoyat qonunchiligi mavqeni suiiste'mol qilishga qaratilgan harakatlar sodir etilganda mazkur harakatlar natijasida ta'sir ko'rsatishga erishilgan-erishilmaganligi yoki ko'rsatilgan ta'sirning ko'zlangan natijaga olib kelgan-kelmaganligidan qat'i nazar bunday qilmishni tugallangan jinoyat sifatida baholaydi.

Daniya, Finlandiya, Shvesiya, Yangi Zelandiya, Kanada, Norvegiya, ham korrupsiyalashmaganligi jihatdan yuqori o'rirlarda turadigan davlatlar sanaladi. Bu mamlakatlarda korrupsiya hukumat tomonidan milliy xavfsizlik masalasi, ichki va tashqi xavfsizlikka tahdid soluvchi omil sifatida baholanadi.

Xalqaro Transparensy International tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra korrupsiya darajasi eng past bo'lgan davlatlardan biri bu – Yangi Zelidiyadir.

Mazkur davlat korrupsiya darajasi eng past bo'lgan davlatlar reytingida yuqori o'rirlarni egallab keladi. Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik masalasida Yangi Zelandiya tajribasiga qaraydigan bo'lsak, 1961-yilda qabul qilingan Jinoyatlar aktining oltinchi bo'limi "Qonun va odil sudlovnii amalga oshirishga ta'sir qiluvchi jinoyatlar" deb nomlanib, mazkur bo'limda poraxo'rlik va korrupsiya uchun javobgarlik ham belgilangan. E'tiborli jihat shundaki, mazkur bo'limda har bir davlat amaldorining korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlari uchun javobgarlikka tortish alohida qilib ajratilgan. Xususan, Aktning 100-bandida sudyalar va sud xodimlarining poraxo'rligi, 101-bandida sud xodimiga pora berish, 102bandida vazirlarning poraxo'rligi, 103-bandida parlament deputatining korrupsiyasi va poraxo'rligi, 104-bandida huquqni muhofaza qilish organi xodimining korrupsiyasi va poraxo'rligi, 105-bandida mansabdor shaxsning poraxo'rligi, 105Cbandida chet ellik davlat amaldoriga pora berish, 105D-bandida Yangi Zelandiyadan tashqarida xorijiy davlat amaldorining poraxo'rligi, 105E-bandida xorijiy davlat amaldorlarining korrupsiyasi uchun javobgarlik belgilangan. Yuqorida sanab o'tilgan jinoyatlarda nafaqat pora olganlik, balki pora berish va pora berishga dalolatchilik qilganlik uchun ham javobgarlik belgilangan. Demak, Yangi Zelandiyada har bir mansabdor shaxsning korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlari uchun alohida javobgarlikning belgilanishi ularning jamiyatdagi o'rni, yuklatilgan vazifaning ahamiyati bilan bog'liq deyishimiz mumkin. Korrupsiyaga qarshi kurashda bu usul juda samarali hisoblanib har bir mansabdor shaxsning mas'uliyatini oshiradi. Korrupsiyaga qarshi kurashda Finlandiya tajribasi diqqatga sazovor. Xalqaro Transparensy International tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra korrupsiya darajasi eng past bo'lgan davlatlardan biri Finlandiya hisoblanadi. Mazkur davlat korrupsiya darajasi eng past bo'lgan davlatlar kuchli beshtaligiga kirib keladi. Hozirgi kunda Finlandiyada yiliga 3 yoki 4 ta poraxo'rlik bilan bog'liq jinoyat ishlari ko'rilar ekan. Ushbu holatni 1980-1989-yillar oralig'idagi davr bilan taqqoslaydigan bo'lsak, mazkur yillarda 81 nafar shaxslar pora olganlik uchun, 49 nafar shaxslar pora bergenlik uchun jazolangan. E'tiborli jihat shundaki, Finlandiya Jinoyat kodeksida "korrupsiya" degan tushuncha mavjud emas. Unda

mansabdor shaxslarning poraxo'rligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, bunday jinoyatni sodir etgan mansabdor shaxslar uchun qilmishning ijtimoiy xavfliligiga qarab jarima yoki 4 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi. Finlandiyada boshqa davlatlardagi kabi korrupsiyaga qarshi kurash haqida maxsus qonun mavjud emas, korrupsiyaga qarshi kurashuvchi maxsus organ ham tuzilmagan. Korrupsiyaga umumiyligi jinoyatchilikning bir qismi qabilida kurash olib boriladi. Finlandiya Konstitusiyasi, Jinoyat kodeksi, Fuqarolik xizmati to'g'risidagi qonun, ma'muriy boshqaruvgaga oid yo'riqnomalar va boshqa qonunosti hujjatlar korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan hujjatlar hisoblanadi. Bularning orasida eng muhimi Axloq qoidalaridir.

Finlandiyada korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan hujjatlar ijrosi ustidan nazorat mamlakat Prezidenti tomonidan tayinlanadigan, biroq, mutloq mustaqil faoliyat yurituvchi Adliya kansleri va parlament vakili Ombudsman tomonidan olib boriladi. Ular butun hokimiyat tarmoqlari faoliyatini nazorat qilish vakolatiga egalar. Yuqori martabali mansabdor shaxslarni ayblash haqidagi jinoyat ishlari maxsus tashkil etilgan Davlat sudi tomonidan ko'rib chiqiladi. Bu sud hattoki davlat rahbariga nisbatan bo'lgan ishlarni ham ko'rib chiqishi mumkin. Unga – Adliya kansleri, parlament vakili Ombudsman, hukumat vakillari, Oliy sud va ma'muriy sud sudyalari a'zo bo'lisi mumkin. Ikkinci jahon urushidan keyin Davlat sudi bor – yo'g'i bir marta chaqirilgan xolos. Davlat xizmatchilarini soni unchalik ko'p emas. Ayniqsa, 90-yillardan keyin davlat xizmatchilarini soni deyarli teng yarmiga, ya'ni 230.000 dan 127.000 ga qisqartirilgan. Finlandiyada davlat xizmatchilarini korrupsiyalashuvidan saqlovchi muhim omillardan biri - ularning moddiy va ijtimoiy ta'minlanganligidadir. Alohida ta'kidlash lozimki, Finlandiyada ommaviy axborot vositalari ijtimoiy nazoratning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Hukumat esa, ommaviy axborot vositalariga nafaqat erkinlik yaratib bergen, balki har bir e'lon qilingan korrupsiya holati bo'yicha aniq choralarni ko'rib boradi. Finlandiya korrupsiyaga qarshi bir qancha xalqaro hujjatlarga qo'shilgan, xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini faol olib boradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda jahon mamlakatlari tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki faqatgina jinoiy qonunchilikni og‘irlashtirish yo‘li bilan bu salbiy illatga qarshi kurashib bo‘lmaydi (XXR da juda ko‘p miqdorda pora olganlik uchun o‘lim jazosi mavjud). Bu illatni engish uchun birinchi navbatda aholining huquqiy savodxonligini oshirish, fuqarolik institutlari faoliyatini kuchaytirish lozim bo‘ladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan SHvetsiya, Singapur, Gonkong, Portugaliya kabi davlatlarning tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o‘rin egallaydi.

Bunda Konstitutsiyaviy nazorat organlari, huquq-tartibot organlarining ahamiyati ortadi. Ya’ni, korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo‘lgan normalarni konstitutsiyaviy nazorat organi tomonidan konstitutsiyaga zid deb topish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish kabi metodlardan unumli foydalanish ushbu davlatlarni korrupsiya darajasi juda past bo‘lgan davlatlar qatoriga olib chiqqan. Biz quyida Singapur davlatida korrupsiyaga qarshi kurashda qo‘llanilgan usullar haqida batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

**O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishda institutsional tizimning shakllanishi.** Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta’minalash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Korrupsiyadan holi jamiyat va davlatni yaratish mamlakat taraqqiyotining mustaxkam kafolati bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2018-yil 7-dekabr kuni Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan marosimdagи ma’ruzasida “Korrupsiya bilan hech qachon maqsadimizga erisha olmaymiz” deb, ta’kidlagan edi.

Barcha sohalarda islohotlarni amalga oshirish doirasida fuqarolarning huquq va manfaatlari himoya qilinishini, davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari

faoliyati ochiqligini, jamoat va parlament nazoratini ta'minlash mexanizmlari takomillashtirildi.

Albatta, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yaratila boshlangan. Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarini tashkillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 3 martdagи “O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi tuzilmasida tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi poraxo'rlik, o'g'irliklar va boshqa suiiste'molchiliklarga qarshi kurash boshqarmasini tashkil etish to'g'risida”gi; 1994 yil 11 maydagи “Xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni korrupsiya, reket va uyushgan jinoyatchilikning boshqa ko'rinishlaridan himoya qilishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida”gi; 1997 yil 28 maydagи “Korrupsiya, reket va terrorizmga qarshi kurashni takomillashtirish ishlarini yanada rivojlantirish to'g'risida”gi qarorlari qabul qilindi va ularning ijrosini ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

2008-yilda BMTning 2003-yildagi «Korrupsiyaga qarshi kurashish» Konvensiyasini ratifikatsiya qilinishi va ushbu konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi qo'shilishi to'g'risida»gi Qonun qabul qilinishi katta ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, so'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan Byudjet va Bojxona kodekslari (yangi tahrirda), «Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi, «Ijtimoiy sherklik to'g'risida»gi, «Davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi, «Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida»gi, «Elektron hukumat to'g'risida»gi, «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi. Bularning bari tom ma'noda davlatimiz tinchligini va xalq farovonligining huquqiy garovidir.

Qonunchilik tahlili korrupsiya bilan bog'liq qilmishlarga qarshi kurashish faoliyatining huquqiy asoslari ko'proq O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksida o'z ifodasini topgan. Buni quyidagilarda ko'rshimiz mumkin.

Mamlakatimizda “Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yil 24-noyabrda qabul

qilinib, Senat tomonidan 2016 yil 13-dekabrda ma'qullangan. Prezident tomonidan 2017 yil 3-yanvarda tasdiqlanib, 4 yanvardan kuchga kirdi. Qonun 34 moddadan iborat.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni davlat organlari faoliyatining ochiqligini va hisobdorligini ta'minlash, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, davlat organlari, mansabdar shaxslarning o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan mas'uliyatini kuchaytirishga, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish maqsadlariga xizmat qilmoqda.

Qonunda korrupsiya, korrupsiyaga oid huquqbazarlik, manfaatlar to'qnashuvi kabi iboralarning mazmuni huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunning mazmun mohiyatiga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, unda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy munosabatlarni to'liq qonuniy tartibga solishga, davlat organlari, tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga, shuningdek korrupsiyani ijtimoiy hayotning barcha sohalaridan to'liq bartaraf etishga, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali jamiyatda korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga toqat qilmaslik muhitini yaratishga qaratilgan me'yorlar o'z aksini topganligini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, qonunda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari hamda bu boradagi davlat siyosatining muhim yo'nalishlari, vakolatli organlar tizimi, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning mazkur sohadagi ishtiroki, shuningdek xalqaro hamkorlik mustahkamlab qo'yilgan.

Qonun asosida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 2-fevraldag'i «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul

qilindi. Mazkur hujjatlar o‘z mazmun mohiyati, maqsadi bilan mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashning yangi bosqichini boshlab berdi. Prezidentimizning

2017-yil 7-fevraldagagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida ham korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo‘yicha tadbirlar belgilanganligi alohida qayd etildi.

2022-yil 28-yanvardagi PF 60-sonli farmon “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da ham erkin fuqarolik jamiyatini yaratishning ijtimoiy va huquqiy asoslari yanada mustahkamlandi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish ham O‘zbekistonni rivojlantirishda ustuvor maqsadlardan biri sifatida qaraldi.

Qonun normalarini hayotga tatbiq etish maqsadida yuqorida ko‘rsatilgan Prezidentimiz farmon va qarorlari 2017-2018 yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturi, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tarkibi tasdiqlandi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ularning hududiy boshqarmalarida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda korrupsiyaga oid xuquqbazarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Qonundan ko‘zlangan maqsad - korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Hujjatda “korrupsiya”, “korruption huquqbazarlik”, va “manfaatlar mojarosi” kabi tushunchalarga izoh berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27-maydagagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5729-sonli Farmoni asosida 2019 yil 1-avgustdan boshlab eksperiment tariqasida aynan oliy ta’lim sohasida “korrupsiyasiz soha”

loyihasini amalga oshirish belgilab qo‘yilganligi mamlakatda kechayotgan har qanday islohotning muvaffaqiyati birinchi navbatda ta’limga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27-maydag‘i “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5729-son Farmoni bilan 2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi va Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasining yangilangan tarkibi tasdiqlandi. Bundan tashqari Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo‘yicha maxsus komissiya tuzildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli choralar ko‘rildi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotni yanada o‘sirish, xalq farovonligini oshirish, mamlakatda investisiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minalash hamda korrupsiya ko‘rinishlarining sabab va shartsharoitlarini bartaraf etish bo‘yicha yangi tizimli choralar ko‘rilishini taqozo qilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tomonidan 2019-yil 30-avgustda Oliy ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish va «Korrupsiyasiz soha» loyihasini amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan. Loyihaning maqsadi- tizimda olib borilayotgan islohotlarni izhil davom ettirish, korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga barham berishdan iboratdir.

2020-yil 29-iyun kuni ushbu farmon bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Agentlik korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda maxsus vakolatli

davlat organi hisoblanib, prezidentga bo‘ysunishi va Oliy Majlis palatalari oldida hisobdor bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

Shu bilan birga, iqtisodiyotni yanada o‘sirish, xalq farovonligini oshirish, mamlakatda investisiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minlash hamda korrupsiya ko‘rinishlarining sabab va shartsharoitlarini bartaraf etish bo‘yicha “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6-iyuldaggi PF-6257- son Farmoni e’lon qilindi.

**O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining vazifa va vakolatlari. Agentlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlar tavsifi.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.06.2020 yildagi PF-6013-sonli “O‘zbekiston respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmonida korrupsiyaga qarshi kurashda jahon standartlari va zamonaviy usullar bilan yondashib islohotlar amalga oshirilishi belgilab o’tildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo‘yishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Davlat organlari zimmasidagi vazifa va funksiyalarni bajarishda yuzaga keladigan korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash tizimini takomillashtirish hamda davlat xizmatiga halollik standartlarini joriy etish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatda byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish choralarini ko‘rilmoxda hamda “Korrupsiyasiz soha” loyihalari amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini tubdan oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar korrupsiya holatlarining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etishning ta’sirchan tizimini yaratishni taqozo etmoqda. Ushbu ishlarga fuqarolik jamiyatni institutlari va nodavlat sektorning boshqa vakillarini ham keng jalb etish zarurati tug‘ilmoqda.

2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturini izchil ro‘yobga chiqarish, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini oshirish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) tashkil etilsin.

Belgilab qo‘yilsinki, Agentlik:

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyatni institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta’minlash, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas’ul bo‘lgan maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi;

o‘z faoliyatini qonuniylik, xolislik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida boshqa davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo‘ysunadi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari oldida hisobdordir;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktori tomonidan boshqariladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Agentlik direktorini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod qilish to‘g‘risidagi farmonlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan tasdiqlanadi.

2. Quyidagilar Agentlikning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilansin:

mamlakatda korrupsiya holatini tizimli tahlil qilishni ta’minlash, shuningdek, korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan sohalar hamda korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash;

korruksianing oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish;

fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, korruksianing oldini olish va unga qarshi kurashish masalalariga oid axborotlarni tarqatish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish orqali jamiyatda korruksianing barcha ko‘rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish;

vazirlik va idoralarning korruksianing oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining ushbu masalalar bo‘yicha birgalikdagi samarali faoliyatini tashkil etish;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lgan korxonalar, shu jumladan banklarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplaens-nazorat”) hamda korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa xalqaro vositalarini joriy etish va samarali faoliyat ko‘rsatishini tashkillashtirish, zamonaviy usullar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida korrupsiyaga qarshi monitoring olib borish, shuningdek, ularning mazkur sohadagi faoliyati bo‘yicha reytingini tuzish;

normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihibarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasi samaradorligini ta’minlash, shuningdek, korruksianing oldini olish va

unga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro standartlarni va ilg‘or xorijiy amaliyotni joriy etish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkini deklaratsiya qilish tizimi joriy etilishi va samarali faoliyat ko‘rsatishini hamda deklaratsiyalarning haqqoniyligi tekshirilishini tashkil etish, shuningdek, ushbu jarayonda aniqlangan korrupsiya holatlariga o‘z vaqtida ta’sir choralar ko‘rlishini ta’minalash;

davlat xizmatiga halollik standarti (“halollik vaksinasi”) va manfaatlar to‘qnashuvini hal etish standartlarini joriy etishda ko‘maklashish bo‘yicha ta’sirchan choralar ko‘rish, shuningdek, ularga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

udget mablag‘lari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning qarzlaridan foydalanish, davlat aktivlarini realizatsiya qilish va davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga qarshi nazorat tizimining samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, uni takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda mamlakatning imidjini mustahkamlash va uning xalqaro reytinglardagi o‘rnini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korrupsiyaning holati, tendensiyalari va sabablari hamda korrupsiyaga qarshi choralar ko‘rishning samaradorligi yuzasidan sotsiologik, ilmiy va boshqa tadqiqotlarni tashkil etish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning ta’sirchanligini oshirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta’minalash, shu maqsadda ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat sektorning boshqa vakillari bilan samarali hamkorlikni amalga oshirish

Oldingi tahrirga qarang.

davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta’minalash sohasini muvofiqlashtirish va doimiy monitoring qilish, shu jumladan ularning

normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan ma'lumotlarni Internet tarmog'iga joylashtirish (e'lon qilish) bo'yicha majburiyatlari hisobini yuritish;

davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan ommaviy axborot vositalari orqali samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatish bo'yicha choralarning ishlab chiqilishi va joriy etilishiga ko'maklashish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlaridan kelib chiquvchi davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligiga oid dolzarb masalalarni "Mening fikrim" veb-portali orqali umumxalq muhokamasiga chiqarish;

Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxatini uzlucksiz to'ldirish, takomillashtirib borish va yangilab borish bo'yicha takliflar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishga ko'maklashish;

ommaviy axborot vositalari orqali davlat organlari va tashkilotlari xizmatchilariga "davlat organlari faoliyati ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligi" madaniyatini singdirish hamda davlat organlari va mansabdor shaxslar xalq oldida hisobdorligini ta'minlash muhimligi to'g'risida tushuntirish ishlari olib borilishini tashkil etish.<sup>4</sup>

### 3. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq Agentlik:

har yili ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinishi lozim bo'lgan O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida milliy ma'ruzani tayyorlaydi hamda uni ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga kiritadi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul bo'lgan qo'mitalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining tegishli qo'mitasi, xalq deputatlari viloyatlar

---

<sup>4</sup> (2-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi PF-154-sonli Farmoniga asosan o'n to'rtinchi — o'n sakkizinchchi xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.06.2022-y., 06/22/154/0524-son)

hamda Toshkent shahar, tuman va shahar Kengashlarining korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari bilan hamkorlik qiladi;

korrupsiyaga oid, birinchi navbatda, O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga va xalqaro imidjiga zarar yetkazuvchi jinoyatlarni tergov qilish natijalarini kompleks tahlil qiladi hamda natijalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga axborot beradi;

korrupsiyaga oid jinoyatlar oqibatida jamiyat va davlat manfaatlariga yetkazilgan zarar to‘liq qoplanilishiga erishish ustidan nazoratni amalga oshiradi;

normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazish tizimi samaradorligini tahlil qiladi va uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritadi;

fuqarolik jamiyati institutlari bilan birlashtirilishda hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalar kesimida korrupsiyaning darajasini baholovchi Korrupsiyani qabul qilish milliy indeksini tuzishni tashkillashtiradi;

davlat xaridlari sohasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida davlat buyurtmachisi ISO 37001 korrupsiyaga qarshi standartini qo‘llashni ko‘zda tutuvchi talabni o‘rnatadi;

joylarda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan hududiy dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etadi;

korrupsiya holatlariga doir materiallarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalariga taqdim etadi.

#### 4. Agentlikka quyidagi huquqlar berilsin:

udget mablag‘larining sarflanishi, davlat aktivlarining realizatsiya qilinishi, davlat xaridlari, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi va davlat dasturlari bajarilishi bilan bog‘liq materiallarni talab qilish, olish va o‘rganish;

o‘z vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan o‘rnatilgan tartibda normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish;

jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya masalalari bo‘yicha murojaatlarini ko‘rib chiqish hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha choralar ko‘rish;

davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida korrupsiya holatini o‘rganish;

korrupsiyaga oid jinoyatlar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, tizimli korrupsiyaning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish maqsadida qonunchilik, shu jumladan jinoyat-protsessual qonunchiligidagi muvofiq jinoyat ishlari materiallarini o‘rganish;

o‘rganish va boshqa tadbirlar natijalari bo‘yicha to‘plangan materiallarni faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbazarlik alomatlari bo‘lgan shaxslarga nisbatan qonunga muvofiq choralar ko‘rish, jumladan jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish uchun huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlariga taqdim etish;

korrupsiyaga oid huquqbazarliklar bo‘yicha ma’muriy surishtiruvlar o‘tkazish;

ijro hokimiyati va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qarorlarida korrupsiya belgilari aniqlangan hollarda ularning ijrosini to‘xtatish yoki bekor qilish to‘g‘risida ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalarni kiritish;

davlat organlari, tashkilotlari va ularning mansabdor shaxslariga ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan korrupsiyaga oid huquqbazarlikka yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida ogohlantirishlar hamda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko‘rish to‘g‘risida taqdimnomalar kiritish.

Agentlikning ogohlantirish, taqdimnoma va murojaatlari o‘n kun ichida ko‘rib chiqilishi va natijalari yuzasidan yozma axborot berilishi shart.

## 5. Belgilansinki:

Agentlik xodimlarining tarkibi yurisprudensiya, iqtisodiyot, moliya, soliq, audit, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va Agentlik zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan boshqa sohalar bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislar orasidan to‘ldiriladi;

Agentlikning hujjatlar, materiallar va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish, taftish va tekshirishlar o'tkazish, mutaxassislar ajratish, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risidagi talablarini bajarish davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, ularning mansabdor shaxslari va fuqarolar uchun majburiydir;

Agentlik xodimlari o'z vakolatlari doirasida korrupsiyaning sabab va shart-sharoitlarini o'rganish hamda tahlil qilish maqsadida davlat organlari va tashkilotlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ushlab turilganlarni va qamoqqa olinganlarni saqlash joylari, jazoni ijro etish muassasalariga moneliksiz kirishga va hujjatlar bilan tanishishga haqli;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari majburiy ravishda Agentlik bilan kelishilishi lozim.

6. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi va uning hududiy idoralararo komissiyalari O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi (keyingi o'rnlarda — Milliy kengash) va uning hududiy kengashlari etib qayta tashkil etilsin.

O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Agentlik Milliy kengashning ishchi organi etib belgilansin.

Agentlik Milliy kengash faoliyatini samarali tashkiliy-uslubiy qo'llab-quvvatlash, shu jumladan ish rejalarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda Milliy kengash tomonidan qabul qilingan qarorlarning ijrosini tashkil etishni ta'minlasin.

## 7. Agentlik uch oy muddatda:

Agentlikni yuqori malakali kadrlar bilan, birinchi navbatda, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amaliy ish tajribasiga ega va Agentlik zimmasiga yuklatilgan vazifalarni professional darajada bajarishga qodir shaxslar orasidan to'ldirilishini;

Agentlik faoliyati tashkil etilishini tartibga soluvchi hujjatlar paketi, shu jumladan Agentlik tuzilmalari to‘g‘risida nizomlar va xodimlarining odob-axloq qoidalari ishlab chiqilishini ta’minlasin.

Belgilab qo‘yilsinki:

Agentlikni xodimlar bilan to‘ldirish konkurs asosida xalqaro standartlarga muvofiq Agentlik tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi;

Oldingi tahrirga qarang.

Agentlikka birinchi marta ishga qabul qilinadigan xodimlar ishdan ajratilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning nazariy va amaliy masalalari, xorijiy tajriba va xalqaro standartlarni o‘rganishni qamrab oluvchi maxsus o‘quv dasturlari bo‘yicha ta’lim oladi.<sup>5</sup>

8. Agentlik:

a) Bosh prokuratura, Adliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi hamda boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda, shu jumladan xalqaro tashkilotlarning mablag‘larini jalb qilgan holda, 2020-2021-yillarda barcha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplaens-nazorat”)ni bosqichma-bosqich joriy etish choralarini ko‘rsin;

b) davlat xaridlari sohasida mas’uliyatni oshirish va korrupsiyani bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Bosh prokururasi bilan birgalikda uch oy muddatda:

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni talablarini, shu jumladan xarid qilish tartib-taomillari turlarini belgilash va ijrochini tanlash shartlarini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish;

---

<sup>5</sup> (7-bandning oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-noyabrdagi PF-257-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.11.2022-y., 06/22/257/1049-son)

davlat xaridlari doirasida tuzilgan shartnomalarni majburiy ravishda e'lon qilish, shuningdek, davlat xaridlarini tanlov va tender savdolari orqali zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda faqat elektron shaklda amalga oshirish tartibini joriy etish bo'yicha takliflarni kirlitsin;

v) O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi, Moliya vazirligi, Iqtisodiy rivojlanish va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Adliya vazirligi, Markaziy banki va Hisob palatasi bilan birgalikda uch oy muddatda, shu jumladan uy-joy communal xo'jaligi, suv xo'jaligi, qurilish va energetika sohalarida davlat xaridlari, davlat mulkini boshqarish va undan foydalanishda qonun hujjatlariga rioya etilishi holati bo'yicha o'rganish o'tkazsin;

g) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi bilan birgalikda doimiy asosda davlat xaridlarida affillanganlik, shu jumladan xaridlar ishtirokchilarining oxirgi benefitsiar egalariga taalluqli manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va oldini olish choralarini ko'rish maqsadida masofaviy monitoring o'tkazsin.

#### 9. Agentlik zimmasiga:

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tarmog'ining Istanbul harakatlar dasturi doirasidagi ishlar hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amalga oshirilishini ta'minlash;

BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa xalqaro shartnomalari qoidalarining bajarilishi bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ushbu yo'nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy koordinatori vazifa va vakolatlari yuklatilsin.

10. Agentlik O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Bosh prokuraturasi bilan birgalikda uch oy muddatda:

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati, shuningdek, ushbu sohadagi davlat va boshqa

dasturlar samaradorligini monitoring qilish hamda baholash imkonini beruvchi “E-Anticor.uz” elektron platformasi;

korrupsiya holatlari haqida Agentlikni xabardor qilish imkonini beruvchi maxsus mobil dasturiy ta’minot;

Agentlikka davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda boshqa tashkilotlarning ma’lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va joriy etilishini ta’minlasin.

11. Agentlik O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Bosh prokuraturasi va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda, xalqaro ekspertlarni jalg etgan holda:

ikki oy muddatda — O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilishini hamda Xalqaro reyting va indekslar bilan ishslash bo‘yicha respublika kengashiga kiritilishini;

uch oy muddatda — “O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi to‘g‘risida”gi, “Davlat xizmatchilarining daromadlari, mol-mulki va manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilish to‘g‘risida”gi, ‘Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonun loyihalari ishlab chiqilishini va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritilishini;

uch oy muddatda — Korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro standartlarini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga implementatsiya qilishni davom ettirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilishini hamda ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun Milliy kengashga kiritilishini ta’minlasin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

Agentlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar, shu jumladan binolarni ta’mirlash, mebel va boshqa moddiy-texnik vositalar bilan jihozlash uchun o‘rnatilgan tartibda mablag‘lar ajratish choralarini ko‘rsin;

2021-yildan boshlab har yili O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti parametrlarida alohida modda bilan Agentlik faoliyatini hamda korruksianing

oldini olish va unga qarshi kurashish choralarini moliyalashtirish uchun zarur mablag‘larni nazarda tutsin.

13. Vazirlar Mahkamasi Toshkent shahar hokimligi bilan birgalikda ikki hafta muddatda Agentlikni joylashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga taklif kirtsin.

14. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiyasi Agentlik zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda unga har tomonlama ko‘maklashsin.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi ommaviy axborot vositalarida muntazam ravishda ushbu Farmonning maqsad va vazifalarini yoritish bo‘yicha maqolalar chop etilishini va tematik teleko‘rsatuvalar berib borilishini tashkil etsin.

16. Agentlik O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjalariiga ushbu Farmonidan kelib chiqadigan o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida takliflarni kirtsin.

17. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

**(O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV (Toshkent sh., 2020-yil 29-iyun, PF-6013-son))**

Bu farmon orqali ham O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashning zamonaviy jahon standartlariga mos usullaridan foydalangan holda erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi g’ov-to’siqlarni yo‘q qilish bosh maqsad qilingan.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Korrupsiyaning qanday shakllari bor?
2. Korrupsiyaning qanday turlarini bilasiz?

3. Vertikal korrupsiyani tushuntiring
  4. Korrupsiyaning qaysi turini eng xavfli deb hisoblaysiz?
  5. Jahon miqyosida korrupsiyaga qarshi kurashda qanday usullardan foydalilanadi?
  6. Korrupsiyaga qarshi kurash borasida Singapur tajribasi to'g'risida nimalarni bilasiz?
  7. Transparency International xalqaro tashkilotining faoliyati nimalarga asoslanadi?

## Testlar:

1. BMTning Rivojlanish Dasturi nazariy tahliliga ko'ra korrupsiyani vujudga kelishida qanday omillar muhim ro'l o'yнagan?

A) Vakolat, hokimyat

B) O'zboshimchalik va shaxsiy manfaat

V) Hisobdorsizlik va oshkorasizlik, o'zboshimchalik va shaxsiy manfaat, vakolat va hokimyat

G) To'g'ri javob berilmagan

2. Ilmiy adabiyotlarda korrupsiyani vujudga keltiruvchi umumiylab nechta?

A) 4ta

B) 7ta

V) 8ta

G) 10ta

3. Korrupsiyani vujudga keltiruvchi eng muhim omil qaysi?

A) Normativ huquqiy bazani nuqsonlari

B) Hokimiyat institutlari tizimining nuqsonlari mavjudligi

V) Demokratik an'analar chuqur anglanmaganligi

G) Hokimiyat Institutlari tizimining nuqsonlari mavjudligi

4. BMTning "Korruptsiyaga qarshi" konvensiyasi nechanchi yilda kuchga kirdi?

A) 2001-yil mart oyida

B) 2005-yil dekabr oyida

V) 2004-yil iyul oyida

G) 2000-yil oktabr oyida

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni / O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, №1. 2017
  2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Xalq so‘zi, 2017, 8 fevral

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-sonli Farmoni. Lex.uz
4. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahhorova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019

**Axborot manbalari:**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.anticorruption.uz](http://www.anticorruption.uz)

## **7-Mavzu. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlik. Korrupsiyani idrok etish indeksining mazmuni va ahamiyati.**

### **Reja:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro tashkilotlar va ularning faoliyat yo‘nalishlari, vazifalari.
2. Transparency International nodavlat tashkilotining tashkil etilish tarixi va vazifalari.
3. “Korrupsiyani idrok etish indeksi”ning mazmuni va ahamiyati.

**Tayanch so’z va iboralar:** xalqaro tashkilotlar, korrupsiyaga qarshi kurashishdagi yo‘nalishlar va vazifalar, Transparency International, nodavlat tashkilot, “Korrupsiyani idrok etish indeksi”.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro tashkilotlar va ularning faoliyat yo‘nalishlari, vazifalari.** Korrupsiyaning sog’lom ijtimoiy munosabatlarga tahdidi to’g’risida XX asrning so’nggi choragida avval milliy darajada, so’ngra esa xalqaro miqyosda ko’proq gapira boshlandi. Uni nafaqt huquqiy, balki ijtimoiy, psixologik va siyosiy tushuncha sifatida o’rganila boshlandi. Korrupsiyaviy qilmishlar ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va siyosiy omillar ta’sirida vujudga keluvchi va rivojlanuvchi o’zining psixologik asoslariga ega bo’lgan salbiy ijtimoiy fenomen.

O’tgan asrning ikkinchi yarmida xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy taraqqiyotga intilishida aks etgan tarixiy jarayonlar shundan dalolat beradiki, mamlakatlarda amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligi avvalo, hokimiyat tepasiga kelgan kuchlarning maqsadlariga, demokratik talablarga riosa etishiga, boshqarishning maqbul yo’llarini tanlagan holda, korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib bora olganligiga bog’liq bo’lgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashda mintaqaviy mexanizmlarning o'rni katta. Yevropa ittifoqi, Yevropa Kengashi Mustaqil davlatlar hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida korrupsiyaga qarshi kurashga qaratilgan bir qator xalqaro hujjatlar qabul qilinib, ularni ijrosini nazorat qilish bo'yicha bo'limlar tashkil qilingan. Korrupsiyaga qarshi kurashning Yevropa mexanizmi. Korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro tashkilotlarning, ayniqsa Yevropa ittifoqining adliya va ichki ishlar sohalarida asosiy vakolatlaridan biri hisoblanadi. Nyu-York, Madrid va Londonda amalga oshirilgan teraktlar korrupsiyaga qarshi kurashga bo'lgan harakatlarni yanada jadallashtirdi. Endi u faqatgina alohida hodisa sifatida emas, xavfsizlik siyosatining muhim qismlaridan biri sifatida qaraladigan bo'ldi. Jumladan, korrupsiya iqtisodiy jinoyatchilik, uyushgan jinoyatchilik, daromadlarni yuvish, odam savdosi, qurol-yarog' va narkotiklar, terrorizm bilan bog'liqligi ayon bo'ldi. Terrorizm, uyushgan jinoyatchilik va moliya bozori globalizatsiyasi shuni ko'rsatmoqdaki, korrupsiya bilan milliy miqyosida qarshi kurashish samarasiz va foydasiz. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro jinoyat organlarining hamokrлиgi alohida ahamiyat kasb etadi, milliy miqyosida emas, xalqaro miqyosida jinoyatchilik qarshi kurash organlarining tajriba almashinuvi talab etiladi.

Agar xalqaro standartlar mavjud bo'lsa, transchege raviy hamkorlik to'g'ri yo'lga qo'yiladi. Korrupsiya bilan qarshi kurash qaratilgan xalqaro huquq normalariga asoslangan bunday xalqaro standartlar hanuzgacha yetarli emas.

Xalqaro-huquqiy hujjatlar turli xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilinadi. Jumladan, BMT, Yevropa Kengashi, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti (OESR) va boshqalar. Butunjahon savdo tashkiloti (VTO) doirasida hozirgacha korrupsiya masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Yevropa Ittifoqi nuqtai nazaridan, VTO doirasida korrupsiyaga qarshi kurashish nisbatan samarali bo'ladi. Shuning uchun Yevropa ittifoqi a'zo davlatlari Yevropa ittifoqining korrupsiyaga qarshi kurashdagi vakolatlarini VToga o'tkazishni qo'llab-quvvatlashadi. Bundan ko'rinish turibdiki, VTO va Yevropa ittifoqi o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashdagi hamkorlik yetarlicha yo'lga qo'yilgan. Hozirda

VTO sistemasida ko'proq rivojlanayotgan davlatlar korrupsiyaga qarshi kurashda faol ishtirok qilishmoqda.

OESR doirasida 1997 yilda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha alohida huquqiy hujjat qabul qilindi. Gap Xorijiy davlat mansabdor shaxslariga pora berishga qarshi kurashish to'g'risidagi konvensiya haqida ketmoqda. Konvensiya o'z ichiga poraxo'rlik, pora beruvchilarni izlab topish, bunday harakatlarga qarshi kurashish kabi masalalarni olgan. U passiv poraxo'rlikni tartibga solmaydi.

Konvensiya 1996 yil fevralda kuchga kirgan bo'lib, hozirda 38 davlat ratifikatsiya qilgan. Bu davlatlarning ulushi dunyo bozoraida 75 % ni tashkil qiladi. OESR davlatlari xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo'rlik jinoyatlarini sodir qilishini oldini olish va unga qarshi kurashishda sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Yevropa ittifoqchining barcha davlatlari, Litvadan tashqari, uni imzolashgan va ratifikatsiya qilgan. Konvensiya xalqaro darajada qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashdagi dastlabki hujjat hisoblanadi.

Germaniya Federativ Respublikasi konvensiya qoidalarini milliy huquqqa transformatsiya qilib, 1998 yil 10 sentabrda Xalqaro darajada pora berishga qarshi kurash to'g'risidagi qonunni qabul qildi. Barcha davlatlarda narkotik savdosi kuchayotgan davrda narkotik moddalar ustidan nazorat sohasida hududiy hamkorlik bo'yicha hamjihatlik to'g'risidagi Memorandum (Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston va O'zbekiston) imzolandi va Narkotik vositalar, psixotrop moddalar aylanmasi va ularning prekursorlari bilan kurash bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot koordinatsion Markazi (TSARIKTS)ni tashkil qilish bo'yicha narkotik moddalar bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha BMT Boshqarmasi (UNODC/YuNODK)ning g'oyasi maqullandi.

YuNODKnинг узоққа молжалланған мақсадлари ва лойиҳалари дірасіда Марказни ташкіл қилиш транснационал наркотик жинойаттарига қарши курашда иштирокчи дәвлаттар ваколатлы органларын та'сирі оширишга қаратылған edi.

2011 yil 10 martda Bishkek (Qirg'iziston)da TSARIKTS ishtirokchi dävlatlari Milliy koordinatorlar kengashining uchinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Kengash tarkibiga narkotik vositalarining noqonuniy aylanishiga қарши kurash sohasida

TSARIKTS ishtirokchi davlatlari (Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston va O'zbekiston) milliy koordinator organlari raxbari va Markaz direktori kirdi.

TSARIKTSni tuzish to'g'risidagi bitimda tashkilotlga to'liq a'zolik instituti, shuningdek kuzatuvchilar maqomi ham keltiriladi. Hozirgi vaqtida TSARIKTSda kuzatuvchilar Buyuk Britaniya, Germaniya, Avstriya, Afg'oniston, Kanada, Italiya, Pokiston, AQSH, Turkiya, Finlandiya, Frantsiya, Interpol va SECI Markazi hisoblanadi.

Interpol, Yevropol, Butunjahon Bojaxona tashkiloti, MDX ATTS, MDX BKBOP va boshqa xalqaro, mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari mustahkamlanmoqda.

2009 yil 16 sentabrda Qozog'iston Hukumati va TSARIKTS bilan Olmaota shahrida bo'lish shartlari to'g'risidagi bitim imzolandi. Bu bitim Markazning Olmaota shahrida tashkil qilinish shartlarini belgilash bilan bir qatorda, Markazning huquqiy maqomi, immunitet va imtiyozlari, uning hamkorlarigi va boshqa qoidalarni mustahkamladi.

TSariktsning asosiy vazifa va funktsiyalari quyidagilar: Narkotik moddalar aylanmasi bilan kurash bo'yicha ishtirokchi davlatlarning faoliyatini birlashtirish, ishtirokchi davlatlar vakolatli organlarning o'zaro hamkorlik mexanizmini shakllantirish, narkotik moddalar noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq transchegaraviy uyushgan jinoyatchilik bilan kurashda ishtirokchi davlatlar vakolatli organlari o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash, kelishilgan birgalikdagi operatsiyalar va tezkor qidiruv operatsiyalari tadbirlarini tashkil qilish va o'tkazishga ko'maklashish, narkotik vositalar noqonuniy aylanmasi bilan qarshi kurash sohasida axborot yig'ish, saqlash, himoya qilish, tahlil qilish va almashish va boshqalar.

Markazni Kengash tavsiyasi bilan ishtirokchi davlatlar rahbarlari tomonidan tayinlanadigan va ozod qilinadigan direktor boshqaradi. Birinchi ikki yillikda Markaz faoliyatini Markaz joylashgan davlat rahbari direktor vazifasini bajardi. Keyinchalik direktor vazifasiga ishtirokchi davlatlar vakillaridan ikki yil muddatga

davlatlar nomlanishining rus tili alfaviti bo'yicha tayinlanadigan bo'ldi. Direktor vazifasidan ishtirok davlatlardan birining ko'rsatmasi yoki o'z ixtiyoriga ko'ra ozod qilinishi mumkin.

"Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston va O'zbekiston o'rtaida narkotik vositalar, psixotrop moddalar aylanmasi va ularning prekursorlari bilan kurash bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot koordinatsion Markazi (TSARIKTS)ni tashkil qilish to'g'risidagi Bitim (2006 yil 24 iyul, Ostona)ni ratifikatsiya qilish to'g'risida" 2011 yil 16 iyunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Qonun qabul qildi va Senat tomonidan 2011 yil 27 avgustda tasdiqlandi.

Ushbu hujjatning 8 moddasi 1 qismida shunday deyiladi: "O'zbekiston Respublikasi narkotiklar ustidan nazoratni milliy koordinator organ sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat komissiyasi tashkil qilinadi".

Ushbu Bitim doirasida O'zbekiston Respublikasi vakolatli organlar sifatida quyidagilar belgilangan:

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy Xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojaxona qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi narkotiklar aylanmasini nazorat qilish bo'yicha milliy axborot tahliliy Markaz. Dunyoda tobora katta nufuzga ega bo'lib borayotgan Yevropa Ittifoqi tashkiloti ham bir necha yildirki, korrupsiyaga faol qarshi chiqish bilan birga, bu borada halqaro hamkorlikni mustahkamlashga ham harakat qilmoqda. U erishgan muhim yutuqlardan biri uning doirasida 1999 yilda «Korruptsiyaga qarshi jinoiy javobgarlik to'g'risida»gi va «Korruptsiya uchun fuqarolik javobgarligi to'g'risida»gi Konvensiyalar qabul qilindi. Bu xalqaro hujjatlardan tashqari, ushbu tashkilot doirasida ham qator amaliy chora- tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Korruptsiyaga qarshi kurashda nohukumat xalqaro tashkilotlar ichida Transperensi Interneyshnl (Transparency International) mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar faoliyatida bu illatga qarshi kurash borasida qator ishlarni amalga

oshirib kelmoqda. U 1993 yilda tashkil etilgan bo'lib, shtab-kvartirasi Berlinda joylashgan. Tashkilotning asoschisi va raisi sobiq Jahon banki rahbariyatida faoliyat ko'rsatgan Peter Aygen hisoblanadi. Peter Aygenning ilgari bunday yirik moliyaviy tashkilotda faoliyat yuritgani Transperensi Interneyshnlning dunyodagi mamlakatlarning korrupsiyalashganlik darajasini aniqlashda va korrupsiya fenomeniga qarshi chiqishida o'ziga xos turtki bo'lган, deyish mumkin. Transperensi Interneyshnl tashkiloti ko'pchilik tadqiqotchilar va xalqaro tashkilotlar rahbarlarining fikricha, korrupsiya sohasida ancha obro'li ekspert tashkilot sanaladi. Tashkilot bir necha yildirki, dunyodagi mamlakatlarning korrupsiyalashganligini monitoring qilib boradi. Monitoring natijalariga ko'ra, Transparency International har yili korrupsiya indeksi deb nomlangan mamlakatlarning korrupsiyalashganligi darajasini aks ettiruvchi o'ziga xos reytingni nashr etadi. Bundan tashqari, Transperensi Interneyshnl korrupsiyaga qarshi kurash jabhasidagi ilgor tajribalarni keng yoyish bilan ham shugullanadi. Ko'pchilik ekspertlarning tan olishicha, ushbu tashkilot tomonidan e'lon qilinayotgan korrupsiya indeksi u yoki bu jamiyatning qanchalik «ifloslanganligini» aks ettiradi. Tashkilot biror bir mamlakatning korrupsiya indeksini aniqlash uchun, avvalo mamlakatdagi korrupsiyalashganlik haqida keng va ishonchli ma'lumotlar to'playdi. Ma'lumotlar bir necha manbalardan olingandan so'ng taxdil etiladi.

Jahon bankini dunyoda mamlakatlarning korrupsiyalashishiga qarshi yirik moliyaviy tashkilot sifatida baholash mumkin. Mamlakatlar bilan aloqalarida ularning korrupsiyalashmaganligiga jiddiy e'tibor beradi. Kredit olish uchun unga murojaat etgaya davlatlar korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borayotgan bo'lsalar va olingan kredit pullarini maqsadga muvofiq ravishda ishlatish, mansabdor shaxslarning o'z manfaatlari yo'lida ishlatmasligiga kafolat bera olsalar va bunga bankni ishontira olsalargina kredit olishga erishadilar. SHu bilan birga, Jahon banki bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlar hukumatlarining korrupsiyaga qarshi kurash dasturlarini ishlab chiqishiga va bu borada olib borayotgan siyosatlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga

moliyaviy yordam bermoqda. Hozirgacha ko'pchilik rivojlanayotgan davlatlar, xususan, sobiq sotsialistik tuzum ostida bo'lgan mamlakatlarda Jahon banki ko'magi ostida korrupsiyaga qarshi kurash dasturlari amalga oshirilmoqda.

Jahon banki rahbariyati tomonidan iqtisodiyoti o'tish davridagi mamlakatlar uchun kompleks taraqqiyot Kontsepsiysi ishlab chiqilgan bo'lib, uning maqsadlaridan biri sifatida korrupsiyaga qarshi shafqatsiz kurash belgilangan edi. Kompleks taraqqiyot kontsepsiyasining maqsadlari quyidagilardir: a) mansabdor shaxslari tegishli tayyorgarlikka ega va yetarli darajada ish haqi oluvchi, yaxshi tashkil etilgan va tuzilgan hukumat; b) aniq qonunchilik va hamma uchun tushunarli bo'lgan tartibga soluvchi tizim; v) korrupsiyaga qarshi shafqatsiz kurash; g) samarali huquqiy va sud tizimi; d) to'g'ri tashkil etilgan va tartibga solib turiladigan moliyaviy tizim, shuningdek umummaqbul ijtimoiy ta'minot tizimi. (Jeyms Vulfenson «Transformatsiya» Iyun 1999, №3).

Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqoridagi tashkilotlar va boshqa kupgina xalqaro nohukumat tashkilotlar ham korrupsiyaning salbiy oqibatlari to'grisida tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqdalar. Xalqaro tashkilotlar ko'magida MDH davlatlaridan Rossiya, Ozarbayjon, Gruziya va Armaniston davlatlarida korrupsiyaga qarshi yo'naltirilgan turli loyihalar, dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotda qo'llanilayapti.

Umuminsoniy illat hisoblangan korrupsiya milliy xavfsizlik doirasidan chiqib, global xavfsizlikka ham o'z tahdidini namoyon etayotgan hozirgi davrda unga qarshi kurashishga xalqaro tashkilotlarning kirishishi ham ob'ektiv zaruriyat, ham globallashuv jarayonining o'ziga xos ko'rinishidir.

Evropa Kengashi 1949-yil 5-mayda tashkil qilingan bo'lib, 47 davlatni o'z ichiga olgan. U umumi yevropa masalalarini muhokama qilish bo'yicha forum hisoblanadi. Uning ustavi a'zo davlatlar o'rtasida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni qo'llab quvvatlash, hamkorlikni takomillashtirish masalalarini qamrab olgan.

Evropa Kengashining korrupsiyaga qarshi siyosatini amalga oshirishda ikkita konvensiya alohida o'rin tutadi: Korrupsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik to'g'risidagi konvensiya va Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi

konvensiya. Ikkala konvensiya ham 1999 yil qabul qilingan. Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi konvensiya 1999 yil 27 yanvarda, unga qo'shimacha protokol 1999 yil 15 may qabul qilindi. Bu konvensiya OESR konvensiyasidan farq qilgan holda, xorijiy mansabdor shaxslarning passiv poraxo'rlici uchun jinoiy ta'qib qilish, xususiy sektorda ham poraxo'rlikka qarshi kurashishi masalalarini ham o'z ichiga olgan.

Bu bilan bog'liq ravishda yana quyidagilarni keltirish mumkin: agar xalqaro huquq normalari milliy jinoyat huquqi normalari printsiplari bilan mos kelmasa, milliy jinoyat huquqi normalarini xorijiy mansabdor shaxslarga nisbatan tadbiq qilish mumkin emas. Ko'rinish turibdiki, yuqoridagi konvensiyaga muvofiq, birinchi navbatda xalqaro huquq normalarini e'tiborga olgan holda milliy jinoyat huquqi normalarini qo'llash mumkin.

Konvensiyani ratifikatsiya qilish korrupsiyaga qarshi kurashda bir qator majburiyatlarni ma'muriy organlarga yuklaydi, xususiy sektorda va milliy miqyosida bajarilishi lozimligini ko'rsatadi.

Korrupsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik to'g'risidagi konvensiya davlat xizmatchisining korruption harakati natijasida yetkazilgan zarar uchun kompensatsiyasi (davlatlarga) masalalarini tartibga soladi. Bu konvensiya korrupsiya qarshi kurashda fuqarolik munosabatlarini tartibga soluvchi yagon hujjat hisoblanadi. Darvoqea, bu konvensiyani faqat Finlandiya, Gretsiya va SHvetsiya, shuningdek Yevropa Ittifoqining barcha a'zolari imzolagan.

Korrupsiyaga qarshi kurashda davlatlar guruhlari (GREKO) korrupsiyaga qarshi kurashuvchi Yevropa Kengashi tizimi sifatida 1998-yil tashkil qilingan. Avstriya va Italiyadan tashqari barcha Yevropa Ittifoqi davlatlari GREKO faoliyatida ishtirok etadi. GREKOning vazifalariga Yevropa Kengashining ikkita konvensiyasini davlatlar tomonidan bajarilishini nazorat qilish, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Yevropa Kengashining 20 ta printsipiga rioya qilinishini kuzatib borish kiradi. GREKO a'zo davlatlari bir necha vakillari yig'ilib, GREKO doirasida amalga oshiriladigan ishlarni muhokama qilib, mavjud muammolarni hal qilish bo'yicha choralar ko'rib kelmoqdalar.

Evropa Ittifoqi va Yevropa Kengashi o’rtasida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha texnik hamkorlik mavjud. Yevropa ittifoqi iqtisodiy jinoyatlar bilan qarshi kurash bo'yicha qo'shma loyihamalarini moliyalash uchun yirik mablag'lar ajratib keladi. 1996 yil Yevropa komissiyasi va Yevropa kengashi OKTOPES (OCTOPUS) qo'shma loyihasini boshlashdi, uning maqsadi SHarqiy Yevropa davlatlarida korrupsiyaga qarshi kurash hisoblanadi. Yevropa Kengashi hozirgi vaqtda yilliy konferentsiyalar shaklida o'z loyihamalarini davom qildirmoqda. SHuningdek, Rossiya, Ukraina, janubiy Kavkazda qo'shma loyihamarni moliyalashtirdi. Korrupsiyaga qarshi kurash SHanhay hamkorlik tashkiloti va Mustaqil davlatlar hamdo'stligi doirasida ham olib boriladi. 2001 yil 14-15 iyun' kunlari SHanxayda oltita davlat – Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston rahbarlari uchrashuvida "SHanxay hamkorlik tashkilotini tuzish to'g'risida"gi Deklaratsiya imzolangan paytdan e'tiboran ushbu tashkilot rasman «SHanxay hamkorlik tashkilot» deb atala boshlandi va O'zbekiston muassis davlatlardan biri hamda teng huquqli a'zo sifatida unga qo'shildi. Tashkilot tuzilganidan keyingi dastlabki kunlardan boshlaboq dunyodagi nufuzli davlatlarning unga qiziqishi yuqori bo'ldi. Bu esa, xalqaro munosabatlarda yangi, nufuzli mintaqaviy tashkilot yuzaga kelganligining dalolati bo'ldi. SHanxay sammiti chog'ida, bugungi kunda nafaqat mintaqamizni, balki butun yer yuzini tashvishga solayotgan xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, separatizm, narkotrafik, noqonuniy qurol-yarog' savdosi kabi tahdidlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun yuqori samarador mexanizmlar ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo'llash tashkilot faoliyatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab olindi. Tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasidagi savdo, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy, tabiat muhofazasi kabi ko'plab sohalardagi munosabatlarni, aloqalarni rivojlantirish masalalari ham e'tibordan chetda qolmadi. Sammit chog'ida "Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida" konvensiya imzolandi. Terrorizm, korrupsiya, uyushgan jinoyatchilik xurujiga qarshi uzlusiz kurashish maqsadida SHHTga a'zo davlatlar tomonidan Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MATT) tashkil etilgan edi. SHHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi

faoliyatining samaradorligini ta'minlash va tashkilotga a'zo davlatlar o'rtaсидаги hamkorlikni muvofiqlashtirish maqsadida SHHT Moskva sammitida tashkilotning ushbu tuzilmasi Ijroiya qo'mitasini Toshkentda joylashtirishga kelishib olindi. SHunga binoan, 2004 yilning 1 yanvaridan boshlab poytaxtimizda ushbu qo'mita faoliyat yuritib kelmoqda.

MDH doirasida korrupsiyani oldini olish, unga qarshi kurashish bo'yicha bir qator xalqaro shartnomalar tuzilgan, mexanizmlar yaratilgan. Bu holatda ham MDH doirasida ko'p tomonlama va ikki tomonlama shartnomalarni alohida ajratib o'rGANISH maqsadga muvofiq.

Korrupsiyaga qarshi kurashga doir mintaqaviy xalqaro shartnomalar ichida 1993 yilgi Jinoyat ishlari, oila va fuqarolik bo'yicha huquqiy munosabatlar va huquqiy yordam to'g'risidagi MDH Konvensiyasi alohida ahamiyatga ega. Konvensiyaga asosan, o'zaro yuridik yordam quyidagi maqsadlarda so'ralishi mumkin: korrupsiya bo'yicha ma'lumotlar, dalillar va ko'rsatmalarni yig'ish uchun sudda ko'rilgan ishlar bilan sudda tanishish uchun, tintuv va qidiruvlar o'tkazish uchun; buyumlar va joylarni tekshirish uchun; ashyoviy buyumlar va axborotlarni berish uchun; ma'lum hujjat va materiallarni, jumladan bank, moliya, firma yoki tijorat hujjatlarining tasdiqlangan nusxasini yoki aslini to'plab berish uchun; daromadlarni, mulkni, vositalarni yoki boshqa buyumlarni isbotlash uchun aniqlash yoki belgilab berish uchun. Tomonlar bir-biriga so'rovchi tomonlar qonunchiligi ruxsat beradigan har qanday shakldagi o'zaro yuridik yordamni berishi mumkin. Tomonlar iltimosiga ularning qonunchiliga va amaliyoti doirasida shaxslarni, jumladan, qamoqda saqlanayotganlarni ham sud ishlarida ishtiroy etishi yoki tergovchi yordam ko'rsatishga rozi bo'lgan shaxslarni ishini yengillashtiradi yoki rag'batlanadiradi. Tomonlar bank sirini bahona qilib, huquqiy yordam berishdan bosh tortishga haqli emas. Konvensiya guvohlarning, ekspertlarning yoki boshqa shaxslarning jinoyat ishi yoki sudda ko'rsatma berayotgan vaqtida ularning shaxsiy xavfsizligi kafolatini, jinoyat ishi materiallarini o'zaro berish imkoniyatlarini, iltimoslarini amalga oshirish bo'yicha hosil bo'lgan xarajatlarni undirish tartibini va o'zaro yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha ikki tomonlama va

ko'p tomonlama bitimlar yoki shartnomalar tuzish imkoniyatini nazarda tutadi. 1993 yili 24 sentabrda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi hududida uyushgan jinoyatchilikka va jinoyatlarning xavfli turlari hamda korrupsiyaga qarshi kurash Byurosi tuzilib, bu haqda Nizom qabul qilindi. Nizomga muvofiq, Byuro tuzildi. SHuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida, ularning ichki ishlar vazirliklari bilan quyidagi bitimlar tuzildi: axborot almashish sohasidagi o'zaro munosabatlar to'g'risidagi 1992 yilgi Kelishuv, 1992 yilgi maxsus texnik buyumlar va moddiy texnik vositalar bilan ta'minlash sohasi bo'yicha hamkorlik to'g'risida, 1992 yilgi giyohvandlik moddalari va psixotrop vositalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda hamkorlik qilish to'g'risida, 1993 yilgi operativ va xizmat faoliyatini kriminalistik va texnik ta'minlash bo'yicha hamkorlik to'g'risida, 1993 yilgi yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasida hamkorlik to'g'risida, voyaga yetmaganlarni yashash davlatiga qaytarish masalalari bo'yicha hamkorlik to'g'risida, 1994 yilgi Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi hamkorlik to'g'risida, 1994 yilgi qamoqqa olingan shaxslarni ushlab berish va uni tashish tartibi to'g'risida, 1995 yilgi Transportdagि jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida hamkorlik to'g'risidagi va boshqa bitimlar. Korrupsiyaga qarshi kurashda davlatlar o'rtasida o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish buyicha imzolangan ikki tomonlanma shartnomalarning o'rni katta. Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning mustaqil va teng huquqli sub'ekti sifatida bugungi kunda ko'plab qo'shni davlatlar bilan mazkur masalaga taaluqli ikki tomonlama shartnomalar imzolagan. Jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam alohida davlatlar o'rtasida tuziladigan ikki tomonlama shartnomalar bilan ham tartibga solinadi, bular asosan jinoyat, fuqaroviy va oilaviy ishlarni huquqiy munosabatga solib turadigan va huquqbuzarni ushlab berish muammosiga maxsus bag'ishlanib tuziladigan huquqiy yordam to'g'risidagi shartnomalardir. Umuman olganda korrupsiyaga qarshi kurashda mintaqaviy hamkorlikni izchil olib borish, har bir davlat manfaatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Korrupsiya bir necha davlat hududini kesib o'tishni inobatga olib, davlatlar bu boradagi harakatlarini birlashtirishi lozim. Ayniqsa, korrupsiya jinoyatlarini sodir qilib, keyinchalik chet

davlat hududiga o'tib ketgan jinoyatchilarni topishda, pul mablag'larini qaytarishda davlatlararo hamkorlik muhim o'rinni tutadi.

**Transparency International nodavlat tashkilotining tashkil etilish tarixi va vazifalari.** Transparency International (TI) tashkiloti 1993-yilda tashkil etilgan nemis nodavlat tashkiloti hisoblanib Berlinda tashkil etilgan. Uning notijorat tashkilot maqsadi korrupsiyaga global kurashish uchun harakat qilishdir.

Uning vazifalari fuqarolik jamiyati bilan korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari va jinoiy harakatlarning oldini olish, korrupsiyadan kelib chiqadigan jinoyatlarni aniqlash va uni oldini olishdir. Uning eng taniqli nashrlariga quyidagilar kiradi: Global korruptsiya barometri va Korruptsiyani qabul qilish indeksi. Transparency International Germaniyada ro'yxatdan o'tgan ixtiyoriy birlashmaning huquqiy maqomiga ega (Eeregetragener Verein ) tashkilot sifatida xizmat qiladi. Uning a'zolari bir necha kishidan o'z mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bilan shug'ullanadigan 100 dan ortiq milliy boblarga yetishdilar.

Korrupsiyaga qarshi kurashda nohukumat xalqaro tashkilotlar ichida Transperensi Interneyshnl (**Transparency International**) mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar faoliyatida bu illatga qarshi kurash borasida qator ishlarni amalga oshirib kelmoqda. U 1993 yilda tashkil etilgan bo'lib, shtab-kvartirasi Berlinda joylashgan. Tashkilotning asoschisi va raisi sobiq Jahon banki rahbariyatida faoliyat ko'rsatgan Peter Aygen hisoblanadi. Peter Aygenning ilgari bunday yirik moliyaviy tashkilotda faoliyat yuritgani Transperensi Interneyshnlning dunyodagi mamlakatlarning korrupsiyalashganlik darajasini aniqlashda va korrupsiya fenomeniga qarshi chiqishida o'ziga xos turki bo'lган, deyish mumkin. Transperensi Interneyshnl tashkiloti ko'pchilik tadqiqotchilar va xalqaro tashkilotlar rahbarlarining fikricha, korrupsiya sohasida ancha obro'li ekspert tashkilot sanaladi. Tashkilot bir necha yildirki, dunyodagi mamlakatlarning korrupsiyalashganligini monitoring qilib boradi. Monitoring natijalariga ko'ra, Transparency International har yili korrupsiya indeksi deb nomlangan mamlakatlarning korrupsiyalashganligi darajasini aks ettiruvchi o'ziga xos reytingni nashr etadi. Bundan tashqari, Transperensi Interneyshnl korrupsiyaga

qarshi kurash jabhasidagi ilgor tajribalarni keng yoyish bilan ham shugullanadi. Ko'pchilik ekspertlarning tan olishicha, ushbu tashkilot tomonidan e'lon qilinayotgan korrupsiya indeksi u yoki bu jamiyatning qanchalik «ifloslanganligini» aks ettiradi. Tashkilot biror bir mamlakatning korrupsiya indeksini aniqlash uchun, avvalo mamlakatdagi korrupsiyalashganlik haqida keng va ishonchli ma'lumotlar to'playdi. Ma'lumotlar bir necha manbalardan olingandan so'ng taxdil etiladi.

Jahon bankini dunyoda mamlakatlarning korrupsiyalashishiga qarshi yirik moliyaviy tashkilot sifatida baholash mumkin. Mamlakatlar bilan aloqalarida ularning korrupsiyalashmaganligiga jiddiy e'tibor beradi. Kredit olish uchun unga murojaat etgaya davlatlar korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borayotgan bo'lsalar va olingan kredit pullarini maqsadga muvofiq ravishda ishlatish, mansabdor shaxslarning o'z manfaatlari yo'lida ishlatmasligiga kafolat bera olsalar va bunga bankni ishontira olsalargina kredit olishga erishadilar. SHu bilan birga, Jahon banki bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlar hukumatlarining korrupsiyaga qarshi kurash dasturlarini ishlab chiqishiga va bu borada olib borayotgan siyosatlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga moliyaviy yordam bermoqda. Hozirgacha ko'pchilik rivojlanayotgan davlatlar, xususan, sobiq sotsialistik tuzum ostida bo'lgan mamlakatlarda Jahon banki ko'magi ostida korrupsiyaga qarshi kurash dasturlari amalga oshirilmoqda.

Jahon banki rahbariyati tomonidan iqtisodiyoti o'tish davridagi mamlakatlar uchun kompleks taraqqiyot Kontsepsiysi ishlab chiqilgan bo'lib, uning maqsadlaridan biri sifatida korrupsiyaga qarshi shafqatsiz kurash belgilangan edi. Kompleks taraqqiyot kontsepsiyasining maqsadlari quyidagilardir: a) mansabdor shaxslari tegishli tayyorgarlikka ega va yetarli darajada ish haqi oluvchi, yaxshi tashkil etilgan va tuzilgan hukumat; b) aniq qonunchilik va hamma uchun tushunarli bo'lgan tartibga soluvchi tizim; v) korrupsiyaga qarshi shafqatsiz kurash; g) samarali huquqiy va sud tizimi; d) to'g'ri tashkil etilgan va tartibga solib turiladigan moliyaviy tizim, shuningdek umummaqbul ijtimoiy ta'minot tizimi. (Jeyms Vulfenson «Transformatsiya» Iyun 1999, №3).

Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqoridagi tashkilotlar va boshqa kungina xalqaro nohukumat tashkilotlar ham korrupsiyaning salbiy oqibatlari to'grisida tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqdalar. Xalqaro tashkilotlar ko'magida MDH davlatlaridan Rossiya, Ozarbayjon, Gruziya va Armaniston davlatlarida korrupsiyaga qarshi yo'naltirilgan turli loyihalar, dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotda qo'llanilayapti.

Umuminsoniy illat hisoblangan korrupsiya milliy xavfsizlik doirasidan chiqib, global xavfsizlikka ham o'z tahdidini namoyon etayotgan hozirgi davrda unga qarshi kurashishga xalqaro tashkilotlarning kirishishi ham ob'ektiv zaruriyat, ham globallashuv jarayonining o'ziga xos ko'rinishidir.

Evropa Kengashi 1949-yil 5-mayda tashkil qilingan bo'lib, 47 davlatni o'z ichiga olgan. U umumi yevropa masalalarini muhokama qilish bo'yicha forum hisoblanadi. Uning ustavi a'zo davlatlar o'rtasida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni qo'llab quvvatlash, hamkorlikni takomillashtirish masalalarini qamrab olgan.

Evropa Kengashining korrupsiyaga qarshi siyosatini amalga oshirishda ikkita konvensiya alohida o'rinn tutadi: Korrupsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik to'g'risidagi konvensiya va Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi konvensiya. Ikkala konvensiya ham 1999 yil qabul qilingan. Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi konvensiya 1999 yil 27 yanvarda, unga qo'shimacha protokol 1999 yil 15 may qabul qilindi. Bu konvensiya OESR konvensiyasidan farq qilgan holda, xorijiy mansabdor shaxslarning passiv poraxo'rlicha uchun jinoiy ta'qib qilish, xususiy sektorda ham poraxo'rlikka qarshi kurashishi masalalarini ham o'z ichiga olgan.

Bu bilan bog'liq ravishda yana quyidagilarni keltirish mumkin: agar xalqaro huquq normalari milliy jinoyat huquqi normalari printsiplari bilan mos kelmasa, milliy jinoyat huquqi normalarini xorijiy mansabdor shaxslarga nisbatan tadbiq qilish mumkin emas. Ko'rinish turibdiki, yuqoridagi konvensiyaga muvofiq, birinchi navbatda xalqaro huquq normalarini e'tiborga olgan holda milliy jinoyat huquqi normalarini qo'llash mumkin.

Konvensiyani ratifikatsiya qilish korrupsiyaga qarshi kurashda bir qator majburiyatlarni ma'muriy organlarga yuklaydi, xususiy sektorda va milliy miqyosida bajarilishi lozimligini ko'rsatadi.

**"Korrupsiyani idrok etish indeksi"ning mazmuni va ahamiyati.** Korrupsiyani idrok etish indeksi (CPI) „mutaxassislar baholashlari va fikr so'rovlari asosida aniqlangan davlat sektoridagi korrupsiya darajasi bo'yicha“ mamlakatlar reytingini belgilovchi indeksdir. CPI odatda korrupsiyani „shaxsiy manfaatlar uchun ishonib topshirilgan vakolatni suiiste'mol qilish“ deb ta'riflaydi[3]. Indeks 1995-yildan beri Transparency International nohukumat tashkiloti tomonidan har yili chop etiladi.

2022-yil yanvar oyida chop etilgan 2021-yilgi CPI 2020-yil 1-maydan 2021-yil 30-aprelgacha bo'lган vaqt oralig'idagi vaziyat asosida 180 ta davlatga „100 (juda toza) dan 0 (o'ta korrupsiyalashgan) shkalasi bo'yicha“ o'rin berib chiqqan. Daniya, Yangi Zelandiya, Finlandiya, Singapur hamda Shvetsiya dunyodagi eng kam korrupsiyaga uchragan davlatlar sifatida qabul qilinadi va xalqaro moliyaviy shaffoflik reytingida doimiy ravishda yuqori o'rinlarda turadi, eng yuqori korrupsiyaga uchragan davlatlar esa Suriya, Somali (ikkalasi 13 ball) va Janubiy Sudandir (11 ball).

### **Yo'nalishlari: Siyosiy korrupsiya**

Anti-korrupsiya	Ta'sir qilish savdosi
Poraxo'rlik	Kleptokratiya
Kronizm	Mafiya davlati
Korrupsion iqtisodiyot	Nepotizm
Saylovdagi firibgarlik	Soxta fond
Elita qo'lga olish	Simoniya

Transparency International Passau universiteti Johann Graf Lambsdorffga CPIni ishlab chiqarishni topshirdi. 2012-yilgi CPI 12 ta turli institutlarning 16 ta so'rovlari va baholashlarini o'z ichiga oladi[8]. 13 ta so'rovlari/baholar ishbilarmonlar fikri so'rovi yoki bir guruh tahlilchilarning

baholashlari bo'yicha olib borilgan[3]. Dastlabki CPIlar jamoatchilik fikrini o'rganishdan foydalanib belgilangan[9]. Muassasalar:

- Afrika taraqqiyot banki (Kot-d'Ivuarda joylashgan)
- Bertelsmann jamg'armasi (Germaniyada joylashgan)
- Economist Intelligence Unit (Buyuk Britaniyada joylashgan)
- Freedom House (AQShda joylashgan)
- Global Insight (dunyoda asoslangan)
- Xalqaro menejmentni rivojlantirish instituti (Shveysariyada joylashgan)
- Siyosiy va iqtisodiy tavakkalchilik bo'yicha maslahat xizmati (Gonkongda joylashgan)
- PRS Group, Inc., (AQShda joylashgan)
- Jalon iqtisodiy forumi
- Jalon banki
- Jalon adolat loyihasi (AQShda joylashgan)

CPIda qatnashish uchun mamlakatlar kamida uchta manba tomonidan baholanishi kerak. CPI korrupsiyaning mutlaq darajasini o'lhash qiyinligi sababli korrupsiyani qabul qilish haqidagi fikrlarga tayanib uni ishlab chiqadi.

2002-yilda chop etilgan tadqiqot korrupsiyani idrok etish indeksi va korrupsiyaning boshqa ikkita ishonchli vakili: qora bozor faoliyati va tartibga solishning yuqoriligi o'rtaida „juda kuchli muhim korrelyatsiya“ borligini aniqladi.

Har uchala ko'rsatkich ham aholi jon boshiga real yalpi ichki mahsulot (RYaIM/Ah) bilan juda muhim korrelyatsiyaga ega edi; Korrupsiyani idrok etish indeksining RYaIM/Ah bilan bog'liqligi eng kuchlisi edi.

Global taraqqiyot markazidan Alex Cobham 2013-yilda korrupsiyani idrok etish indeksini nashr etuvchi Transparency International tashkilotining „ko'plab xodimlari va bo'limlari“ indeks bilan bog'liq xavotirlarga „ichki norozilik“ bildirishini ma'lum qildi. Indeksning asl yaratuvchisi Johann Graf Lambsdorff 2009-yilda indeks ustida ishlashdan voz kechib: „1995-yilda men korrupsiyani idrok etish indeksini ixtiro qildim va o'shandan beri uni tuzib kelmoqdaman, bu

esa TIni xalqaro e'tibor markaziga qo'ygan. 2009-yil avgust oyida men TI boshqaruvchi direktori Cobus de Swardtga korrupsiyani idrok etish indeksini o'tkazishga endi tayyor emasligim haqida xabar berdim“, — deydi.

2007- va 2008-yillarda chop etilgan ilmiy maqolalar CPI tomonidan belgilangan korrupsiyani idrok etishning iqtisodiy oqibatlarini o'rganib chiqdi. Tadqiqotchilar yuqori CPI va yuqori uzoq muddatli iqtisodiy o'sish o'rtaсидagi bog'liqliknii, shuningdek, mamlakatning CPI ballidagi har bir birlik o'sishi uchun YaIM darajasining 1,7 % ga o'sishi kerakligini aniqladilar. Bundan tashqari, yuqori CPI ballini mamlakatdagi xorijiy investitsiyalarning yuqori sur'atlari bilan bog'laydigan hokimiyat qonuniga bog'liqligi ham ko'rsatilgan.

Indeks o'tmishda uslubiy jihatdan tanqid qilingan, ya'ni uning metodologiyasi so'roq ostida qolgan.

Siyosatshunos Den Houghning fikricha, indeksdagi uchta kamchilikka quyidagilar kiradi:

- Korrupsiya juda murakkab tushuncha bo'lib, uni bitta ball bilan tushunish mumkin emas. Masalan, Kanzas qishloqlaridagi korrupsiya tabiatini Nyu-York shahar ma'muriyatidagidan farq qiladi, ammo indeks ularni bir xil o'lchaydi.
- Korrupsiyaning o'zidan farqli o'laroq, korrupsiya haqidagi tasavvurlarni o'lchash orqali indeks mavjud stereotiplarni kuchaytirishi mumkin.
- Indeks faqat xususiy sektorni hisobga olmasdan, davlat sektoridagi korrupsiyani o'lchaydi. Bu esa Libor janjali yoki VW emissiya janjali kabi korruption harakatlar hisoblanmasligini anglatadi.

Ommaviy axborot vositalari ko'pincha raqamlar nimani anglatishini aniqlamay turib, hukumat faoliyatining mezoni sifatida xom raqamlardan foydalanadilar. Bangladeshdagi mahalliy Transparency International bo'limi metodologiyaning o'zgarishi mamlakat ballarining oshishiga olib kelganidan keyin indeks natijalarini rad etdi; OAV buni „yaxshilanish“ deb xabar qildi.

2013-yilda *Foreign Policy* jurnalida chop etilgan maqolada Alex Cobham Transparency International manfaati uchun CPI ni olib tashlashni taklif qilgan. Uning ta'kidlashicha, CPI kuchli va noto'g'ri elitaning korrupsiya haqidagi

ommabop qarashlarini o‘z ichiga oladi, bu yovuz siklga hissa qo‘sishishi va shu bilan birga nomaqbul siyosat javoblarini rag‘batlantirishi mumkin. Cobhem shunday deb yozadi: „indeks idroklarni shu darajada buzadiki, natijada buning asosini ko‘rish qiyinlashadi“.

Korrupsiya darajasi bo‘yicha tabiiy eksperimentlarning mavjudligidan foydalangan va CPIni boshqa subyektiv ko‘rsatkichlar bilan taqqoslagan so‘nggi ekonometrik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, CPI mukammal bo‘lmasa-da, korrupsiyaning bir o‘lchovli shkalasiga mos keladi.

Qo‘shma Shtatlarda ko‘plab advokatlar turli davlatlarda xorijiy korrupsiya amaliyoti qonunining buzilishi xavfini o‘lchashga urinayotgan xalqaro biznes yurituvchilarga CPI bilan maslahatlashishni maslahat berishadi. Ushbu amaliyot *Minnesota Journal of International Law* tomonidan tanqid qilindi, u CPI idrok etishda noto‘g‘ri munosabatda bo‘lishi mumkinligi sababli, advokatlar tomonidan haqiqiy milliy korrupsiya xavfining o‘lchovi sifatida ko‘rilmasligi kerakligini yozgan.

Transparency International, shuningdek, qudratli elitaning jiddiy tarafkashligi uchun tanqid ostiga olingan ekspert xulosalari o‘rniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘rovlar yordamida mamlakatlarni korrupsiya darajasi bo‘yicha tartiblovchi „Global korrupsiya barometri“ni nashr etadi.

Transparency International xalqaro miqyosda CPI balli toza bo‘lgan mamlakat hali ham korrupsiya bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligi haqida ogohlantirdi. Masalan, Shvetsiya 2015-yilda CPI bo‘yicha 3-eng yaxshi ballga ega bo‘lgan bo‘lsa, uning davlat kompaniyalaridan biri TeliaSonera O‘zbekistonda poraxo‘rlik ayblovlariga duch kelgan.

Shuni ta’kidlash joizki, 2012-yildan boshlab Belorussiya, Qиргизистон va O‘zbekiston Respublikasi «Korrupsiyani tasavvur qilish» indeksi bo‘yicha o‘z pog‘onalarini sezilarli darajada yaxshilab kelmoqda.

«Transparency International» tashkilotining 2019-yil hisobotiga ko‘ra, quyidagi davlatlarda korrupsiya hodisasi deyarli kuzatilmayotganligi aniqlangan: 87 balldan to‘plashga erishgan Daniya va Yangi Zelandiya 1-o‘rin, 86 ball bilan

Finlyandiya 3 o‘rin, 85 balldan to‘plashgan Singapur, Shvetsiya va Shveysariya 4-o‘rinni egallab, ijobiy natija ko‘rsatgan.

“Korrupsiyani tasavvur qilish” indeksi 1995-yildan boshlab dunyoning barcha mamlakatlarida davlat sektorida korrupsiya darajasini aniqlash bo‘yicha ekspertlar va tadbirkorlar baholari asosida 0 (eng yuqori) 100 (eng past) shkala bo‘yicha baholanadi. Shuningdek, ushbu indeks Jahon banki, «World Justice Project», Afrika taraqqiyot banki, «Economist Intelligence Unit» va boshqa mustaqil va taniqli institutlar tomonidan ishlab chiqariladigan korrupsiyaga oid ma’lumotlarining turli manbalarini yig‘ish orqali baholanadi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Yurtimizda korrupsiyaga qarshi qanday ishlar olib borilmoqda?
  2. Korrupsiyani vujudga keltiruvchi sabablar qaysilar?
  3. Yurtimizda korrupsiyaga qarshi qanday ishlar olib borilmoqda?
  4. Jinoiy moyillikni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar qaysilar?
- Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish o‘z ichiga nimalarni oladi?

### **Testlar:**

1. BMTning Rivojlanish Dasturi nazariy tahliliga ko‘ra korrupsiyani vujudga kelishida qanday omillar muhim ro’l o‘ynagan?
  - A) Vakolat, hokimyat
  - B) O’zboshimchalik va shaxsiy manfaat
  - V) Hisobdorsizlik va oshkorasizlik, o’zboshimchalik va shaxsiy manfaat, vakolat va hokimyat
  - G) To’g’ri javob berilmagan
2. Ilmiy adabiyotlarda korrupsiyani vujudga keltiruvchi umumiyl sabablar nechta?
  - A) 4ta
  - B) 7ta

V) 8ta

G) 10ta

3. Korrupsiyani vujudga keltiruvchi eng muhim omil qaysi?

- A) Normativ huquqiy bazani nuqsonlari
- B) Hokimiyat institutlari tizimining nuqsonlari mavjudligi
- V) Demokratik an'analar chuqur anglanmaganligi
- G) Hokimiyat Institutlari tizimining nuqsonlari mavjudligi

4. BMTning “Korrupsiyaga qarshi” konvensiyasi nechanchi yilda kuchga kirdi?

- A) 2001-yil mart oyida
- B) 2005-yil dekabr oyida
- V) 2004-yil iyul oyida
- G) 2000-yil oktabr oyida

5. “Korrupsiyaga qarshi” xalqaro huquqiy hujjatga nechta davlat qo’shildi?

- A) 140 davlat
- B) 100 davlat
- V) 150 davlat
- G) 100dan ortiq bo’lmagan davlatlar

6. Osiyo va Tinch okeani hududidagi 21 davlat nechanchi yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tasviriy xarakterga ega bo'lgan fakt ni qabul qilganlar?

- A) 2003-yil
- B) 2004-yil
- V) 2003-2004-yillar oraliq'ida
- G) To'g'ri javob yo'q

7. Jinoyatchilik determinatsiyasining maxsus jarayonlari asosan nimalar bilan bog'liq?

- A) asosan pul muomalasi bilan bog'liq
- B) mansab yoki boshqa xizmatlar
- C) pora yoki qo'shimcha haq undirilishi
- D) jinoyatlarning sabablarini va uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar bilan bog'liq

8. Ijtimoiy nazorat qanday xususiyatga ega bo'lishi kerak?

A) rag'batlantiruvchi

B) ta'kidlovchi

C) ogohlantiruvchi

D) ruhlantiruvchi

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. „Corruption Perception Index“. *transparency.org*. Qaraldi: 28-yanvar 2020-yil.
2. ↑ *Transparency International*. „Corruption Perceptions Index“. *Transparency International*. Transparency International (2011). 13-dekabr 2011-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 1-dekabr 2011-yil.
3. ↑ <sup>Jump up to:3,0 3,1</sup> CPI 2010: Long methodological brief, p. 2
4. ↑ „1995 - CPI“ (inglizcha). *Transparency.org*. Qaraldi: 7-iyul 2022-yil.
5. ↑ „Corruption Perceptions Index 2021“. *Transparency International*.
6. ↑ „CPI 2021“. Transparency International. Qaraldi: 25-yanvar 2022-yil.
7. ↑ „Frequently Asked Questions: TI Corruption Perceptions Index (CPI 2005)“. Qaraldi: 22-noyabr 2005-yil.
8. ↑ CPI 2010: Long methodological brief, p. 1
9. ↑ <sup>Jump up to:9,0 9,1</sup> CPI 2010: Long methodological brief, p. 7
- 10.↑ Transparency International (2010). Corruption Perceptions Index 2010: Sources of information (Report). Transparency International. Archived from the original on 3-dekabr 2010-yil. Qaraldi: 24-avgust 2011-yil.
- 11.↑ *Transparency International*. „Frequently asked questions (FAQs)“. *Corruption Perceptions Index 2010*. Transparency International (2010). 2-sentabr 2011-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 24-avgust 2011-yil.
- 12.↑ *Wilhelm, Paul G. (2002)*. „International Validation of the Corruption Perceptions Index: Implications for Business Ethics and Entrepreneurship Education“. *Journal of Business Ethics*. 35-jild, № 3. Springer Netherlands. 177–189-bet. doi:10.1023/A:1013882225402.
- 13.↑ *Cobham*. „Corrupting Perceptions: Why Transparency International's Flagship Corruption Index Falls Short“. [www.cgdev.org](http://www.cgdev.org) (23-iyul 2013-yil).
- 14.↑ *Shao, J.; Ivanov, P. C.; Podobnik, B.; Stanley, H. E. (2007)*. „Quantitative relations between corruption and economic factors“. *The European Physical*

- Journal* B. 56-jild, № 2. 157-  
*bet. arXiv:0705.0161. Bibcode:2007EPJB...56..157S. doi:10.1140/epjb/e2007-00098-2.*
- 15.↑ *Podobnik, B.; Shao, J.; Njavro, D.; Ivanov, P. C.; Stanley, H. E. (2008). „Influence of corruption on economic growth rate and foreign investment“. The European Physical Journal B.* 63-jild, № 4. 547-  
*bet. arXiv:0710.1995. Bibcode:2008EPJB...63..547P. doi:10.1140/epjb/e2008-00210-2.*
- 16.↑ „Corruption Perceptions Index (latest)“. Transparency International. Qaraldi: 25-yanvar 2022-yil.
- 17.↑ „CPI 2020“. Transparency International. Qaraldi: 28-yanvar 2021-yil.
- 18.↑ „CPI 2019“. Transparency International. Qaraldi: 24-yanvar 2020-yil.
- 19.↑ „CPI 2018“. Transparency International. Qaraldi: 29-yanvar 2017-yil.
- 20.↑ „CPI 2017“. Transparency International. Qaraldi: 29-yanvar 2017-yil.
- 21.↑ „CPI 2016“. Transparency International. Qaraldi: 29-yanvar 2017-yil.
- 22.↑ „CPI 2015“. Transparency International. Qaraldi: 28-yanvar 2016-yil.
- 23.↑ „CPI 2014“. Transparency International. Qaraldi: 16-dekabr 2014-yil.
- 24.↑ „CPI 2013“. Transparency International. Qaraldi: 16-dekabr 2014-yil.
- 25.↑ „CPI 2012“. Transparency International. Qaraldi: 16-dekabr 2014-yil.
- 26.↑ „Transparency International's Corruption Perceptions Index: Whose Perceptions Are They Anyway?“ (2005). 19-aprel 2020-yilda asl nusxadan arxivlandi.
- 27.↑ *Hough, Dan. „Here's this year's (flawed) Corruption Perception Index. Those flaws are useful.“ (inglizcha). The Washington Post* (27-yanvar 2016-yil). Qaraldi: 27-yanvar 2016-yil.
- 28.↑ *Werve, Jonathan. „TI's Index: Local Chapter Not Having It“. Global Integrity* (23-sentabr 2008-yil).
- 29.↑ <sup>Jump up to:29,0 29,1</sup> *Cobham, Alex (22-iyul 2013–yil). „Corrupting Perceptions“. Foreign Policy.* 2014-12-04da asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 2022-11-04.

- 30.↑ Hamilton. „Can We Measure the Power of the Grabbing Hand? A Comparative Analysis of Different Indicators of Corruption“. *World Bank Policy Research Working Paper Series* (2017).
- 31.↑ Campbell, Stuart Vincent. „Perception is Not Reality: The FCPA, Brazil, and the Mismeasurement of Corruption“ *22 Minnesota Journal of International Law* 1, p. 247 (2013).
- 32.↑ CPI index 2015. Accessed 3 February 2016.

### **Internet saytlari va havolalari:**

1. [WWW.transparency.org](http://WWW.transparency.org)
2. [Edutube.org](http://Edutube.org)
3. [Web.archive.org/web/201108224015019/www.beta.undp.org](http://Web.archive.org/web/201108224015019/www.beta.undp.org) (Korrupsiyani o‘lchash bo‘yicha foydalanuvchi qo‘llanmasi CPI va shunga o‘xshash indekslarni tanqid qiladi)
5. [Report.globalintegrity.org](http://Report.globalintegrity.org) (Global yaxlitlik indeksi)
6. [www.nonaa.org](http://www.nonaa.org) (Global rivojlanish indekslari va reytinglari ro‘yxati)

## **8-Mavzu: Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish.**

### **Reja:**

1. Halollik vaksinasi va korrupsiya ko‘rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.
2. Korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish.
3. Davlat organlari faoliyati ochiqligini ta’minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish ahamiyati.

**Tayanch so’z va iboralar:** Halollik vaksinasi, korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabat, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillar, korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlari, davlat organlari faoliyati ochiqligini ta’minlash.

**Halollik vaksinasi va korrupsiya ko‘rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.** Bugungi kunda mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashish izchillik bilan olib borilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston 2008-yilda Korruptsiyaga qarshi konventsiyaga, 2010-yilda Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti doirasida qabul qilingan Korruptsiyaga qarshi kurashning Istanbul rejasiga qo’shilganligini ta’kidlab o’tmoq joiz. Shuningdek, Oliy Majlis tomonidan 2011-yilda Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha Yevroosiyo guruhi to’g’risidagi bitim ratifikatsiya qilingan.

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida”gi Qonunining qabul qilinishi, shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Respublika idoralararo komissiyasining tashkil etilishi va bu yo’nalishda Davlat dasturlarining qabul qilinganligi yurtimizda korrupsiya bilan bog’liq xuquqbazarliklarning oldini olishga qaratilgan qator chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga xizmat qilib kelmoqda.

“Ushbu sa'yi-harakatlar natijasida 2013—2020-yillar oralig'ida mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlar 43 foizga kamaydi,” deya ta'kidlab o'tdi ekspert Bahodir Ismoilov. Mansabdor shaxslarga cheklanmagan diskretsion vakolatlarning berilishi, jumladan, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishdagi kamchiliklar, tarbiyaviy ishlardagi nuqsonlar, zamonaviy fan, texnika va texnologiyalarning joriy etilmaganligi kabi qator omillar korruptsiyaviy jinoyatlarning sodir etilishiga sharoit yaratib beradi, deyildi mashg'ulotda. Bu kabi xolatlar esa davlat, jamiyat va fuqarolarning manfaatlariga katta zarar etkazadi, sog'lom raqobatga to'sqinlik qilib, halol ishbilarmonlik muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, xufiyona iqtisodiyotni rivojlantiradi.

Korrupsianing oldini olish uchun mansabdor shaxslarning asoslanmagan diskretsion vakolatlarini cheklash, dahlsizlik immunitetlaridan voz kechish, ichki nazorat tizimlarini takomillashtirish, davlat tashkilotlari faoliyatining shaffofligini ta'minlash lozimligi ta'kidlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2021 yildagi PF-6257-sonli “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida mamlakatimizda demokratik islohotlarni ishlab chiqishda davom etish va jamiyatga tadbiq qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga, erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirishda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish orqali korrupsiyaga qarshi kurashish bosh maqsad qilib belgilangan bo'lib, bu farmon ijrosini ta'minlash bo'yicha bosh vazir A. Aripov va Prezident Adminstratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov mas'ul etib tayinlandilar.

Mamlakatimizda korruksianing oldini olish va unga qarshi murosasiz kurashishning ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan tizimini joriy etish bo‘yicha izchil choralar ko‘rilmoxda.

Jumladan, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkoraliq va shaffoflikni ta'minlash hamda mansabdor shaxslarning aholi

oldidagi hisobdorligini yo‘lga qo‘yish orqali davlat boshqaruvida samarali va ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratildi.

Ilk bor korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va tizimli tahlil qilish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish uchun mas’ul bo‘lgan alohida organ — Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Davlat hokimiyati organlari va yirik xo‘jalik yurituvchi subyektlarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda.

Raqamli texnologiyalar imkoniyatidan keng foydalangan holda transport vositalariga davlat raqam belgilarini berish, notariat va boshqa davlat xizmatlarini ko‘rsatish, yer uchastkalarini ajratish, yo‘l harakati qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish kabi ko‘plab sohalarda korrupsiya va suiiste’molchiliklarning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlar joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, ko‘rيلayotgan tizimli choralarga qaramasdan, budjet mablag‘laridan foydalanish, davlat xaridlari, kapital qurilish, litsenziya va ruxsatnomalarni olish, bank kreditlarini ajratish, ishga qabul qilish kabi yo‘nalishlarda korrupsiya holatlari saqlanib qolmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaviy holatlarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini oshirish, ushbu jarayonga jamoatchilikni keng jalg etish va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini shakllantirish maqsadida farmonda ko‘plab vazifalar belgilab berildi:

—mamlakat rivojlanishining bugungi bosqichida korrupsiya O‘zbekiston davlati va jamiyati taraqqiyoti uchun eng jiddiy xavf-xatarlardan biri ekanligi qayd etish;

—Korruptsiya holatlarining har qanday ko‘rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish va unga qarshi ayovsiz kurashish barcha darajadagi davlat organlari rahbar va xodimlarining eng ustuvor vazifasi etib belgilash;

—Bosh prokuratura, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o‘rninda — Agentlik), Davlat xavfsizlik xizmati va Ichki ishlar vazirligi korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlariga nisbatan javobgarlik muqarrarligini ta’minlash uchun barcha kuch va vositalarni safarbar etishi;

Keng jamoatchilikning fikri va takliflarini inobatga olib, davlat boshqaruvini korrupsiyadan xoli sohaga aylantirish maqsadida:

- a) Agentlik tomonidan “Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestri” (keyingi o‘rinlarda — Reyestr) yuritilishi ta’minlanishi belgilab qo’yildi;
- b) Reyestrga kiritilgan shaxslarga quyidagilar taqiqlanishi aytildi:
  - davlat xizmatiga kirish va davlat mukofotlari bilan taqdirlanishi;
  - saylanadigan va alohida tartibda tayinlanadigan lavozimlarga nomzodlarining ko’rsatilishi;
  - davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari hamda idoralararo kollegial organlarning a’zosi bo‘lish;
  - ular tomonidan ta’sis etilgan va (yoki) ular ishtirokchisi hisoblangan tadbirkorlik subyektlari davlat xaridlarida va davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimda ishtirokchi (ijrochi) sifatida qatnashish, shuningdek, davlat aktivlarini xususiylashtirish bilan bog‘liq tender va tanlov savdolarida ishtirok etish;
  - davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan tashkilotlar hamda davlat ta’lim muassasalarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritish.

Agentlik Bosh prokuratura, Oliy sud, Adliya vazirligi, Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda Reyestrni va u bilan bog‘liq cheklovlarni amaliyotga joriy etishga qaratilgan qonun loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritilishi belgilab qo’yildi.

Yuqoridagi va boshqa shu kabi normalar mamlakatimizda demokratik islohotlarni jadallashtirish, xalq turmush tarzini yaxshilash, erkin va adolatli jamiyat qurishda muhim jihatlarga etibor berishni ko’zda tutadi.

PF-6257-sonli farmon loyihasining ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi raisi T.K. Narbayeva, O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov zimmasiga

yuklanishi va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga har chorak yakuni bo‘yicha axborot berib borilishi belgilab qo‘yildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tomonidan 2019-yil 30-avgustda Oliy ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish va «Korrupsiyasiz soha» loyihasini amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan. Loyihaning maqsadi- tizimda olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga barham berishdan iboratdir.

2020-yil 29-iyun kuni ushbu farmon bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Agentlik korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda maxsus vakolatlari davlat organi hisoblanib, prezidentga bo‘ysunishi va Oliy Majlis palatalari oldida hisobdor bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

Shu bilan birga, iqtisodiyotni yanada o‘sirish, xalq farovonligini oshirish, mamlakatda investisiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minalash hamda korrupsiya ko‘rinishlarining sabab va shartsharoitlarini bartaraf etish bo‘yicha “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldaggi PF-6257- son Farmoni e’lon qilindi.

Yuqorida ma’lumotlar va fikrlardan kelib chiqib, jamiyatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning dolzarb muammolari bo‘yicha quyidagi takliflar berish mumkin:

- jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar oshirish;

- korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish borasida davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institatlari bilan ijtimoiy sheriklik mexanizmlaridan, shu jumladan davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institatlari o‘rtasida kelishuvlar va shartnomalar tuzishni nazarda tutadigan mexanizmlardan keng foydalanish;
- ma’muriy va byurokratik to‘sqliarni bartaraf etish, ro‘yxatga olish, ruxsat etish va lisenziyaga doir tartib-tamoyillarni soddalashtirish hamda ularning tezkorligini oshirish;
- davlat organlarining nazorat-tekshiruv vazifalarini maqbullashtirish, ularning faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashishga yo‘l qo‘ymaslik;
- davlat organlari va tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning masofaviy shakllarini keng joriy etish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari mazmunmohiyatini tushuntirishga qaratilgan axborot ma’lumotlarini tayyorlash va keng tarqatish, shu jumladan mavzuga oid videoroliklar yaratish, bosma materiallarni chop etishni kuchaytirish (plakatlar, risolalar, bukletlar);
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyat natijalarini televiedenie, radio, bosma va elektron OAV orqali, shu jumladan mavzuga bag‘ishlangan dasturlarni, intervyularni, muhokamalarni, press-konferensiyalarini va boshqa tadbirlarni doimiy ravishda tashkil etish;
- davlat organlari xodimlarini, tadbirkorlik sub’ektlarini va boshqa maqsadli guruahlarni jalb qilgan holda korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida o‘quv seminarlari, konferensiyalar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlar o‘tkazish;
- ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot, kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning boshqa sohalarida aholi uchun adolatli shart-sharoitlarni hamda teng imkoniyatlarni yaratish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan idoraviy korrupsiyaga qarshi kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ta’lim bo‘yicha maxsus o‘quv dasturini ishlab chiqishni hamda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliv ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlarida korrupsiyaga qarshi mavzularni yanada kuchaytirishni nazarda tutadigan o‘zgartirish va qo‘srimchalarni davlat ta’lim standartlariga kiritish;
- davlat organlari mutaxassislari va ta’lim muassasalari o‘qituvchilarini o‘qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlash dasturlariga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida maxsus o‘quv dasturlari va mashg‘ulotlarini olib borishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘srimchalarni kiritish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish masalasiga doir o‘quv-metodik va ilmiy adabiyotlarni ishlab chiqish va hokazolar.

Prezidentimizning 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida “Korruptsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a’zolari, ta’bir joiz bo‘lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o‘tishimiz kerak”, deb ta’kidlab o‘tdilar.

Bunday islohotlar natijasi o’laroq 2013—2020-yillar oralig’ida korruptsiyaga oid jinoyatlar 43 foizga kamaydi.

Korruptsiya ildiz otayotgan sohalar, yoshlar ta’lim-tarbiyasida uchrayotgan oqsoqliklar, aholi kambag‘al qatlaming qaddini tiklashiga ko‘maklashish... Yurtboshimiz bu dolzarb masalalarga to‘xtalganda, zalda o‘tirganlar bir-biriga qaradi. Nigoohlardan shuncha dardimiz bor ediyu, ammouni aytishga shu vaqtga qadar hech birimizning jur’atimiz yetmasdi, degan fikrni anglash mumkin edi.

Davlatimiz rahbari bu boradagi ishlar samaradorligini ta’minlashda, turli illatlardan xoli, farovon, odil jamiyatni qurishda eng muhim “richag” — har birimiz o‘zimizni “halollik vaksinasi” bilan emlashimiz kerakligini ta’kidladi.

Darhaqiqat, aynan halollik shu vaqtga qadar millatga azob berib kelayotgan dardlarga malhamdir. Halollik shunday bir sehrli kalitdirki, aynan u

taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lib kelayotgan eshiklarni ochadi. “Halollik vaksinasi” vijdonimizni uyg‘otib, qurum bosgan zehniyatimizni tozalaydi.

Prezidentimiz bildirgan fikrlar, ilgari surgan tashabbus va g‘oyalar madaniyat sohasidagi ishlarning ham, tom ma’noda, yadrosi bo‘la oladi. Masalan, ishga halol yondashish, halol yashash, vijdon amrini hayot tamoyiliga aylantirish borasidagi fikrlarni olaylik. Halollik aslida madaniyat degani-ku! Inson halol bo‘lishi uchun unda, avvalo, ichki madaniyat bo‘lishi zarur.

Korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish. So‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo‘yishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Davlat organlari zimmasidagi vazifa va funksiyalarni bajarishda yuzaga keladigan korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash tizimini takomillashtirish hamda davlat xizmatiga halollik standartlarini joriy etish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatda byurokratik to‘sqliarni bartaraf etish va “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish choralari ko‘rilmoxda hamda “Korrupsiyasiz soha” loyihalari amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini tubdan oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar korrupsiya holatlarining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etishning ta’sirchan tizimini yaratishni taqozo etmoqda. Ushbu ishlarga fuqarolik jamiyati institatlari va nodavlat sektorning boshqa vakillarini ham keng jalb etish zarurati tug‘ilmoqda.

2022-2026 yillarga belgilangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishdagi “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” ham muhim ro’l o‘ynaydi. Avvalgi yillardagi PF 4947-sonli farmon ya’ni “Harakatlar strategiyasi”ning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini izchil ro‘yobga chiqarish, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan davlat

siyosatining samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini tashkil etilgani ham o‘z samarasini berib kelmoqda.

Agentlik esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor tomonidan boshqariladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Agentlik direktorini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod qilish to‘g‘risidagi farmonlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan tasdiqlanishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2021 yildagi PF-6257-sonli farmoni bilan tasdiqlab qo‘yildi.

Farmonda Agentlikning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari belgilab berildi:

- mamlakatda korrupsiya holatini tizimli tahlil qilishni ta’minlash, shuningdek, korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan sohalar hamda korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash;
- korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish;
- fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalariga oid axborotlarni tarqatish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish orqali jamiyatda korrupsiyaning barcha ko‘rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish;
- vazirlik va idoralarning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining ushbu masalalar bo‘yicha birgalikdagi samarali faoliyatini tashkil etish;

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalarini va ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lgan korxonalar, shu jumladan, banklarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplayens-nazorat”) hamda korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa xalqaro vositalarini joriy etish va samarali faoliyat ko‘rsatishini tashkillashtirish, zamonaviy usullar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida korrupsiyaga qarshi monitoring olib borish, shuningdek, ularning mazkur sohadagi faoliyati bo‘yicha reytingini tuzish;
- normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihamini korrupsiyaga qarshi ekspertizasi samaradorligini ta’minalash, shuningdek, korruptsianing oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro standartlarni va ilg‘or xorijiy amaliyotni joriy etish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkini deklaratсиya qilish tizimi joriy etilishi va samarali faoliyat ko‘rsatishini hamda deklaratсиyalarning haqqoniyligi tekshirilishini tashkil etish, shuningdek, ushbu jarayonda aniqlangan korrupsiya holatlariga o‘z vaqtida ta’sir choralarini ko‘rinishini ta’minalash;
- davlat xizmatiga halollik standarti (“halollik vaksinasi”) va manfaatlar to‘qnashuvini hal etish standartlarini joriy etishda ko‘maklashish bo‘yicha ta’sirchan choralarini ko‘rish, shuningdek, ularga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- byudjet mablag‘lari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning qarzlaridan foydalanish, davlat aktivlarini realizatsiya qilish va davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga qarshi nazorat tizimining samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, uni takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;
- korruptsianing oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda mamlakatning imijini mustahkamlash va uning xalqaro reytinglardagi o‘rnini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

-korrupsiyaning holati, tendensiyalari va sabablari hamda korrupsiyaga qarshi choralar ko‘rishning samaradorligi yuzasidan sotsiologik, ilmiy va boshqa tadqiqotlarni tashkil etish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning ta’sirchanligini oshirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

-korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta’minalash, shu maqsadda ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat sektorning boshqa vakillari bilan samarali hamkorlikni amalga oshirish kabi ishlar amalga oshirilishi ko’zda tutildi.

Bunday chora tadbirlar ham mamlakatimizda korruption holatlarni oldini olishda zamonaviy yondashuv va tizimli ishlarni amalga oshirishda yordam beradi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev prezidentliklarining dastlabki yillarda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan Byudjet va Bojxona kodekslari (yangi tahrirda), «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi, «Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida»gi, «Davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida»gi, «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi, «Elektron hukumat to‘g‘risida»gi, «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida»gi qonunlar qabul qilindi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishchanlik muhitini yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar yaratish, ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, davlat xaridlari mexanizmlarini takomillashtirish, davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalarini tasdiqlashga doir bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu o‘rinda prezidentimiz tashabbuslari bilan korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda «Korruptsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni loyihasi ishlab chiqildi va 2017-yil 3-yanvarda O’RQ 419-sonli qonun ishlab chiqildi.

Qonun korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy munosabatlarni to‘liq qonuniy tartibga solishga, davlat organlari, tashkilotlar hamda fuqarolik

jamiyati institutlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga, shuningdek korrupsiyani ijtimoiy hayotning barcha sohalaridan to‘liq bartaraf etishga, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali jamiyatda korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlariga toqat qilmaslik muhitini yaratishga qaratilgan.

Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari hamda bu boradagi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlari, vakolatli organlar tizimi, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning mazkur sohadagi ishtiroki, shuningdek xalqaro hamkorlik mustahkamlab qo‘yilmoqda.

Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashuvchi sub'yeqtarning faoliyati muvofiqlashtirilishini ta'minlash va hamkorligini kuchaytirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasini tuzish va uning tarkibiga tadbirkorlar jamoat birlashmalarining hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining vakillarini kiritish nazarda tutilmoqda.

Shunday qilib, qonunning amalga kiritilishi fuqarolar huquq va erkinliklari himoya qilinishini ta'minlashning qo‘sishimcha huquqiy kafolatlarini yaratdi, xususiy mulk huquqiga g‘ayriqonuniy tajovuzlarni, tadbirkorlik sub'yeqtlarining faoliyatiga asossiz aralashuvlarni cheklashga ko‘maklashdi va natijada ishchanlik faolligi o‘sishiga hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi oshishiga olib keldi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasiga asosan «Korruptsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining muhokamasiga kiritilmoqda.

**Davlat organlari faoliyati ochiqligini ta’minalash, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish ahamiyati.** Birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganidek, "Bugungi kunda faqat iqtisodiyotga emas, balki, eng avvalo, respublikaning siyosiy va xalqaro nufuziga, jamiyatimizning

ma'naviy-axloqiy nufuziga katta zarar yetkazayotgan eng xavfli illat – korrupsiyadir. U ayrim hollarda o‘ta xavfli tusga kirmoqda". Yurtboshimizning yuqoridagi fikrlaridan kelib chiqqan holda har qanday jinoyatchilik ma'lum bir sabab va shart-sharoitlar ta'sirida vujudga keladi. Korrupsiya va uni vujudga keltiruvchi sabablar o‘rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud. Bundan xulosa shuki, birinchidan, korrupsiyani faqat uni vujudga keltiruvchi sabablar va shart-sharoitlarni yechish yo‘li bilan kamaytirish hamda cheklash mumkin; ikkinchidan, bu muammolarni yechishda korrupsiyaga qarshi barcha yo‘nalishlarda qat’iy va murosasiz kurash olib borish samara beradi. Shu o‘rinda ta’kidlash muhimki, har qanday holatda ham korrupsiyadan bevosita jamiyat va insonlar aziyat chekadi, zarar ko‘radi. Shuning uchun ushbu muammo global bo‘lib, unga qarshi kurashning davlatlar o‘rtasida muvofiqlashtirilgan dasturlari va boshqa huquqiy me'yorlari ishlab chiqilganligi bejiz emas.

Bugungi kunda ham mamlakatimizda davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish, uni keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish borasida tizimli choralar ko‘rilmoxda. Xususan, bir qator vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ISO 37001:2016 xalqaro standartiga asosan korrupsiyaga qarshi menejment tizimi joriy etilib, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatlar qabul qilindi. Shu bilan birga, “korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholash mexanizmlari mavjud emasligi sohada amalga oshirilayotgan tadbirlarga yagona mezon asosida xolisona baho berish va ularning natijadorligini yanada oshirishga to‘sqinlik qilmoqda”<sup>6</sup>.

Keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Aholining huquqiy ongi va

---

<sup>6</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 12 январьдаги “Коррупцияга қарши курашиш ишларининг самарадорлигини рейтинг баҳолаш тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-81-сон Қарори

huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli choralar ko‘rildi.

Islohotlarni amalga oshirish doirasida fuqarolarning huquq va manfaatlari himoya qilinishi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligi, jamoat va parlament nazoratini ta’minalash mexanizmlari takomillashtirildi, shuningdek, huquqni muhofaza qilish va sud organlari faoliyatining huquqiy asoslari isloh qilindi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotni yanada o‘sirish, xalq farovonligini oshirish, mamlakatda investisiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minalash hamda korrupsiya ko‘rinishlarining sabab va shartsharoitlarini bartaraf etish bo‘yicha yangi tizimli choralar ko‘rilishini taqozo qilmoqda.<sup>7</sup> Ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasining omil va vositalarini takomillashtirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Shu o‘rinda e’tirof etish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonida xalq bilan ochiq muloqotning mexanizmlarini yanada takomillashtirish, muhim qarorlarni jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda qabul qilish amaliyotini kengaytirish asosiy maqsadlardan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Bunda davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatiga oid samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilash va ularni ilg‘or xalqaro standartlar asosida baholash tizimini joriy etish har bir jabhani oqilona va adolatli boshqaruvini tashkil etishga asos bo‘ladi, aholi orasida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi murosasiz “immun tizimi”ni paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

---

<sup>7</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 майдаги “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомillashtiriш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-5729-сон Фармони.

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash quyidagi beshta yo‘nalish bo‘yicha belgilangan indikatorlar<sup>8</sup> asosida amalga oshiriladi:

birinchidan, davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mexanizm va huquqiy asoslarning yaratilganligi hamda amaliyotga tadbiq etilganligi;

ikkinchidan, korrupsiyaviy xavf-xatarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilganligi;

uchinchidan, davlat tashkilotlari rahbarlarining korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni ko‘rsatuvchi xatti-harakatlarining mavjudligi;

to‘rtinchidan, xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilganligi;

beshinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tegishli soha yoki tarmoq kesimida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlarining samaradorligi.

Fikrimizcha, har bir rahbar o‘zi liderlik qilayotgan jamoada namuna bo‘lishi, bunda xalqimizda “baliq boshidan...” degan iboraga amal qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan bir qancha islohotlarga qaramasdan, ushbu o‘zgarishlarni barcha birdek to‘g‘ri qabul qilib, amalda unumli foydalanib, ishini samarali tashkil qilayotgani yo‘q. Shu jumladan, ba’zi bir rahbarlar tomonidan ham xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilib kelinmoqda. Yetarli tajriba va bilimga ega bo‘lmaganligi, o‘z ustida doimiy ishlamasligi, saviyasining pastligi kabi sabablarga ko‘ra o‘zi rahbarlik qilayotgan jamoani boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Shuningdek, rahbarlar tomonidan qabul

<sup>8</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 12 январьдаги “Коррупцияга қарши курашиш ишларининг самарадорлигини рейтинг баҳолаш тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-81-сон Қарори.

qilinayotgan yoki ijrosi ta'minlanayotgan qonunchilik xujjatlarini amalda qo'llashda korruption holatlar uchrab turibdi. Qonunchilik xujjatlaridagi korruption holatlarga yo'l qo'yilishi natijasida aholi orasida hukumatga nisbatan norozilik kayfiyatini uyg'onishiga sabab bo'lmoqda.

Shu o'rinda aytish joizki, birgina noto'g'ri qabul qilingan qaror ko'pgina insonlarning hayot yo'lini umuman boshqa tomonga burib yuborishi mumkin. Bunday sabablar shaxsning davlatga va o'z kelajagiga nisbatan ishonchisizligini keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham, turli sohalarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adliya vazirligi tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda qurilish, sog'liqni saqlash, oliy ta'lim va davlat xaridlari sohalarini tartibga soluvchi 226 ta qonunchilik hujjatlari korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilganligi va natijasiga ko'ra ushbu hujjatlarning 75 tasida 302 ta korrupsiyaviy omillar aniqlanganligi yuqoridagi fikrimizning yaqqol isboti hisoblanadi.<sup>9</sup>

Bugungi kunga qadar qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni yoki kelgusida amalda tatbiq etilishi mumkin bo'lgan xujjatlarning loyihibarini to'liq korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish, korrupsiyaviy omillar aniqlangan xujjatlardan voz kechish, bir-birini takrorlovchi xujjatlarni birlashtirish, byurokratik funksiyalarni umuman yo'q qilish, mamlakatda barcha xujjatlar aylanmasi tizimini qog'ozbozlikdan voz kechib, to'laqonli elektron tartibga o'tish zarurati tug'ilmoqda.

Fikrimizcha, elektron xujjatlar aylanmasi xavfsilagini ta'minlovchi va tartibga soluvchi kiberxavfsiz dasturni yo'lga qo'yish zarur. Xujjatlarni imzolashda, tasdiqlashdagi inson omilidan xoli tizimni yo'lga qo'ya olsak, korruption holatlarni oldini olishga qaratilgan yana bir qadam bo'ladi. Afzallik

---

<sup>9</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 22 октябрьдаги “Норматив-хуқуқий ҳужжатлар ва уларнинг лойиҳаларини коррупцияга қарши экспертизадан ўтказишни янада тақомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-5263-сон Қарори.

tomonlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, qog'oz uchun milliardlab sarflanadigan xarajatlar qisqaradi, navbat kutishlar yo'qoladi, poraxo'rlikka moyil bo'lgan shaxslarga turli ko'rinishdagi iltimoslar qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, elektron tartibdagi xujjatlarni tahlil qilish, ulardagi korrupsiyaviy omillarni aniqlash va o'z vaqtida bartaraf qilish oson bo'ladi hamda davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkorlik va shaffoflik yanada kuchliroq ta'minlanadi.

Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkorlik va shaffoflikni ta'minlash hamda mansabdar shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligini yo'lga qo'yish orqali davlat boshqaruvida samarali va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Ilk bor korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va tizimli tahlil qilish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish uchun mas'ul bo'lgan alohida organ — Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilganligini alohida e'tirof etish lozim.

Ushbu qonun loyihamalarini tayyorlashdan asosiy maqsad noqonuniy daromad yoki pora olish natijasida orttirilgan mol-mulkni aniqlash hisoblanadi. Lekin shuni inobatga olish joizki, har qanday noqonuniy ish qilayotgan shaxs o'zining kirdikorlarini yuqori darajada yashirishga, javobgarlikdan qochishga harakat qiladi, oshkor bo'lib qolishdan qo'rqib, barcha choralarini ko'radi va buning uchun qattiq harakat qiladi. Shunday ekan, bu kabi qonun xujjatlarini hayotga tatbiq qilish katta mas'uliyat va kuch talab qiladi. Bunda turli o'tib bo'lmas to'siqlar yuzaga kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 22 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida identifikatsiya ID-kartalarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6065-son Farmoniga asosan hozirda joriy etilgan ID-karta chipida ID-karta egasining biografik ma'lumotlari, millati, raqamli surati, qo'l barmoqlarining izlari va elektron raqamli imzo kalitining sertifikati ma'lumotlari joylashtirilmoqda.

Agarda aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatishda zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilib, turli axborot tizimlarida va masofaviy xizmat ko'rsatishda ushbu ID-kartalar chipiga karta

egasining daromadlari, mol-mulki, soliq yoki kredit qarzdorliklari va boshqa qarzdorliklari, kasbi yoki ma'lumoti, o'qish yoki ish joyi, nikohi, yaqin qarindoshlari, tadbirkorlik faoliyati, sudlanganligi, ma'muriy javobgarlikka tortilganligi, chet el fuqaroligiga ega ekanligi to'g'risidagi malumotlari qo'shilib, shaxsni identifikatsiyalashning yagona mexanizmi to'liq joriy etilsa, noqonuniy yo'llar orqali daromad qilish, shu jumladan poraxo'rlik jinoyatlarini sodir etilishi anchagina kamaygan bo'lar edi. Chunki, davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulki to'g'risida ma'lumotni yashirishni imkonni bo'lmasa, noqonuniy daromad qilmaslikka harakat qiladi. Nafaqat davlat xizmatchilari, har bir fuqaroga nisbatan ushbu ma'lumotlarni ID-kartalar chipiga joylashtirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki davlat xizmatchisi, noqonuniy daromadini davlat xizmatchisi bo'limgan tanishi yoki qarindoshini nomiga rasmiylashtirib yashirishi mumkin.

Bundan tashqari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlarda ishga qabul qilishni ochiq tanlov asosida amalga oshirish hamda tanlov doirasida o'tkaziladigan sinov tadbirlarini "Internet tarmog'i orqali real vaqt rejimida kuzatishni nazarda tutuvchi tartib"<sup>10</sup> joriy etilayotganligi bir qancha korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Yuqorida keltirilganidek, shaxs to'g'risidagi barcha ma'lumotlari yagona tizimda jamlanadigan bo'lsa, mavjud bo'sh ish o'rirlari haqida shaxsning kasbi yoki ma'lumotiga qarab ajratgan holda Internet tarmog'i orqali bir yo'la barcha nomzodlar aniqlanib, nomzodlarga xabar yuborilishi, tanlov o'tkazilib, inson omili aralashmagan holda ishga qabul qilinishi mumkin. Bu esa ishga kirish jarayonidagi poraxo'rlik va ta'magirlik holatlariga chek qo'yilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Demak, bu borada umumiyligini qilib aytganda, davlat xizmatida korrupsiya omillarini bartaraf etish, kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish va ular

---

<sup>10</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 6 июльдаги "Коррупцияга қарши курашиш фаолиятини самарали ташкил этишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" ги ПҚ-5177-сон Қарори.

faoliyati samaradorligini baholashning huquqiy asoslarini takomillashtirish lozim<sup>11</sup>.

Albatta, korrupsiyani oldini olishda jamiyatda adolatni ro‘yobga chiqarish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bunda har bir inson hayotidagi manfaatlarga ziyon yetgan muammoli holatlarda muhim qarorlarni chiqarishi mumkin bo‘lgan sud tizimini malakali va halol-pok kadrlar bilan to‘ldirish, sud organlarining faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, fuqarolar va tadbirkorlik sub’ektlarining sud hokimiyatiga bo‘lgan ishonchini yanada oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, sud hokimiyati tizimida korrupsiya holatlarini keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni chuqur o‘rganish va tahlil qilish, korrupsiyaga qarshi kurashishi va uning oldini olish tizimini samarali yo‘lga qo‘yish talab etilmoqda.<sup>12</sup>

Quyidagi taklif va tavsiyalarni amalda qo‘llash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- har bir rahbarni yoki rahbarlik lavozimiga tayinlanayotgan shaxslarni maxsus psixologik testdan o‘tkazish. Ushbu test orqali nomzodning poraxo‘rlikka moyillik darajasi tahlil qilinib, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mutaxassislari tomonidan tegishli tavsiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan xulosa ola bilgan nomzodgina, rahbarlik lavozimlarini egallashi mumkin bo‘lgan tizimni joriy etish;

- korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan shaxslar davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilinmasligi shart. Bundan tashqari, davlat fuqaroligi xizmatiga aynan qaysi lavozimlar kirishi to‘g‘risidagi ro‘yxatni o‘zida mujassamlashtirgan

---

<sup>11</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январьдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони.

<sup>12</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 7 декабрьдаги “Судьяларнинг чинакам мустақиллигини таъминлаш ҳамда суд тизимида коррупциянинг олдини олиш самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6127-сонли Фармони.

davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonun loyihasini tayyorlab, yurtimizda joriy qilish;

- qonun bilan davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy maqomi, huquq, majburiyatlari, ularni ishga olishda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik choralari ko‘rilganligi hamda lavozimga tayinlash tartibi, lavozimlarga tayinlashda shaffoflikka amal qilish kabilar mustahkamlanishi joiz;

- Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonunini qabul qilish bilan birga, unda davlat xizmatchisini rag‘batlantirish tartibini aniq ko‘rsatish, davlat xizmatchisiga o‘zining daromadi va mol-mulki to‘g‘risida deklaratsiya to‘ldirish majburiyatini yuklash, o‘zaro yaqin qarindoshlik yoki qudachilikda bo‘lgan shaxslar bevosita bo‘ysunuv va nazorati ostidagi davlat fuqarolik xizmatini egallashini, pedagogik, ilmiy va ijodiy faoliyatdan tashqari foyda oladigan, tadbirkorlik faoliyati bilan yoxud boshqa manfaatli faoliyat bilan shug‘ullanishni, o‘z mavqeidan foydalanib yoki o‘z xizmat vazifasini bajarish evaziga har qanday turdagи mukofot yoki sovg‘a olishni, chet el fuqaroligiga ega bo‘lishni va respublika hududidan tashqarida bank hisobvaraqlari ochish va boshqa mol-mulkka egalik qilishni qat’iyan taqiqlash zarur;

- mulkiy huquqlarni ishonchli daxlsizligini yanada mustahkamlash va xususiy mulkka egalik qilishda davlat organlari aralashuviga umuman yo‘l qo‘ymaslikni kafolatlashni kuchaytirish shart;

- shuningdek, shaxsiy ID-kartalar chipiga karta egasining daromadlari, faoliyat bilan shug‘ullangan davri, mehnatda rag‘batlantirilganligi yoki salbiy harakatlari uchun jazolanganligi, nomida bo‘lgan barcha mol-mulki, soliq yoki kredit qarzdorliklari va boshqa qarzdorliklari, unga nisbatan sudsarda ko‘rilgan ishlar natijalari, kasbi yoki ma’lumoti, o‘qish yoki ish joyi, nikohi, yaqin qarindoshlari, tadbirkorlik ishlari, sudlanganligi, ma’muriy javobgarlikka tortilganligi, intizomiy chora ko‘rilganligi, chet el fuqaroligiga ega ekanligi, tarjimai holi va shaxs to‘g‘risidagi boshqa malumotlar qo‘shilib, shaxsni identifikasiyalashning yagona mexanizmini to‘liq joriy etish va ID-karta xotirasida shaxsni tug‘ilganidan boshlab amalga oshirilgan jarayonlar jamlangan

“Shaxs tarixi” yoki “Fuqaro tarixi” dasturini amalda tatbiq etish zarur va davlat xizmatlari sohasida fuqaro haqida to‘liq ma’lumotlarni jamlab, ortiqcha sarsongarchiliklarsiz fuqaro to‘g‘risida yagona ma’lumotnomasi taqdim qila oladigan “Fuqaro tarixi” xizmatini joriy etgan holda amalga oshirish lozim. Shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlarni integratsiya qilib, hisobga olish tizimini yanada qulay qilish kerak;

- sud organlarining faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash va aholining korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida barcha sud jarayonlarini jonli ravishda doimiy efirga uzatuvchi yangi televizion kanal tashkil qilib, barcha ochiq sud jarayonlarini uzlusiz namoyish qilib borish lozim.

- jamiyatda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlarida korrupsiyaga qarshi mavzularni yanada kuchaytirilishi, imkon bo‘lsa, fan sifatida o‘tilishi, bu orqali yoshlar ongida korrupsiyaga nisbatan murosasizlik tuyg‘usini shakllantirilishi, mamlakatimizning kelajakdagi taraqqiyotiga keskin ijobiy burilish yasash zarur.

Zero, korrupsiyaning nafaqat oqibatlarini, balki sabablarini oldindan bartaraf etish bo‘yicha ta’sirchan amaliy choralarini ishlab chiqish va amalga oshirish kelajakda o‘z samarasini bermay qo‘ymaydi, bizdan keyingi avlodga halollik va adolatga asoslangan sog‘lom turmush-tarzini qoldirishimizga, yoshlar ongida yaxshi bilan yomonni, oq bilan qorani farqlay biladigan irodaviy kuchni hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi, sinov sifatida berilgan omonat umrni to‘g‘ri yashashlariga va natijada yaxshi kunlarni ko‘rishlariga muhim omil bo‘ladi.<sup>13</sup> Har bir inson o‘zidan iz qoldirishni xoxlaydi, bizdan keljak avlodga qoladigan yagona esdalik bu halollikka asoslangan yaxshiliklar bo‘lishi mumkin... Xalqimiz qanchalar ko‘p “halollik vaksinasi bilan emlansa”, o‘zini yomon illatlardan tozalab, yaxshi amallar bilan isloh qilsa, jamiyatimiz hayoti shunchalar tez taraqqiyotga erishadi, insonlar o‘zligini anglash sari odimlab boraveradi.

<sup>13</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январьдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони.

## **Nazorat uchun savollar:**

1. Yurtimizda korrupsiyaga qarshi qanday ishlar olib borilmoqda?
  2. Korrupsiyani vujudga keltiruvchi sabablar qaysilar?
  3. Yurtimizda korrupsiyaga qarshi qanday ishlar olib borilmoqda?
  4. Jinoiy moyillikni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar qaysilar?
- Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish o'z ichiga nimalarni oladi?

## **Testlar:**

1. „Korrupsiya, ... eng avvalo uyushgan jinoiy tuzilmalarga madadkor bo'lish yoki to'g'ridan-to'g'ri yordam berish uchun davlat xizmatining imkoniyatlaridan foydalilaniladi”, -deb kim ta'kidlab o'tgandi?

- A) A.Saidov
- B) I.A.Karimov
- V) O.Ayupov
- G) Sh.Mirziyoyev

2. Korrupsiya lotincha ...?

- A) “corruption” so'zidan olingan bo'lib “o'rnataman” degan ma'noni anglatadi
- B) “corruptio” so'zidan olingan bo'lib “buzish, sotib olish, pora evaziga og'dirish” degan ma'nolarni anglatadi
- V) “corrupxius” so'zidan olingan bo'lib “boshqaraman” degan ma'nolarni anglatadi
- G) To'g'ri javob berilmagan

3. “Korrupsiya=(vakolat+o'zboshimchalik)-(hisobdorlik+oshkoralik)” quyidagi korrupsiya haqidagi tasviriy formula kim tomonidan taqdim qilingan?

- |                    |             |
|--------------------|-------------|
| A) I.A.Karimov     | B) I.Ananев |
| V) Robert Klidgard | G) O.Ayupov |

4.Yurtboshimizning qaysi asarlarida korrupsiyaga ta'rif berilgan?

- A) “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida”
- B) “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch”
- V) “O'zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida”
- G) “Barkamol avlod orzusi ”

5.BMTning Rivojlanish Dasturi nazariy tahliliga ko'ra korrupsiyani vujudga kelishida qanday omillar muhim ro'l o'ynagan?

- A) Vakolat, hokimyat
- B) O'zboshimchalik va shaxsiy manfaat
- V) Hisobdorsizlik va oshkorasizlik, o'zboshimchalik va shaxsiy manfaat,vakolat va hokimyat
- G) To'g'ri javob berilmagan

6.Ilmiy adabiyotlarda korrupsiyani vujudga keltiruvchi umumiylab nechta?

- A) 4ta
- B) 7ta
- V) 8ta
- G) 10ta

7.Korrupsiyani vujudga keltiruvchi eng muhim omil qaysi?

- A) Normativ huquqiy bazani nuqsonlari
- B) Hokimiyat institatlari tizimining nuqsonlari mavjudligi
- V) Demokratik an'analar chuqur anglanmaganligi
- G) Hokimiyat Institutlari tizimining nuqsonlari mavjudligi

8.BMTning “Korrupsiyaga qarshi” konvensiyasi nechanchi yilda kuchga kirdi?

- A) 2001-yil mart oyida
- B) 2005-yil dekabr oyida
- V) 2004-yil iyul oyida
- G)2000-yil oktabr oyida

9. "Korrupsiyaga qarshi" xalqaro huquqiy hujjatga nechta davlat qo'shildi?

- A) 140 davlat  
B) 100 davlat  
V) 150 davlat  
G) 100dan ortiq bo'lmagan davlatlar

10. Osiyo va Tinch okeani hududidagi 21 davlat nechanchi yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tasviriy xarakterga ega bo'lgan faktni qabul qilganlar?



11. Jinoyatchilik determinatsiyasining maxsus jarayonlari asosan nimalar bilan bog'liq?

- A) asosan pul muomalasi bilan bog'liq
  - B) mansab yoki boshqa xizmatlar
  - C) pora yoki qo'shimcha haq undirilishi
  - D) jinoyatlarning sabablarini va uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar bilan bog'liq

12. Ijtimoiy nazorat qanday xususiyatga ega bo'lishi kerak?



13. Korrupsiya jinoyatlarining sabablari va uni vujudga keltiruvchi shartsharoitlarini ko'rib chiqishda nimalarni qayd etish zarur?

- A) mansab vazifa
  - B) ijtimoiy nazoratning holatini
  - C) pora yoki qo'shimcha haq undirilishini
  - D) A va B javoblar to'g'ri

14. Korrupsiya jinoyatlarini sodir etuvchi mansabdar shaxslarda nima uchun qonun va ahloq normalariga qarshi borish, kasb etikasini buzishga moyillik kuchli bo'ladi?

- A) moddiy foyda olish uchun                    B) obro' orttirish  
C) mansab va vazifa                              D) barcha javoblar to'g'ri

15. Korrupsiya mexanizmi qanday bitim?

- A) haq evaziga tuziladigan                    B) bir tomonlama tuziladigan  
C) 2 tomonlama tuziladigan                    D) ko'p tomonlama tuziladigan

16. Prezidentimiz qaysi asarlarida korrupsiyani islohotlar yo'lidagi to'siq va davlatimizning milliy xavfsizligiga jiddiy tahdid sifatida baholaydilar?

- A) "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari"  
B) "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch"  
C) "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliv saodatdir"  
D) "O'zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida"

17) Korrupsiyaga qarshi kurash O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan qanday islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi?

- A) ma'muriy buyruqbozlik                    B) huquqiy  
C) ma'muriy-huquqiy                            D) jinoiy

18) Korrupsiyaga qarshi kurashni jahon talablari asosida shakllantirish maqsadida qachon mamlakatimiz BMTning "Korrupsiyaga qarshi" konvensiyasini ratifikatsiya qildi?

- A) 2008-yil 7-iyunda                            B) 2008-yil 7-iyulda  
C) 2009-yil 7-iyulda                            D) 2009-yil 7-iyunda

19) BMT ning “Korrupsiyaga qarshi” konvensiyasiga Republi-kamizning qo’shilish to’g’risidagi qonunga ko’ra qaysi organlar korrupsiyani oldini olish bo’yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish va ualrni amalga oshirishda boshqa ishtirokchi-davlatlarga yordam ko’rsatishi mumkin bo’lgan organlar sifatida belgilandi?

- A) O’zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar Vazirligi
- B) Milliy xavfsizlik xizmati
- C) Adliya vazirligi
- D) To’g’ri javob yo’q

20) Hozirgi kunda qaysi organlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida turli tadbirlar o’tkazilmoqda?

- A) Adliya organlari tomonidan
- B) Adliya organlari tomonidan boshqa organ va tashkilotlar bilan hamkorlikda
- C) Tashkilotlar tomonidan
- D) Ichki ishlar vazirligi

## Glossary

**Abonement** – iqtisodiy jinoyatlarni sodir etish uchun uzoq muddatda jinoiy «biznes»ni (oldindan belgilangan tashkilot (firma) tashkil etish, ularga xizmat ko‘r satadigan hududda va cheklangan vaqt ichida xavfsiz tarzda yuritilishini ta’minalash uchun huquqni muhofaza qilish organlari xodimlariga beriladigan “haq” miqdori.

**Avtobus** – saylovchilarни turli darajadagi saylov yoki referendumlarda o‘z foydasiga erta ovoz berish uchun pora berishning noqonuniy shakllaridan biri (siyosiy texnologiyalar). Uning mazmuni oddiy: saylovchilar odatdagi tarzda (odatda avtobusda) «kerak» nomzod uchun vaqtidan oldin ovoz berish uchun saylov uchastkasiga olib boriladi. Ovoz berishdan oldin yoki darhol bu kabi saylovchilarga «gumanitar yordam» beriladi, ba’zan biroz

pul yordami beriladi.Ushbu holatlar ichki siyosiy kriminologiya, siyosatshunoslik va siyosiy sotsiologiyada «saylov texnikasi», saylov ishtirokchilarining korrupsiya si va korrupsiyasining siyosiy shakllaridan biri sifatida e’tirof e’tiladi.

**Aholini korrupsiyalashish darajasi** – ma’lum bir aholi soniga to‘g‘ri keladigan (odatda 100 ming kishi) korrupsiya holatlari, (korrupsiyalashish koeffitsienti), fuqarolarning korruption faolligi (korrupsiya faolligi indeksi) va uning davriyligi kabi ko‘rsatkichlarda ifodalanadigan aholini korrupsiyaga oid huqubuzarlikka moyillik miqdori.

**Axborot tizimi poraxo‘rliги** – ommaviy axborot vositalari tizimi xodimlari tomonidan kelishilgan ma’lum bir “haq” yoki “to‘lov” evaziga haqiqiy holatga zid axborotlarni tarqatishi, yani buyurtma asosida “oq” yoki “qora” piarni ta’minalashlari.

**Briliant yoqalilar-** davlat boshqaruvi, siyosiy va iqtisodiyotning yuqori eshelondagi mansabdor shaxsning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq korrupsiyani, davlat boshqaruvi, iqtisodiy va siyosiy sohadagi jinoyatlarni ortiqcha shov-shuvsiz sodir etishi.

**Biznesdagi korrupsiya** – xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, tijorat tashkilotlarida sodir etiladigan korrupsiyaga oid xattiharakatlar.

**Byudjet mablag‘larini maqsadsiz sarflash** – jinoyat qonunchiligidagi jazo belgilangan jinoyat bo‘lib, uning ob’ektiv tomoni byudjet mablag‘larini qabul qiluvchining mansabdor shaxsi byudjet mablag‘larini oluvchilar tomonidan tasdiqlangan byudjet, byudjetni rasmiylashtirish, byudjet mablag‘larini taqsimlash, ularni taqsimlash to‘g‘risidagi xabarnoma, daromadlar va xarajatlar smetasi yoki byudjet mablag‘larini olish uchun asos bo‘lgan boshqa hujjat bilan belgilangan maqsadlarga muvofiq bo‘lmagan maqsadlar uchun ko‘p miqdorda sarflashdir.

**Byurokratik proteksionizm** – jamoat idoralari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarida uyushgan yoki bir guruhning g‘arazli manfaatlarini amalga oshirish uchun shakllangan mansabdor shaxslarning norasmiy tuzilmasi (“o‘z jamoasi”).

**Vakolatni suiiste'mol qilib olingan foyda (afzallik)**- mansab vakolatidan foydalanib olingan mulk, xizmat yoki imtiyoz shaklida, shuningdek, mulkiy va mulkiy bo'lmagan boshqa har qanday foyda (afzallik).

**Vertikal korrupsiya** – bu atama ikki ma'noda ishlataladi. Birinchi holatda, xodim yuridik va jismoniy shaxslardan olingan noqonuniy mukofotning bir qismini yuqori darajadagi mansabdor shaxslarga o'z xavfsizligini ta'minlash va korrupsiya faoliyatini davom ettirish uchun berib borishdir. Ikkinci holatda, davlat organida korrupsiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchi har ikki tomon ham bir sohaga mansub bo'lib, quyi davlat organining mansabdor shaxsi porani o'z boshlig'iiga berib boradi, boshliq esa quyi organ rahbarini korrupsiya faoliyatini himoyalaydi yoki unga qo'shimcha moliyaviy, moddiy va boshqa resurslar, vakolat va boshqa imkoniyatlar berilishini ta'minlaydi. Bu korrupsiyaning eng xavfli turi bo'lib, ushbu turdag'i korrupsiya, odatda, yuqori va quyi korrupsiya o'rtaida ko'priq vazifasini bajaradi. Natijada korrupsiyaning uyushgan shakllari va korrupsiya tarmoqlarni shakllanishiga sabab bo'ladi.

**Victimologiya** – (lotincha "victima" jabrdiyda, "logos" – fan ma'nosini anglatadi) shaxsning victimologik xususiyatlari (jinoyatchilikga qarshi kurashishga qodir bo'lmaganligi, kamsuqumligi, soddaligi, o'ta ishonuvchanligi kabilar) sababli jinoyat qurbaniga aylanishini o'rganadigan fan yo'nalishi.

**Victimologik korrupsiya jinoyatlari profilaktikasi** – victimologik holatlar bilan bog'liq korrupsiya jinoyatlari va hamda ushbu toifadagi korrupsiya jinoyatlari qurbanlarini himoya qilish hamda uni keltirib chiqaruvchi omillarni oldini olish, bartaraf etishga yo'naltirilgan tadbirilar.

**Gorizontal korrupsiya** – turli idoralaningr bir xil darajadagi rasmiy bir-birlari bilan o'zaro va xizmat bo'yicha bog'liq bo'lmagan mansabdor shaxslari o'rtaсидаги korrupsiyaviy munosabatlar.

**Davlat xizmati** – davlat organi vakolatlari bajarilishini ta'minlash uchun rasmiy mansabdor shaxs tomonidan amalga oshiriladigan professional xizmat faoliyati.

**Davlat tizimidagi korrupsiya** – davlat funksiyalarini bajarishga vakolatli shaxslar (hukumat vakillari)ning o‘z vakolatlaridan pora evaziga g’arazli maqsadlarda foydalanishga oid jinoiy faoliyati.

**Davlat-tijorat korrupsiyasi** – davlat muassasalari imkoniyatlarini qo‘llagan holda zo‘ravonlik bilan boshqa shaxslar mulkini egallab olish.

**Davlat lavozimiga saylanganadigan nomzodni pora evaziga og‘dirish** – huquqiy maqomiga zid bo‘lgan xattiharakatlarni amalga oshirish, yani o‘z nomzod voz kechish uchun tanlangan nomzodni mulkiy manfaatdor qilish yoki unga shu to‘g’risida va’da berish. Masalan, saylov jarayonidan o‘z nomzodini qaytarib olish yoki saylovoldi tashviqoti faoliyatini susaytirish.

**Davlat lavozimini sotib olish** – sub’ekt tomonidan ma'lum bir davlat lavozimini boshqa mansabdor shaxsga pul, molmulk yoki mulkiy manfaatlarni va’da qilish yoki berish yo‘li bilan egallashi.

**Jerrimendenrin** (inglizcha – “Gerrymandering”, saylov maxinatsiyasi ma’nosini anglatadi) saylov kampaniyasi ishtirokchilari tomonidan saylovchilarni shaxsiy yoki guruh manfaatlariga yo‘naltirish maqsadida amalga oshiriladigan noqonuniy harakatlarning bir turi, ya’ni saylov korrupsiyasi.

**Jinoyat determinantlari** – (lotincha “determinare” “aniqlash” ma’nosini anglatadi) ijtimoiy holatlar majmuasi bo‘lib ularning birgalikdagi harakati jinoyatlar keltirib chiqaradi.

**Inkassator** – yuridik yoki jismoniy shaxs manfaati uchun noqonuniy jazo tayinlash yoki qaror qabul qilishga kelishilgan miqdordagi pulni (porani) sudyaga etkazib beruvchi advokat.

**Iste’fo** – alohida mansabdor shaxsning lavozimidan voz kechishi yoki kollegial organning vakolatini ixtiyoriy yoki majburiy ravishda to‘xtatish.

**«Imtiyozli» jinoyatchilik** – amerikalik kriminologlar Neil Schover (Neal Shover) va Endryu Hochstetler (Andrew L. Hochstetler) fikriga ko‘ra, boshqa holatlarda hurmatga loyiq va juda qonuniy bo‘lgan professional yoki moliyaviy faoliyat jarayonida shaxs yoki shunday bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan noqonuniy xatti – harakatlar to’plamidir.

**Korrupsiyachi** – (korrumpator) – alohida “nozik qobiliyat”ga ega bo‘lgan davlat xodimlari va boshqa shaxslarga noqonuniy mablag‘ yoki mulk (huquq) beruvchi shaxs.

**Korrupsiyalashish** – mamlakatdagi davlat xizmatchilari, deputatlar, jamoat tashkilotlari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining ikki tomonlama kelishuv asosida ayrim jismoniy, yuridik shaxslar, jinoiy guruhlar, jamoalar manfaatlari uchun noqonuniy faoliyat bilan shug‘ullanishini shakllantirish bilan bog‘liq axloqiy va huquqiy buzilish jarayoni.

**Korrupsioner** – davlat yoki jamoat xodimi, savdo yoki boshqa tashkilotda boshqaruv funktsiyalarini amalga oshiruvchi shaxsning shaxsiy, tor guruh yoki korporativ maqsadlarga erishish uchun ma’lum bir haq evaziga vakolatlari, xizmatlari, aloqalari yoki lavozimidan foydalanadigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

**Korruptolog** – korrupsiya munosabatlarini o‘rganish asosida korruksianing kelib chiqish sabablari, korrupsiyani keltirib chiqarayotgan omillar, ishtirokchilar shaxsiyatining o‘ziga xos xususiyatlari, jismoniy va / yoki yuridik shaxslarning xarakterlari, xususiyatlarini tadqiq etish, jinoyatlarni hisobga olish, tasniflashni turli xil usullar bilan ilmiy jihatdan o‘rganib, korrupsiyaga qarshi kurash choralarini tavsiya etish bilan shug‘llanuvchi mutaxassis.

**Korruptologiya** – korrupsiya, uyushgan jinoyatchilik va jinoyatchilikkha qarshi kurashish siyosatini takomillashtirish masalalari bilan shug‘ullanadigan huquqiy fan yoki uning o‘quv yo‘nalishi.

**Korrupsiya omillari** – jamiyatdagi korruption xattiharakatlarning paydobo‘lishi, saqlanishi, o‘zgarishi va tarqalishiga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy hodisalar va jarayonlar.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

### **Rahbariy adabiyotlar:**

16. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishslash davr talabidir. -T.: O’zbekiston, 1997. 250 bet.

17. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997. 95, 298 bet.
18. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard
4. Mirziyoev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.-488 b.
5. Mirziyoev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. - T.: "O'zbekiston", 2017. - 592 b.
6. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: O'zbekiston, 2017. - 512 b.
7. Mirziyoev Sh. M. "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" 3-jild. - T.: "O'zbekiston", 2019. - 400 b.
8. Mirziyoev Sh. M. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari". 4-jild. - T.: "O'zbekiston", 2020. - 452 b.
9. Mirziyoev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - T.: O'zbekiston, 2021. - 464 b.

### **Normativ-huquqiy hujjatlar:**

51. Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida qonun. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-son
52. Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida qonun. *O'zbekiston Respublikasining O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son*
53. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 07.02.2017 йилдаги ПФ-4947-сон
54. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
55. Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurash Konvensiyasi. Korrupsiyaga qarshi kurash muammolari: milliy va xalqaro tajriba. Xalqaro ilmiy-amaliy seminar materiallari. –T.: CHASHMA PRINT, 2010. B. 299.

56. Korrupsiyaga qarshi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasi (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) // O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari to'plami, 2008 yil, 3-4-son, 19-20-modda.
57. BMTning Xalqaro savdo operatsiyalarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash to'g'risidagi Deklaratsiyasi. Сборник международных договоров и законодательства Республики Узбекистан в сфере борьбы с коррупцией. –Т.: Центр повышения квалификации юристов, 2013. С.139.
58. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi "Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 yil, 20-son, 221-modda.
59. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi qonuni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 yil, 20-son, 222-modda.
60. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 3 dekabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 yil, 49-son, 578-modda.

### **Darsliklar, o'quv qo'llanmalar va qo'shimcha adabiyotlar:**

66. Abu Nasir Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Т.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993.
67. Зуфаров Р.А. Тенденция гуманизации уголовного законо-дательства Республики Узбекистан. O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini liberallashtirishning asosiy yo'nalishlari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2007 yil 12 dekabr). –Т.: O'zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 2007. –S. 22-29.
68. Abdurasulova Q., Qurbonov O. Korrupsiya: asosiy tushuncha va shakllari (risola). – Т.: Falsafa va huquq instituti, 2009.

69. Зуфаров Р.А. Международно-правовые проблемы борьбы с коррупцией. //O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslari Axborotnomasi. 2010. №1, -C.29-332. 25. Проблемы борьбы с коррупцией: национальный и международный опыт. Материалы международного научно-практического семинара 20-21 октября 2009 года. –Т.: ЧАШМА ПРИНТ, 2010.
70. Temur tuzuklari. –Т.: O'zbekiston, 2011
71. Zokirov I.B. boshqalar. Fuqarolik huquqi (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Maxsus qism. – Т.: ILM ZIYO, 2011.
72. Axrorov B.J. Rustamboev M.H. Jinoyat huquqi (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Maxsus qism. – Т.: ILM ZIYO, 2012 y.
73. Xojiyev E.T. Ma'muriy huquq (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – Т.: ILM ZIYO. 2012 y.
74. Matkarimova G. Yuldasheva G. Hozigi zamon xalqaro huquqi (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – Т.: O'qituvchi, 2012.
75. Karimova O. Huquqshunoslik. (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Qayta ishlangan va to'ldirilgan nashr.– Т.: SHarq, 2014.
76. Zufarov R.A. Poraxo'rlik uchun jinoiy javobgarlik. – Т.: TDYuI, 2004. – B. 83-84.
77. S.SHomirzaev. Korrupsiya: xorijiy mamlakatlar davlat va huquq tarixida unga qarshi kurashish masalalari// Huquq va burch. 2014. 7-son. 5.62-64.
78. Meliyev X. Milliy qonunchilik – korrupsiyaga qarshi// Huquq va burch. 2015. 4-son. 5.12-14.

## **Internet manbalari:**

<b>1. <a href="http://www.press-service.uz">www.press-service.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati
<b>2. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Hukumati portalı
<b>3. <a href="http://www.senat.uz">www.senat.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati
<b>4.<a href="http://www.parliament.gov.uz">www.parliament.gov.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi
<b>5. <a href="http://www.supcourt.uz">www.supcourt.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi
<b>6. <a href="http://www.genprok.gov.uz">www.genprok.gov.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
<b>7. <a href="http://www.minjust.uz">www.minjust.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
<b>8. <a href="http://www.mvd.uz">www.mvd.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
<b>9. <a href="http://www.customs.uz">www.customs.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi
<b>10.<a href="http://www.ombudsman.gov.uz">www.ombudsman.gov.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)
<b>11. <a href="http://www.ssrc.uz">www.ssrc.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Sud qonunchiliginin demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazi
<b>12. <a href="http://www.tsul.uz">www.tsul.uz</a></b>	Toshkent davlat yuridik universiteti
<b>13. <a href="http://www.vuk.uz">www.vuk.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslari
<b>14. <a href="http://www.uzmarkaz.uz">www.uzmarkaz.uz</a></b>	Yuristlar malakasini oshirish markazi
<b>15. <a href="http://www.huquqburch.uz">www.huquqburch.uz</a></b>	"Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali
<b>16. <a href="http://www.insonvaqonun.uz">www.insonvaqonun.uz</a></b>	"Inson va qonun" huquqiy gazetasi
<b>17. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a></b>	O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
<b>18. <a href="http://www.metod.uz">www.metod.uz</a></b>	O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini Axborot-metodik ta'minlash xizmati

<b>19. <a href="http://www.natlib.uz">www.natlib.uz</a></b>	A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
<b>20. <a href="http://www.manaviyat.uz">www.manaviyat.uz</a></b>	Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi
<b>21. <a href="http://www.mgm.uz">www.mgm.uz</a></b>	Miliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi
<b>22. <a href="http://www.ziyo-net.uz">www.ziyo-net.uz</a></b>	Axborot ta'lim tarmog'i

# MUNDARIJA

1-Mavzu: Korrupsiya tushunchasi va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining rivojlanishi.....	7
2-mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro huquqiy asoslar va BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining mazmun va mohiyati.....	34
3-Mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid milliy qonunchilik tahlili va davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari.....	53
4-Mavzu: Davlat va xususiy sektorda korrupsiya xavf-xatarlarni oldini olishda komplayens-nazorat (compliance control) tizimining o‘rni va ahamiyati.	80
5-Mavzu: Korrupsiyaviy jinoyatlarning yuzaga kelish omillari va javobgarlik masalalari.....	114
6-Mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi (institutsional tizim misolida).-----	156
7-Mavzu. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlik. Korrupsiyani idrok etish indeksining mazmuni va ahamiyati. -----	191
8-Mavzu: Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish. -----	214
Nazorat savollari va testlar -----	235
Glossary-----	239
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati-----	243